

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH  
MARKAZI ANDIJON FILIALI**

**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmatsevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi Andijon  
filiali direktor o‘rinbosari

D. Gapparova



**“STERILIZATSIYA VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI”**

**MALAKA OSHIRISH GURUHI TINGLOVCHILARI UCHUN**

**MA‘RUZA MATNLAR TO‘PLAMI**

Uslubiy kengashda ko‘rib chiqildi  
va ma‘qullandi

“ 6 ” yanvar

<p><b>2.1 blok</b></p> <p><b>O'quv moduliga ajratilgan kredit jami 4 .</b></p>	<p><b>Aseptika va antiseptika to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati.</b></p> <p><b>Aseptikaning va antiseptikaning turlari.</b></p>
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.**

<p><b>Vaqt: 160 daqiqa</b></p>	<p><b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b></p>
<p><b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b></p>	<p>Nazariy mashg'ulot</p>
<p><b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b></p>	<p>1.Aseptika va antiseptika xaqida tushuncha va uning turlari.  2.Zamonaviy antiseptik moddalar.  3.Dezinfeksiya tushunchasi va usullari.  4 Dezinfeksiya vositalarining ishchi eritmalarini tayyorlash qoidalari</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

Ish bosqichlari va vaqt	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1 bosqich</b> <b>O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi, yangiliklar eshitaladi va aytiladi. 1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib O'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b> <b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b> <b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b> <b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi 3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Insert jadvali" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar. <b>Insert jadvali</b> sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>

<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa <b>“Aseptika va antiseptika to‘g‘risida tushuncha, uning ahamiyati. Aseptikaning va antiseptikaning turlari.”</b></p> <p>O‘qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug‘risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM. 2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. -2012y</p>	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>
---	---	---

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Aseptika va antiseptika to‘g‘risida tushuncha, uning ahamiyati. Aseptikaning va antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. zararsizlantirish jarayoni, dezinfeksiyalash tushunchasi zamonaviy dezinfeksiyalash vositalarini ishlatish qoidalari. Dezinfeksilovchi eritmalarini tayyorlash tartibi. Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari.</p>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Zararsizlantirishning zamonaviy usullari.Zararsizlantirish bo‘limida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. DPM bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olishdagi, zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug‘li va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishdagi me‘yoriy xujjatlarni yuritishni bilish. Zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug‘li va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishda me‘yoriy xujjatlarni yuritishni bilish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi</p>
--	---

	ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari: bosim, haroratni nazorat qilish. Avtoklavning ish jarayoniga bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar. Avtoklavni ish jarayonida sinamalarni (indikator)nazorat qilishni.
O'qitish metodlari	"Baxs-munozara", "insert jadvali", "Issik kartoshka" usuli "Kichik guruxlarda ishlash"
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan ukuv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Ogzaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

**Mavzu: Aseptika va antiseptika to'g'risida tushuncha, uning ahamiyati.**

**Dars rejasi:**

1. Aseptika va antiseptika xaqida tushuncha va uning turlari.
2. Zamonaviy antiseptik moddalar.
3. Dezinfeksiya tushunchasi va usullari.
4. Dezinfeksiya vositalarining ishchi eritmalarini tayyorlash qoidalari

**Aseptika**-jaroxatga patogen mikroorganizmlarni tushishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar.

**Antiseptika** - deb jaroxatdagi, patalogik tuzilmadagi yoki umuman organizmdagi patogen mikroorganizmlarni yukotish yoki mikdorini kamaytirishga karatilgan chora-tadbirlar yigindisiga aytiladi. XIX asrning yarmiga kadar operatsiya kilingan bemorlarning 80% -90% dan ortigi operatsion jaroxatning yiringli, chirituvchi va gangrenoz asoratlaridan xalok bular edi, usha davrda bu asoratlarning sababi noma'lum bulgan. Lui Paster tomonidan chirish va bijgish xodisalariga mikroorganizmlar sababchi ekanligi kashf kilingach mikrobiologiya va xirurgiya jadal rivojlandi. Venger vrachi I.F.Zemmelveys 1847 yilda tugruktan keyingi

sepsisning sababi bulib tukkan ayolni kul bilan bachadon ichi tekshirishi vaqtda vrachning «murda zaxrini» kiritilishi xisoblanadi deb takidlangan edi. U akusherlar kulini xlorli oxak eritmasi bilan yuvishini taklif kildi va asoratlari sonini birmuncha kamaytirildi. Ingliz xirurgi Djordj Lister operatsiyadan keyingi bemorlar ulimining sabablarini urganar ekan, bu asoratlarga operatsion jaroxatga tushgan bakteriyalar sababchi degan xulosaga keladi va antiseptika usulini tashkil kiladigan chora-tadbirlar tuzilishini ishlab chikadi (1867y):

1. Operatsiya xonasining xavosini maxsus apparat yordamida kربول kislota eritmasini purkash.

2. Xirurgik instrumentlar, chok va boglov materiali, shuningdek xirurg kuli 2-3% li kربول kislota eritmasi bilan yukumsizlantirish.

3. Operatsion maydonni 2-3% li kربول kislota eritmasi bilan ishlov berish.


4. Operatsiyadan so'ng operatsion jaroxatni 5% li kربول kislota shimdirilgan maxsus boglama bilan yopish. Lister usulining amaliyotga tatbik etilishi bilan xirurgiya rivojlanishining antiseptik davri nomi bilan ataluvchi yangi bosqichga utdi. Birok Lister antiseptik usulining ijobiy tomonlari bilan bir katorda salbiy tomonlari xam kuzatildi, chunonchi operatsiya xonasi xavosidagi kربول kislota buglaridan nafas olish tibbiy personal va bemorning zaxarlanishiga, xirurg kulini 2-3% li kربول kislota eritmasi bilan kayta ishlash terini kuchli ta'sirlantirishi, operatsion jaroxatga kuyilgan kربول kislota eritmasi shimdirilgan boglama mikroblarni uldirishi bilan bir katorda tukimalarning keng nekroziga xam sababchi buldi. Mikrobiologiyaning keyingi rivojlanishi natijasida mikroorganizmlarni yukori xarorat ta'sirida xam uldirish mumkinligini isbotladi. Xirurglar Subbotin M.S. va E.Bergman xirurgik instrumenlar, operatsion okliklar, boglov va chok materiallardagi mikroblarni kaynok suv va bug bilan yukotish mumkinligini isbotlab berdilar. E.Bergman va uning shogirdi Shimmelbush xirurgiyada aseptik usulni ishlab chikishdi. 1980 yilda Berlinda utkazilgan xirurglar X xalkaro kongressida E.Bergman dokladidan sung aseptika tulik tan olindi. Dastlabki yillarda aseptikani amaliy xirurgiyada antiseptik vositalarsiz fakat uzini kullash uning kamchilik tomonlarini xam ochib berdi. Antiseptik vositalardan vos kechish uzini oklamadi. Ximiyaning rivojlanishi bilan kam zaxarli antiseptik vositalar yaratildi, bu esa aseptikani turli antiseptik vositalar bilan birga kullashga olib keldi. Antiseptikaning quyidagi usullari mavjud:

1. Mexanik antiseptika;

2. Fizik antiseptika;

3. Ximiyaviy antiseptika;

4. Biologik antiseptika.



### ***Механик антисептика.***

Жароҳатда бактериялар ривожланшининг олдини олишда механик усуллар: микроблар учун озикли муҳит бўлиши мумкин бўлган nekrozlangan tukimalarni, yot jismlarni жароҳатдан олиб ташлашнинг ахамияти катта. Бунинг учун жароҳатга бирламчи актив хирургик ишлов берилди ва бирламчи хирургик чок куйилди: жароҳат кирралари ва деворлари tubigi kadar soglom tukima chegarasida kesib olinadi va tukima butunligi chok kuyilib tiklanadi.

Физик антисептика. Жароҳатда бактериялар ривожланшига нокўлай шароитлар тўғдириш, ularning toksinlari va tukimalar parchalanish maxsulotlari surilishni kamaytirishga karatilgan fizikaviy omillarni kullash fizik antisepitkani tashkil

kiladi. Fizik antiseptikaning asosiy vazifasijaroxat ajralmasining boglamaga chikishi va surilishi gigroskopiklik xodisaga

### ***Kimyoviy antiseptika.***

Bakteriotsid yoki bakteriostatik ta'sirga ega bulgan turli ximiyaviy moddalarni kullash ximiyaviy antiseptikani tashkil kiladi. Ximiyaviy antiseptikalarning umumiy va maxalliy ta'siri mikroorganizm va uning tukima xujayralari uchun yetarlicha xavfsiz va mikroblar uchun uldiruvchi bulishi kerak. Antiseptikalar mikroblarga oksidlovchi, odsorbsiyalovchi, oksillarni denaturatsiyalovchi, degidrotatsiyalovchi va boshka ta'sirlarga ega. Xozirgi vaktida kup sonli antiseptiklar kullaniladi. Kuyida keltirilgan gruppalardagi moddalar xammadan kup ma'lum.

### ***Biologik antiseptika.***

Bakteriotsid yoki bakteriostatik ta'sirga ega bulgan turli biologik moddalarni kullash biologik antiseptikani tashkil kiladi. Biologik antiseptikalarning umumiy va maxalliy ta'siri mikroorganizm va uning tukima xujayralari uchun yetarlicha xavfsiz va mikroblar uchun uldiruvchi bulishi kerak

*Antiseptiklarni qo'llash usullari:*

- Enteral qo'llash-antiseptik moddalar me'da - ichak tizimi orqali yuboriladi.
- Tashqi (yuzaki) qo'llash - antiseptik moddalar jaroxatlarga kukun, mazli va eritmali shaklda qo'llaniladi.
- Bo'shliqlarga yuborish- antiseptik moddalar bug'im, qorin yoki plevra bushlig'iga yuborish orqali.
- Parenteral qo'llash-vena yoki arteriyaga yuborish yo'li bilan.
- Endoskopik qo'llash - o'pka absessi bo'shlig'iga bronxoskop orqali, qizil o'ngach, me'da va o'n ikki barmoq ichakga fibrogastroskop orqali.

Endolimfatik qo'llash - peritonit yoki yiringli jarayonlarda antiseptik moddalar (antibiotik, ferment) limfatik tugun yoki tomirlarga yuborish orqali. Aseptika. Jaroxatga mikroorganizmlar yoki ular sporalarining tushushini oldini olishga karatilgan muolajalar yigindisi aseptika deyiladi. Aseptikaning asosini jaroxatga alokasi bulgan asbob uskunalarni, tikish materiallarini, okliklarni sterillash tashkil kiladi. Ushbu konunlarni amaliyotga tadbik kilish uchun mikroorganizmlarning asosiy manbaini bilishimiz kerak. Xayotda endogen - ya'ni organizmning uzida, xamda ekzogen - organizmdan tashkarida buladigan mikroorganizmlar uchraydi.

Endogen infeksiyalar tana terisida, shillik pardalarda, oshkozon ichak yulida va yukori nafas yullarida uchraydi. Ular jaroxatga tugridan - tugri yoki kon xamda limfa suyukligi orkali tushadi.

Ekzogen infeksiyalar esa xavo, xavo tomchi /gapirganda, aksirganda/, kontakt /notoza asboblarni tegib ketishi/ yuli va jaroxatda abadiy yoki vaqtnchalik koldirilgan tikuv material, drenajlar orkali /implantatsion-kuchib utgan/ yukishi mumkin. Bulardan tashkari «mudrok» infeksiya xam tafovut kilinadi, ya'ni xamisha organizmda uchraydigan, ammo kasallik chakirmagan mikroorganizm ma'lum vakt utgach kishi organizmi immuniteti pasaysa kasallik chakirish kobiliyatiga ega bulib koladi. Misol uchun operatsiya muvaffakiyatli tugab bemor kasalxonadan chikib ketadi, 5-6 oy utgach, operatsiyadan keyingi chandik yiringlashi yoki okma yara paydo bulishi mumkin. Kontakt /tegib ketish/ yuli bilan

yukadigan mikroorganizmlarni yukotishning birdan-bir usuli, jaroxatga tegishi mumkin bulgan barcha narsalarni sterillashdir. Buning uchun operatsion okliklar, boglov va tikuv materiallari, kulkoplar, asboblar, xirurg kullari va operatsion maydon sterillanishi kerak. Tikish uchun ishlatiladigan kapron, ipak, ketgut va boshkalarni sterillash xam kontakt xam implantatsion infeksiyalarni oldini olishda axamiyatlidir.

*Dezinfeksiya* –patogen va nopatogen mikroorganizmlarni yo‘q qilish.

Davolash-profilaktika muassalarida ishlatilayotgan (ishlatilishi rejalashtirilayotgan), O‘zbekiston Respublikasida ro‘yhatdan o‘tgan, muvofiqlik sertifikatini va qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga ega har bir dezinfeksiyalovchi vositaga bo‘lgan ehtiyoj hisob-kitobi olib boriladi.

Dezinfeksiyalovchi vositani tanlayotganda quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lganlariga yon bosish kerak:

- mikrobg qarshi ta’siri spektri kengligi (bakteritsid, virulitsid, fungitsid xossalar va boshqalar);
- zaharlovchi ta’siri pastligi (xavfi to‘rtinchi yoki uchinchisinf);
- qo‘shaloq ta’sir ko‘rsatuvchanligi (yuvuvchi + dezinfeksiyalovchi va shu kabi);
- har bir dezinfeksiyalovchi vosita turining qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasiga va zararlantirish ob’ektlari ifloslanish darajasiga muvofiq ishchi eritmani ishlatish muddati uzoqligi (ko‘p marotabaligi);
- preparat ta’siri samaradoligi (shu jumladan, gospital shtammiga);
- mikroorganizmlar rezistent turlari shakllanishi sustligi (yo‘qligi, iloji bo‘lsa);
- tibbiy maqsadga mo‘ljallangan buyumlar ishlab chiqarilgan materiallarga nisbatan agressivligi pastligi;
- saqlash va transportirovkada barqarorligi

*Tarkibida xlor saqlovchi dezinfeksiya vositalarining asosiy ishchi eritmalarini tayyorlash qoidalari*

Ishchi dezinfeksiyalovchi eritmalarini sifatli tayyorlash uchun preparatda tarkibida faol xlor saqlanishini inobatga olgan holda 5 foizli tindirilgan dezinfeksiyalovchi boshlang‘ich eritmasini markazlashtirilgan ravishda tayyorlash zarur. Iste’mol miqdori hisob-kitobi quyidagi formulaga ko‘ra amalga oshiriladi:

*Gramm/litr Eritma faolligi % x 1000 konsentrat .*

Kundalik tozalash va dezinfeksiya qilish uchun 5% eritmadan 1 qism olinib, 9 qism suv qo‘shiladi va 0,5 foizli olingan eritma kundalik dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi. Quruq kukundan xlorli eritma tayyorlash uchun tarkibida xlor saqlovchi dez.vositaning quyuqligini (konsentratsiyasini) tekshirish kerak.

Oqartirgichning talab etiladigan miqdorini 1 litr suv bilan aralashtiriladi.

Misol: eritilgan tarkibida xlor saqlovchi eritmani tayyorlash (35%) xlor faolligiga ega 0,5 foizi quyuqlashgan kukundan) 1-qadam: Gramm/litr hisoblab chiqing  $[0,5/35] \times 1000 \sim 14,2 \text{ g/l}$  2-qadam: 1 litr suvga 14 gramm qo‘shiladi.

Dezinfeksiya qilishda faqat tindirilgan eritmalarini qo‘llaniladi. Sa gipoxloritining tindirilgan eritmalarini tayyorlash uchun xlor ohagi 2 ta idish olinib, preparat 1-idishda tindirilganidan so‘ng eritma 2-idishga ehtiyotlab quyiladi, qolgan qorishmasi santexnika asbob-uskunalarini tozalashda ishlatilishi mumkin.

Tarkibida xlor saqlovchi dezinfektantlardagi faol xlor konsentratsiyasini aniqlash uchun “Xlor-Test” va unga o‘xshash tashhislash tizimi ishlatilishi mumkin. “Xlor-

Test” suv (anolit, natriy gipoxlorit, xloramin, xlor ohagi va boshqalar) eritmalaridagi faol xlor tarkibi miqdorini tezkor aniqlash uchun mo‘ljallangan. Usul tamoyili qo‘llaniladigan eritmaga ivitilgan oq rangli indikator chiziqchasining och pushti rangdan to‘q sariq-qizil ranggacha o‘ziga xos rangga kirishi faol xlor mavjudligini ko‘rsatishga asoslanadi. Bunda rangga kirish rangi va izchilligi faol xlor konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Uning tarkibi 100 dan 5000 gacha va undan ortiq mg/l miqdorda belgilanadi. Ushbu “xlortest” qo‘llanilishi tegishli yo‘riqnomada batafsil bayon etilgan.

Yangi avlod dezinfeksiya vositalari yo‘riqnomaga muvofiq ishlatiladi. Tarkibida xlor saqlovchi preparatda faol xlor miqdorining laboratoriya nazorati kvartalda 1 marta, “STEL”, “ELMA”, “POKIZA” apparatlari tomonidan ishlab chiqiladigan Nagipoxlorid analit eritmaları oyiga kamida 1 marta o‘tkaziladi.

*Vodorod peroksidi ishchi eritmalarini tayyorlash.*

Vodorod peroksidi ishchi eritmalarini tayyorlash uchun har qanday idishdan foydalanib, bunday idishda pergidrolni suv bilan eritilgandan so‘ng (pergidrolni suvga solinadi) yuvish vositasi qo‘shiladi. Tegishli konsentratsiyaga ega eritmaning 10 litrini tayyorlash uchun quyidagi hisobga rioya qilinadi:

Ishchi eritma tarkibi		Pergidrol miqdori ml	Suv miqdori, ml	Yuvish vositasi Vodorod miqdor
Vodorov miqdori, g peroksidi konsentratsiyasi, %	Yuvish vositasi konsentratsiyasi, %			
1	0,5	400	9550	50,0
2	0,5	800	9150	50,0
3	0,5	1200	8750	50,0
4	0,5	1600	8350	50,0
6	0,5	2400	7550	50,0

**Zamonaviy dezinfeksiyon vositalar.** «Antiseptin », «ABK-Ekstra», «DS-1»

*Umumiy ma’lumotlar.*

«Antiseptin» vositasi tayyor xolda ishlab chiqarilgan, o‘zigaxos etil spirt iva efir moylarixidiga ega bo‘lgan och-ko‘k rangli tiniqsuyuqlik. Vosita tarkibiga ta’sir etuvchi moddalar sifatida TAB(ChAS) substansiyasi: 0.075% kokobenzildimetilammoniy xlorid, 0.075% -N-N-Bis(3-aminopropil) dotsilamin(uchlamchi amin), 53%-etil spirt iva boshqa funksional qo‘shimchalar kiradi.

Vosita 0.5li plastik flakonda ishlab chiqariladi. Vositani saqlash muddati-5 yil.

Vosita bakterialar(shu jumladan, tuberkulyoz mikobakteriasi), viruslar va zamburug‘larga nisbatan antimikrobli ta’sirga ega.

Organizmga ta’sir etish xususiyatiga ko‘ra Antiseptin vositasi me’daga tushganda va teriga to‘kilganada 4-sinf kam xavfli moddalar qatoriga kiradi. Vosita

bakterial(tuberkulyozda xam), virusli va zamburug'li(kandidozlar, dermatofitiyalar)

Infeksiyalarida davolash- profilaktika muassasalari,maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarida binolarni maydonjixatdan unchalik katta bo'lmagan xamda yetish qiyin bo'lgan yuzalari ,uy jixozlari, asbob-uskunalar,shu jumladan tibbiy buyumlar va boshqa jixozlarni dezinfeksiya qilish uchun mo'ljallangan.

«**ABK-Ekstra**» vositasi tashqi ko'rinishidan rangsizdan och ko'k ranggacha bo'lgan , suv bilan yaxshi aralashuvchi konsentratdir. Uning tarkibi ta'sir etuvchi moddalar sifatida TAB(ChAS) substansiyasi: 4.8% kokobenzildimetilammoniy xlorid, didetsildimetilammoniy xlorid-4.8% va boshqa funksional qo'shimchalar kiradi. Vositani yaroqlik muddati-5 yil.Ishchi eritmani saqlash muddati-14kun.Konsentrat 20 S gradusgachamuzlatilib,qayta eritilganda xam o'z xususiyatlarini saqlab qoladi. Vosita xajmi0.5l bo'lgan plastmassa flakonlardaishlab chiqariladi.Grammusbat va grammanfiy bakterialar (shu jumladan tuberkulyoz mikobakterialariga xam )o'ta xavfli infeksiyalar(legionellyoz,o'lat,vabo,tulyaremiya) ko'zg'atuvchilari,tibbiyotga ma'lum bo'lgan barcha turdagi viruslar(jumladan, enteral va parenteral A,V,S) gepatitlar,OITS-infeksiyasi,gripp virusining, adenoviruslar,atipik zotiljam, polimielit,gerpes viruslariga xam),zamburug'lar (kandida,dermafitiya,rixofiton va mog'or zamburug'lariga xam) shifoxona ichi infeksiyalari xamda parazitlar kasalliklar qo'zg'atuvchilari.O'tkir zaxarlilik parametrlari bo'yicha 4-sinf kam xavfli moddalar sirasiga kiradi.

«**ABK-Ekstra**» quyidagi maqsadlarda ishlatish uchun mo'ljallangan:

-bakterial (tuberkulyoz mikobakterialari ,o'lat,vabo,tulyaremiya ,legionellyozlarda xam), virusli(shuningdek gepatit va OITS-infeksiyalari xam) va zamburug'li (kandidozlar, dermafitiyalar) infeksiyalardainfektsiya o'choqlarida DPM binolari yuzalari, asbob-uskunalar yuzalari ,bolalarmuassasalari ,maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari;

-kuvez(chala tug'ilgan yoki kasal chaqaloqlarni saqlash uchun-kislorod bilan ta'minlovchi moslama-inkubator)lar va ularni uskunalari,narkoz va ingalyatsion apparatlar qismlari xamda anesteziologik uskunalarni dezinfeksiya qilish.

-tibbiy buyumlar(jumladan jarroxlik va stomatologik uskunalar,kattiq va egiluvchan endoskoplarni qo'lda va mexanik (maxsus ultratovush moslamalar)usulda dezinfeksiyasiz sterilizatsiya oldidan tozalash.

«**ABK-Ekstra**» tibbiy buyumlarni dezinfeksiya qilish, shuningdek sterilizatsiya oldidan tozalash bilan birga dezinfeksiya qilishqopqog'i zich yopiladiganplastmassaidishda saqlanadi.

**DS-1** tashqi ko'rinishidan och sariq ranggacha bo'lgan shaffof o'ziga xos xidga ega suyuqlik.Suv bilan yaxshi aralashadi.Ta'sir qiluvchi moddalar sifatida To'rtlamchi ammoniy birikmalari(TAB) kokobenzildimetilammoniy va didetsildimetilammoniyxloridlar-25.5% va glutar aldegid(GA)-10% 20\*Sxaroratida vositaning 1% eritmasidagi vodorod ionlari konsentratsiyasi rn-6.8,shu xaroratda 1g/sm<sup>3</sup> vosita zichligi -0,992ga teng.Vosita0,5 l va 1,0l xajmdagi plastik kanistralarda ishlab chiqariladi.Yaroqlik muddati-3yil,ishchi eritma yaroqlik muddati-14 kun. Zaxarlik parametrlari 3-sinf o'rtacha xavfli.

Qo'llanilishi:

-Davolash-profilaktika muassasalarida,jarroxlilik blokida,jonlantirish va intensiv davolash bo'limlarida akusherlik va ginekologik stasionarlar,bolalar va neonatologiya bo'limlarida binolar ichidagi yuzalari.

-o'lat,vabo ,tulyaremiya,legionellyoz o'choqlarida binolar yuzalarini.

-A B V sinflarga taaluqli tibbiy chiqindilar.

-tibbiy buyumlar(jumladan,jarroxlilik va stomatologik uskunalar,endoskoplar va uskunalar)ni.

**IShChI ERITMALARNI TAYYoRLASH**«DS-1» vositasining ishchi eritmalari sirli (emali shika- stlanmagan), shisha yoki plastmassa idishlarda xona xaroratidagi ichimlik suvigajadval asosida kerakli xajmdagi vositani ara- lashtirish yuli bilan tayyorlanadi.

Ishchi eritma koitsentratsiyasi (preparat uyicha), %	Vosita konsentratı va suvning (ml) ishchi eritma tayyorlash uchuy kerak buladigan najmi:			
	1 litr eritma		10 litr eritma	
	Vosita ml	Suv ml	Vosita ml	Suv ml
0,05	0,5	999,5	5	9995
0,1	1,0	999,0	10	9990
0,15	1,5	998,5	15	9985
0,2	2,0	998,0	20	9980
0,25	2,5	997,5	25	9975
0,4	4,0	996,0	40	9960
0,5	5,0	995,0	50	9950
0,6	6,0	994,0	60	9940
0,8	8,0	992,0	80	9920
1,0	10,0	990,0	100	9900
1,5	15,0	985,0	150	9850
2,0	20,0	980,0	200	9800
3,0	30,0	970,0	300	9700
5,0	50,0	950,0	500	9500

**«DS-1» vositasi eritmalari bilan bakterial, virusli va zamburugli infeksiyalarda tibbiy buyumlar (jumladan, laringoskoplar, endoskop va endoskop uskunalari)ni dezinfeksiyakilish tartiblari**

Ishlov berilayotgan buyum turi	Infeksiya turi	Ishlov berish		Ishlov berish usuli
		Ishch eritma konsentrat siyasi (preparat buyicha), %	Zararzlantirish vaqt,daqiqa	

Rezina, plastmassa, shisha, metall buyum-lar, sh.j. jarroxlik va stomatologik uskuna xamda materiallar (koliplar, turli materiallardan ishlantay yasama tish tay-yorlamalari, korroziyaga chidamli artikulyator va kolip oluvchi koshiklar), kuvezlar, narkoz-nafas olish va ingalyatsiya, sun'iy ventilyatsiya apparatlari kislmlari; go-rirlangan shlanglar, nikoblar, rezina kopchalar, xavotkazgichlar, boshsa anesteziologik uskunalar	Virusli, bakterial (tuberku-lezdan tashkari), zamburugli (kandidozla	0,2 0,4 0,5	90 60 30	Botirish
	Virusli, bakterial (tuber kulezda xam), zamburugli	0,4 0,5 0,6 0,8 1,0	120 90 60 45 30	Botirish

### *Stomatologik qoliplarni zararsizlantirish tartibi*

Zararsizlantiruvchi vosita	Zararsizlantirish tartibi	Ilova	
	Eritmaning konsentratsiyasi %	Saqlash vaqti, min.	
Glutaral (Rossiya)	Suyultirilmaydi	10	Alginat (kalsinat, stomalgin, upin) va silikonli (sielast - 03, 05, 69, dentafleks) qoliplar
«DS-1»	0,6%	60	---//---
«ABK-EKSTRA»	2,0% 3,0%	60 30	---//---
Vodorod peroksidi	4,0	15	Silikon qoliplar
«Ekstra-Dez»	2,0 3,0	60 30	---//---
«ABK - Oksi»	2,0	20	---//---

Alginat, silikon materiallardan, poliefir va gidrokolloid moddalardan tayyorlangan qoliplarni, tishning temirdan, keramikadan, platsmassa va boshqa materiallardan tayyorlangan protezlarini, korroziyaga chidamli artikulyatorlarni quyidagi tartibda zararsizlantiriladi:

- qoliplarni himoya vositalaridan foydalangan xolda (rezina fartuk, qo'ldoplar) dastlab suvda yuviladi;
- zararsizlantiruvchi vosita eritmasiga jadvalda ko'rsatilgan tartibga asosan botiriladi;
- oqayotgan suvda har bir tomonini 30 sek. davomida yuviladi yoki suvli idishga 5 minutga botiriladi.

«DS-1» – 2 litr eritmada zararsizlantiriluvchi anjomlar soni 30 tadan ortmasligi lozim. Anjomlarni 10 minut oqayotgan suvda yuviladi yoki ikkita suvli idishning har biriga 10 minutdan solinadi.

«ABK-Ekstra» – ifloslanganlikning dastlabki belgilari paydo bo‘lgunicha takroran qo‘llaniladi. Bunda 2 litr eritmaga botiriluvchi qoliplarning soni 20 tadan ortmasligi lozim.

«Ekstra-Dez» – 14 kun mobaynida eritmaning tashqi ko‘rinishi o‘zgarmagunicha takroran qo‘llaniladi. Bunda 2 litr eritmaga botiriluvchi qoliplarning soni 30 tadan ortmasligi lozim.

«ABK - Oksi»- 14 kun mobaynida ifloslanganlikning dastlabki belgilari paydo bo‘lgunicha takroran qo‘llaniladi (eritmada ipir-ipir yoki idish devorlarida kir paydo bo‘lgunicha).

*Dezinfeksiya usullari va vositalari.*



**Stomatologiyada qo‘llaniladigan tibbiy asbob-anjomlarni va xonadagi turli buyumlar yuzasini zararsizlantirish tartibi.**

Zararsizlantirish ob'ekti	Zararsizlantirish vositalari	Tartib		Zararsizlantirish usuli, uskunalari	Ilova
		Harorat°S, eritma konsentratsiyasi, %	Zararsizlantirish vaqti (min)		
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
1.Temir,	*Natriy			Tibbiy	Issiqlikka

shisha, rezina, plastmassa dan yasalgan tibbiy anjomlar	bikarbonat (ichimlik soda) ning distil- langan suvdagi eritmasi	2	15	kaynatgich da qaynatish $t=99^{\circ}\text{S}\pm 1$	chidamli anjomlar zararsizlantiril adi
	Distillangan suv	--	30	---//---	
	Quruq issiq havo	$120^{\circ}\text{S}\pm 3$	45	Havoli sterilizator	---//---
	Suvning bosim ostidagi bug‘i $0,5\text{kgs}/\text{sm}^2$	$110^{\circ}\text{S}\pm 2$	20+5	Bug‘li sterilizator	-----
	* «ABK Ekstra»	2,0 3,0	60 30	Eritmaga to‘liq botiriladi	Ishchi eritmada 14 kungacha foydalanish mumkin
	**«ABK-Xloraktiv»	0,1	60	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Korroziyaga chidamli temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar
	*STEL uskuna-sida ishlab chiqarilgan neytral anolit	0,03-0,05	30-40	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Temir anjomlarni zarar- sizlantirganda eritmaga korroziyaga qarshi qo‘shim-chalar qo‘shiladi: 0,1% kir yuvuvchivosita “Lotos”yoki 0,1%“Biolota”
	Vodorod peroksid + kir yuvuvchi vosita “Lotos”	6 0,5	60	Botiriladi	Korroziyaga chi-damli materi-allardan yasalgan anjomlar
	Vodorod peroksid	6	60	---//---	---//---

**«DS-1»	0,2 0,4	90 30	Qopqoqli idishdagi to‘liq botiriladi	Ifloslanmagan eritmaga 14 sutka davomida takroran botiriladi
*«Ekstra-Dez»	2,0 2,5	60 30	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	---//---
**«Antiseptin – OP»	Qo‘llanishga tayyor vosita eritmasi	15	Botiriladi	Zararsizlantirishdan oldin anjomni oqsil moddalardan salfetka bilan (temir buyumlar uchun) tozalanadi
**Xlorgeksidinning spirtli eritmasi	0,5	15	Botiriladi	Zararsizlantirishdan oldin anjomni oqsil moddalardan salfetka bilan tozalanadi
«ABK-Xloraktiv»	0,06 0,1	90 60	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Korroziyaga chidamli temir, shisha, rezina, plast-massadan yasalgan tibbiy buyumlar. Zararsizlantirilayotganda 0,5% yuvuvchi vosita qo‘shish mumkin.
*«ABK – Oksi»	1,5 2,0	60 30	Botiriladi	Ifloslanmagan eritmaga 14 sutka davomida takroran botiriladi

	**Xloramin	3	60	Qopqoqli idishga to'liq botiriladi	Korroziyaga chidamli temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar.
	*«Antiseptin»	Qo'llanishga tayyor vosita eritmasi	15	50 ml/m <sup>2</sup> hisobda 10m <sup>2</sup> dan ortiq bo'lmagan maydonga sepiladi	Laklangan, akril shishali va b. spirt ta'siriga chidamsiz yuzalarga ishlov berish mumkin emas
	«ABK-Xloraktiv»	0,015 0,03	60 30	150 ml/m <sup>2</sup> bilan artiladi 150-300ml/m <sup>2</sup> sepiladi	Zararsizlantirilayotganda 0,5% yuvuvchi vosita qo'shish mumkin.
Xonadagi yuza joylar (pol, devor, mebel, jihozlar, uskunalar, kreslo, asboblarning uchki qismlari, muolajastollari, tufukdonlar va h.k.) va sanitariya texnik jihozlar	Neytral anolit	0,03-0,05	30	Ikki marta 15 minut oraliq bilan 200 ml/m <sup>2</sup> artiladi	
	«Ekstra-Dez»	0,25 0,5	60 30	100 ml/m <sup>2</sup> hisobda artiladi	
	Xloramin	1,0	60	200 ml/m <sup>2</sup> hisobda artiladi	
	***«Ekstra-Dez»	2 4	120 60	100 ml/m <sup>2</sup> artiladi 200 ml/m <sup>2</sup> sepiladi	
	***«ABK-Ekstra»	2 3	60 30	100 ml/m <sup>2</sup> artiladi 250-300ml/m <sup>2</sup> sepiladi	
	«Antiseptin – OP»	Qo'llanishga tayyor vosita eritmasi	15	50ml/m <sup>2</sup> artiladi	
	***«DS -1»	0,2	90	artiladi yoki sepiladi	

		0,4	30	
	***«ABK - Oksi»	1,0 2,0	60 15	artiladi yoki sepiladi

\*bilan belgilangan zararsizlantiruvchi vositalar qo'llanilganda, zararsizlantirishni sterillashdan oldingi tozalash bilan qo'shib o'tkazish mumkin, faqat bunda anjomlarni zararsizlantiruvchi – yuvuvchi vositada ekspozitsiya vaqtida ushlangandan keyin tampon, shyotka bilan yuvish lozim.

\*\*bilan belgilangan zararsizlantiruvchi vositalar qo'llanilganda, zararsizlantirishdan oldin, anjomlarda ifloslik ko'rinarli bo'lsa, ularni matoli salftkalar bilan artib, suvli idishda yuviladi. Yuvindi suvlar, ishlatilgan salftkalar va idishlarni qaynatib yoki virusli gepatitlarda tavsiya qilingan tartibda zararsizlantiruvchi vosita bilan zararsizlantiriladi.

Zararsizlantiruvchi vositalarning konsentratsiyalari (ABK-Xloraktiv, xlorgeksidin) faol ta'sir qiluvchi moddasiga nisbatan ko'rsatilgan. Qolgan zararsizlantiruvchi vositalarning konsentratsiyalari vositaga ko'ra ko'rsatilgan.

\*\*\* bilan belgilangan zararsizlantiruvchi vositalar qon, so'lak va b. biologik suyuqliklar bilan ifloslangan yuzalarni viruslarga qarshi ta'sir qiluvchi vositalar bilan zararsizlantirish tartibiga ko'ra zararsizlantiriladi.

Ekspozitsiya vaqti o'tganidan keyin yuzalardagi zararsizlantiruvchi vosita vodoprovod suvi bilan yuvib tashlanadi.

Joriy zararsizlantrish kuniga 2 marta o'tkaziladi, jarrohlik bo'linmalari haftada 1 marta mukammal tozalanadi.



Dez.vositalar guruh tarkibiga kiradigan faol modaga qarab guruhlarga bo'linadi:


- Dezinfeksiyalovchi spirt: metanol, etil spirt.
- Vodorod peroksidga asoslangan preparatlar: peroksid + katamin.
- Xlor moddalari: oqartiruvchi, xloramin, deatsin.
- Baza - HOA - benzalkonium xlorid bo'lgan vositalar.
- Perasetik kislota sanab chiqing.

- Kimyoviy usullar uchun - alkogol, formaldegid, sirt faol moddalar, halogen. Barcha dorilar batseriyalar va mikroorganizmlarga qarshi samarali kurashadi, ammo ularning hammasi sportlarini yo‘q qilishga qodir emas. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining me‘yoriy hujjatlari dezinfeksiya uchun muayyan vositalardan foydalanish bo‘yicha batafsil ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

**Интерактив usullar:**

**Insert jadvali**

Klasterni tuzish qoidasi 1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing. 2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e‘tibor bermang. 3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.



V	-	+	?

**Test savollari**

**1. Aseptika nima?**

- A) Mikroblarni o'ldirish usuli
- B) Jarohatga mikroorganizmlar tushishini oldini olish choralari
- C) Antibiotik bilan davolash
- D) Mikroblarni ko'paytirish jarayoni

**Javob: B**

**2. Antiseptika nima?**

- A) Mikroblarni organizmga kiritish
- B) Jarohatni bog'lash
- C) Patogen mikroorganizmlarni yo'qotish yoki kamaytirish choralari
- D) Operatsiya qilish

**Javob: C**

**3. Chirish va bijg'ish jarayonlarining mikroorganizmlar sababli ekanligini kim aniqlagan?**

- A) I.F. Zemmelveys
- B) Djordj Lister
- C) Lui Paster
- D) Bergman

**Javob: C**

**4. Tug'ruqdan keyingi sepsis sababini aniqlagan shifokor kim?**

- A) Lister
- B) Zemmelveys
- C) Paster
- D) Bergman

**Javob: B**

**5. Antiseptika usulini amaliyotga kim kiritgan?**

- A) Zemmelveys
- B) Bergman
- C) Lister
- D) Subbotin

**Javob: C**

**6. Lister operatsiya xonasida qaysi moddani ishlatgan?**

- A) Spirt
- B) Karbol kislota
- C) Yod eritmasi
- D) Xloramin

**Javob: B**

7. **Mikroorganizmlarni yuqori harorat yordamida yo‘qotish qaysi usulga kiradi?**
- A) Kimyoviy antiseptika
  - B) Mexanik antiseptika
  - C) Fizik antiseptika
  - D) Biologik antiseptika

**Javob: C**

8. **Aseptik usulni ishlab chiqqan olimlar kimlar?**
- A) Lister va Paster
  - B) Bergman va Shimmelbush
  - C) Zemmelveys va Paster
  - D) Subbotin va Lister

**Javob: B**

9. **Aseptika to‘liq tan olingan kongress qayerda o‘tkazilgan?**
- A) Parij
  - B) London
  - C) Berlin
  - D) Moskva

**Javob: C**

10. **Antiseptikaning nechta asosiy turi mavjud?**
- A) 2 ta
  - B) 3 ta
  - C) 4 ta
  - D) 5 ta

**Javob: C**

### **Nazorat savollari**

1. Aseptika nima?
2. Antiseptika nima?
3. Antiseptika va aseptika o‘rtasidagi farq nima?
4. Jarrohlik tarixida antiseptika usulini kim ishlab chiqqan?
5. Lui Paster mikrobiologiya rivojiga qanday hissa qo‘shgan?
6. Zemmelveysning tug‘ruqdan keyingi sepsisni kamaytirish usuli nimadan iborat edi?
7. Lister antiseptika usulining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
8. Aseptika usuli kim tomonidan ishlab chiqilgan?

9. Antiseptikaning qanday turlari mavjud?
10. Antiseptik usullarning zamonaviy jarrohlikdagi ahamiyati nimada?

### Tibbiy atamalar

1. **Aseptika** – jarohatga mikroorganizmlar tushishini oldini olish choralari.
2. **Antiseptika** – jarohat yoki organizmdagi mikroorganizmlarni yo‘qotish yoki kamaytirish usullari.
3. **Sepsis** – organizmning umumiy infeksiyon zararlanishi.
4. **Nekroz** – tirik to‘qimalarning o‘lishi.
5. **Patogen mikroorganizmlar** – kasallik chaqiruvchi mikroblar.
6. **Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlarni yo‘qotish jarayoni.
7. **Dezinfeksiya** – kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblarni yo‘q qilish.
8. **Operatsion jarohat** – jarrohlik aralashuvi natijasida hosil bo‘lgan jarohat.
9. **Gangrena** – to‘qimalarning chirishi bilan kechadigan og‘ir nekroz.
10. **Mikrobiologiya** – mikroorganizmlarni o‘rganadigan fan.

### Vaziyatli masalalar

1. Jarroh operatsiya oldidan qo‘lini antiseptik eritma bilan yuvdi va steril qo‘lqop kiyib operatsiyani boshladi.  
**Savol:** Bu qaysi usulga misol bo‘ladi?
2. Jarohat ichidagi yiring va o‘lik to‘qimalar jarrohlik yo‘li bilan olib tashlandi.  
**Savol:** Bu qaysi turdagi antiseptika hisoblanadi?
3. Operatsion asboblarni avtoklavda bug‘ yordamida sterilizatsiya qilindi.  
**Savol:** Bu qaysi antiseptika turiga kiradi?
4. Jarohat yuzasiga yod eritmasi bilan ishlov berildi.  
**Savol:** Bu qaysi antiseptika turiga kiradi?
5. Operatsiya xonasida bakteritsid lampalar ishlatilmoqda.  
**Savol:** Bu qaysi usulga misol?
6. Bemor jarohatiga antibiotiklar buyurildi.  
**Savol:** Bu qaysi antiseptika turiga kiradi?
7. Tug‘ruqdan keyin ayollarda sepsis ko‘payib ketdi. Shifokorlar qo‘llarni xlor eritmasi bilan yuvishni boshlashdi.  
**Savol:** Bu usulni kim taklif qilgan?
8. Jarroh operatsiya paytida faqat steril instrumentlardan foydalanmoqda.  
**Savol:** Bu qaysi prinsipga asoslanadi?
9. Jarohatni mexanik tozalash va yiringni chiqarish amalga oshirildi.  
**Savol:** Bu qaysi antiseptika turi?
10. Jarohatni ultrabinafsha nurlari bilan ishlov berildi.  
**Savol:** Bu qaysi antiseptika usuliga kiradi?

### Vaziyatli masalalar:

## Aseptika xam antiseptika xakida tushuncha?

Nomi	Xarakteristika	turlari
A s e p t i k a		
A n t i s e p t i k a		

### Aseptika antiseptika tushunchasi.

Nomi	Xarakteristika	turlari
A s e p t i k a	-deb mikrobsiz sharoitda ish olib borish yoki biror narsaga,joyga mikrobtushishining oldini olish va buni ta'minlaydigan tadbirlar yig'indisiga aytiladi	-fizikaviy,kimyoviy va mexanik usullar mavjuddir.
A n t i s e p t i k a	-deb turli tibbiy asboblardan vositalardan mikroblarni yo'kotish, zararsizlantirish yoki sonini kamaytirishga aytilib,bu usul orqali turli tadbirlar bajariladi.	fizikaviy,mexanik,kimyoviy,biologik va aralash turlari mavjuddir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y
- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения
6. Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2005y

### Internet- materiallari:

- 1.Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagi tibbiy portal.
- 2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
- 3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
- 4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
- 5.[www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Международный журнал медитсинской практики
- 6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
- 7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)

8. www.MED.UZ

9. <http://www.minzdrav.uz/> – O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;

10. Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>

11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)

12. SSO [steriliz.narod.ru/08cis.htm](http://steriliz.narod.ru/08cis.htm)

13. [Osnanenie SSO - Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/Osnanenie_SSO_-_Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/)

14. SSO-osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya

15. <http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>

16. SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hB>

<b>2.1 modul</b> <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 2 .</b>	<b>Zamonaviy dezinfektsiyalash vositalarini ishlatish qoidalari.</b>
--	--

### **Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Yuzalarni zamonaviy dezinfektsiyalovchi vosita bilan ishlov berish</li><li>2. Tibbiy asboblarni zamonaviy dezinfektsiyalovchi vosita bilan dastlabki dezinfektsiya qilish.</li></ol>

### **1-AMALIY KO‘NIKMA**

#### **Yuzalarni zamonaviy dezinfektsiyalovchi vosita bilan ishlov berish**

## **1. Maqsad:**

Davolash-profilaktika muassasasida infeksiya tarqalishining oldini olish maqsadida xonadagi yuzalarni zamonaviy dezinfeksiyalovchi vosita bilan to‘g‘ri va xavfsiz ishlov berish.

## **2. Kerakli jihozlar:**

- Zamonaviy dezinfeksiyalovchi vosita (xlorli, kislorodli yoki kvartser ammoniy birikmasi asosida)
- O‘lchov stakani
- Belgilangan idish (eritma tayyorlash uchun)
- Toza latta yoki salfetaklar
- Shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqop, niqob, fartuk)
- Belgilash yorlig‘i
- Chiqindi paketi

## **3. Bajarish ketma-ketligi:**

1. Qo‘llarni gigiyenik yuvish.
2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish.
3. Dezinfeksiyalovchi vosita yo‘riqnomasi bilan tanishish.
4. Kerakli konsentratsiyada eritma tayyorlash (yo‘riqnomaga muvofiq).
5. Eritma solingan idishga sana va vaqtni yozish.
6. Yuzadagi ko‘rinadigan iflosliklarni mexanik tozalash.
7. Dezinfeksiyalovchi eritma bilan yuzani yuqoridan pastga, toza tomondan iflos tomonga qarab artish.
8. Belgilangan ekspozitsiya vaqtini saqlash.
9. Zarur bo‘lsa, yuzani toza suv bilan qayta artish.
10. Ishlatilgan materiallarni utilizatsiya qilish.
11. Qo‘lqopni yechish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

### **Tibbiy asboblarni zamonaviy dezinfeksiyalovchi vosita bilan dastlabki dezinfeksiya qilish**

## **1. Maqsad:**

Tibbiy asbob-uskunalarni sterilizatsiyadan oldingi bosqichda zamonaviy dezinfeksiyalovchi vosita yordamida mikroorganizmlardan tozalash.

## 2. Kerakli jihozlar:

- Dezinfeksiyalovchi eritma
- Oqartirilgan va markirovka qilingan konteyner
- To‘rli savatcha
- SHHV (qo‘lqop, niqob, ko‘zoynak)
- Oqartirilgan suv
- Oqartirish cho‘tkasi
- Oqartirish jurnali

## 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Qo‘llarni gigiyenik ishlovdan o‘tkazish.
2. SHHV kiyish.
3. Eritmani yo‘riqnomaga muvofiq tayyorlash.
4. Asboblarni to‘liq eritmaga botirish.
5. Ekspozitsiya vaqtini nazorat qilish.
6. Belgilangan vaqtdan so‘ng asboblarni eritmadan chiqarish.
7. Oqartirilgan suvda chayish.
8. Mexanik tozalash (zarur bo‘lsa).
9. Quritish va sterilizatsiyaga yuborish.
10. Ishlatilgan eritmani sanitariya qoidalariga muvofiq yo‘q qilish.
11. Qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.

<b>2.1 modul</b> <b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit jami 6.</b>	<b>Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash tartibi.</b> <b>Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda havfsizlik choralari. Zararsizlantirish bo‘limida joriy va mukammal tozalash qoidalari.</b> <b>Tibbiy asbob-anjomlarni qo‘l bilan olti bosqichli yuvish afzalliklari va kamchiliklari.</b>
---	--

### Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 240 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot

<p><b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>3.</b> Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash tartibi</li> <li><b>4.</b> Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari</li> <li><b>5.</b> Zararsizlantirish bo'limida joriy tozalash o'tkazish</li> <li><b>6.</b> Zararsizlantirish bo'limida mukammal (general) tozalash o'tkazish</li> <li><b>7.</b> Tibbiy asbob-anjomlarni qo'l bilan olti bosqichli yuvish.</li> <li><b>8.</b> Qo'l bilan olti bosqichli yuvishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish</li> </ol>
---	--

## 1-AMALIY KO'NIKMA

### Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash tartibi

#### 1. Maqsad:

Tibbiy muassasada dezinfeksiya ishlarini samarali tashkil etish uchun dezinfeksiyalovchi eritmalarni belgilangan konsentratsiyada to'g'ri va xavfsiz tayyorlash.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Dezinfeksiyalovchi vosita (kukun, tabletka yoki suyuq konsentrat)
- O'lchov stakani yoki silindr
- Belgilangan idish (qopqoqli)
- Aralashtirish tayoqchasi
- Toza suv (ichimlik yoki qaynatilgan sovutilgan suv)
- Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, niqob, ko'zoynak, fartuk)
- Yorliq (markirovka uchun)

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Qo'llarni gigiyenik usulda yuvish.

2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish.
3. Dezinfeksiyalovchi vositaning yo‘riqnomasi bilan tanishish (konsentratsiya va ekspozitsiya vaqtini aniqlash).
4. Kerakli hajmdagi suvni o‘lchab idishga quyish.
5. Kerakli miqdordagi dezinfeksiyalovchi vositani o‘lchab olish.
6. Vosita suvga qo‘shiladi (aksincha emas, agar yo‘riqnomada boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa).
7. Eritma to‘liq eriguncha aralashtiriladi.
8. Tayyor eritma solingan idishga quyidagi ma’lumotlar yoziladi:
  - Vosita nomi
  - Konsentratsiyasi
  - Tayyorlangan sana va vaqt
  - Amal qilish muddati
9. Eritma belgilangan joyda saqlanadi.
10. Ish tugagach, qo‘lqop yechiladi va qo‘llarga antiseptik ishlov beriladi.

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari

### 1. Maqsad:

Zararsizlantiruvchi vositalar bilan ishlash jarayonida tibbiyot xodimining sog‘lig‘ini himoya qilish va zaharlanish, kuyish hamda allergik reaksiyalarni oldini olish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqop, niqob, respirator, himoya ko‘zoynagi, rezina fartuk)
- Shamollatiladigan xona
- Dezinfeksiyalovchi vosita
- Favqulodda yuvish uchun suv manbai
- Birinchi yordam qutichasi

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Ish boshlashdan oldin xona shamollatiladi.
2. Shaxsiy himoya vositalari to‘liq kiyiladi.
3. Dezinfeksiyalovchi vositaning yo‘riqnomasi o‘rganiladi.
4. Konsentratsiyadan oshmaslik qat’iy nazorat qilinadi.
5. Eritmalarni boshqa kimyoviy moddalar bilan aralashtirmaslik.
6. Eritma tayyorlash va ishlatishda yuzni yaqin keltirmaslik.
7. Teriga yoki ko‘zga tegib ketganda darhol ko‘p miqdorda suv bilan yuvish.

8. Ish jarayonida ovqatlanish, ichimlik ichish va chekish taqiqlanadi.
9. Ish tugagach, qo‘lqop ehtiyotkorlik bilan yechiladi.
10. Qo‘llar antiseptik bilan ishlov beriladi.
11. Zarur bo‘lsa, ishlatilgan vositalar utilizatsiya qilinadi.

### **3-AMALIY KO‘NIKMA**

#### Zararsizlantirish bo‘limida joriy tozalash o‘tkazish

##### 1. Maqsad:

Zararsizlantirish bo‘limida kun davomida infeksiya tarqalishini oldini olish maqsadida joriy tozalashni sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq amalga oshirish.

##### 2. Kerakli jihozlar:

- Dezinfeksiyalovchi eritma
- Belgilangan tozalash inventari (rangli chelak, latta, mop)
- Shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqop, niqob, fartuk)
- Chiqindi paketi
- Antiseptik vosita
- Tozalash jurnali

##### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Qo‘llarni gigiyenik yuvish.
2. Shaxsiy himoya vositalarini kiyish.
3. Xona shamollatiladi.
4. Dezinfeksiyalovchi eritma yo‘riqnomaga muvofiq tayyorlanadi.
5. Ish joylari (stollar, eshik tutqichlari, jihozlar yuzasi) dezinfeksiyalovchi eritma bilan artiladi.
6. Pol nam usulda tozalanadi (toza tomondan iflos tomonga qarab).
7. Chiqindilar belgilangan tartibda yig‘iladi va olib chiqiladi.
8. Ishlatilgan inventar dezinfeksiya qilinadi.
9. Qo‘lqop yechiladi va qo‘llar antiseptik bilan ishlov beriladi.
10. Tozalash jurnali to‘ldiriladi (sana, vaqt, mas’ul shaxs).

## **4-AMALIY KO'NIKMA**

Zararsizlantirish bo'limida mukammal (general) tozalash o'tkazish

### 1. Maqsad:

Zararsizlantirish bo'limida haftalik yoki belgilangan muddatda mukammal tozalashni amalga oshirib, mikroorganizmlar miqdorini maksimal darajada kamaytirish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Kuchli ta'sirli dezinfektsiyalovchi eritma
- Belgilangan tozalash inventari
- Narvon (zarurat bo'lsa)
- Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, respirator, ko'zoynak, fartuk)
- Oqartirilgan suv
- Chiqindi qoplari
- Tozalash jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Xona jihozlari imkon qadar bo'shatiladi.
2. Shaxsiy himoya vositalari kiyiladi.
3. Xona shamollatiladi.
4. Dezinfektsiyalovchi eritma belgilangan konsentratsiyada tayyorlanadi.
5. Shift, devor, deraza tokchalari va yoritish asboblari artib chiqiladi.
6. Barcha jihozlar, mebellar va ishchi yuzalar dezinfeksiya qilinadi.
7. Pol dezinfektsiyalovchi eritma bilan ikki marta yuviladi.
8. Ekspozitsiya vaqti saqlanadi.
9. Zarur bo'lsa, yuzalar toza suv bilan qayta artiladi.
10. Ishlatilgan inventar dezinfeksiya qilinadi va quritiladi.
11. Qo'lqop yechilib, qo'llarga antiseptik ishlov beriladi.
12. Mukammal tozalash haqida jurnalga qayd kiritiladi.

## **5-AMALIY KO'NIKMA**

Tibbiy asbob-anjomlarni qo'l bilan olti bosqichli yuvish (jarayon algoritmi)

### 1. Maqsad:

Tibbiy asbob-anjomlarni sterilizatsiyadan oldingi bosqichda qo'l bilan olti bosqichli yuvish orqali mexanik va organik iflosliklardan tozalash.

## 2. Kerakli jihozlar:

- Dezinfeksiyalovchi eritma
- Oqartirilgan suv
- Oqartirish (yuvish) vositasi
- Oqartirish choʻtkasi
- Oqartirish vannasi (2–3 seksiyali)
- Shaxsiy himoya vositalari (qoʻlqop, niqob, fartuk, koʻzoynak)
- Quritish uchun toza salfetka yoki quritish shkafi

## 3. Bajarish ketma-ketligi (6 bosqich):

### **1-bosqich. Dezinfeksiya qilish**

Asboblarda dezinfeksiyalovchi eritmaga toʻliq botiriladi va belgilangan ekspozitsiya vaqti saqlanadi.

### **2-bosqich. Oqartirilgan suvda chayish**

Asboblarda dezinfeksiyadan soʻng oqava suvda chayiladi.

### **3-bosqich. Oqartirish vositasi bilan yuvish**

Har bir asbob choʻtkada yordamida yuvish vositasi bilan mexanik tozalanadi (boʻgʻim, tirqish joylari alohida tozalanadi).

### **4-bosqich. Oqartirilgan suvda qayta chayish**

Yuvish vositasi qoldiqlari toʻliq ketguncha suvda chayiladi.

### **5-bosqich. Distillangan suvda chayish**

Tuz va mineral qoldiqlarni oldini olish maqsadida distillangan suv bilan chayiladi.

### **6-bosqich. Quritish**

Asboblarda quritiladi (tabiiy yoki quritish shkafida) va sterilizatsiyaga tayyorlanadi.

## **6-AMALIY KOʻNIKMA**

Qoʻl bilan olti bosqichli yuvishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish

### 1. Maqsad:

Qoʻl bilan olti bosqichli yuvish usulining samaradorligini baholash, uning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Tibbiy asboblarning namunalari
- Oqartirish vositalari
- Dezinfeksiyalovchi eritma
- SHHV

- Nazorat namunasi (ifloslangan asbob)
- Oqartirish jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Asboblarni qo‘l bilan olti bosqichli usulda yuviladi.
2. Yuvishdan keyin asboblarni vizual tekshiruvdan o‘tkaziladi.
3. Oqartirish sifati baholanadi (qoldiq iflosliklar bor-yo‘qligi).
4. Jarayon davomida vaqt sarfi aniqlanadi.
5. Xodimning jismoniy yuklamasi baholanadi.
6. Natijalar tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi.

### Afzalliklari:

- Murakkab tuzilgan asboblarni individual tozalash imkoniyati.
- Oqartirish jarayoni to‘liq nazorat qilinadi.
- Maxsus avtomatik uskunalarsiz bajarish mumkin.
- Kichik muassasalarda iqtisodiy jihatdan qulay.

### Kamchiliklari:

- Ko‘p vaqt talab qiladi.
- Xodim uchun yuqori jismoniy yuklama.
- Shikastlanish va infeksiya xavfi yuqori.
- Oqartirish sifati inson omiliga bog‘liq.
- Katta hajmdagi asboblarda samarasiz.

<b>2.1 modul</b> <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 2 .</b>	<b>Ultrafiolet nurlanish, past va yuqori haroratli sterilizatsiya, kimyoviy sterilizatorlar, keng ta’sir doirasiga ega antiseptik moddalar va biosurfaces texnologiyalarining joriy etilishi .</b>
--	--

### Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot

<b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1.</b> Ultrafiolet nurlanish va past/yuqori haroratli sterilizatsiya usullarini qo'llash.</li> <li><b>2.</b> Kimyoviy sterilizatorlar, keng ta'sir doirasiga ega antiseptik moddalar va Biosurfaces texnologiyasini qo'llash</li> </ol>
--------------------------------------	---

## 1-AMALIY KO'NIKMA

Ultrafiolet nurlanish va past/yuqori haroratli sterilizatsiya usullarini qo'llash

### 1. Maqsad:

Tibbiy muassasalarda mikroorganizmlarni yo'q qilish maqsadida ultrabinafsha nurlanish hamda past va yuqori haroratli sterilizatsiya usullarini to'g'ri va xavfsiz qo'llash.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Ultrabinafsha nurlanish lampasi (bakteritsid lampa)
- Quruq issiqlik shkafi (quruq havo sterilizatori)
- Avtoklav (bug'li sterilizator)
- Past haroratli sterilizator (gazli yoki plazmali)
- Sterilizatsiya qoplari (indikatorli)
- Termometr va manometr
- Shaxsiy himoya vositalari
- Sterilizatsiya jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

A) *Ultrabinafsha nurlanish orqali zararsizlantirish:*

1. Xona odam va bemorlardan bo'shatiladi.
2. Oyna va eshiklar yopiladi.
3. Bakteritsid lampa yoqiladi.
4. Belgilangan vaqt (odatda 15–60 daqiqa) saqlanadi.
5. Jarayon tugagach xona shamollatiladi.
6. Jarayon jurnalga qayd etiladi.

*B) Yuqori haroratli sterilizatsiya (bug‘ yoki quruq havo):*

1. Asboblar oldindan tozalangan va quritilgan bo‘lishi kerak.
2. Sterilizatsiya paketlariga joylanadi.
3. Avtoklavda 121–134°C da belgilangan vaqt davomida ishlov beriladi yoki quruq issiqlik shkafida 160–180°C da sterilizatsiya qilinadi.
4. Indikatorlar nazorat qilinadi.
5. Natijalar jurnalga yoziladi.

*C) Past haroratli sterilizatsiya:*

1. Issiqqa chidamsiz asboblar tayyorlanadi.
2. Gazli yoki plazmalı sterilizatorida ishlab chiqilgan rejim tanlanadi.
3. Belgilangan sikl yakunlangach, steril materiallar saqlash zonasiga o‘tkaziladi.

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

Kimyoviy sterilizatorlar, keng ta’sir doirasiga ega antiseptik moddalar va Biosurfaces texnologiyasini qo‘llash

1. Maqsad:

Tibbiy muassasada zamonaviy kimyoviy sterilizatorlar, keng spektrli antiseptik vositalar hamda biosurfaces texnologiyasini infeksiya nazorati tizimida samarali joriy etish.

2. Kerakli jihozlar:

- Kimyoviy sterilizator (etilen oksid, formaldegid va boshqalar)
- Keng ta’sir doirasiga ega antiseptik vositalar (spirtli, xlorli, kvartser ammoniy birikmalari)
- Biosurfaces qoplamali materiallar (antimikrob yuzalar)
- SHHV
- Ekspozitsiya vaqtini nazorat qilish vositasi
- Nazorat jurnali

3. Bajarish ketma-ketligi:

*A) Kimyoviy sterilizator qo‘llash:*

1. Asboblar tozalangan va quritilgan bo‘lishi kerak.
2. Sterilizatsiya kamerasi yuklanadi.
3. Kerakli konsentratsiya va ekspozitsiya vaqti tanlanadi.
4. Sikl yakunlangach, aeratsiya jarayoni o‘tkaziladi.

5. Steril materiallar saqlash joyiga joylashtiriladi.

*B) Keng ta'sir doirasiga ega antiseptik moddalar:*

1. Vosita yo'riqnomasi o'rganiladi.
2. Kerakli konsentratsiya tayyorlanadi.
3. Qo'l, teri yoki yuzaga belgilangan vaqt davomida qo'llanadi.
4. Ekspozitsiya vaqti saqlanadi.

*C) Biosurfaces texnologiyasini joriy etish:*

1. Infeksiya xavfi yuqori bo'lgan zonalar aniqlanadi.
2. Antimikrob qoplamali yuzalar o'rnatiladi (eshik tutqichi, stol yuzasi va boshqalar).
3. Ularning muntazam monitoringi olib boriladi.
4. An'anaviy dezinfeksiya jarayonlari bilan integratsiya qilinadi.

<b>2.1 blok</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b> <b>3.1 -mavzu</b>	<b>Gazli sterilizatsiya. Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.</b>
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashg'ulot
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	1.Sterilizatsiya tushunchasi va turlari 2.Fizikaviy usul turlari. 3.Kimyoviy usul turlari. 3.Radiatsion usul. 4.Plazmali sterilizatsiya. 5.Ozonli sterilizatsiya.

## O'quv mashg'uloti maqsadi:

### 1.Ta'limiy:

- Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash
- Amaliy ko'nikmalarni egallash
- Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash
- Deontologik tarbiyaning shakllanishi
- Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash

### 2.Tarbiyaviy maqsadi:

- Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish
- Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish
- O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash
- Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish

Ish bosqichlari va vaqt	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi yangiliklar eshitaladi va aytiladi. 1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.
<b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini</b>	1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza	Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu

<p><b>tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy hujum " usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."</p> <p><b>Aqliy hujum"</b> sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa "Gazli sterilizatsiya. Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari."O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y</p>	<p>Tinglaydilir,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Xodimlarni shaxsiy ximoyasiga bo'lgan talablarni. zararsizlantirish bo'limida joriy va mukammal tozalash qoidalari va ahamiyati. Zararsizlantirishdan oldin tozalash usullari.Yuvuvchi eritmani tayyorlash qoidalari.Tibbiy asbob-anjomlarni qo'l bilan olti bosqichli yuvishafzalliklari va kamchiliklari.Zamonaviy Ultratovush</p>	<p><b>O'quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Zararsizlantirishning zamonaviy usullari.Zararsizlantirish bo'limida texnika xavfsizligi qoidalarga rioya qilish. DPM bo'limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlarni va bikslarni ro'yxatga olishdagi, zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug'li va issiq havoli sterilizatorning ishini va</p>
--	---

<p>apparatida yuvish tartibi.Zararsizlantirish va uning turlari. Gazli sterilizatsiya. Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari va zararsizlantirish xonasida texnika xavfsizligi koidalarini bilishi.</p>	<p>tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishdagi me'yoriy xujjatlarni yuritishni bilish. Zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug'li va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishda me'yoriy xujjatlarni yuritishni bilish.avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari: bosim, haroratni nazorat qilish. Avtoklavning ish jarayoniga bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar. Avtoklavni ish jarayonida sinamalarni (indikator)nazorat qilishni.</p>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“Aqliy hujum”, ”mozaika”, ”charxpalak“ Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>O'qitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o'quv xona.</p>
<p>Qayta a'loqaning usul va vositalari.</p>	<p>Og'zaki so'rov:tezkor so'rov, yozma so'rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash</p>

**MAVZU: Gazli sterilizatsiya. Plazmali va ozonli sterilizatsiya usullari.**

**Dars rejasi:**

- 1.Sterilizatsiya tushunchasi va turlari
- 2.Fizikaviy usul turlari.
- 3.Kimyoviy usul turlari.
- 3.Radiatsion usul.
- 4.Plazmali sterilizatsiya.
- 5.Ozonli sterilizatsiya

**Sterilizatsiya**- patogen va nopatogen mikroorganizmlarni vegetativ va sporalari turlarini yo'k qilish usuli. Mikroorganizmlarni turli buyumlardan, asbob-uskunalardan, bog'lov vositalaridan, bemorlarga parvarish qilishda qo'llaniladigan buyumlardan, dori vositalaridan to'liq yo'qotish usullari mavjuddir.

**Sterillashning turlari:**

- a) fizikaviy yoki termik usul;
- b) kimyoviy usul;
- g) fizik-kimyoviy usul
- v) radiatsion usul

**TERMIK STERILLASH USULI**-Termik sterillash jarayonida mikroorganizmlar to'qimalari protoplazmasining pirogenetik yemirilishi yoki uning qaytmas koagulyatsiyasi sodir bo'ladi. Shuningdek, ularning ferment tizimi ham shikastlanadi. Termik usul dorixona, korxonada sharoitlarida keng qo'llaniladi. Dori va uni tayyorlashda ishlatiladigan ayrim predmetlarni sterillash albatta ularning fizik-kimyoviy xossalari hisobga olingan holda olib boriladi.

Bu usulga kuydirish, cho'g'lantirish, quruq issiqlik bilan sterillash, suvda qaynatish, suv bug'i oqimida sterillash, suv bug'i yordamida bosim ostida avtoklavlash, nurlar, ultratovush va yuqori chastotali toklar bilan sterillash, Glasperlenli usullar kiradi.

Bug' bilan sterillash. Barcha mikroorganizmlar va ularning sporalari quruq issiqlikdan ko'ra nam issiqlikka ta'sirchan bo'lishi ma'lum. Shu nuqtai nazardan nam issiqlik sterillash uchun maqsadga muvofiq deb topilgan. Dori tayyorlash jarayonida quyidagi nam issiq bug' bilan sterillash usullaridan keng foydalaniladi: avtoklav usuli, bug' oqimi bilan sterillash.

**STERILLASHNING FIZIKAVIY USULI.**

**1. Kuydirib sterillash.**

Bu maqsad uchun sterilizator qopqog'iga yoki tog'orachaga ishlatiladigan metall asboblarni joylab, ozroq miqdorda 96°li spirt quyiladi va yoqiladi. Spirt yonib alanga o'chgandan so'ng asboblarni ishlatish mumkin. Bu usul bilan juda zarur bo'lgan holatlarda, ozroq, bir nechta metall asboblarni sterillash mumkin» Bunda asboblarni 100% zararsizlanadi, bu usul bir necha marta qaytarilsa metall asboblarni qorayadi, o'tmaslashadi, natijada yaroqligi yo'qoladi.

**2. Cho'g'lantirib sterillash.**

Bu usul bilan ayrim hollarda metall asboblarni olov alangasida cho'g'lantirib sterilizatsiya qilish mumkin. Bu usulda ko'proq bakteriologik laboratoriyalarda mikroblarni ekish davrida foydalaniladigan metallardan yasalgan ilmoq (petlya) gazli yoki spirtli alanga beruvchi asbobdan foydalanib sterillanadi zararsizlantiriladi.

**3. Quruq issiq xavo bilan sterillash.**

**Havo bilan sterilizatsiya qilish usuli**- Issiq quruq havo bilan sterilizatsiya qilish usuli namlanishi, zanglashi va boshqa sabablarga ko'ra bug' bilan sterilizatsiya qilinmaydigan buyumlardan qo'llaniladi. Havo bilan sterilizatsiya bug' sterilizatorlari qo'llaniladigan muassasalarda o'rnatilgan havo sterilizatorlarida o'tkaziladi. Havo uslubi shishadan yasalgan (shprits, idishlar) metall (jarrohlik),

ginekologiya va stomatologiya asboblari, kauchukli va boshqa buyumlarda qo'llaniladi" (havo bilan sterilizatsiya) qilinadi.

Bu usul bilan metalldan yasalgan asboblarni sterilizatsiya qilish birmuncha ko'p tarqalgan. Shu maqsadda quruq issiqlik beradigan maxsus shkafdan foydalaniladi. Shkaf eshigi yopiladi va elektr tarmog'iga ulanadi, 10-15 daqiqadan so'ng shkaf ichidagi harorat 120 -140 gradusgacha ko'tariladi. Haroratning doimiyligini kontaktli harorat o'lchagich bilan boshqarib turiladi. Bu usuldagi sterilizatsiya ishonchli hamda asboblarni unchalik ishdan chiqmaydi.



#### *4. Suvda qaynatib sterillash.*

Bu usul bilan asosan metalldan yasalgan asboblarni, shisha va rezinali buyumlar sterillanadi. Sterilizatsiya zich bekitiladigan, qopqog'i va elektr isitgichi bo'lgan metall qutidan iborat maxsus sterilizatorlarda (2 va 3-rasmlar) bajariladi. Sterillash uchun asboblarni maxsus to'rga joylanadi yoki matoga o'ralib so'ng sterilizatorga qo'yiladi va sterillanadi. Shisha buyumlar shpritslar, probirkalar, menzurkalar, pipetkalar va boshq.) ham boshqa asboblardan alohida holda qaynatib sterillanadi. Shisha buyumlar ham sterillashdan oldin dokaga o'ralib so'ng sterillanadi. Suv qaynab chiqqandan so'ng 45 daqiqa mobaynida qaynatish yo'li bilan sterillanadi. Bu usuldan foydalanishda 2% gacha soda eritmasidan foydalaniladi, ba'zida esa soda qo'shilmasdan ham sterillanadi.

#### *5. Suv bug'i yordamida.*

Bug' bilan bosim ostida sterilizatsiya qilish Bug' bilan sterilizatsiyalash usuli to'yingan suvli bug' bosimi ostida barcha turdagi mikroblarni yo'qotishda yaxshi natija beradi. Bug' bilan sterilizatsiya usuli bug' sterilizatorlarida amalga oshiriladi. Bug' bilan sterilizatsiyalash kasalxonalar va poliklinikalarning turli bo'limlarida, mikrobiologiya laboratoriyalarida, farmatsevtika va boshqa muassasalarda qo'llaniladi. Bug'li sterilizatsiyaga yara yuzasiga tego'vchi qon va uning preparatlariga hamda shilliq qavatga tegib, uni jarohatlantirish xavfi bo'lgan asbob-uskunalar beriladi. Bug'li sterilizatorlar tuzilishi, ishlash bosimi va boshqa

ko'rsatkichlarga qarab farqlanadi, sterilizatorlar yumaloq, to'g'ri burchakli ko'rinishda bo'ladi. Bug' oqimida sterillash usulida, sterilizator deb nomlanuvchi maxsus apparatlardan foydalaniladi. Ular har xil bo'lib, tuzilishi quyidagicha: qizdirish manbai, bug' hosil qilish xonasi va qopqoqdan iborat. Apparatning pastki qismiga suv quyilib, ichida eritmali dorisi bo'lgan shisha idishlar temir to'rlarga joylashtiriladi va qizdiriladi. Harorat, suv qaynab bug' hosil bo'lganda 100 gradusga yetgandan so'ng 30 - 60 daqiqaga qizdirish davom ettiriladi ularni Kox va infundir sterillash apparatlari deyiladi.

Bu usul bilan choyshablar, bog'lov vositalari, rezina qo'lqoplar, turli asboblari, qon quyish tizimlari va boshqalarni avtoklavda sterillash mumkin. Avtoklavlar tuzilishi va turi jihatidan har xil bo'lib, ularning bajaradigan ishi ishlash va ishlatish tartibi deyarli bir xil. Avtoklav odatda qo'sh devorli, metall dan yasalgan qozondan iborat bo'lib, devorlari orasiga suv quyiladi. Sterilizatsiya qilinadigan vositalar bikslarga joylanib avtoklavning ichiga qo'yiladi. Avtoklav qopqog'i yopiladi va germitizatsiya holatini saqlash maqsadida boltlari burab qo'yiladi. Avtoklavning manometri, ehtiyot klapani, suv va bug'ni chiqarish uchun jo'mragi bor. Avtoklavlarda elektr isitgich, gaz yoki boshqa yonuvchi vositalar orqali suv qizdirilishi mumkin. Avtoklavdagi suv qizib, qaynab bug' hosil bo'ladi. Bunda bug' kamerasidagi bosim va shunga muvofiq holda harorat ko'tariladi. Bosim bilan bug' harorati o'rtasida uzviy fizikaviy bog'lanish mavjud: bosim 1 atm. bo'lganda harorat 120°S, 1,5 atm. bo'lganda - 127°, 2 atm. bosimda esa - 132°S ga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, bosim qanchalik yuqori bo'lsa, harorat ham shunchalik yuqori bo'ladi. 1 atm. bosimda 1 soat mobaynida, 1,5 atm. bosimda 45 daqiqa, 2 atm. bosimda esa 30 daqiqa mobaynida sterilizatsiya bajariladi.





yoki xonasidagi havoni tozalashda, zararsizlantirishda yoki sterillashda qo'llaniladi. Ultrabinafsha nurlar manbai sifatida simob kvarsli bakteritsid uviol (BUV - 15, BUV - 30) lampalari, keyingi vaqtda NBO (devorga o'rnatiladigan), PBO (shipga o'rnatiladigan) va MBO (mayak tipli) bakteritsid lampalar qo'llanilmoqda.

#### *6. Ultratovush orqali sterillash.*

Ultratovush to'lqinlari orqali yoki ularning ta'sirida jarrohlik asboblari, kichik plastmassali vositalar, jarrohning barmoqlari zararsizlantiriladi. So'nggi vaqtlarda asboblari, rezina buyumlar (kateter, qo'lqop, tizim va *boshqa.*) hamda optik asboblarni sterillashda *ham* qo'llanilmoqda. Bunday sterilizatorlar past haroratda va juda qisqa vaqt ichida zararsizlantirish xususiyatiga ega bo'lib, bunda sterillangan vositalarning chidamliligi saqlanib qoladi.



### 7. Yuqori chastotali toklar bilan sterillash.

Yuqori chastotali toklar mashina va lampa generatorlari yordamida yuqori tebranishli magnit maydonini hosil qilish yo'li bilan olingan bo'lib ular sanoatda va tibbiyotda turli vositalarni zararsizlantirishda qo'llaniladi. Ular solingan idishlar ochilmasa yoki tasodifan yirtilib butunligi buzilmasa sterillangan holati saqlanaveradi.

### 8. Glasperlenli sterillash.

Qizdirilgan kvars donachalari muhitida sterillash (3 sekunddan 10 minutgacha). Ishchi xarorat-230 gradus vaqti 20dan-180soniyagacha. O'lchami 52mmdan oshmaydigan(borlar,ignalar) mayda buyumlar-20soniya. O'lchami 52 mmdan ortiq bo'lgan (qisqichlar,kornsanglar) buyumlar-180 soniyagacha. Uskunalar 15mm chuqurlikka botiriladi. Mayda buyumlar to'liq botiriladi, katta buyumlarni ishchi qismi botiriladi. Sterilizatsiyalangan buyumlar zarurat bo'yicha tezda ishlatiladi.



Qizdirilgan kvars donachalari muhitida sterilizatsiya qilish

Qo'llaniluvchi uskunalar	Ishchi harorat, °C	Sterilizatsiya vaqti, sek.	Qo'llash Sohasi
Glasperlen sterilizator	230	20	Mayda asboblari (borlar, ignalar va b.) kattaligi 52 mm dan ortiq emas
	230	180	Kattaligi 52 mm dan ortiq asboblari (qisqichlar, kornsanglar va b.)

1. Sterilizatsiya uchun asboblarni qizdirilgan kvars donachalariga 15 mm ga botiriladi. Kattaligi 52 mm dan yuqori bo'lmagan mayda asboblarni (borlar, ignalar va h.k.) to'liq botiriladi, katta asboblarning (qisqichlar, skalpellar va b.) faqat ishchi qismlari botiriladi. Sterillanuvchi asboblari quruq bo'lishi kerak.

2. Glasperlen sterilizatorida mayda asboblarni sterillaganda maxsus qisqichlardan foydalanish kerak.

Sterillangan asboblarni darhol zarurat bo'yicha ishlatiladi.

### *KIMYOVIY STERILLASH*

Kimyoviy sterilash usuli mikrofloraga kimyoviy moddalarni ta'sir ettirish yo'li bilan olib boriladi. Ularning ba'zilar mikroorganizmlarni o'ldiradi, ya'ni bakteritsid ta'sir ko'rsatadi. Bunday kimyoviy moddalar antiseptiklar deb ataladi. Boshqa bir moddalar mikroorganizmlarni o'ldirmaydi, lekin keyingi rivojlanishni to'xtatib qo'yadi. Ular konservantlar deb nomlanadi. Hozir tibbiyot amaliyotida antiseptik va konservant moddalardan yetarli darajada foydalanilmoqda.

Dorilar uchun antiseptiklar sifatida qo'llaniladigan moddalarning organizmga salbiy ta'siri bo'lmasligi kerak. Masalan: simob dixlorid kuchli antiseptik bo'lishiga qaramay, uni bu maqsadda ishlatib bo'lmaydi. Dori tarkibida konservantlarni qo'llanilishi birinchidan mikroorganizmlarni ko'payishini to'xtatsa, ikkinchidan dori preparati ochilganda unga tashqaridan mikroorganizm tushib, ko'payish havfini pasaytiradi.

Farmatsevtika amaliyotida konservantlar sifatida quyidagi moddalar ishlatiladi.

Nipagin - paraoksibenzoy kislotasining metil efiri, oq kristall poroshok, suvda oz eriydi (20<sup>0</sup>S da 0,25%), spirtda eriydi. 0,05 % konsentratsiyadanoq ta'sir eta boshlaydi. 0,03% da bu konservant beziyon hisoblanadi. 0,25% gacha konsentratsiyada ishlatiladi. Bakteritsid ta'siri fenoldan 2,6 marta yuqori.

Nipazol - paraoksibenzoy kislotasining propil efiri. Suvda 0,03 % da eriydi. Bakteritsid ta'siri fenoldan 15 marta yuqori. Qiyin eriydigan bo'lgani uchun 0,07 % li aralash eritma xolida foydalaniladi. Bu aralashma 7 qism nipagindan va 3 qism nipazoldan tashkil topgan bo'lib, ishonchli konservant hisoblanadi. Aralashma erituvchi sifatida qizdirilganda tez parchalanadigan moddalardan in'eksion eritmalar tayyorlashda qo'llaniladi.

Xlorbutanolgidrat - (xloreton) rangsiz kristall modda, kamfora hidiga ega, 200 g suvda eriydi. Spirtda oson eriydi. 0,5 % gacha konsentratsiyada qo'llaniladi.

Trikrezol - metilfenol, yuqori bakteritsid xususiyatga ega, toksik ta'siri fenolga nisbatan juda past 0,3% gacha konsentratsiyada qo'llaniladi.

Fenol - 0,5 % gacha konsentratsiyada qo'llaniladi.

Feniletil spirti chet ellarda ko'p qo'llaniladi, 0,3 % li eritmasi ko'z tomchilarini konservantlashda ishlatiladi.

Sefirol tipidagi preparatlar: Yuqori molekulali birikmalarni, to'rtlamchi ammoniy asosi xosilalari tuzlari: sefirol (miristol - dimetil - benzilammoniy). Sefiran-laurin dimetilbenzilammoniy (xloridbenzalkoniy) ham qo'llaniladi. Ikkala preparat ishqoriy reaksiyali rangsiz suyuqlik. Patogen mikroorganizmlarga bakteriostatik va bakteritsid ta'sir ko'rsatadi. Ginekologiyada (0,5 - 1%li), xirurgiyada (0,1-0,5%), qo'lni yuvish uchun (1%) eritmasi, va instrumentlarni dezinfeksiya qilish uchun ishlatiladi. 1:10000 konsentratsiyali eritmada dori moddalar eritmasi tarkibida konservant sifatida ishlatiladi.

Konservantlardan yana spirt, glitserin, suvli ajratmalar tarkibida, xloroform, xloroformli suv (ekstraktlar ishlab chiqarishda), salitsil kislota (0,1%) qo'llaniladi. Konservantlar issiqlikka chidamsiz dori moddalardan in'eksion eritma

tayyorlashda ishlatiladi. Ammo ularni dori tarkibiga o'zboshimchalik bilan kiritish mumkin emas. Albatta shifokor ko'rsatmasi va tegishli ma'lum bo'lgan tarkib bo'yicha qo'shish lozim.

Buning uchun signaturada konservantning miqdori va qo'llanishi ko'rsatilishi kerak. Ba'zi dorivor moddalar o'z-o'ziga bakteriostatik ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ularga konservantlar qo'shish kerak emas. Masalan - geksametilentetramin eritmasi.

Gaz yordamida sterillash

Bu xil kimyoviy sterillash turi, uchuvchan, dezinfeksiyalovchi moddalarni qo'llashga asoslangan bo'lib, ularni vakuum hosil qilish orqali yoki yengil isitish orqali eritma tarkibidan chiqarib yuborish mumkin. Bu usul haroratga chidamsiz bo'lgan dori preparatlarini sterillashda ishlatiladi. Amaliyotda hozirgi kunda ishlatilayotganlaridan suyuq etilen oksid va  $\beta$ -propionlaktonlar ma'lum. Ularni bakteritsid xususiyati eritmada gidrolizlanib, mikroorganizmlarga kuchli ta'sir ko'rsatadigan moddalar hosil bo'lishiga asoslangan. Eritmalarni sterillash uchun etilen oksidni 400-500 mg/l miqdor konsentratsiyasi yetarli hisoblanadi. Sterillash vaqti 6 soat, etilen oksid gidrolizlanganda etilenglikol hosil bo'ladi. Etilen oksid va SO<sub>2</sub> aralashmasi bilan sterillash usuli AQSh (1965y) va Angliyaning (1963 y) farmakopeyalarida ko'rsatilgan.

Suyuq etilen oksid 10,7<sup>0</sup>S qaynaydi, po'lat balonlarda saqlanadi. Oson yonuvchan. Teriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. 0,5 mg/l konsentratsiyada etilen oksid odamga zaharlovchi ta'sir ko'rsatmaydi. Zaharli ta'sirni kamaytirish uchun SO<sub>2</sub> aralashmasi bilan ishlatiladi (9+1) qism. Chet ellarda etilen oksid termolabil moddalarni sterillash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari asboblarni, apparatni, plastmassani, bog'lov materiallarini sterillash uchun ishlatiladi. Sterillash maxsus apparat kameralarida navbatma-navbat vakuum va bosim ta'sir ettirib olib boriladi. Keyin 2-4 marta steril havo bilan "yuviladi".

$\beta$ -propionlakton suyuqlik bo'lib, qaynash harorati 153<sup>0</sup>S. Suvda eriganda  $\beta$ -oksiopropion kislotagacha gidrolizlanadi. 0,2% li  $\beta$ -propionlakton eritmalarni sterillash uchun ishlatiladi, 37<sup>0</sup>Sda 2 soat inkubatsiya qilinadi. Gaz holdagi  $\beta$ -propionlakton ko'zdan yosh oqizuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Bu usul yordamida kimyoviy eritmalar bilan asosan issiqlikka chidamsiz asboblarni sterilizatsiya qilinadi. Ularni ko'pincha po-limer materiallardan jarohlik asboblari, rezina qllqoplarni sterillashda qo'llaniladi.

Nam sterillashda turli aralashmalar ishlatiladi. Bular tarkibida xlor, yod, oksidlovchilar, kislota, aldegidlar tutuvchi aralashmalar bo'ladi. Ulardan asosan vodorod peroksidi bilan dezoksan keng qo'llaniladi.

Vodorod peroksidining 6% li eritmasi 18<sup>0</sup>S da 6 soat, 60<sup>0</sup>S da 3 minut mobaynida qo'llaniladi. Vodorod peroksidi eritmaları yopiq idishda saqlanib tayyorlangandan so'ng 7 kun mobaynida ishlatilishi. mumkin

Dezoksanning 1% eritmasi 18<sup>0</sup>S da 45 minut ishlatiladi.. Dezoksan 1 % eritmasi esa faqat tayyorlangan kuni ishlatiladi.

DS-1 - 3-5% konsentratsiyali 18-20 xaroratda sterilizatsiya vaqti 60 daqiqadan 30 daqiqagacha. Metall, shisha, rezina va polimerdan yasalgan tibbiy buyumlarga qo'llaniladi.

### Sterilizatsiyaning kimyoviy usuli

Sterilizatsiya ob'ekti	Konsentratsiyasi %	Harorat, °C	Sterilizatsiya vaqti min, sek	Eritmaning ifloslanguncha qo'llanish muddati	Qo'llash sohasi
1	2	3	4	5	6
Vodorod peroksid	6 6	15 50	6 soat 3sek.	Bir marta	Korroziyaga chidamli temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar
«DS-1»	3 5	18-20	60 min 30 min	14 sutka	Temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar
«ABK - Oksi»	8 6	18-20	15 min. 30 min.	14 sutka davomida	Temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar

1. Tibbiy asboblarni sterilizatsiya bo'yicha barcha ishlar aseptik sharoitlarda bajariladi. Kimyoviy sterilizatsiya o'tkaziladigan xona jarrohlik bloki kabi joylarda tayyorlanadi (mukammal tozalanadi, kvarslanadi). Xodimlar steril maxsus kiyim, qo'lqoplar kiyadi. Sterilizatsiya uchun, hamda sterillovchi vosita qoldiqlarini yuvish uchun steril idish, steril ichimlik suvi yoki 0,9% li natriy xloridning eritmasi kerak, shuningdek anjomlarni eritmada olish uchun asboblarni, quritish va o'rash uchun steril salftkalar zarur.

2. Tibbiy anjomlar 2-3 marta steril suvda 5 minutdan chayiladi.

3. Eritmalarda sterillangan tibbiy anjomlarning sterilligining saqlanish muddatlari:

- o'ralmagan xolda aseptik sharoitda – ishlov berilgandan 6 soat o'tguncha;
- ikki qavat paxta mato bilan o'ralib, steril ichiga steril choyshab to'shalgan sterillovchi qutiga solinganda – 3 sutkadan ko'p emas;

4. Sterilizatsiya jarayonida vodorod peroksidning harorati saqlanib turilmaydi.

5. Sterillovchi vosita eritmalaridan ko'p marta foydalanilganda suyulib ketmasligi uchun, tibbiy anjomlar eritmaga quruq xolda solinishi lozim.

#### ***Ozonli sterilizatsiya.SO-01-SPB***

Faqatgina korroziyaga chidamli metallardan ishlangan oddiy shakldagi tibbiy buyum(skalpel, qisqich oyna, zond, shpatel, bor)lar ozon bilan sterillash mumkin. Buyumlar o'rasmsiz sterillanadi. Saqlanish muddati-aseptika qoidalariga

rioya qilingandasteril stol),ikki qavat mato bilan o'ralganda -3sutka,bakteretsid lampali kamerada-7kun.



Bu usul uchun gazli sterilizatorlar qo'llaniladi.


Sterillovchi agent– formaldegid yoki etilen-oksidi.

O'ramlar : laminat-qog'oz, pergament, kraft-qog'oz.

Materiallar: polimer, oyna, shisha,metall.

Afzalliklari: past xaroratli, turli materiallarni qo'llanilishi.

Kamchiliklari:xodimlar uchunxavfzislik choralari ko'rilmaganda portlash extimoli borligi, sterilizatsiya siklini davomiyligi,uzoqligi



Фиг. 1



Gazli sterilizatsiya issiqlik bilan ishlamaydigan ob'ektlarda qo'llaniladi. Bular oynali, yuzali jarrohlik asboblari, kesuvchi va sanchiluvchi asboblari, ketgut, zondlar,

plastmassali sintetik kateterlardir. Gazli sterilizatsiyada sporatsid ta'sirga ega etilen oksidi, metil bromid va uning aralashmasi, formaldegid va boshqalar qo'llaniladi. |

Gaz usulida sterilizatsiya qilish uchun tavsiya etilgan xorijiy bir martalik o'rash materiallarining muayyan turlari, shuningdek, ularda buyumlar sterilligini saqlashning tegishli muddatlari ushbu firmalar o'ramlarini qo'llash bo'yicha metodik hujjatlarda ko'rsatilgan. Steril tibbiy asbob-anjomlarini saqlash muddati 1 sutkaga teng. 65 180 ±5 Polimer mahsulotlari dan (rezina, plastmassa) tayyorlangan buyumlar 0,06-0,2 mm qalinligidagi polietilen plyonka ikki qavatidan tayyorlangan o'ram, pergament, ivitilmagan xalta kog'oz, namlikka chidamli xalta kog'oz, chidamli o'rash qog'ozi, yupqa g'ijim qog'oz, "Vipak Medikal" (Finlyandiya) firmasi va "Reksam" (Buyuk Britaniya) korporatsiyasi sterilizatsiya o'rash materiallari\* \* \* 120 ±5 Metall va shishadan tayyorlangan buyumlar

Etil spirti formaldegid eritmasi bug'lari bilan sterilizatsiya qilingandan so'ng polimer materiallar, metallar va shishadan tayyorlangan buyumlarni gazdan tozalash (degazatsiya qilish) talab etilmaydi, biroq qon bilan aloqada bo'ladigan rezina va plastmassadan tayyorlangan buyumlar bundan mustasnodir, chunki ular xona sharoitida ikki sutka davomida gazdan tozalanishni talab etadi.— Gaz usulida sterilizatsiya qilish uchun tavsiya etilgan xorijiy bir martalik o'rash materiallarining muayyan turlari, shuningdek, ularda buyumlar sterilligini saqlashning tegishli muddatlari ushbu firmalar o'ramlarini qo'llash bo'yicha metodik hujjatlarda ko'rsatilgan. Steril tibbiy asbob-anjomlarini saqlash muddati 1 sutkaga teng.

#### **Sterilizatsiyaning gazli usuli**

<b>Qo'llaniluvchi uskunalar</b>	<b>Ishchi harorat, °C</b>	<b>Sterilizatsiya davri (Sterilizatsiya holatiga o'tish, sterilizatsiya, faollikni to'xtatish), min.</b>
Asosiy sterilizator SO-01-SPB	50 dan ortiq emas	90

Faqatgina korroziyaga chidamli metallardan ishlangan oddiy konfiguratsiyadagi tibbiy asboblarni (skalpellar, qisqichlar, oynalar, silliqlovchilar, zondlar, shpatellar, qattiq stomatologik borlar) ozon bilan sterillash mumkin. Asboblari o'ramasdan sterillanadi. Asboblarning sterilligining saqlanish muddatlari – aseptika qoidalariga rioya qilingan xolda (steril stol) ish kuni soatlarida (smena – 6 soat), ikki qavat paxta mato bilan o'ralganda – 3 sutka, bakteritsid nurlantiruvchi kamerada – 7 sutka.

#### **PLAZMALI STERILLASH USULI.**

Plazmalı usul. Eng zamonaviy usul. 60% vodorod peroksidi ishlatiladi va uning parlarida plazma yordamida sterillanadi.

60% vodorod peroksidi parlari qo'llaniladi va uning plazma xolatida sterillanadi. Pastxaroratli sterilizatsiya usuliga kiradi 50 gradusgacha qiziydi. Qimmatbaxo va qulay usul.



Xamma turdagi tibbiy vositalarni zararsizlantirish uchun qo'llasa bo'ladi.

**RADIATSION USUL BILAN STERILLASH.**

Sanoatda ishlatiladigan usul, kimmatbaxo usul. Gamma va Betta nurlari bilan zararsizlantiriladi. Tibbiyotda ishlatiladigan bir marotaba qo'llaniladigan tibbiy vositalar- rezina qo'lqoplar, kateterlar, sistemalar, shpritslar va boshqa..



**Radiatsion sterillash usuli**

Bu usul xozirgi kunda AQSh va Angliyada ko'p ishlatiladigan sterillash usuli hisoblanadi. Nur bilan sterillash o'z xossasi bilan sovuq usul hisoblanib, unda

sterillanayotgan predmet - harorati 3% gacha oshishi mumkin. Shu sababli bu usul haroratga chidamsiz dori moddalarni sterillash uchun qulay hisoblanadi. Sun'iy ravishda olingan radioaktiv izotoplardan  $So^{60}$  va yadro reaktorlari qoldiqlari radiatsion nurlanish manbaalari bo'lishi mumkin. Odatda sterillashga  $2,5 \times 10^6$  rad. yetarli hisoblanadi. Moslamada ishlayotgan odamlar, ishlash vaqtida uni ta'siridan muhofaza qilinishi kerak, qoldiq radiatsiyani chaqirmaydi.

Ob'ekt jihozlangan xolda sterillanishi mumkin. Radioaktiv nurlar ta'sirida o'tkaziladigan sterillash mexanizmini aniq aytish qiyin, ammo shu narsa aniqki, sterillash natijasida oz-oz miqdorda bo'lsa ham turli parchalanish mahsulotlari ajraladi. Uglevodlar, aromatik birikmalar, oqsillar, aminokislotalar, antibiotiklar, vitaminlarning radioaktiv nur ta'sirida sterillash natijalari o'rganilgan. Xirurgiya amaliyotida ishlatiladigan ketgut, plazma, bog'laydigan-o'raydigan ash'yolarning sterillash natijalari o'rganilgan. Dorixona sharoitida bu usul qo'llanilmaydi.

Bunday usul bilan sterillashda katta inert kuchga ega bo'lgan vositalardan foydalaniladi. Sterillash kuchining sifati uning buyumlarni har xil chuqurlitigacha yetib borishidadir. Amaliyotda beta va gamma nurlaridan foydalaniladi. Bunday usulda har qanday mikroorganizm zararsizlanadi. Sterillanadigan buyum va vositalar germetik holdagi qog'ozli, polietilenli yoki sintetik, kletchatkadan tayyorlangan qutichalarda sterillanadi. Ular orqali beta yoki gamma nurlari bema'lol o'tadilar va sterillaydilar. Ularning sterillangan holati cheklanmagan vaqtgacha saqlanib, sterilizatsiya faqatgina xaltacha ochilsa yoki tasodifan yirtilganda buzilishi mumkin. Nurlar bilan sterillash yaxshi usul bo'lib, bu usul ishlab chiqarish sanoatidagi chiqarilgan vositalarni tayyor holda qo'llash uchun mo'ljallangan vositalarga nisbatan qo'llaniladi.

#### **BIOLOGIK USUL BILAN STERILLASH.**

Bu usulda turli antibiotiklarning suvli eritmalaridan foydalanib, ishlatiladigan asboblardan, rezinali, metallardan tayyorlangan zondlar, kateterlarni va bemorlarga parvarishda qo'llaniladigan turli vositalarni zararsizlantirish mumkin.

#### **FILTRLAB STERILLASH**

Filtrlab sterillash deb, mayda teshikchali filtrlar orqali eritmalarini filtrlab, mikroorganizm va ularning sporalaridan tozalash usuliga aytiladi. Bu usul hozirgi kunda farmatsevtik korxonalarda juda keng qo'llaniladigan usul hisoblanib, dorixona amaliyotidagina ham qo'llanish me'yorlari ishlab chiqilmoqda. Asosan bu usul yordamida haroratga chidamsiz bo'lgan dori moddalar eritmalarini sterillanadi. Termik sterillashdan oldingi jarayon sifatida mexanik usulda eritmani mikroorganizmlardan tozalab olish hozirgi vaqtda keng qo'llanilmoqda va yaxshi samara berayapti. Bu filtrlar asosan keramika, shishadan va sintetik tolalardan tayyorlanadigan membranali filtrlardir.

Mikroteshikchali filtrlarni tozalash xususiyati mikroorganizm tanachalarini mexanik to'siqda ushlab qolishigagina asoslangan bo'lmay, balki shu teshikcha yuzasi va g'ovaklari orasiga ularning tanachalarini so'rilib (adsorbsiyalanib) qolishiga asoslangan. Bu usulni qo'llashdagi tekshirishlarni ko'rsatishicha filtrlarning adsorbsion xususiyati mikroorganizm turi, uni eritmadagi miqdori va filtrlash sharoiti bilan bog'liqdir.

Bu filtrlarga bakteriologik shamcha deb ataluvchi silindrsimon shaklda, o'rtasi bo'sh silliqanmagan farfordan yasalgan keramik (sopol) filtrlar kiradi. Bu "shamchalar" orqali filtrlash 2 usulda olib borilishi mumkin. Birinchi usul suyuqlik ustki ochiq teshik orqali filtr ichiga tushib undan bosim ta'sirida idishga filtrlanadi. Ikkinchi usul: filtrini ustki ochiq teshigi orqali mahsus moslama bilan boshqa idishga biriktirilib, shamcha eritma ichiga tushiriladi va biriktirilgan idishdagi havo so'rib olinishi natijasida filtrlanadi.

Shisha filtrlar - shisha donalari yopishtirilgan plastinka hisoblanib, har xil o'lchamda chiqariladi. Katta o'lchamli g'ovakli filtrlar eritmalarini filtrlash maqsadida qo'llaniladi. 5 nomerdagi filtr teshikchalari o'lchami 0,7-1,5 mkm kattalikda bo'lib steril eritmalar olish uchun qulay. Filtrlash vakuum ostida olib boriladi. Shisha filtrlar ishlatish uchun qulay, arzon. Ularni qo'llashdan oldin sterillanadigan eritmalar oddiy filtrlardan o'tkazilishi kerak. Bu shisha filtrlarni ifloslanishdan saqlaydi.

Shisha filtrlar ishlatish davomida mikroorganizmlar, hamda mexanik qo'shilmalar bilan ifloslanadi. Ularni xromli aralashma bilan yuvib tozalanadi. Shisha filtr ishlatayotganda uni ustiga 1-2 qavat filtr qog'oz qo'yilsa, uni ifloslanishi kamayadi va ishlash vaqti uzayadi.

Membranali filtrlar - dori modda eritmalarini to'liq sterillash maqsadida qo'llaniladi. Filtrlash qismi qalinligi 100 mkm, teshikchalari o'lchami 0,2 dan 3 mkm bo'lgan selluloza efirlaridan tashkil topgan govak disk membranadir. Tolalar suv, suyultirilgan kislota va ishqor ta'siriga chidamli, ammo spirt va efir ta'siriga sezuvchan hisoblanadi. Membranali filtrlar quritilganda mo'rt, sinadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ularni tozalangan suvda konservant qo'shib saqlash kerak.

Xozirgi paytda har-xil polimerlar asosida tayyorlangan filtrlar keng qo'llanilmoqda. Masalan, atsetat sellulozadan MFA navli "Vladipor" filtri ishlab chiqarilmoqda. Bu filtr rN ko'rsatkichi 1,0 dan 10 gacha bo'lgan eritmalarini mexanik aralashma va mikroblardan tozalash uchun ishlatilishi mumkin. Ular teshikchalari o'lchami 0,05 dan 0,95 mkm gacha bo'lgan 10 ta nomerda chiqariladi. Steril filtrlash uchun teshikchalari o'lchami 0,25-0,35 va 0,35-0,45mkm bo'lgan MFA-3 va MFA-4 markalari yaroqli. MFA filtrlari 120<sup>0</sup>S da to'yingan bug' bosimi ostida, 180<sup>0</sup>S da issiq havo oqimida, formaldegid, etil spirti, vodorod peroksid, etilenoksid, UB (ultra binafsha) va gamma nurlari bilan ishlov berib sterillanishi mumkin.

Sintetik tolalardan tayyorlangan filtrlar. Ularga misol qilib, Zeyts filtri va Salmikov filtrini olish mumkin. Filtrni asosiy qismlaridan ramalar va ustki qopqog'i, filtrlaydigan asbest plastinkalar rama orasida joylashtiriladi. Suyuqlik asbest plastinka orasidan o'tib filtrlanadi va shtutserlar orqali tozalanib chiqadi. Yig'ilgan filtr moslamani ishlatishdan oldin sterillanadi. Filtr bosim ostida ishlaydi

### **Interaktiv usullar.**

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

### **Mozaika” - ish o‘yinini o‘tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruh-larga bo‘linadilar. Mavzuga oid rasmlar konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi rasmlarni ma’lum vaqt ichida to‘g‘ri joylashtirib berishlari shart.

So‘ngra o‘qituvchi to‘g‘ri javobni doskada ko‘rsatadi. Birinchi va to‘g‘ri javob bergan guruh baholandi.

**Charxpalak metodi- tinglovchilarga** o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash yoki tekshirish, hamda bir-birini baholash imkoniyatini beruvchi metoddir.

“Chaxpalak” usulini o‘tkazish uchun-o‘quv xonasidagi stollar doira ko‘rinishida joylashtiriladi. Stollarning ichki va tashqi tomoniga bittadan stul joylashtiriladi.

Tinglovchilar ikki guruxga bo‘linib, ”mexmon” va “mezbon” sifatida stolning ichki va tashqi tomoniga joylashadilar.

“Mexmon”lar stolning ichki tomoniga o‘tirib, savollarga javob beradilar. Ularga o‘quv qaydnomalari topshiriladi.

Ular o‘zlaring ism va shariflarini yozib, javob baholarini qo‘ydirib boradilar. Soat strelkasi bo‘yicha siljiydilar. Xar bir mezbonning savoliga javob beradilar.

Javob baholari jamlanib, umumiy baxo chiqariladi.

Keyin ”mexmon” va “mezbon”lar almashinadilar.

O‘qituvchi “Charxpalak usulinig to‘fri olib borilishini nazorat qiladi, kamchiliklarni to‘ldirib boadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Sterilizatsiya – tushunchasi ?
2. Zararsizlantirish uchun MSBga qabul qilingan tibbiy asboblarni, maxsus eritmada ishlash, chayish, qaynatish, quritish ishlatishning 6 bosqichli tadbiri.
3. Asboblarning vositalarning qo‘l yordamida hamda mexanizatsiyalashtirilgan apparat ishtirokida olib borish.
4. Zararsizlantirishning fizikaviy usuli .
5. Zararsizlantirishning kimyoviy usuli..
6. Zararsizlantirishning mexanik usuli.
7. Zararsizlantirishning biologik usuli..
8. Zararsizlantirishning aralash usuli.

### TEST SAVOLLARI

1. Sterilizatsiya nima?
  - A) Mikroorganizmlarni kamaytirish
  - B) Faqat patogen mikroorganizmlarni yo‘q qilish
  - C) Mikroorganizmlarning vegetativ va sporali turlarini to‘liq yo‘q qilish\*
  - D) Mikroorganizmlarni vaqtincha to‘xtatish
2. Sterilizatsiyaning nechta asosiy turi mavjud?
  - A) 2
  - B) 3
  - C) 4\*
  - D) 5
3. Termik sterilizatsiya jarayonida nima sodir bo‘ladi?
  - A) Mikroblar ko‘payadi
  - B) Protoplasma koagulyatsiyasi va yemirilishi sodir bo‘ladi\*
  - C) Fermentlar faollashadi
  - D) Mikroblar muzlaydi
4. Quyidagilardan qaysi biri termik sterilizatsiya usuliga kiradi?
  - A) Radiatsiya
  - B) Kimyoviy modda
  - C) Quruq issiq havo\*
  - D) Antiseptik
5. Quruq issiq havo bilan sterilizatsiya qaysi asboblarning uchun qo‘llaniladi?
  - A) Plastik buyumlar
  - B) Metall va shisha buyumlar\*
  - C) Mato buyumlar
  - D) Yog‘och buyumlar
6. Bug‘ bilan sterilizatsiya qilishning asosiy usuli nima?
  - A) Avtoklav\*

- B) Radiatsiya
  - C) Ultratovush
  - D) Filtrlash
7. Kuydirib sterilizatsiya qilishda qanday modda ishlatiladi?
- A) Spirt\*
  - B) Yod
  - C) Xlor
  - D) Formalin
8. Bakteriologik laboratoriyalarda metal ilmoq qanday sterilizatsiya qilinadi?
- A) Qaynatish
  - B) Cho‘g‘lantirish\*
  - C) Radiatsiya
  - D) Kimyoviy modda
9. Quruq issiq havo sterilizatsiyasida harorat odatda necha gradusga yetadi?
- A) 60–80°
  - B) 90–100°
  - C) 120–140°\*
  - D) 200°
10. Nam issiqlik sterilizatsiyasi qaysi sababga ko‘ra samarali?
- A) Mikroorganizmlar sovuqqa chidamli
  - B) Mikroorganizmlar nam issiqlikka sezgir\*
  - C) Mikroorganizmlar kislorodga muhtoj
  - D) Mikroorganizmlar yorug‘likka sezgir

### TIBBIY ATAMALAR

1. **Sterilizatsiya** – mikroorganizmlarni to‘liq yo‘q qilish jarayoni.
2. **Mikroorganizmlar** – ko‘z bilan ko‘rinmaydigan tirik organizmlar.
3. **Patogen mikroorganizmlar** – kasallik keltirib chiqaruvchi mikroblar.
4. **Sporalar** – mikroorganizmlarning chidamli shakli.
5. **Termik sterilizatsiya** – issiqlik yordamida sterilizatsiya qilish.
6. **Avtoklav** – bug‘ bosimi yordamida sterilizatsiya qiluvchi apparat.
7. **Quruq issiq sterilizatsiyasi** – issiq havo bilan sterilizatsiya qilish usuli.
8. **Radiatsion sterilizatsiya** – nurlar yordamida sterilizatsiya qilish.
9. **Kimyoviy sterilizatsiya** – kimyoviy moddalar yordamida mikroblarni yo‘q qilish.
10. **Ultratovush sterilizatsiyasi** – yuqori chastotali to‘lqinlar bilan sterilizatsiya qilish.

### VAZIYATLI MASALALAR

1. Hamshira jarrohlik asboblari tezda sterilizatsiya qilishi kerak. U spirt quyib yoqdi.  
**Savol:** Bu qaysi sterilizatsiya usuli?
2. Laboratoriyada mikroblarni ekishdan oldin metal ilmoq alanga ustida qizdirildi.  
**Savol:** Bu qaysi sterilizatsiya usuli?
3. Dorixonada shisha idishlar quruq issiq shkafda 130°C da sterilizatsiya qilindi.  
**Savol:** Bu qaysi sterilizatsiya turi?
4. Jarrohlik asboblari bug‘ bosimi ostida sterilizatsiya qilindi.  
**Savol:** Qaysi apparat ishlatilgan?
5. Ba’zi asboblarni namlanmasligi kerakligi sababli bug‘ bilan sterilizatsiya qilinmadi.  
**Savol:** Qaysi usul qo‘llanadi?
6. Tibbiyot xodimi metall asbobni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olovda qizdirdi.  
**Savol:** Bu qaysi sterilizatsiya usuli?
7. Farmatsevt dorilarni tayyorlashdan oldin asboblarni sterilizatsiya qildi.  
**Savol:** Sterilizatsiyaning asosiy maqsadi nima?
8. Jarrohlik asboblari nam issiqlik yordamida sterilizatsiya qilindi.  
**Savol:** Nima sababdan nam issiqlik samaraliroq?
9. Tibbiy buyumlar radiatsiya yordamida zararsizlantirildi.  
**Savol:** Bu sterilizatsiyaning qaysi turi?
10. Tibbiyot muassasasida sterilizatsiya qilingan asboblarni maxsus steril qadoqda saqlanmoqda.  
**Savol:** Bu nima uchun zarur?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug‘risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. -2012y
- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskiy rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения
- 6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

#### **Internet- materiallari:**

- 1.Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagi tibbiy portal.
- 2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
- 3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
- 4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”

5. [www.mediasphera.aha.ru/mjamp/mjamp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjamp/mjamp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoj praktiki
6. [www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
7. [www.abk.uz](http://www.abk.uz)
8. [www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
9. <http://www.minzdrav.uz/>– O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
10. Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
12. SSO [steriliz.narod.ru/08cis.htm](http://steriliz.narod.ru/08cis.htm)
13. [Osnaenie SSO - Farmstandart-Medtexnika](http://Osnaenie_SSO_-_Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/)[www.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/)
14. SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
15. <http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
16. SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.1 blok</b> <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b> <b>3-mavzu</b>	<b>Zamonaviy ultratovush apparatida yuvish tartibi.</b> <b>Zararsizlantirish va uning turlari.</b>
---	---

**Ma’ruza mashg’ulotini O’qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O’quv mashg’ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashgulot
<b>Ma’ruza mashg’uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Zamonaviy ultratovush apparatida yuvish tartibi.</li> <li>2. Zararsizlantirish va uning turlari.</li> </ol>

## O'quv mashg'uloti maqsadi:

### 1.Ta'limiy:

- Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash
- Amaliy ko'nikmalarni egallash
- Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash
- Deontologik tarbiyaning shakllanishi
- Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash

### 2.Tarbiyaviy maqsadi:

- Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish
- Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish
- O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash
- Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish

Ish bosqichlari va vaqt	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi yangiliklar eshitaladi va aytiladi. 1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib O'yin qoidalirini tushintiradi.	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.
<b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini</b>	1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza	Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollariga javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi

<p><b>tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</b></p>	<p>O'qish"usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy hujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar."</p> <p><b>Aqliy hujum"</b> sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
*ShII profilaktikasi* bo'yicha tadbirlar epidemiologik tahlil natijalariga asosan ishlab chiqiladi, hamda vaziyatga muvofiq tarzda ularga muntazam ravishda tuzatishlar kiritib boriladi. Komissiya yig'ilishi zaruratga qarab, lekin har chorakda bir marotabadan kam bo'lmagan holda ish faoliyati yakunlarini ko'rib chiqish (eshitish) bilan o'tkaziladi. O'zaro bog'liq ShII holatlari qayd etilgan taqdirda, navbatdan tashqari yig'ilish o'tkaziladi. Komissiya qarori barcha xodimlar tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi. Komissiya tomonidan turli epidemiologik ahamiyatga ega tashhis va davolash muolajalari, manipulyatsiyalar, izolyatsion cheklash tadbirlari, dezinfeksiya va sterilizatsiya uslublari samaradorligini baholash ishlari olib boriladi.

Profilaktika tadbirlari har bir bemorni gemakontakt infeksiyalarning (gepatitning V, S turlari, OIV va boshqalar) potensial manbai sifatida baholanishi tartibidan kelib chiqqan holda olib boriladi. DPMga ishga kirayotgan har bir xodim qonunchilikka muvofiq tibbiy ko'rikdan o'tishi shart. Gepatitning V turiga qarshi vaksinatsiya(emlash) o'tkazilganligi haqida ma'lumot mavjud bo'lmagan holda kasallik yuqishi bo'yicha yuqori xavf guruhiga oid tibbiyot xodimlari va DPM xodimlari ishga kirish vaqtida hepatitning V turiga qarshi profilaktik immunizatsiyadan o'tadi. Davolash-profilaktika muassasalarida sanitariya-gigiena, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar hamda dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha javobgarlik DPM bosh vrachiga, bo'lim mudirlariga, tungi vaqtda tungi navbatchi vrachlarga yuklatiladi.

Qabul bo'limi quyidagi pedikulyozga qarshi to'plam bilan ta'minlanishi kerak:

- bemor buyumlarini yig'ish uchun kleyonkali yoki paxta-ip gazlamali xaltacha;
- soch tolalarini yoqish yoki zararsizlantirish uchun ruxlangan chelak yoki tog'ora;
- kleyonkali pelerina (elkaga tashlagich);
- rezinali qo'lqoplar;
- qaychi;
- toza taroq (metalldan tayyorlangan bo'lgani ma'qul);
- soch olish mashinkasi;
- spirt chiroq;
- ro'mol (2-3 dona);
- paxta;
- oshxona sirkasi yoki 5-10%li sirka kislotasi;
- bosh bitlarini yo'q qilish uchun preparatlar;
- bitlarning barcha bosqichida ta'sir etuvchi preparatlar (ovitsidlar).

Eslatmalar: - pedikulyozga qarshi to'plam barcha muassasalarda bo'lishi zarur.

Preparatlar sertifikat va yorlig'ida ko'rsatilgan yaroqlilik muddatiga muvofiq tarzda vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi. To'plamda bosh bitlariga qarshi 1-2 ta vosita hamda xona dezinseksiyasi uchun 1-2 vosita bo'lishi yetarlidir.

Asbob-uskunalar, anjomlar yuvish va zararsizlantirish uchun qulay joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Har yili 1 maydan 31 oktabrga qadar psixonevrologik, narkologik dispanserlar va boshqa ixtisosdagi DPM ga oshqozon-ichak faoliyati buzilishi bilan kelib tushayotgan shaxslar klinik hamda epidemiologik ko'rsatmalarga ko'ra vaboga bir martalik bakteriologik tekshiruvdan o'tkaziladi.

Qabul bo'limi. Bemorni ko'zdan kechirish kleyonka bilan qoplangan kushetkada olib boriladi. Har bir bemor qabulidan so'ng kleyonka tarkibida 0,5 %li xlor saqllovchi dezinfektant eritma yoki boshqa dezinfeksiya eritmasi yordamida artiladi. Ishlatilgan latta yaxshilab yuviladi, quritiladi hamda quruq holda xaltachalarga joylanadi. Shpatellar tarkibida 0,5 %li xlor saqllovchi (yoki shunga o'xshash eritmalar yo'riqnoma bo'yicha) eritmaga 10 daqiqaga solib qo'yiladi, yaxshilab yuviladi va MSBga topshiriladi, bir marta ishlatiladigan shpatellar esa amaldagi me'yoriy hujjatga asosan o'rnatilgan tartibda utilizatsiya qilinadi.

Termometrlar ishlatilganidan so'ng sovunlab yuviladi hamda quruq holda saqlanadi.

Joriy tozalash ishlari kuniga kamida 3 marta, shu jumladan, dezinfeksiya qilish eritmaları qo'llanilgan holda 1 marta o'tkaziladi. Tozalov ishlari anjomlari ishlatilganidan so'ng zararsizlantiriladi hamda ular uchun maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi.

Somatik statsionarlarda (bo'limlarda) shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi Barcha tibbiy asbob-uskunalar ishlatilganidan so'ng darhol tarkibida xlor saqllovchi dezinfeksiya vositasining 5 %li ishchi eritmasida yoki yo'riqnomaga muvofiq boshqa dezinfeksiya vositalarida 10 daqqa davomida saqlab turgan holda zararsizlantiriladi. Shundan so'ng tibbiyot hamshirasi (rezinali qo'lqoplarda) uni oqib turgan suvda chayib yuboradi, (rakovina bo'lmagan taqdirda asbob-uskunalar toza suvli idishga solinadi) hamda MSB ga topshiriladi.

In'eksiyalarni o'tkazish oldidan bir martalik shprits va sistema bemorning huzurida o'ramidan ochiladi. Bo'limda ko'rinarli joyda (yo'lak, xoll) bemorga bir martalik shprits va sistema uning huzurida o'ramdan ochilishi haqida eslatib turuvchi majburiy yozuv bo'lishi kerak.

Flakonga ignani kiritish oldidan ko'pdozali flakonlarning rezinali tiqini 70%li spirt eritmasi bilan yaxshilab artiladi.

Infuzion eritmalar flakonlari ishlatilishi oldidan loyqalanish, zarrachalar, yoriqlar mavjudligi va yaroqlilik muddati ko'zdan kechirib tekshiriladi. Steril dori vositalari alohida kichik qadoqlarda tayyorlanishi kerak. Flakonlar va ampulalar ochilganidan so'ng darhol ishlatilishi kerak. Ochilgan ampulalarning takroran ishlatilishi ta'qiqlanadi. Flakonlarning faqat bitnafar bemor uchun takroran ishlatilishiga ruxsat etiladi.

Muolajaxonaning turli yuzalariga qon, uning preparatlari va boshqa biologik ajratmalari tushgan taqdirda 10 daqiqaga ustiga tarkibida 0,5 %li xlor saqllovchi (yoki unga o'xshash) preparat quyiladi, latta bilan yig'ib olinadi. So'ngra latta zararsizlantiriladi hamda yuviladi. Qon, uning preparatlari va boshqa biologik ajratmalari polga to'qilgan taqdirda, 10 daqiqaga ustiga tarkibida xlor saqllovchi dezinfeksiya vositasining 3 %li eritmasi quyiladi, ko'p miqdorda to'qilganda preparat va chiqindilar 1:5 nisbatda quruq xlor ohagi (yoki tegishli

konsentratsiyadagi boshqa dezinfektant) sepiladi, shundan so‘ng pol latta bilan yig‘ib olinadi, so‘ngra dezinfektantda zararsizlantiriladi va yuviladi.

Huqna qilish xonasi kushetka, javoncha, stol, xalatlar uchun ilgichlar bilan jihozlanadi. Esmarx krujkasi 10 daqiqa davomida tarkibida xlor saqlovchi 5 %li dezinfeksiya vositalarda yoki boshqa dezinfektantda ushbu preparat yo‘riqnomasiga muvofiq to‘liq botirib qo‘yish orqali ishlov beriladi. Katta idishlarda (0,5 l banka va sh.k.larda) vazelin saqlanishi ta‘qiqlanadi. 10,0 gr.dan ortiq bo‘lmagan sig‘imda saqlashga ruxsat beriladi. uchliklar ishlatilgandan so‘ng 10 daqiqa davomida tarkibida xlor saqlovchi 5 %li dezinfeksiya vositalarda yoki boshqa dezinfektantda ushbu preparat yo‘riqnomasiga muvofiq zararsizlantiriladi, sovunli eritmada yaxshilab yuviladi, so‘ngra sterilizatorida qaynagan vaqtdan e‘tiboran 20 daqiqa davomida qaynatish uslubi bilan chuqur dezinfeksiya qilinadi hamda quruq holda saqlanadi.

Termometrlar ishlatilgandan so‘ng sovunli suvda yaxshilab yuviladi hamda quruq holda saqlanadi.

Bir martaliklar shpatellar bo‘lmagan taqdirda ko‘p martalik va boshqa tibbiyot asbob-uskunalar 10 daqiqa davomida tarkibida xlor saqlovchi 5 %li dezinfeksiya vositalariga (yoki tegishli konsentratsiyadagi boshqa dezinfektantda) botirib qo‘yish orqali zararsizlantiriladi. Shundan so‘ng asbob-uskunalar suv bilan yaxshilab chayiladi. Shpatellar sterilizatsiya qilish uchun MSBga topshiriladi.

Niqoblarni zararsizlantirish: marli niqoblari ishlatilganidan so‘ng quruq idishlarga yig‘iladi, so‘ng ular maxsus ajratilgan xonada xo‘jalik sovuni bilan yuviladi, quritiladi hamda dazmollanadi. Niqoblar yuvilishi uchun javobgarlik bo‘lim xo‘jalik hamshirasi zimmasiga yuklatiladi. Bir marta fodalaniqan niqoblar 4 soatdan so‘ng utilizatsiya qilinadi.

*ShII ni dunyo mikyosida epidemiologik tarkalganligi.*

Jaxon Soglikni Saklash Tashkiloti (JSST) tomonidan tashkil kilingan va dunyoning turli regionlarida utkazilgan ShII ning epidemiologik nazorati ma‘lumotlari, dunyoning turli mamlakatlarida, kasallikning yukori darajada va keng mikyosda tarkalganligi tugrisida guvoxlik beradi. Ushbu ma‘lumotlarga asosan, kasalxonaga joylashtirilgan bemorlar urtasida ShII infeksiya bilan kasallanish darajasining kursatgichi, urta xisobda 100 bemorga 8,4-9,9% foizni tashkil etgan. Xamdustlik davlatlar xududlarida utkazilgan anologik tekshirish ishlarining ma‘lumotlari xam yukorida keltirilgan kursatgichlarni tasdiklaydi. Keltirilgan ma‘lumotlarga asosan, kasalxonaga joylashtirilgan bemorlarning 6,5-8,7% foizi ShII bilan zararlanishi aniklandi. Kasalxona ichi infeksiyasi bilan kasallanish darajasi davolash muassasalarining turi va soxasiga karab, 3 dan 20,7% foizgacha bulgan kursatgichlarda tebranib turadi. Xozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda kasalxona ichi infeksiyasining uchrash xollari, shifoxonaga joylashtirilgan bemorlarning umumiy soniga nisbatan 5-12% foizni tashkil kiladi. Shunga asosan, rivojlangan davlatlarda xar yili axolining 1% foizi ShII bilan kasalanishi aniklandi.

ShII ning kelib chikishi, iktisodga xam katta ta’sir kursatadi. Ma‘lumki, ShII ning asosiy kasallikga kushimcha bulib kushilishi, bemorning shifoxonada davolanish muddatini uzaytirib yuboradi. Bu esa uz navbatida ortikcha iktisodiy

sarf-xarajatga olib keladi. Xorijiy davlatlar adabiyotlari ma'lumotlariga asosan, AKShda gospital infeksiya keltirgan iktisodiy zarar 10 mlyard dollarga teng. Operatsiyadan keyingi yiringli-septik yoki jaroxat infeksiyasini davolash uchun esa, kushimcha 400 dan 2600 dollargacha sarf-xarajat kilinadi. Vaxolangki, bemorning shifoxonadagi bir kunlik yotok-joyining (koyko-den) narxi 45-50 AKSh dollariga teng keladi. Vengriyada ShII keltirgan iktisodiy zarar, bir yilga 130-150 million forintni tashkil kiladi. FRGda gospital infeksiya bilan kurashish yiliga davlatga kushimcha 500 milliondan 1 mlyardgacha markaga tugri keladi.

ShII profilaktikasi:

1. Shifoxonalarda va yirik poliklinikalarda gospital epidemi-ologlar shtatini kiritish va ularning faoliyatini ta'minlash.
2. DSENMIlarida KII profilaktikasi bilan shugullanadigan bo'limlar tashkil kilish.
3. Shifoxonalarda KII nazorati bilan shugullanadigan maxsus xay'at (komissiya) tashkil kilish.
4. Tugruksionalarda fakat ona bilan bola mulokatda bo'lishini ta'minlash.
5. Tugruksionalarda xar xil kasalliklarga chalingan xomilador onalar uchun kunduz kuni davolanadigan bo'limlar yoki palatalar tashkil kilish.
6. Shifoxonalarga yotkiziladigan bemorlar sonini bo'limlarda, palatalarda iloji boricha kamaytirish.
7. Bemorlarning shifoxonalarda davolanish muddatini maksimal kamaytirish..

### **Bog'lov xonasiga qo'yiladigan talablar**

Bog'lov xonasi "toza" va "yiringli" bog'lash amallalari uchun maxsus ajratiladi. Bog'lov xonasi bitta bo'lgan taqdirda yiringli yaralarga ishlov berishni toza yaralar muolajalari o'tkazilganidan so'ng olib boriladi, so'ngra xonalar va barcha asbob-anjomlarni dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yaxshilab ishlov beriladi. Bog'lashlar ketma-ketligini yaralar tozaligini hisobga olgan holda rejalashtiriladi. Bog'lov xonasi steril asbob-anjomlar va sarflash materialining yetarli miqdori bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bog'lashlar olib borilishi uchun to'plamlar har bir kishiga aloxida bo'lishi kerak. Alohida to'plam jarrohlik asbob-anjomlari va bog'lov materialining yetarli miqdoridan iborat bo'lishi kerak. Bog'lash to'plamlari tarkibi bog'lash turiga qarab belgilanadi. To'plamlar miqdori bog'lashlarning o'rtacha soniga hamda 1-2 to'plamlar qo'shimchasiga muvofiq kelishi kerak. Imkon qadar bir martalik steril tibbiy asbob-anjomlar ishlatilishi kerak. Bo'limlarda jarrohlik amaliyotidan keyingi va og'ir bemorlarda bog'lashni olib borish paytida joylarda bog'lash ishlari steril bog'lash to'plamlari, shu jumladan, steril lotok ishlatilgan holda olib boriladi. Agarda har bir bemorga individual to'plam bo'lmasa, bog'lov stoli kuniga 1 marta 6 soatga yoyiladi. Bunda shoshilinch holatlar uchun bog'lov materiallaridan iborat steril biks zahirada turishi kerak.

Ko'p qo'llaniladigan asbob-anjomlar bog'lashdan keyin dezinfeksiyalovchi eritmaga botirib qo'yish usuli bilan dezinfeksiya qilinadi, so'ngra sterilizatsiyadan oldingi tozalash va sterilizatsiya qilish uchun MSBga topshiriladi.

Davolash-profilaktika muassasiningdezinfeksiyalovchi vositalarga bo‘lgan ehtiyojni hisoblash uchun muassasa bosh vrach buyrug‘i bilan ishchi guruh tuzilib, uning takibiga davolash ishlari bo‘yicha bosh vrach o‘rinbosari, bosh hamshira, bo‘limlar katta hamshiralari, dorixona mudiri, buxgalteriya xodimlari va boshqalar kiradi. Zarur bo‘lganda Davlat sanitariyaepidemiologiya hududiy markazlaridan mutaxassislar jalb qilinishi mumkin. Dezinfeksiyalovchi vositalarga bo‘lgan ehtiyojning yakuniy miqdorini infeksiya nazorati komissiyasi tomonidan hal qilinib, bosh vrach tomonidan tasdiqlanadi. Dezinfeksiyalovchi vositalarga bo‘lgan ehtiyojni hisoblashda zararlantirish ob‘ektlari va usulini – ishqalash (sug‘orish) yoki botirish (ivitish) albatta inobatga olinadi.

**HISOB-KITOB LARNI OLIB BORISH** Xona, asbob-uskuna va boshqa ob‘ektlarni profilaktika (joriy) dezinfeksiya qilish uchun dezinfeksiya vositalariga bo‘lgan ehtiyoj hisob-kitobi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$N \times K \cdot X_i = Q \text{ -----}(S_1 + S_2 + S_3); 100$$

bunda:  $X_i$ - dezinfeksiya vositalariga bo‘lgan yillik ehtiyoj (kg yoki litrda);

$Q$ – dezinfeksiyalar soni (ish kunlari va ishlov berish hisobdan aniqlanadi);

$N$ – 1 kv metrda (l) dezinfeksiyalovchi eritmasarf-harajat normasi;

$K$  - dezinfeksiyalovchi eritma quyugligi (konsentratsiyasi) (%);

$S_1$ - dezinfeksiya qilinadigan xonalar maydoni (kv m);

$S_2$ - dezinfeksiya qilinadigan asbob-uskunalar maydoni;

$S_3$ - dezinfeksiya qilinadigan boshqa ob‘ektlar maydoni.

Zararsizlantirish ob‘ekti sifatida yuza maydonlari davolashprofilaktika muassasalari barcha bino va qurilishlarining qavat reja yoki izohlari asosida belgilanadi. O‘lchov birligi kv.m hisoblanadi. Dezinfeksiya qilinishi kerak bo‘lgan xonalar ichki yuza maydoni quyidagicha hisoblanadi:

pol maydoni + devorlar maydoni = ishlov berilishi kerak bo‘lgan har qanday xona ichki yuza maydoni. Sanitariya-texnik asbob-uskunalar yuza maydoni zararsizlantirish ob‘ekti sifatida quyidagilardan kelib chiqib hisoblanadi:

- bir vanna maydoni 3 kv.m deb qabul qilinadi;

- bir unitaz yoki “bide”maydoni 0,5 kv.m deb qabul qilinadi;

- bir rakovina maydoni 0,5 kv.m deb qabul qilinadi;

- bir dush tagligi maydoni 1,0 kv.m deb qabul qilinadi.

Masalan: bo‘limda 2 vanna, 5 unitaz va 5 rakovina mavjud. Yuza jami maydoni kv.m da:  $2 \times 3 + 5 \times 0,5 + 5 \times 0,5 = 11$  kv.m.

Bitta kushetka, katalka, o‘ziga xos qoplamali to‘shak, stul, krovat oldi tumbochkasi, muzlatgich va boshqa mebel yoki asbob-uskuna quyidagicha hisoblanadi: eni x bo‘yiga, zarur holatlarda bu qancha tomonga ishlov berish kerakligiga qarab 2 yoki 4 ga ko‘paytiriladi.

Amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq xonalar, mebel, asbobuskunalarning kundalik va mukammal tozalashlar, hamda yakuniy dezinfeksiya qilish paytida ishlov beriladigan yuzalar uchun dezinfeksiya vositalariga bo‘lgan ehtiyojni hisoblanda ularning o‘tkazilishi soni, zararsizlantirish usuli – amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq gidropuldan sepish yoki dezinfeksiyalovchi eritma va boshqalar bilan artib chiqish (surtib chiqish) hisobga olinadi.

Mukammal tozalash ishlarilarini olib borish uchun dezinfeksiya vositalarga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$N \times K \times X_2 = \frac{S_2}{100} \times S_4$$

100

bunda:

X: - mukammal tozalashlar uchun muassasalarda dezinfeksiya vositalariga bo'lgan yillik ehtiyoj (litrd);

S<sub>2</sub> – mukammal tozalashlar soni (haftasiga bir marotaba o'tkaziladi);

N- 1 kv metrga (l) dezinfeksiyalovchi eritma sarf-harajat normasi;

K - dezinfeksiyalovchi eritma quyuqligi (konsentratsiyasi) (%);

S<sub>4</sub>- dezinfeksiya qilinadigan maydon

$$S_4 = \text{shift } S^* + \text{pol } S + \text{devor } S.$$

Shift  $S^* = \text{pol } S = ab$ ;

Devor  $S = 2h(a + b)$ , bunda a – xona uzunligi, b– xona kengligi; h– xona balandligi.

\* polga ishlov berish zarur bo'lganda hisob-kitob uchun inobatga olinadi.

Tibbiy buyumlarni dezinfeksiya qilish uchun dezinfeksiya vositalarga bo'lgan ehtiyoj hisob-kitobi quyidagi formulaga ko'ra aniqlanadi:

$$R \times K \times X_z = \frac{M}{100} \times 365$$

100

bunda:

X<sub>z</sub> – tibbiy buyumlarni dezinfeksiya qilish uchun yil davomida zarur dezinfeksiya vositalari miqdori (kg, litrd);

M – dezinfeksiya qilinadigan anjomlar (to'plamlar) soni;

R – bir anjomga dezinfeksiya vositasi sarf-harajati (o'rta hisobdagi shprints uchun 0,1 l; bachadon bo'yniko'rigi bir to'plami uchun 2,5 l; tug'dirish bir to'plami uchun 3,0 l eritma va shu kabi);

K - dezinfeksiyalovchi eritma quyuqligi (konsentratsiyasi) (%).

Botirib qo'yish (ivitib qo'yish) usulida zararsizlantirishda tibbiy buyumlar, bog'lash materiallari, bemorning qoni va boshqa biologik suyuqliklari bilan ifloslangan to'shak to'plamlari, idish-tovoq, bemor chiqindilari, bemorga qarash anjomlari (tuvak, tuvakcha, kleyonka, suvichirgich va termometrlar), qo'lqoplar, tibbiyot xodim maxsus kiyimi, ovqat qoldiqlari va boshqalar zararsizlantirish ob'ektlari hisoblanadi.

Dezinfeksiya vositalariga bo'lgan ehtiyojni hisob-kitob qilishdan avval zararsizlantiriladigan ob'ektlarni to'liq qamrab olish uchun ishchi eritma hajmini aniqlab olish zarur (zararsizlantirish ob'ektlari ustidan quyiladigan ishchi eritma qatlami kamida 1 sm bo'lishi lozim). Botirib qo'yish usulida zararsizlantirish uchun idishlarda zararsizlantiriladigan tibbiy buyum va shu kabilar sonidan kelib chiqilgan qaydlar bo'lishi kerak. Anjomning eritmaga to'liq botirilishi va uning bo'shliqlari to'ldirilishi hisobga olingan ishchi eritma sarf-harajati quyidagilarni tashkil etadi:

- bir dona shprints uchun - 0,1 l.,

- bir dona qon quyish tizimi uchun - 0,5 l,

- bachadon bo'yni ko'rigi bir to'plami uchun - 2,5 l,

- tug‘dirish bir to‘plami uchun- 3 l. - ginekologiya bo‘shlig‘i operatsiyasi to‘plami uchun - 10 l.
- akusherlik operatsiyasi to‘plami uchun (kesar kesish) - 6 l.
- chotni tiklash to‘plami (perineotomiya yoki epiziotomiya bilan kechgan tug‘ishda) - 3 l.
- Idish-tovoq bir to‘plami uchun (tarelka, krujka, oshxona anjomlari) - 2l.
- Chiqindi yoki ovqat qoldig‘i 1 kg uchun ishchi eritmaning 2 hajmi zarur, ya’ni1:2.
- Biologik suyuqliklar bilan ifloslangan 1 kg bog‘lash materiallariga4 - 5 l. sarflanadi
- 1 kg choyshab to‘plamiga - 4 l.

DPM dezinfeksiya vositalariga bo‘lgan ehtiyoji quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$X = X_1 + X_2 + X_3$$

Ob‘ektning dezinfeksiya vositalariga bo‘lgan ehtiyoji jamlanib, bu ma’lumotlar dezinfeksiya hisobi jurnaliga kiritiladi

Dezinfeksiya vositalarini hisobga olish jurnalining shakli

№	Dez. Vosita nomi	Xarid sanasi	Hisob №	Miqdori (kg. l)	Yaroqlilik muddat	Dez. Vosita sarf-harajati B		
						Bo‘lim	Berilgan sana	Miqdori (kg, l)

### **Narkoz-nafas oldirish apparatini (NNA) tozalash va dezinfeksiya qilish**

Narkoz-nafas oldirish, anesteziologik apparatlar va o‘pka sun‘iy havo aylantirish apparatlari yangilariga va har bir ishlatishdan keyin ishlov berilishi (yuvilishi hamda zararsizlantirilishi) kerak.

. Narkoz-nafas oldirish, anesteziologik apparatlar va va o‘pka sun‘iy havo aylantirish apparatlariga konstruktiv xususiyatlariga qarab ikkita usulda ishlov beriladi:

- a) bloklab,
- b) yig‘ilgan holda

Anesteziya va o‘pkada sun‘iy havo aylantirish (O‘SHA) olib borilganda bakterial-viruslar filtri ishlatilishi shart, ftiziatriya amaliyotida Xepa filtrlar ishlatilishi shart. Yangi narkoz-nafas oldirish apparati ishlatilganda dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish ushbu apparatura yo‘riqnomasiga muvofiq olib boriladi.

Nafas konturi alohida elementlari va bloklari hamda apparatlar butlovchi qismlari yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi narkoz-nafas oldirish va anesteziologik asbob-anjomlar va O‘SHA uchun apparatlarni zararsizlantirishning majburiy sharti hisoblanadi.

Chang, bog'lovchi, kukunli moddalardan xoli etish maqsadida yangi apparatlar, pirogen moddalar, to'qimalar va boshqa organik qoldiqlar bo'laklari ifloslanishini tozalash maqsadida ishlatilgandan keyin apparatlar tozalanadi.

Bloklab yuvish jarayoni bir qator ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorlash - uzellarni qismlarga ajratish, shlanglar, biriktiruvchi elementlar, klapan qutilari qopqoqlarini yechish, kondensat to'plagichlarni ajratish hamda bo'shatish va sh.k.

2. Qismlarni dezinfeksiya qilish 3 %li vodorod peroksidida yoki tegishli konsentratsiyadagi boshqa dezinfektantda yo'riqnomaga muvofiq 60 daqiqaga ishlov beriladigan bo'shliqlarni to'liq botirib qo'yish orqali olib boriladi.

3. Ayniqsa, bu biriktiruvchi elementlar naychalarda ajratmalar, eksudatlar, qon va sh.k.larni qurib qolishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Qismlar yuvish eritmasida momiq paxta-marlili tamponlar bilan yuviladi. Tozalash va yuvish uchun o'tkir uchli buyumlar, shuningdek, cho'tkalar yoki yumaloq simcho'tka ishlatish kerak emas, chunki patrubkalarda cho'tkalar (yumaloq sim cho'tkalar)dan tukchalar qolib ketish va ularning keyinchalik nafas yo'llarida aspiratsiyalanishi xavfi bor.

Marlili tamponlar yuvish uchun bir marta ishlatiladi.

Yuvilgan qismlar kamida 3 daqiqa oqar suv ostida chayiladi.

Ishqorli qo'shimchalar qoldiqlarini aniqlash uchun fenolftalein sinovi qo'yiladi. Ishqor qoldiqlari aniqlanganda (ijobiy natija) nazorat uchun olingan buyumlarning barcha guruhiga salbiy natijaga erishilgunga qadar takroran ishlov beriladi.

Narkoz-nafas oldirish apparati 360 daqiqaga 6%li vodorod peroksidida yoki yo'riqnomaga muvofiq boshqa dezinfektantga botirib qo'yish orqali sterilizatsiya qilinadi. Sterilizatsiya oldi barcha bosqichlar va sterilizatsiya qilish ishlari jarrohlik amaliyoti blokida olib boriladi.

Sterilizatsiya qilishdan keyin elementlar va qismlar steril choyshab bilan quritiladi, so'ngra boshqa steril choyshabga qayta yoyiladi hamda bir sutka davomida saqlanadi.

Zamonaviy narkoz-nafas oldirish apparati ishlatilganda dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish ushbu apparaturaning yo'riqnomasiga muvofiq olib boriladi.

### **TEST-SAVOLLARI:**

#### **1. Dezinfetsiya ishining ximiyaviy usuliga qaysilar kiradi?**

1. Kimyoviy vositalar yordamida sterillash

2. Qaynatib sterillash.

3. Nur bilan sterillash.

4. Avtaklavda sterillash.

#### **2. Biologik antiseptiklar jumlasiga qaysi vositalar kiradi?**

1. Gormonlar, antibiotiklar, vitaminlar.

2. Antibiotiklar, fermentlar, immun zardoblar.

3. Immun zardoblar, vitaminlar.

4. Hamma javob to'g'ri.

#### **3. Antiseptika nima?**

1. Jarohatga tushgan mikrobnii yo'qatish.

2. Jarohatga tashqaridan mikroblarni tushirmaslik.

3. Jarohatga tushgan yot jismlarni yo‘qotish.

4. Mikrob va uning sporalarini yo‘qotish.

**4. Maxsus zardoblar vaksina va antibiotiklar bemorlarning himoya kuchlarini oshirish, antiseptikaning qaysi usuliga kiradi?**

1. Kimyoviy.

2. Biologik.

3. Mexanik.

4. Fizikaviy.

**5. Jarohat atrofidagi o‘lgan to‘qimalarni kesib olib tashlash usuli antiseptikaning qaysi turiga kiradi?**

1. Mexanik.

2. Fizik.

3. Kimiyoviy.

4. Biologik

**6. Toza operatsion yaralarda infeksiya rivojlanish xavfi necha foizni tashkil qiladi?**

A) 1–5%\*

B) 10–15%

C) 20–25%

D) 30%

**7. Infektsion nazorat komissiyasi kim tomonidan boshqariladi?**

A) Bosh hamshira

B) Bosh vrach

C) Bosh vrachning davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari\*

D) Vrach-epidemiolog

**8. ShII oldini olish uchun qanday choralar muhim?**

A) Aseptika qoidalariga rioya qilish

B) Dezinfeksiya va sterilizatsiya

C) Epidemiologik nazorat

D) Barchasi to‘g‘ri\*

**9. Shartli toza yaralar qaysi tizimga kiruvchi operatsiyalarda uchraydi?**

A) Nafas yo‘llari

B) Ovqat hazm qilish trakti

C) Siydik yo‘llari

D) Barchasi\*

**10. DPMda epidemiolog bo‘lmasa infeksiion nazorat kim zimmasiga yuklanadi?**

A) Bosh hamshira

B) Bosh vrach o‘rinbosari\*

C) Laboratoriya mudiri

## D) Sanitarka

### Nazorat savollari

1. Shifoxona ichi infeksiyasi (ShII) nima?
2. ShIIning asosiy qo'zg'atuvchilari qaysilar?
3. ShIIning asosiy manbalari kimlar bo'lishi mumkin?
4. Shifoxona ichi infeksiyalarining tarqalishiga qanday omillar sabab bo'ladi?
5. Davolash-profilaktika muassasalarida infeksiyon nazorat nima?
6. Vrach-epidemiologning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Infeksiyon nazorat komissiyasi qanday tashkil etiladi?
8. Operatsiya yaralari kontaminatsiya darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
9. Sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkil etishning ahamiyati nimada?
10. Shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olish choralari nimalardan iborat?

### Tibbiy atamalar

1. **Shifoxona ichi infeksiyasi (ShII)** – shifoxonada yuqgan infeksiyon kasallik.
2. **Aseptika** – mikroorganizmlarning jarohatga tushishini oldini olish qoidalari.
3. **Antiseptika** – mikroorganizmlarni yo'q qilishga qaratilgan usullar.
4. **Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlarni to'liq yo'q qilish jarayoni.
5. **Dezinfeksiya** – patogen mikroorganizmlarni yo'q qilish usuli.
6. **Kontaminatsiya** – mikroorganizmlar bilan ifloslanish.
7. **Epidemiologiya** – kasalliklarning tarqalishini o'rganadigan fan.
8. **Infeksiyon nazorat** – infeksiyalar tarqalishini nazorat qilish tizimi.
9. **Kateterizatsiya** – kateter yordamida organizm bo'shlig'iga kirish jarayoni.
10. **Immunologik reaktivlik** – organizmning infeksiyalarga qarshi javob berish qobiliyati.

### ”Rolli o'yin namoyishi” usuli.

Tinglovchilarni ikkita kichik guruhga ajratiladi. Har bir kichik guruhga vazifa beriladi. Tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Belgilangan vaqt tugagach, guruh ishtirokchilari berilgan vazifani namoyish qilib berishadi. Namoyishda guruhdagi tinglovchilarni xammasi ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

1gurux-Me'yorida ortiq vositalar joylashtirilgan biksgni qabul qilish.  
2gurux-Qopqog'i yopilmaydigan biksni qabul qilish .

### Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008  
«Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y

SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.

2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tugʻrisida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.

3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun qoʻllanma. -2012y

4.«Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)

5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения

6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

### Internet- materiallari:

1.Doctor.uz. (www. doctor.uz) Uzbek tilidagi tibbiy portal.

2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.

3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga

4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”

5.[www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoy praktiki

6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny

7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)

8.[www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)

9.<http://www.minzdrav.uz/>– Oʻzbekiston respublikasi sogʻliqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;

10.Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>

11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)

12.SSO steriliz.[narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)

13.Oснащение SSO - Farmstandart-Medtexnikawww.[phs-mt.ru/center/about/](http://phs-mt.ru/center/about/)

14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya

15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>

16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.2 blok</b> <b>Oʻquv moduliga ajratilgan kredit jami 2.</b>	<b>DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda oʻrni.</b>
--	---

### Maʼruza mashgʻulotini Oʻqitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>Oʻquv mashgʻulotining shakli va</b>	Nazariy mashgulot

<b>turi</b>	
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shifoxona ichi infeksiyalari tushunchasi va turlari</li> <li>2. Shifoxona ichi infeksiyalarning manbalari va yuqish yo'llari</li> <li>3. Shifoxona ichi infeksiyalarining bemorlar va tibbiy xodimlarga ta'siri</li> <li>4. DPMning shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi vazifasi</li> <li>5. Sanitariya-gigiyena va epidemiologik nazoratning roli</li> </ol>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

	<p>tayyorligini tekshiradi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib O'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Savol-javob zanjiri" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar." <b>Savol-javob zanjiri</b>" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib,aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib,baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa:" <b>DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda o'rni.</b></p> <p>O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va</p>	<p>Tinglaydilar,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y	
--	---	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p><b>Ushbu modul</b> Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va vazifalari. Sterilizatsiya ishlariga oid me'yoriy xuquqiy xujjatlar. №0342-sonli O'zR SanQvaM-2017 yil va №0365-19O'zRSanQ va M mohiyati. DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda o'rni.</p>	<p><b>O'quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b>  <b>Modul yakunida tinglovchi</b> Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va vazifalari. Sterilizatsiya ishlariga oid me'yoriy xuquqiy xujjatlar. №0342-sonli O'zR SanQvaM-2017 yil va №0365-19O'zRSanQ va M mohiyati. DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda o'rni.</p>
O'qitish metodlari	"rolli o'yin", "aqliy xujum" Kichik guruxlarda ishlash"
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan ukuv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Ogzaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

**Mavzu: DPM shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda o'rni.**

**Reja:**

1. Shifoxona ichi infeksiyalari tushunchasi va turlari
2. Shifoxona ichi infeksiyalarining manbalari va yuqish yo'llari
3. Shifoxona ichi infeksiyalarining bemorlar va tibbiy xodimlarga ta'siri
4. DPMning shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi vazifasi

## 5. Sanitariya-gigiyena va epidemiologik nazoratning roli

### **Shifoxona ichi infeksiyalari tushunchasi va turlari**

Shifoxona ichi infeksiyalari (nosocomial infeksiyalar) — bu bemorlar tibbiyot muassasasida davolanish jarayonida, ya'ni shifoxonaga yotqizilganidan keyin paydo bo'ladigan infeksiyon kasalliklardir. Ushbu infeksiyalar bemor shifoxonaga yotqizilishdan oldin mavjud bo'lmagan yoki inkubatsiya davrida rivojlanmagan bo'lishi lozim.

Shifoxona ichi infeksiyalari inson salomatligiga sezilarli zarar yetkazishi, davolash muddatini uzaytirishi, asoratlari va o'lim holatlarini ko'paytirishi mumkin. Shu sababli ularni oldini olish va nazorat qilish tibbiyot muassasalarida muhim vazifa hisoblanadi.

### **Shifoxona ichi infeksiyalarining turlari:**

1. **Qon infeksiyalari (septisemiya, bakteremiya)** — asosan qon tomirlari orqali yuqadi, ko'pincha kanyulalar yoki venoz yo'llar orqali kelib chiqadi.
2. **Yurak-qon tomir tizimi infeksiyalari** — masalan, endokardit yoki kateter bilan bog'liq infeksiyalar.
3. **Teri va yumshoq to'qima infeksiyalari** — jarrohlik kesiklari, jarrohlik anjomlari orqali yuzaga keladi.
4. **Tana bo'shliqlari infeksiyalari** — plevra, peritoneum yoki siydik yo'llari infeksiyalari, ko'pincha kateter va sondajlar bilan bog'liq.
5. **Nafas yo'llari infeksiyalari** — pnevmoniya va bronxit, ventilator yordamida nafas olayotgan bemorlarda keng tarqaladi.
6. **Gastrointestinal tizim infeksiyalari** — masalan, antibiotik bilan bog'liq diareya yoki Clostridium difficile infektsiyasi.

Shifoxona ichi infeksiyalarining asosiy xususiyati — ular yuqish manbai shifoxona muhitida bo'lishi va asosan bemorlar, tibbiy xodimlar va jihozlar orqali tarqalishidir. Shuning uchun har bir tibbiyot muassasasida **profilaktik choralar, dezinfeksiya, sterilizatsiya va epidemiologik nazorat** muhim ahamiyatga ega.

### **Shifoxona ichi infeksiyalarining manbalari va yuqish yo'llari**

Shifoxona ichi infeksiyalari bemorlarda ko'pincha **shifoxona ichidagi manbalar** orqali rivojlanadi va tarqaladi. Infeksiyaning manbai va yuqish yo'llarini aniqlash shifoxona ichki infeksiyalarini oldini olish va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

### **Manbalari:**

1. **Bemorlar** – infeksiyani tashuvchi yoki allaqachon yuqtirilgan bemorlar shifoxona ichida asosiy manba hisoblanadi. Ular nafas, qon, teri yoki boshqa suyuqliklar orqali mikroorganizmlarni tarqatadi.
2. **Tibbiy xodimlar** – qo‘l gigiyenasi qoidalariga rioya qilmaslik, shaxsiy himoya vositalarini noto‘g‘ri ishlatish orqali infeksiyani bemordan bemorga yoki o‘zlari orqali tarqatishi mumkin.
3. **Jihozlar va asbob-uskunalar** – sterilizatsiyadan o‘tmagan yoki noto‘g‘ri tozalangan jarrohlik asboblari, kateterlar, sondajlar va boshqa tibbiy jihozlar infeksiya manbai bo‘lishi mumkin.
4. **Atrof-muhit** – xonalar, sirtlar, shkaflar, eshik tutqichlari va boshqa kontakt yuzalar mikroblar bilan ifloslanib, bemorlarga yuqishi mumkin.

### **Yuqish yo‘llari:**

1. **Kontakt yo‘li** – to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita kontakt orqali yuqadi. Masalan, bemorlar bilan bevosita muloqot, shaxsiy gigiyenaga rioya qilmaslik yoki iflos asbob-uskunalarini ishlatish orqali.
2. **Havo-tomchi yo‘li** – kasalning nafas chiqarishi, yo‘tashi yoki hapshirishi natijasida mikroblar havo orqali tarqaladi.
3. **Havo-asosli yo‘l (aerosol)** – maxsus jarrohlik yoki terapevtik protseduralar paytida mayda tomchilar shaklida tarqaladigan mikroorganizmlar orqali.
4. **Oziq-ovqat va suv orqali** – noto‘g‘ri saqlangan yoki ifloslangan ovqat va ichimliklar bilan yuqish mumkin.
5. **Parenteral yo‘l** – in‘ektsiya, kateter yoki boshqa invaziv protseduralar orqali qon yo‘li bilan yuqish.

Shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olish uchun **manbalarni aniqlash, yuqish yo‘llarini nazorat qilish va profilaktik choralarni muntazam amalga oshirish** zarur. Bu jarayon **DPMning** (davolash-profilaktika muassasalari) faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, infeksiyon xavfsizlikni ta‘minlashda markaziy ahamiyatga ega.

### **Shifoxona ichi infeksiyalarining bemorlar va tibbiy xodimlarga ta‘siri**

Shifoxona ichi infeksiyalari (nosocomial infeksiyalar) nafaqat bemorlar, balki tibbiy xodimlarga ham sezilarli zarar yetkazadi. Ularning ta‘siri turli darajada va shaklda namoyon bo‘ladi.

### **Bemorlar uchun ta‘siri:**

1. **Davolash muddatining uzayishi** – infeksiyalar kasallikning asoratlarni kuchaytiradi va shifoxonada qolish vaqtini oshiradi.
2. **Sog‘liqning yomonlashishi** – nosocomial infeksiyalar og‘ir kasalliklarni keltirib chiqarishi, ba‘zan o‘limga olib kelishi mumkin.

3. **Qo‘shimcha davolash xarajatlari** – antibakterial va boshqa terapevtik vositalar ko‘proq ishlatiladi, bu esa bemorning ham, shifoxonaning ham moliyaviy yukini oshiradi.
4. **Asoratlarning xavfi** – operatsiyadan keyingi infeksiyalar, jarrohlik sohasidagi yiringlashlar va boshqa murakkabliklar rivojlanadi.
5. **Psixologik ta‘sir** – uzoq davolanish va kasallikning murakkablashishi bemor va ularning oilalarida stress va tashvishga olib keladi.

#### **Tibbiy xodimlar uchun ta‘siri:**

1. **Infeksiyaga chalinish xavfi** – ishlash jarayonida iflos asboblardan, bemor suyuqliklari va havo orqali yuqadigan mikroblarga duch kelish xavfi mavjud.
2. **Kasbiy faoliyatga ta‘siri** – tibbiy xodimlar ish unumdorligi pasayishi, kasallangan bemorlarni davolash jarayonida ortiqcha yuk va stressga duch keladi.
3. **Psixologik va ruhiy ta‘sir** – bemorlar orasida infeksiya tarqalishi xodimlarda mas‘uliyat va xavotirni oshiradi.
4. **Mehnat sharoitlariga ta‘sir** – infeksiyalar bilan ishlash xavfsizlik choralarini kuchaytirishni talab qiladi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish zarurati ortadi.

Shifoxona ichi infeksiyalarining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun **DPM (davolash-profilaktika muassasalari) faoliyati, sanitariya-gigiyena qoidalari, sterilizatsiya va profilaktik choralar** muhim ahamiyatga ega. Bu choralar bemorlarning sog‘lig‘i va tibbiy xodimlarning xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### **DPMning shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi vazifasi**

DPM (davolash-profilaktika muassasalari) shifoxona ichi infeksiyalarini nazorat qilish va oldini olishda **asosiy tashkilot** hisoblanadi. DPMning vazifalari bemorlar va tibbiy xodimlarning salomatligini himoya qilish, infeksiyalarning tarqalishini kamaytirish va shifoxona ichki xavfsizlik standartlarini ta‘minlashga qaratilgan.

#### **DPMning asosiy vazifalari:**

1. **Sanitariya-gigiyena nazoratini amalga oshirish** – shifoxonadagi barcha bo‘limlarda tozalikka, dezinfeksiya va sterilizatsiya jarayonlariga rioya qilinishini nazorat qiladi.
2. **Infeksion monitoring va statistikani yuritish** – shifoxonada yuzaga kelgan nosocomial infeksiyalarni qayd etadi, ularning manbai va tarqalish yo‘llarini aniqlaydi.
3. **Profilaktik tadbirlarni tashkil etish** – tibbiy xodimlarni o‘qitish, ish tartibi va sanitariya qoidalarini muntazam nazorat qilish, yangi texnologiyalar va vositalardan foydalanishni ta‘minlash.

4. **Favqulodda holatlar uchun choralarni belgilash** – epidemik vaziyatlarda tezkor reja ishlab chiqish, karantin va izolyatsiya choralari qo‘llash.
5. **Jihoz va vositalarni sterilizatsiya qilish jarayonini nazorat qilish** – DPM tibbiy asbob-uskunalar va jihozlarning sterilizatsiya qilinganligini, dezinfeksiya standartlariga mos kelishini tekshiradi.
6. **Bemorlar va xodimlarni xabardor qilish** – infeksiyalarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar, shaxsiy gigiyena qoidalari va xavfsizlik choralari yetkazadi.
7. **Faoliyat samaradorligini baholash** – profilaktik chora-tadbirlar natijasini tahlil qiladi, kamchiliklarni aniqlab, ish sifatini yaxshilash choralari belgilaydi.

DPMning faoliyati shifoxonadagi nosocomial infeksiyalarni kamaytirishga, davolash samaradorligini oshirishga va tibbiy xodimlar hamda bemorlarning xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli har bir shifoxonada DPM faoliyati muhim va markaziy o‘rin tutadi.

### **Sanitariya-gigiyena va epidemiologik nazoratning roli**

Shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olish va nazorat qilishda **sanitariya-gigiyena va epidemiologik nazorat** muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayonlar bemorlar, tibbiy xodimlar va shifoxona atrof-muhitining xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### **Sanitariya-gigiyena nazoratining roli:**

1. **Tozalikka rioya qilishni ta‘minlash** – xonalar, asbob-uskunalar va jihozlarning muntazam tozaligi infeksiyalar tarqalishining oldini oladi.
2. **Shaxsiy gigiyena qoidalari nazorat qilish** – tibbiy xodimlar va bemorlarning qo‘l, kiyim-kechak va ish joyidagi gigiyenaga rioya qilishi infeksiyon xavfni kamaytiradi.
3. **Dezinfeksiya va sterilizatsiya jarayonini tekshirish** – asbob-uskunalar, jihozlar va tibbiy materiallarning steril holatda ekanligini ta‘minlashga yordam beradi.
4. **Ish tartibi va rejimga rioya qilinishini nazorat qilish** – iflos va toza zonalarni ajratish, xonalar havosini shamollatish va zarur rejimlarni bajarish infeksiyalar tarqalishini kamaytiradi.

#### **Epidemiologik nazoratning roli:**

1. **Infeksiyalarni monitoring qilish** – shifoxonada yuzaga kelgan nosocomial infeksiyalarni aniqlash va ularning manbai, tarqalish yo‘llarini o‘rganish.
2. **Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik** – epidemik holatlarda tezkor choralar ko‘rish, izolyatsiya va karantin tartibini belgilash.
3. **Profilaktik tadbirlarni baholash** – amalga oshirilgan dezinfeksiya, sterilizatsiya va boshqa chora-tadbirlar samaradorligini tekshirish.

4. **Xodim va bemorlarning xabardorligini oshirish** – infeksiyalarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar, profilaktik choralar va xavfsizlik qoidalarini muntazam yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, **sanitariya-gigiyena va epidemiologik nazorat** shifoxonadagi infeksiyon xavfni kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish va bemorlar hamda tibbiy xodimlarning salomatligini himoya qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu jarayonlar DPM faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, profilaktik ishlarning samaradorligini ta'minlaydi.

### Nazorat savollari

1. DPM (davolash-profilaktika muassasalari) shifoxona ichi infeksiyalarini nazorat qilishdagi asosiy vazifasi nima?
2. Shifoxona ichi infeksiyalarining bemorlar va tibbiy xodimlarga ta'sirini tushuntiring?
3. Sanitariya-gigiyena nazoratining shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi roli nimadan iborat?
4. Epidemiologik nazorat qanday tarzda nosocomial infeksiyalarni kamaytiradi?
5. DPM profilaktik monitoring va statistikani yuritishda qanday vazifalarni bajaradi?
6. Dezinfeksiya va sterilizatsiya jarayonlarida DPMning roli nimadan iborat?
7. Favqulodda epidemiologik holatlarda DPM qanday choralar ko'radi?
8. Tibbiy xodimlar va bemorlarning xabardorligini oshirish bo'yicha DPMning vazifalari qanday?
9. DPM faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari qanday?
10. Shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda DPMning umumiy o'rni nimadan iborat?

### Test savollari

1. DPMning shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishdagi asosiy vazifasi nima?
  - A) Bemorlarni davolash
  - B) Infeksiyon xavfsizlikni ta'minlash va nazorat qilish
  - C) Dori vositalarini tayyorlash
  - D) Hisobotlarni yuritish
2. Shifoxona ichi infeksiyalari kimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
  - A) Faqat bemorlarga
  - B) Faqat tibbiy xodimlarga

- C) Bemorlar va tibbiy xodimlarga
  - D) Faqat shifoxona rahbariyatiga
3. Sanitariya-gigiyena nazorati nimaga xizmat qiladi?
- A) Ish vaqtini qisqartirishga
  - B) Infeksiyalar tarqalishining oldini olishga
  - C) Jihozlarni bezashga
  - D) Faqat hisobotlarni ko'paytirishga
4. Epidemiologik nazorat nima bilan bog'liq?
- A) Infeksiyalarni monitoring qilish va profilaktik choralarni belgilash
  - B) Faqat ish tartibini nazorat qilish
  - C) Jihozlarni bezash
  - D) Xodimlar sonini oshirish
5. DPM profilaktik monitoringni nimani aniqlash uchun amalga oshiradi?
- A) Bemorlarning yoshi
  - B) Infeksiyaning manbai va tarqalish yo'llari
  - C) Tibbiy xodimlarning ish vaqti
  - D) Jihozlarning rangini
6. Dezinfeksiya va sterilizatsiya jarayonida DPMning vazifasi nima?
- A) Asbob-uskunalarni rangini o'zgartirish
  - B) Steril holatga keltirilganini nazorat qilish
  - C) Faqat xodimlarni o'qitish
  - D) Ish vaqtini qisqartirish
7. Favqulodda epidemiologik vaziyatda DPM nima qiladi?
- A) Hech qanday chora ko'rmaydi
  - B) Tezkor choralar ko'radi, karantin va izolyatsiya tartibini belgilaydi
  - C) Faqat hisobot beradi
  - D) Tibbiy jihozlarni almashtiradi
8. Bemorlar va xodimlarning xabardorligini oshirishda DPM nima qiladi?
- A) Ularni ishga majbur qiladi
  - B) Infeksiyalarning oldini olish bo'yicha tavsiyalar beradi
  - C) Ish vaqtini uzaytiradi
  - D) Jihozlarni yangilaydi
9. DPM faoliyatining samaradorligi nima bilan baholanadi?
- A) Infeksiyalar tarqalishining kamayishi va profilaktik choralar natijasi bilan
  - B) Xodimlar soni bilan
  - C) Ish vaqtining uzayishi bilan
  - D) Jihozlar soni bilan
10. Shifoxona ichi infeksiyalarining oldini olishda DPMning umumiy o'rni nimadan iborat?
- A) Faqat bemorlarni davolashdan iborat
  - B) Infeksiyon xavfsizlikni ta'minlash, monitoring va profilaktik choralarni amalga oshirish
  - C) Faqat sterilizatsiya bilan cheklangan
  - D) Faqat statistik ma'lumot yuritish bilan bog'liq

## TIBBIY ATAMA

1. **Shifoxona ichi infeksiyasi (ShII)** – bemor shifoxonaga yotqizilgandan keyin paydo bo‘ladigan infeksiyon kasallik.
2. **Nosocomial infeksiya** – shifoxona muhitida yuqadigan infeksiyalarning ilmiy nomi.
3. **Septisemiya** – mikroorganizmlarning qon orqali butun organizmga tarqalishi bilan kechadigan og‘ir infeksiya.
4. **Bakteriemiya** – bakteriyalarning qon oqimida mavjud bo‘lishi.
5. **Kateterizatsiya** – diagnostika yoki davolash maqsadida kateter kiritish jarayoni.
6. **Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlarni to‘liq yo‘q qilish jarayoni.
7. **Dezinfeksiya** – patogen mikroorganizmlarni yo‘q qilish yoki kamaytirish usuli.
8. **Aseptika** – jarrohlik jarayonida mikroorganizmlarning tushishini oldini olish qoidalari.
9. **Antiseptika** – mikroorganizmlarni yo‘q qilish uchun qo‘llaniladigan kimyoviy yoki fizik usullar.
10. **Infeksiyon nazorat** – shifoxonada infeksiyalarni kuzatish, oldini olish va nazorat qilish tizimi.

### INTERAKTIV METOD: “SAVOL–JAVOB ZANJIRI”

Bu metodda talabalar yoki o‘quvchilar **ketma-ket savollarga javob berib**, mavzuni bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi.

1-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyasi nima?

**Javob:** Bu bemor shifoxonaga yotqizilgandan keyin paydo bo‘ladigan infeksiyon kasallik.

2-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyalarining asosiy manbalari kimlar?

**Javob:** Bemorlar, tibbiy xodimlar, jihozlar va atrof-muhit.

3-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyalarining asosiy yuqish yo‘llari qaysilar?

**Javob:** Kontakt, havo-tomchi, aerosol, oziq-ovqat va suv orqali hamda parenteral yo‘l.

4-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyalarining eng ko‘p uchraydigan turi qaysi?

**Javob:** Nafas yo‘llari infeksiyalari, jarrohlik yara infeksiyalari va siydik yo‘llari infeksiyalari.

5-bosqich

**Savol:** Kateter bilan bog‘liq infeksiyalar qaysi turga kiradi?

**Javob:** Qon infeksiyalari yoki siydik yo‘llari infeksiyalariga.

6-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyalarining bemorlarga asosiy ta’siri qanday?

**Javob:** Davolanish muddatining uzayishi, asoratlar paydo bo‘lishi va o‘lim xavfining ortishi.

7-bosqich

**Savol:** Tibbiy xodimlar uchun qanday xavf mavjud?

**Javob:** Infeksiyani yuqtirish va kasbiy kasalliklarga chalinish xavfi.

8-bosqich

**Savol:** Shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishda eng muhim choralar qaysilar?

**Javob:** Qo‘l gigiyenasi, sterilizatsiya, dezinfeksiya va shaxsiy himoya vositalari.

9-bosqich

**Savol:** DPMning infeksiyalarni oldini olishdagi vazifasi nima?

**Javob:** Sanitariya nazoratini amalga oshirish, infeksiyalar monitoringini yuritish va profilaktik tadbirlarni tashkil etish.

10-bosqich

**Savol:** Infeksion nazoratning asosiy maqsadi nima?

**Javob:** Shifoxonada infeksiyalar tarqalishini kamaytirish va bemor hamda xodimlar salomatligini himoya qilish.

<b>2.2 blok</b> <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b>	<b>Bakteritsid lampaning ishlashini va mukammal tozalov</b> <b>ishlarini ro‘yxatga olish</b>
---	---

--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashgulot
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Lampaning joylashtirilishi va xavfsiz ishlatilish qoidalari</li> <li>2. Lampaning kunlik va profilaktik ishlashi tartibi</li> <li>3. Tozalov ishlarining turlari: mukammal va yuzaki tozalash</li> <li>4. Mukammal tozalashda ishlatiladigan vositalar va dezinfekcion moddalar</li> </ol>
<p>haroratini aniqligini tekshirish. Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim, sterilizatsiya vaqti, bug‘ning to‘yinishi darajasini qat‘iy nazorat qilish. Sterilizatsiya kamerasing germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati. Avtoklavlar o‘rnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari. Avtoklav bilan ishlash va uni ishlatishda tibbiyot hamshirasining lavozimlik burchlari.</p>	<p>klapanlariga qo‘yilgan talablar. Avtoklav kamerasing haroratini aniqligini tekshirish. Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim, sterilizatsiya vaqti, bug‘ning to‘yinishi darajasini qat‘iy nazorat qilish. Sterilizatsiya kamerasing germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati. Avtoklavlar o‘rnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari. Avtoklav bilan ishlash va uni ishlatishda tibbiyot hamshirasining lavozimlik burchlari.</p>
O‘qitish metodlari	“ <b>Aqliy hujum</b> ”, “ <b>Klaster</b> ”
O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O‘qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O‘qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o‘quv xona.
Qayta a‘loqaning usul va vositalari.	Ogzaki so‘rov: tezkor so‘rov, yozma so‘rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o‘quv topshiriqlarini baxolash

**Mavzu:” Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi.**

**Dars rejasi:**

1. Avtoklav turlari va tuzilishi.
2. Avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidasi
3. Avtoklav o‘rnatilgan xonaga nisbatan qurilish, sanitar va yuridik talablar

#### 4. Avtoklavlarda foydalaniladigan issiqlik manbalari

##### **Avtoklavlarning turlari.**

Avtoklavlar o'zlarining ko'rinishlariga ko'ra gorizontaal hamda vertikal bo'lishi mumkin va ularning bajaradigan ishlari bir xil ya'ni suv bug'i yordamida, turli bosimda sterilizatsiya ishini bajarishdan iborat.

Turli markadagi: **BK-75, AV-1, AG-100, GK-100-2, GP-360, GP-400, GK-100-3, APSh-500, ASh250-A, VKU- 50, AGN, AOV - 50** avtoklavlar mavjuddir.



Markaziy sterilizatsiya bo'limi (MSB)da va sterilizatsiya xonasida, bug' bilan sterilizatsiya qilishda sifatining kafolatli bo'lishi uchun bajariladigan tadbirlar:- Bug' yordamida sterilizatsiya to'liq bajarilishi uchun:sterilizatorlardan o'z qoyidasiga binoan to'g'ri foydalanishning zarurligi,ulardagi o'lchov asboblarning nuqsonsiz va aniq ishlashi;

-Sterillanadigan vositalar orasidan ortiqcha havoni to'liq chiqarib yuborish,sterilizatsiya kamerasining germetikligi,sterilizatsiya vaqtiga, muddatiga to'liq rioya qilish shart.

-Yuqorida keltirilgan tartib-qoidalarning talabga to'liq javob berishi uchun sterilizatorning doimiy ravishda to'liq va nuqsonsiz ishlashini nazorat etib turish kerak.

-Sterilizatorni doimiy ravishda nazorat etib borish,sezilarsiz bo'lgan xatoliklarni o'z vaqtida aniqlab,ularni bartaraf etish natijasida sterilizatsiya ishi sifatsiz bo'lishining oldi olinadi.

Avtoklavlarni tez-tez tekshirib,uning to'g'ri ishlashini nazorat etish har bir bajarilgan sterilizatsiya tadbirining ishonchli, kafolatli bo'lishiga yordam beradi. Bu esa avtoklav ichida kerakli bosimda istalgan haroratning mavjud bo'lishidan darak beradi.

##### **Avtoklavlash usuli.**

Germetik kamerada sof to'yintirilgan bug' yordamida atmosfera bosimidan yuqori bosimda (0,11 mPa – 120<sup>0</sup>S, 0,20 mPa - 132<sup>0</sup>S) moddalarni sterillash usuli avtoklav usuli deb ataladi. Avtoklav usuli asosiy termik sterillash usuli bo'lib

xisoblanadi. Bu usulda sterillash avtoklav deb nomlangan asboblarda amalga oshiriladi. Uning eng sodda konstruksiyasi .

Avtoklav bug' qozonlari turiga kiruvchi asbob xisoblanib, ishlash jarayoni ham ularga o'xshashdir. Bug' qozonidagi bosim avtoklav old qismida o'rnatilgan membranali yoki prujinali manometr orqali kuzatiladi.

Manometr shkalasi texnik atmosfera bosimiga moslashtirilgan bo'lib, avtoklavdagi bug' bosimi tashqi bosimga teng bo'lgan vaqtda strelka nolni ko'rsatib turadi. Avtoklavdagi bug' bosimi bir atmosferadan oshgandagina, manometr millari ham asta-sekin ko'tarila boshlaydi. Demak, manometr atmosfera bosimini ko'rsatmaydi. Manometrda ko'rsatilayotgan bosim avtoklavdagi to'liq yoki absolyut bosim (ata)dan farqli o'laroq, ortiqcha bosim (ati) deb nomlanadi. Manometrik bosimdan absolyut boimga o'tish uchun 1chisiga 1 atm qo'shish kerak. Masalan, manometr ko'rsatkichi 1 ati ni ko'rsatsa, qozondagi absolyut bosim 2 ata bo'ladi. Har bir bosim ma'lum haroratga mos keladi. Shuning uchun bug' bosimini bila turib, uni haroratini aniqlash mumkin. Bunda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Avtoklavga o'rnatilgan manometrni qizib ketishdan himoya qilish maqsadida manometr oldida sifon naycha va uch yo'lli kran o'rnatiladi. Sifon naycha 1,5 oborotli ilonsimon shakldan iboratdir. Avtoklavdan kelayotgan bug' sifon naychada sovib, kondensatlanadi va bug' bosimi manometrga sovigan suv orqali uzatiladi. Bu esa manometrning nozik mexanizmini buzilib qolishdan asraydi. Uch yo'llik kran manometrning sozligini tekshirish uchun xizmat qiladi.

Kran tiqinida ikkita kanali bor:

-Tiqinni o'rtasidan o'tuvchi

-Perpendikulyar kanal

Kran korpusida xam xuddi shunday kanallari bor: skvoznoy ya'ni sifon trubkani manometr bilan biriktiruvchi; ko'ndalang, ya'ni chiqish teshigi yumaloq flans markazida joylashgan kanalli.

Kran tiqinlari to'rt xolatda joylashishi mumkin :

1-ishchi xolat

- bunda, tiqinni to'g'ri yo'li korpusning kanaliga mos keladi, ko'ndalang kanal esa korpus devoriga qaragan bo'ladi.

2-manometrni xoli turganini tekshirish.

Bunda tiqinning to'g'ri yo'li korpus ko'ndalang kanaliga mos keladi. Tiqinning ko'ndalang kanali esa yuqoriga- manometrga qaragan bo'ladi. Bu xolatda manometr avtoklavdan o'chirilgan bo'ladi. Agar manometr sozlangan bo'lsa, strelka tezda nolga tushishi kerak. Kranni ishchi xolatga o'tkazgandan so'ng, manometr strelkasi oldingi xolatiga qaytishi kerak.

3-Sifon naychani suvdan tozalash.

Bunda tiqin to'g'ri yo'li korpusni ko'ndalang kanali bilan tutashadi, ko'ndalang yo'li esa sifon naycha tomonga qaragan bo'ladi. Bu xolatda suv-bug' bilan birga sifon naychadan tashqariga chiqarib tashlanadi. Suv chiqarib tashlangandan so'ng tiqinni 0,5 oborotga burish kerak, bunda sifon naychada yana suv to'planadi. Shundan so'ng tiqin ishchi xolatga kelguncha buraladi.

4-tekshiruv -tajriba xolati

Bunda tiqin to'g'ri yo'li korpus yo'li bilan mos keladi, ko'ndalang kanal korpus ko'ndalang kanali bilan mos keladi. Bunday xolatda avtoklav kamerasini gidravlik sinovi o'tkaziladi. Buning uchun uch yo'llik kran flanetsiga xuddi shunaqa tekshiradigan flanetsi bo'lgan manometr mahkamlanadi. Bir vaqtning o'zida ishchi manometr ko'rsatkichi ham tekshiriladi. Bu ko'rsatkich tekshiruv manometri ko'rsatkichi bilan bir xil bo'lishi kerak. Uch yo'llik kran bilan ishlashni osonlashtirish hamda xatolikka yo'l qo'ymaslik maqsadida tiqin ustiga uni kanallari joylashuviga mos ravishda belgilar chizib qo'yilgan.

Avtoklavda manometrdan tashqari richagli ximoya klapani ham o'rnatilgan (3-rasm). Unga Bug' qozoni uchun ruxsat etilgan chegaraviy bosimga moslab yuk osib qo'yilgan. Avtoklavdagi bosim chegaraviy bosimdan ortib ketishi bilan klapan ochilib, ortiqcha bug' chiqib ketadi. Manometr va klapan o'zaro bir-birini nazorat qilib turadi: bosim chegaraviy bosimga yetganda manometr strelkasi qizil chiziqdan o'tishi va klapani ochilishi bir vaqtda sodir bo'lishi kerak.

23-jadvalda keltirilgan hapopat kattaligiga to'g'ri keladigan bosim ko'rsatkichi kamera ichida xavo-bug' aralashmasi emas, balki faqat toza bug' bo'lgandagina to'g'ri bo'ladi. Dalton qonuniga asosan bug'-havo aralashmasi absolyut bosimi hap bir komponentni absolyut bosimi yig'indisiga tengdir. Shunday qilib, aralashmada bosim xosil qiluvchi havo miqdori qancha ko'p bo'lsa, bug'ning tashqi bosimi shunchalik kam bo'ladi, demak aralashma xarorati xam shunchalik past bo'ladi. chunki, Quruq; havoning issiqlik o'tkazish darajasi bug'nikidan ancha past. Avtoklavdagi havo bug' bilan siqib chiqariladi.

Havo bug'ga nisbatan og'irroq bo'lganligi uchun ( $100^{\circ}\text{S}$  da havoning zichligi  $0,946\text{mg/ml}$ , bug'niki esa  $0,598\text{ mg/ml}$ ) kameraga yuqoridan kirib kelayotgan bug' bosimi ostida, havo pastga qarab xarakatlanadi va chiqish klapani orqali tashqariga chiqarib yuboriladi (4-rasm). Shuning uchun avtoklavga joylashtirilgan predmetlar xavoni butunlay chiqib ketishiga halaqit bermaydigan qilib joylashtirilishi kerak. Kameradan havo chiqarib yuborilgandan so'ng chiqish klapani yopilib, kerakli bosimga yetguncha kameraga toza to'yingan bug' yuboriladi. Odatda sterillash  $0,5-1,1$  ati ( $110-121^{\circ}\text{S}$ ) bosimda 15 daqiqa olib boriladi.

Manometr kerakli bosimni ko'rsatgandan so'ng vaqt belgilanadi. Sterillash muddati tugagandan so'ng qizdirish to'xtatiladi, manometr strelkasi nolga tushguncha kutiladi va asta-sekin kran ochiladi (tez ochib yuborilsa sklyankadagi ortiqcha bosim tiqinni otib yuborishi yoki sklyankalar sinib ketishi mumkin).

Avtoklavdan bug' oqimida sterillash uchun ham foydalanish mumkin. Bunda sterillanuvchi ob'ektga bug' har tomondan tegib turishi va sterillash vaqtida doimo bug' oqimi avtoklavdan chiqib turishi nazorat qilinishi lozim.

Yuqorida ta'riflangan tibbiyot avtoklavi gaz gorelkasi yoki primusda ishlashga moslashganligi bilan noqulaydir. Shu sababli dorixonada qo'llash uchun yangi konstruksiyadagi avtoklavlar (AV) amaliyotga kirib keldi.

Asbob 2 variantda ishlab chiqilgan.

1-AV-1- sterillash kamerasining diametri 400mm, balandligi 600mm;

2-AV-2- kamera o'lchamlari 300x400mm.

AV-1 avtoklavida bir vaqtning o'zida turli hajmdagi shisha idishlardagi 15 litrgacha eritmalarni sterillash mumkin.

Avtoklav quyidagi qismlar bilan jihozlagan:

-elektrokontakt manometri

-sterillash kamerasidagi bosimni nazorat qiluvchi manovakuummeterdabelgilangan bosimni avtomatik ravishda boshqarib turadi;

-ejektor– sterillangan materiallarni quritish moslamasi

havo filtri - quritish moslamasi bo‘lgan avtoklavda sterillangan xalat, tiqin, paxta, filtr qog‘oz va hokazolar oddiy ejeksiyasiz avtoklavda sterillashga qaraganda quruqroq bo‘lib sterillanadi.

Suv-bug‘ kamerasidagi suv satxini nazorat qilish uchun voronka orqali suv quyiladigan maxsus suv ko‘rsatgich o‘rnatilgan. Apparat belgilangan bosim chegaraviy bosimdan oshib ketganda avtomatik ravishda ochiladigan ximoya klapaniga ega.

Yangi konstruksiyadagi avtoklavning tuzilishidagi muhim bir jihatni aytib o‘tish o‘rinlidir. Sterilizatsion va suv-bug‘ kameralari bir-biri bilan kavsharlangan yagona konstruksiyani tashkil qilsada, funksional jihatdan aloxidadir. Bu esa suv-bug‘ kamerasidagi bosimni kamaytirib undan sterilizatsion kamerani o‘chirishni va avtoklavni yuklash va tushirishni yoki ejeksiya o‘tkazish imkonini beradi. Buning xisobiga bug‘ kam sarflanadi, suv-bug‘ kamerasiga suv qo‘shmay turib uch-to‘rt marta sterillash imkoniyati yaratiladi. Nihoyat, keyingi sterillash sikli uchun avtoklavni qizdirish vaqti xam qisqaradi. Avtoklav konstruksiyasi batamom havosiz sterillash jarayonini ta‘minlaydi. Avtoklavning sterillash kamerasi, suv-bug‘ kamerasi qopqog‘ va ustki qatlami zanglamaydigan po‘latdan ishlangan.

Avtoklav qopqog‘i usti plastmassa ushlagichli qulay maxkamlanadigan muruvvat (bolt) bilan qotiriladi. Ish vaqtida ular sovuqligicha qolaveradi. Sterillash kamerasining germetikligi xalqasimon rezina taglik -prokladka yordamida ta‘minlanadi. Avtoklav komplektida olib qo‘yiladigan tokchalari , mayda idishlarni solish uchun savatchalari bor. Bu maqsadda yana standart bokslarni ham ishlatish mumkin.

Avtoklav trubkasimon elementlar yordamida qizdiriladi. AV-1 avtoklavi qizdirish elementining umumiy quvvati 6 kVt. Uning elektr sxemasi sterillash davrida iste‘mol quvvatini 2 kVtgacha kamaytirishga imkon beradi.

Avtoklavni tarmoqqa qalqon orqali ulanadi. Qalqondagi lampaning yonishi avtoklavni tarmoqqa ulanganligini bildiradi. Qisqa tutashuvni oldini olish maqsadida avtoklav o‘tkazgich orqali yerga tutashtiriladi.

Avtoklavning suv-bug‘ kamerasi suv ko‘rsatkichli kolonka voronkasi orqali yuqori belgisiga qadar suv bilan to‘ldiriladi. Bunda kran , ventil va avtoklav qopqog‘i ochib qo‘yiladi. Avtoklavga sterillanadigan ashyolar solib bo‘lingandan so‘ng uning qopqog‘i muruvvatlar bilan mahkamlanib, zich qilib yopiladi. Ventillar va kranlar ham yopilgan bo‘lishi kerak. So‘ng kontakt manometrida chegaraviy bosim avtomatik saqlab turishi kerak bo‘lgan bosim belgilab qo‘yiladi va asbob tarmoqqa ulanadi. Buning uchun yoqib o‘chiriladigan tugmani “yoqilgan” degan holatga, o‘tkazib turuvchi tugmani esa “qizdirish” degan holatga buraladi. Avtoklavning suv-bug‘ kamerasida bosim 1-1,1 at (120<sup>0</sup> S) gacha yetkazish uchun ko‘pi bilan 30 daqiqa qizdirish kerak bo‘ladi. Belgilangan bosimga yetgandan so‘ng ventil ochili b, sterillash kamerasiga bug‘ yuboriladi. Sterillash kamerasidan havo va

kondensatni chiqarib yuborish uchun bir vaqtning o'zida boshqa ventil ham ochib qo'yiladi. Bu jarayonga 10-12 daqiqa vaqt sarflanadi. havo va kondensat chiqarib yuborilgandan so'ng ventil yopiladi va 0,6-0,8 at gacha tushib qolgan bosim qaytadan kerakli kattalikka yetganda pereklyuchatel "sterillash" xolatiga keltiriladi va sterillash vaqti boshlanganligi belgilab olinadi. Bunda sarflanadigan quvvat 2 kVt gacha kamayadi. Sterillash vaqti tugagandan so'ng ventil yopilib, ventil dan bug' va kondensat chiqarib yuboriladi. Vakuum- manometr mili "nol" ga kelganda (ya'ni sterillash kamerasidagi bosim atmosfera bosimi bilan tenglashganda), avtoklav qopqog'i ochilib kamera bo'shatiladi.

Agar materiallarni sterillashdan so'ng quritish lozim bo'lsa, ventil dan bug' va kondensatchiqarib yuborilgandan so'ng 10,11 ventillar ochiladi.

quritish 10 daqiqa davom etadi, bunda bosim 350-400mm.sim.ust. gacha pasayadi. Ejeksiya tugagandan so'ng ketma-ket ventillar yopilib, sterillash kamerasini tashqi atmosfera bilan bog'lash uchun ventil 20 ochiladi. Bug' oqimi ostida sterillash uchun ventil sterillash davomida ochiq turishi kerak.

Avtoklav bug' bosimi ostida ishlaganligi sababli maxsus qoidalarga rioya qilish kerak. Ularning bajarilishi kotlonadzor inspeksiyasi tomonidan nazorat qilib turiladi.

*Avtoklavni yoqishdan oldin:*

1- xar bir detali yaxshilab kuzatiladi.

2- xar bir kranni ochib-yopib armaturasi tekshiriladi.

3-ximoya klapani richagiga maxkamlangan yuk manometrni qizil chizig'iga to'g'ri kelishi tekshiriladi.

*Avtoklav ishlayotganda quyidagilar kuzatilib turilishi shart:*

1- manometr mili belgilangan maksimumdan oshib ketmasin;

2- uch yo'lli kranni manometrni avtoklav bilan bog'lagan xolatda bo'lishi;

3- suv o'lchagichidagi suv satxi kuzatilib turiladi.

Dorixonada ishlatiladigan shisha, metall va chinni idishlar 119-120<sup>0</sup>S haroratda 45 daqiqa davomida sterillanadi.

Moylar germetik yopiq idishlarda 120<sup>0</sup>S haroratda 2 soat davomida sterillanadi.

Turli-tuman bog'lov materiallari (paxta, lignin) doka, xalat, filtr qog'ozi 120<sup>0</sup>S da 45 daqiqa, 132<sup>0</sup>S haroratda 20 daqiqa davomida sterillanadi.

Eritmalarni avtoklavda 120<sup>0</sup>S haroratda sterillash vaqti ularning hajmiga qarab belgilanadi: 100 ml gacha 8 daqiqa davomida; 101 dan 500 ml gacha 12 daqiqa davomida; 501 dan 1000ml gacha 15 daqiqa davomida sterillanadi.

*Bug' oqimi bilan sterillash.*

Bu usul bilan sterillanganda ob'ekt muntazam bug' oqimida 100 gradus haroratda 30-60 daqiqa davomida qizdiriladi. Bu usulning asosiy xususiyati shundan iboratki, suv bug'iga to'yintirilgan bug' ob'ektga to'xtovsiz oqimda yuborib turiladi. Unda havodan nom-nishon qolmaydi. Kok sterilizatori, infundir sterilizatsion asbobi yoki avtoklavda olib boriladigan bunday sterillash usuli to'xtovsiz oqimli bug'da sterillash usuli deb ataladi.

To'xtovsiz oqimli bug'da turg'unligi kamroq bo'lgan dori moddalar eritmalarini sterillanadi. Eritma xajmi 100ml gacha bo'lsa - 30 daqiqa,

100-500ml gacha - 45 daqiqa,

500 – 1000ml - 60 daqiqa sterillash talab etiladi.

#### *Issiq havo yordamida sterillash*

Issiq havo yordamida sterillash quritish kameralarida 160, 180 yoki 200<sup>0</sup>S haroratda olib boriladi. Usulning samaradorligi haroratga, vaqtga, sterillanuvchi ob'ektning issiqlik o'tkazuvchanligiga, ularning sterillash kamerasida issiq havo sirkulyatsiyasini ta'minlay oladigan bo'lib joylashganligiga bog'liqdir.

Issiq havo yordamida sterillash usuli quyidagilarga qo'llaniladi:

a) shishalar, metall va chinni idishlar uchun; ular 180<sup>0</sup>S da 60 daqiqa yoki 160<sup>0</sup>S da 150 daqiqa sterillanadi.

b) issiqqa chidamli poroshoksimon dorivor moddalarning (talk, oq gil, rux oksidi, natriy xlorid va boshqalar) sterillash tartibi quyidagicha:

Miqdori, g	Harorat, <sup>0</sup> S	Vaqt, daqiqa
25,0 gacha	180	30
	200	10
6,0-100,0 gacha	180	40
	200	20
101,0-200,0 gacha	180	60
	200	30

Bunda qatlam qalinligi 6-7 sm dan oshmasligi lozim.

v) mineral va o'simlik moylari, yog'lar, lanolin, vazelin, mum.

Miqdori, g	Harorat, <sup>0</sup> S	Sterillash vaqti, daqiqa
100,0 gacha	180	30
	200	15
101,0-500,0 gacha	180	40
	200	20

Avtoklavlar tuzilishi va turi jihatidan har xil bo'ladi, biroq hamma turining ishlash holati deyarli bir xildir. Avtoklav odatda qo'sh devorli metall qozondan iborat bo'lib, devorlari orasiga suv quyiladi.

Sterilizatsiya qilinadigan vositalar maxsus bikslarga joylanib avtoklav ichiga qo'yiladi. Avtoklavning qopqog'i yopiladi va germetiklik holatini saqlash uchun boltlari burab qo'yiladi. Avtoklavning manometri, ehtiyot klapani, suv va bug'ni chiqarish uchun jo'mragi bo'ladi.

Elektr isitgich, gaz va boshqalar avtoklavda suvni isitadigan manba bo'lishi mumkin. Avtoklavda suv qizdirilganda qaynab bug' hosil bo'ladi. Bunda kameradagi bosim va shunga muvofiq holda harorat hosil bo'ladi. Bosim bilan bug' harorati o'rtasida uzviy fizikaviy bog'lanish mavjudligi bo'yicha ma'lumot quyidagi jadvalda berilgan.

### Bug‘ haroratining bosimga bog‘liqligi

Bug‘ning bosimi, atm.	Bug‘ning %harorati, °S	1
0 0	99 0	
0 5	110 8	
0 6	112 8	
0 7	114 6	
0 8	116 3	
0 9	118 0	
1 0	119 6	
1 1	121 2	
1 2	122 7	
1 3	124 1	
1 4	125 1	
1 5	126 8	
1 6	128 1	
1 7	129 3	
1 8	130 6	
1 9	131 8	
2 0	132 9	
2 1	134 0	
2 2	135 1	
2 3	136 1	
2 4	137 2	
2,5	138,2	

### Avtoklavlarni o‘rnatish, turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinash ishlari

Avtoklav albatta «Qozon nazorati» tashkilotining ro‘yxatiga olinishi va u tashkilotning mutaxassisi tomonidan o‘rnatilishi shart. U yerdan kelgan mutaxassis avtoklavning pasporti bilan tanishib, uning yangiligi, iqarilgan sanasi, sinalganligi, qanday isitgich bilan ishlashi, unga tegishli ehtiyot qismlari va ularning mavjudligini tekshiradi, hammasi ko‘ngildagidek bo‘lganda o‘z qoidasiga binoan o‘rnatiladi. Avtoklav o‘rnatilib, uni yerga ulanadi maxsus kabel orqali yoqish va o‘chirish elektr moslamasiga biriktiriladi. Avtoklavga maxsus ko‘rsatkich shisha naycha bo‘yicha suv solinadi, so‘ng birinchi va boshlangich sinash o‘tkaziladi. Sinash davrida jo‘mraklarning oqmasligi, qopqog‘ining germetik yopilishi, manometrlarning nuqsonsiz ishlapga, kerakli haroratning hosil bo‘lishi va boshq. tekshiriladi.

Avtoklav aloxida xonalarga o‘rnatilishi kerak.

Avtoklavni bevosita davolash va muolaja xonalari, bo‘linmalarni ustki yoki ostki qavatida, shuningdek boshqa xonalar bilan qo‘shilgan xolda joylashtirish mumkin

emas. Xonalar tibbiy yoritilgan, shuningdek xonaning derazasi yoki darchasi xamda shamollatish tizimi bo'lishi kerak.

Avtoklav xonalarining eshiklaritashqariga ochilishi va avtoklav ishlayotganda qulflanmasligi kerak.

Xonalarga oynali eshiklar o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

Avtoklav xonalaridayong'in xavfsizligiqoidalari amal qilish lozim.

Avtoklav xonalariga ularga xizmat qiluvchi shuningdek ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi shaxslardan boshqa shaxslar kirishi ta'qiqlanadi.

Avtoklavlarga qo'yiladigan umumiy talablar:

Xonalarning poli elektr o'tkazmaydigan materialdan bo'lishi yoki polga dielektrik rezinali gilamcha bo'lishi lozim.

Avtoklav xamma tomondan xonaning devor qismiga yondosh qilib o'rnatilishi kerak. Bunda devordan avtoklavgacha bo'lgan masofa kamida 0.8m ni tashkil qilishi lozim. Shkaf tuzilishi avtoklavni xona devoridan 1.5 m masofauzoqlikda o'rnatiladi.

Xar bir avtoklav elektr tarmog'iga aloxida tarmoq orqali yoki avtomatik yoqib o'chiruvchi moslama orqali ulanishi kerak. bevosita elektr rozetkaga ulash kat'iyan man qilinadi. Avtoklav yoqib-o'chiruvchi moslama xonaning polidan 1.6m balandlikda xamda avtoklavdan 1m uzoqlikda o'rnatiladi.

Xar bir avtoklav avtoklavni ishlab chiqargan muassasa tomonidan taqdim etilgan pasportga ega bo'lishi krak. Bu pasport avtoklavning to'g'ri va xavfsiz ishlashi uchun javobgar shaxs tomonidan to'ldiriladi va saqlanadi.

**Avtoklav o'rnatilgandan keyin unda quyidagi ko'rsatkichla bo'lishi kerak:**

1. Avtoklavni shaxodatlash va buni jurnalda qayd qilish.

2. Avtoklav ishlashi mumkin bo'lgan bosim.

3. Avtoklavning keyingi ichki ko'rigi va gidravlik sinov sanasi.

**Avtoklavni turli ko'rsatkichlari bo'yicha sinash.**

Monometrning aniq ishlashini tekshirish

Buning uchun simobli termometr avtoklavning bug kozoni ichiga aylanadi.

Cterilizatsiya jaraenida tanometr kursatkichini aniklab, bug' kamerasida ancha bosim mavjudligini bosimda haroratning qancha bo'lishi belgilana disterilizatsiyadan sungekamerasidagi termometr

solib unda simobustunin igne chadarajadatu xtaganligiva manometr ko'rsatkichi bo'yichanecha darajaga to'g'ri kelishligi tekshiriladi. Bosimga nisbatan harorat o'rtasidagi farq  $\pm 2^{\circ}\text{S}$  dan oshmasligi kerak.

2. Harorat kursatkich asbobining ishlashini bosim ko'rsatkich manometr bilan tekshirish Simobli yoki boshqa termometr avtoklavning sterilizatsiya kamerasiga harorat ko'rsatkich asbobi yoniga ho'yiladi. Sterilizatsiyadan so'ng termometr kameradan olinib harorat ko'rsatkichi manometr bilan solishtirib aniqlanadi. Bu tekshirishda ham haroratning farqi + 2 S dan oshmasligi kerak.

3. Sterilizatsiya kamerasining germetikligini tekshirish Ishchi kamerada mumkin qadar, maksimal darajada havo siyraklashtiriladi. Vakuu havo so'rg'ich o'chirilgandan so'ng 30 daqiqa ichida agar kamera germetik holda bo'lsa uning ichidagi bosim 0,1 atm. dan oshmasligi kerak.

Bog'lov vositalari yoki boshqa to'qima buyumlarni quritilish holatini tekshirish

Bog'lov vositalari o'ramlar, dokalar sterilizatsiyalanadigan idish ichiga solinib, sterilizatsiyagacha va undan so'ng og'irligi o'lchanadi. Agar uning og'irligi sterilizatsiyadan so'ng 5% dan oshib ketsa, bu ko'rsatkich quritishning sifatsizligini ko'rsatadi va buyumlarning ho'l chihishidan dalolat beradi.

### **Sterilizatsiyalanadigan vositalar orasidan havoning to'liq yo'qotilganligini sinash.**

Biks va o'ramlar, xaltachalar ichidan havo to'liq yo'qotilmaganda, sterillash uchun kerakli haroratga erishib bo'lmaydi.

Maksimal termometr bilan biks ichidagi buyumlar orasidagi, ularning hamda biks tashqarisidagi harorat tekshiriladi. Ularning farki  $\pm 2^{\circ}$  S dan oshmasligi kerak.

Yukoridagi sinamalar bo'yicha hamma ko'rsatkichlar pasporti bo'yicha to'g'ri kelsa, avtoklav ishga yaroqli, undan foydalanishga ruxsat etiladi va texnik holati bo'yicha soz deb ma'qullanadi. Agar sinab, tekshirish davrida biror ko'rsatkichi salbiy natija bersa, uning qaysi qismi nosozligi aniqlanadi, mumkin bo'lsa ta'mirlanadi va qayta sinaladi, ijobiy natija olingandan so'ng avtoklavdan foydalanish mumkinligi belgilanadi.

### **Avtoklavlardan foydalanishning umumiy qoidasi**

Avtoklavlardan foydalanish uchun har birining o'zi bilan birga qabul qilib olingan pasporti bo'yicha hamda belgilangan maqsad bo'yicha foydalanish lozimdir. Agar avtoklav boshqa turli maqsadlar uchun foydalanilsa har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi mumkin. Avtoklavlar o'rnatilgan xonada undan foydalanish qonun qoidasi, ishlash va ishlatish tartibi, ehtiyot chora-tadbirlari, sanitar-gigiena qoidalari, sterilizatsiya ishini bajarish tartibi, qoidasi, texnik havfsizligi qoidalari yozilgan tadbirlar devorga osilgan holda bo'lishi shart.

Avtoklav ishlamay turgan davrda suvi to'qib qo'yiladi.

Avtoklavni ishga tushirish uchun:

a) avtoklavning suvokish jo'mragini berkitib suvsolish;

b) bug' chiqadigan jo'mrakni ochish;

v) qizdirish manbaiga ulash;

g) avtoklav kamerasidagi xamma havo o'rniga bug' kiritish uchun 15-20 daqiqagacha bug' chiqarishni davom ettirish (3 marta);

d) jo'mrakni berkitib, bosimni talab etiladigan darajagacha (1,5 -2,0 atm.) yetkazish. Zamonaviy avtoklavlarda bug' qozonidagi bosim avtomatik ravishda boshqarilib turiladi. Avtoklavda sterillash muddati tugagandan so'ng:

a) avtoklav suvining isitkichini elektr quvvatidan uzish;

b) bug' chiqadigan jo'mragini asta-sekin ochib bosimni nulga qadar tushishini kutish;

v) avtoklav qopqog'ini ochish;

g) bikslarni olish va darhol ulardagi bug' kiradigan teshiklarini berkitish;

d) avtoklav qopqog'ini yopish.

Yuqoridagi uqtirilgan hamma ko'rsatmalar albatta tartib bilan har kuni qaytarilib boriladi, shularga to'g'ri amal qilinsa, avtoklavning doimiy yaroqligiga kafolot bo'ladi.

### **Sterilizatsiya uchun ishlatiladigan suv.**

Tibbiyot hamda farmatsiyada suv deyilganda faqat distillangan suv tushuniladi. Suv bilan qaynatib sterillashda distillangan suvdan foydalaniladi. Agar oddiy suvdan foydalanilsa uning tarkibidagi ma'dan tuzlar tibbiy asboblarga o'tirib qolib xiralashadi va ularning ishga yaroqligi muddatini qisqartiradi, o'tkir kesuvchi asboblar o'tmaslashadi. Shuning uchun distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Avtoklavlarni suv bilan to'ldirish maqsadida distillangan hamda tabiiy suvdan foydalaniladi. Tabiatda suv ikki xil bo'ladi. Ya'ni qattiq suv hamda yumshoq suv. Qattiq va yumshoq suvlar tarkibida kalsiy va magniyli tuzlar bo'lib, ular suvga qattqlik holatini beradi. Yumshoq suvda bunday tuzlar kamroq miqdorda bo'lishi mumkin, buni yarim qattqlik deyiladi. Agar suvda kalsiy tuzlari bo'lsa, bunday suvlarni kalsiyli qattqlik, agar magniy tuzlari bo'lsa, magniyli qattqlik, ikkala element tuzlari mavjud bo'lsa qo'sh tuzli qattqlik deyiladi.

Avtoklavlar uchun bunday qattiq suvlardan foydalanilsa, vaqt o'tishi bilan suv qozonining tagiga kalsiy va magniy tuzlari o'tirib qoladi, buning salbiy oqibatlari mavjuddir:

**b i r i n c h i d a n** - o'tirib qolgan tuz o'zidan issiqlikni yomon o'tkazadi, natijada suv kech qaynaydi. Agar suv qozoni tezda tuzlardan tozalanmasa portlashga olib kelishi mumkin.

**i k k i n c h i d a n** - tuz o'tirib qolishi natijasida uning hisobiga suv qozoni ichiga suv kamroq ketadi, bu holat xam salbiy ko'rsatkich bo'lib, xavfli holatni yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi.

Yuqoridagilarning oldini olish maqsadida distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar tabiiy suvdan foydalanilsa, o'z vaqtida o'tirib qolgan tuzlarni mutaxassis orqali tozalash shartdir. «Qozon nazorati» yoki «Uzmedtexnika»ning maxsus xodimlari avtoklavning qozoniga o'tirib qolgan tuzlarni yo'qotish ishlari bilan shug'ullanadilar va ular vaqt—vaqti bilan kelib o'zlari nazorat etib turadilar.

Avtoklavga undagi suv ko'rsatkich shisha naychasining 2/3 qismigacha suv quyiladi. Undan ko'p yoki kam quyish mumkin emas, aks holda salbiy oqibatlar (kamchiliklar) yuzaga kelishi mumkin.

**Avtoklavlarda foydalaniladigan issiqlik manbalari** Avtoklavlarning suv qozonidagi suvni isitib bug' hosil qilish uchun turli usullardan foydalanish mumkin. Ularni qanday yoqilg'idan foydalanib isitish tartibi uning pasportida ko'rsatilgan bo'ladi.

Issiqlik quvvatini olish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin.

Neft mahsulotlari (benzin, kerosin, ligroin, mazut va boshqalar).

Ko'mir va undan sintez usuli bilan olingan yonuvchi mahsulotlar (metan, etan, propan va butan yonuvchi gazlar).

Tarkibida uglerod bo'lgan qattik yonuvchi moddalar o'tin, torf, yonuvchi slanetslar.

Tabiiy gazlar (metan, etan, propan va butan, ularning aralashmalari).

Suyultirilgan yonuvchi gazlar (temir ballonlarda).

Elektr manbai (undan isitish, yoritish, texnik zarurat uchun va davolash ishlarida foydalaniladi).

Quyosh quvvati (undan isitish,elektr quvvati olish,davolash uchun foydalanish mumkin).

Avtoklavlarning suv qozonini isitib suvni bug'ga aylantirib,suv bug'i yordamida,kerakli harorat va bosimda ishlash uchun ko'chma avtoklavlar mavjud bo'lib,ular qattiq suyuqgaz holdagi yoqilg'idan hamda elektr quvvatidan foydalanib isitilishi mumkin. Qanday usul bilan isitish esa avtoklavning o'ziga tegishli pasportida ko'rsatilgan bo'ladi. Qoidaga binoan, pasportida ko'rsatilgan usuldan foydalanmay boshqa, xohlagan usulda isitish qat'iy man qilinadi. Chunki xar bir avtoklavning turi ma'lum bir isitgichga mo'ljallangan xolda chiqariladi va pasportida ko'rsatilgan bo'ladi.

### **TEST –SAVOLLARI:**

1. Avtoklavlarda suv qozonini isitish va bug' hosil qilish uchun qanday issiqlik manbalaridan foydalanish mumkin?
2. Neft mahsulotlariga kiruvchi yoqilg'ilarning qaysi turlari avtoklavlarni isitishda qo'llaniladi?
3. Tabiiy gazlar va suyultirilgan yonuvchi gazlar avtoklavlarda qanday maqsadda ishlatiladi?
4. Avtoklav pasportida ko'rsatilgan isitish usuliga amal qilish nima uchun muhim hisoblanadi?
5. Avtoklavlarni pasportida ko'rsatilmagan boshqa usul bilan isitish nima sababdan qat'iy man etiladi?
6. Bug' yordamida sterilizatsiya qilishda sterilizatorning germetikligi nima uchun muhim?
7. Avtoklav usuli nima va u qanday sharoitda amalga oshiriladi?
8. Manometr qanday vazifani bajaradi va u qanday bosimni ko'rsatadi?
9. Sifon naychaning avtoklavdagi vazifasi nimadan iborat?
- 10.Uch yo'llik kran qanday holatlarda ishlatiladi va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

### **Test savollari**

#### **1. Avtoklav usuli nima?**

- A) Kimyoviy sterilizatsiya usuli
- B) Yuqori bosim ostida bug' yordamida sterilizatsiya qilish usuli
- C) Gaz yordamida sterilizatsiya qilish usuli
- D) Ultrabinafsha nurlari yordamida sterilizatsiya

**To'g'ri javob: B**

#### **2. Avtoklavda sterilizatsiya qilish uchun odatda qanday harorat ishlatiladi?**

- A) 80°C
- B) 100°C
- C) 120–132°C

D) 60°C

**To'g'ri javob: C**

**3. Manometr qanday vazifani bajaradi?**

A) Haroratni o'lchaydi

B) Bosimni o'lchaydi

C) Namlikni o'lchaydi

D) Vaqtni o'lchaydi

**To'g'ri javob: B**

**4. Manometr ko'rsatayotgan bosim qanday nomlanadi?**

A) Absolyut bosim

B) Atmosfera bosimi

C) Ortiqcha bosim

D) Vakuum bosimi

**To'g'ri javob: C**

**5. Avtoklavdagi absolyut bosimni aniqlash uchun nima qilish kerak?**

A) Manometr ko'rsatkichini ikki barobar qilish

B) Manometr ko'rsatkichiga 1 atm qo'shish

C) Manometr ko'rsatkichidan 1 atm ayirish

D) Haroratni qo'shish

**To'g'ri javob: B**

**6. Sifon naychanning asosiy vazifasi nima?**

A) Suvni isitish

B) Bug'ni sovitish

C) Manometrni qizib ketishdan himoya qilish

D) Bosimni oshirish

**To'g'ri javob: C**

**7. Sterilizatsiya jarayonida ortiqcha havoni chiqarish nima uchun zarur?**

A) Haroratni kamaytirish uchun

B) Sterilizatsiya samaradorligini oshirish uchun

C) Bosimni kamaytirish uchun

D) Asboblarni sovitish uchun

**To'g'ri javob: B**

**8. Avtoklav qanday asbob turiga kiradi?**

A) Sovitish qurilmasi

B) Bug' qozonlari turiga kiruvchi asbob

C) Elektr pech

D) Kimyoviy reaktor

**To'g'ri javob: B**

**9. Sterilizatsiya sifati kafolatli bo'lishi uchun nima zarur?**

- A) Asboblarni tez chiqarish
- B) Sterilizatorni doimiy nazorat qilish
- C) Haroratni pasaytirish
- D) Bosimni kamaytirish

**To'g'ri javob: B**

**10. Uch yo'llik kran nimani tekshirishda yordam beradi?**

- A) Haroratni
- B) Manometrning sozligini
- C) Elektr kuchlanishini
- D) Namlikni

**To'g'ri javob: B**

**TIBBIY ATAMA**

1. **Avtoklav** – yuqori bosim ostida bug' yordamida sterilizatsiya qiluvchi qurilma.
2. **Sterilizatsiya** – mikroorganizmlar va sporalarni to'liq yo'q qilish jarayoni.
3. **Bug' sterilizatsiyasi** – nam issiqlik yordamida sterilizatsiya qilish usuli.
4. **Manometr** – bosimni o'lchaydigan asbob.
5. **Absolyut bosim** – atmosfera bosimini ham o'z ichiga olgan umumiy bosim.
6. **Ortiqcha bosim** – atmosfera bosimidan yuqori bo'lgan bosim.
7. **Sifon naycha** – manometrni qizib ketishdan himoya qiluvchi naycha.
8. **Uch yo'llik kran** – manometrni tekshirish va tizimni nazorat qilish uchun ishlatiladigan qurilma.
9. **Germetik kamera** – havo o'tkazmaydigan yopiq sterilizatsiya kamerasi.
10. **Sterilizator** – tibbiy asboblarni steril holatga keltiruvchi qurilma.

**Muammoli masalalar:**

**№1 Biksga joylashtirishning uch usuli mavjud.**

<b>№</b>	<b>Kadamma-kadambajarish tartibi.</b>
<b>1.</b>	
<b>2.</b>	
<b>3.</b>	

<b>№</b>	<b>Qadamma-kadam bajarish tartibi.</b>
----------	--

1.	Kichikrok jarroxlik amaliyoti uchun universal joylash.Biksga jarroxlik amaliyoti uchun talab qilinishi zarur bo‘lgan vositalar qavatma-qavat qilib joylanadi. Birinci qavatga qo‘lga ishlatiladigan salftkalar,xalat, niqob,paxta bo‘laklari; ikkinchi qavatga esa : salftkalar, tamponlar, sharchalar va shu kabilar joylanadi.
2.	Jarroxlik amaliyotining muayyan turi uchun maqsadga muvofiq joylashgan bo‘lib,masalan,ichak rezeksiyasi uchun zarur vositalarning hammasi joylanadi.
3.	Katta jarroxlik xonalarida ma‘lum turdagi joylashgan usulidan foydalaniladi (xalatlar,choyshablar,tamponlar,sochiqlar va shu kabilar tartib bilan joylanadi).

**“Aqliy hujum” usuli.**Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin.

**Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.**

Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.

Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.

Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

**”KLAUSTER” usuli.** (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.


Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g‘oyalar o‘rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.



### **Nazorat savollari.**

- 1.Avtoklavlar uchun foydalaniladigan issiqlik manbalari, ulardan foydalanish qoidasi.
- 2.Avtoklavlarning turlari.
- 3.Avtoklavning turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinash.
- 4.Avtoklavlarni qabul qilish.
- 5.Avtoklavni gravitatsion turi.
- 6.Avtoklavlar o‘rnatilgan xonaga nisbatan sanitar, qurilish va yuridik talablar.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

- 1.U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008
- 2.«Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.

- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tugʻrisida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun qoʻllanma. -2012y
- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskiy rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения
- 6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

**Internet- materiallari:**

- 1.Doctor.uz. (www. doctor.uz) Uzbek tilidagi tibbiy portal.
- 2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
- 3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
- 4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
- 5.[www.mediasphera.aha.ru/mjamp/mjamp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjamp/mjamp-mn/htm) – Международный журнал медитсинской практики
- 6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
- 7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)
- 8.[www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
- 9.<http://www.minzdrav.uz/>– O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
- 10.Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
- 12.SSO steriliz.[narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)
- 13.Osnaщение SSO - Farmstandart-Medtexnika[www.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/)
- 14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
- 15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
- 16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<p><b>2.3 modul</b></p> <p><b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit jami 4 .</b></p>	<p><b>Gorizontal va vertikal avtoklavlar, ishlash prinsipi.</b></p> <p><b>Gravitatsion va forvakuumli avtoklavlarda ishlash</b></p>
---	---

**Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
-------------------------	------------------------------------

<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashg‘ulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Gorizontal avtoklavning ishlash prinsipi va amaliy qo‘llanilishi.</li> <li>2. Vertikal avtoklavning ishlash prinsipi va amaliy qo‘llanilishi.</li> <li>3. Gravitatsion avtoklavda ishlash</li> <li>4. Forvakuumli avtoklavda ishlash.</li> </ol>

## **1-AMALIY KO‘NIKMA**

Gorizontal avtoklavning ishlash prinsipi va amaliy qo‘llanilishi

### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasalarida gorizontal avtoklav yordamida asbob-uskunalarni samarali va xavfsiz sterilizatsiya qilish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Gorizontal avtoklav
- Sterilizatsiya qoplari va paketlari
- Kimyoviy indikatorlar
- Biologik indikatorlar (zarurat bo‘lsa)
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Asboblardan oldindan tozalangan va quritilgan bo‘lishi kerak.
3. Sterilizatsiya paketlari gorizontal avtoklavning palatasi ichiga joylanadi, paketlar o‘rtasida havo oqimi uchun bo‘sh joy qoldiriladi.
4. Avtoklav yopiladi va ishga tushiriladi.
5. Suv bug‘i bilan palata to‘liq to‘ldiriladi va bosim oshiriladi.
6. Belgilangan harorat (odatda 121–134°C) va vaqt davomida sterilizatsiya o‘tkaziladi.
7. Bosim kamayishi va palata sovishini kutib, asboblardan chiqariladi.
8. Kimyoviy indikatorlarning natijasi tekshiriladi, zarurat bo‘lsa, biologik test o‘tkaziladi.

9. Natijalar jurnalga yoziladi.

**Ishlash prinsipi:**

Gorizontal avtoklav bug‘ni to‘g‘ri taqsimlab, bosim ostida yuqori harorat bilan mikroorganizmlarni yo‘q qiladi.

## 2-AMALIY KO‘NIKMA

Vertikal avtoklavning ishlash prinsipi va amaliy qo‘llanilishi

1. Maqsad:

Tibbiyot muassasalarida vertikal avtoklav yordamida sterilizatsiya jarayonini amalga oshirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

2. Kerakli jihozlar:

- Vertikal avtoklav
- Sterilizatsiya qoplari va paketlari
- Kimyoviy indikatorlar
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya journali
- SHHV

3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarning paketlari vertikal avtoklav ichiga joylanadi.
3. Avtoklav eshigi yopiladi va ishga tushiriladi.
4. Palata bug‘i bilan to‘ldiriladi, bosim oshiriladi va harorat belgilangan darajaga yetkaziladi (odatda 121°C).
5. Belgilangan vaqt davomida sterilizatsiya davom etadi.
6. Bosim tushiriladi va palata sovishi kutiladi.
7. Steril asboblarning chiqariladi, kimyoviy indikator natijasi tekshiriladi.
8. Jurnalga sterilizatsiya tafsilotlari qayd etiladi.

**Ishlash prinsipi:**

Vertikal avtoklavda bug‘ palata yuqorisidan pastga tushadi va asboblarning ustidan pastga ta’sir ko‘rsatadi. Bu mikroorganizmlarni bosim va harorat orqali yo‘q qilishni ta’minlaydi.

### **3-AMALIY KO'NIKMA**

#### Gravitatsion avtoklavda ishlash

##### 1. Maqsad:

Gravitatsion avtoklav yordamida tibbiy asbob-uskunalarni xavfsiz va samarali sterilizatsiya qilish.

##### 2. Kerakli jihozlar:

- Gravitatsion avtoklav
- Sterilizatsiya paketlari va qoplari
- Kimyoviy indikatorlar
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV

##### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Asboblardan oldindan tozalangan va quritilgan bo'lishi kerak.
3. Sterilizatsiya paketlarini avtoklav palatasiga joylashtirish (paketlar orasida bo'sh joy qoldirish).
4. Avtoklav eshigini yopib, ishga tushirish.
5. Gravitatsion bug' orqali havoni chiqarish boshlanadi: palata pastki qismidan og'ir havo va bug' asta-asta chiqadi.
6. Belgilangan harorat (odatda 121°C) va vaqt davomida sterilizatsiya amalga oshiriladi.
7. Bosim kamaygandan so'ng, palata sovishini kutib asboblarni chiqarish.
8. Kimyoviy indikatorlar natijasi tekshiriladi.
9. Sterilizatsiya tafsilotlarini jurnalga yozish.

##### **Ishlash prinsipi:**

Gravitatsion avtoklavda bug' palataga kirib, og'irroq havo pastga tushadi va mikroorganizmlarni yuqori harorat bilan yo'q qiladi.

### **4-AMALIY KO'NIKMA**

#### Forvakuumli avtoklavda ishlash

##### 1. Maqsad:

Forvakuumli (pre-vacuum) avtoklav yordamida tibbiy asboblarni tez va samarali sterilizatsiya qilish.

## 2. Kerakli jihozlar:

- Forvakuumli avtoklav
- Sterilizatsiya paketlari va qoplari
- Kimyoviy indikatorlar
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV

## 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Asboblardan oldindan tozalangan va quritilgan bo'lishi kerak.
3. Sterilizatsiya paketlarini avtoklav palatasiga joylashtirish.
4. Avtoklavni ishga tushirish: dastlab forvakuum orqali palatada havo chiqariladi.
5. Palata ichiga bug' kiritiladi, bosim oshadi va harorat 132–134°C ga yetkaziladi.
6. Belgilangan vaqt davomida sterilizatsiya amalga oshiriladi.
7. Bosim va harorat normal holatga tushgach, palata sovishini kutib asboblarni chiqarish.
8. Kimyoviy indikator va zarurat bo'lsa biologik test natijasini tekshirish.
9. Sterilizatsiya tafsilotlari jurnalga yoziladi.

### Ishlash prinsipi:

Forvakuumli avtoklavda dastlab havo siqib chiqariladi, keyin bug' kiritiladi. Bu havoni tez va to'liq chiqarishga imkon beradi, asboblardan ichki bo'g'imlariga bug' kirib sterilizatsiya jarayonini samarali qiladi.

<b>2.3 blok</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b>	<b>Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari.</b>
---	--

### Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashg'ulot

<p><b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b></p>	<p>1.Sterilizatsiya bo'limida yuritiladigan xujatlar. 2.Xujatlarni yuritilish tartibi.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p><b>1 bosqich</b> <b>O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b></p>	<p><b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yhat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi yangiliklar yeshitiladi va aytiladi. 1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b>  <b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b>  <b>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</b>  <b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi,</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,test savollarigi javob beradilar.Savollarga aktiv javob beradilar.Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar." <b>Aqliy xujum</b>" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: "Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari". O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y</p>	<p>Tinglaydilir, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi. Avtoklavlarni qurilish bo'yicha gorizonta va vertikal turlari, ishlash</p>	<p><b>O'quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug'li va issiq havoli</p>
--	--

<p>prinsipi gravitatsion va forvakuumli turlari. Avtoklavdan foydalanishni umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, o'rnatish va turli qo'rsatkichlar bo'yicha sinash. Monometr va xavfsizlik klapanlariga qo'yilgan talab bilan tanishtirish, avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish, sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish bo'yicha ma'lumotlar berish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlardan foydalanish uchun har birining o'zi bilan birga qabul qilingan pasporti va metriologiyasi bo'yicha hamda belgilangan maqsad uchun foydalanishning lozimligi.</p>	<p>sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishda me'yoriy xujjatlarni yuritishni bilish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari: bosim, haroratni nazorat qilish. Avtoklavning ish jarayoniga bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar. Avtoklavni ish jarayonida sinamalarni (indikator) nazorat qilishni. Sanitariya-epidemiologiya xizmati va tartiblariga oid me'yoriy xuquqiy xujjatlarni yuritilishini bilishi va rioya qilishi.</p>
O'qitish metodlari	"mozaika", "aqliy xujum"
O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan ukuv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Ogzaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

### **Mavzu Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari.**

#### **Dars rejasi:**

1. Sterilizatsiya bo'limida yuritiladigan xujjatlar.
2. Xujjatlarni yuritilish tartibi.

Markazlashtirilgan sterilizatsiya bo'limi (MSB) da yoki sterilizatsiya xonasida avtoklavning ishlash tartibi, ya'ni, kunlik sana, ishlash vaqti (soatlar yoki

daqiqalar),qanday bosimda ishlashi maxsus jurnalga belgilab borish tartibi.Avtoklav uchun tutilgan ushbu maxsus jurnalni shu avtoklav bilan ishlaydigan hamshira harkuni o‘z vaqtida, tegishli qoidaga binoan to‘ldirib, imzo qo‘yib boriladi.

Shuningdek avtoklavlar,kuritish shkaflari,distillyatorlar,test indikatorlar,azopiram va fenolftalein sinamalari,dezinfeksiya va yuvish vositalari bilan taminlanish xolati buyicha oylik,choraklik,yillik xisobotlari yuritiladi.

DPM bo‘limlaridan qabul qilingan nosteril tibbiy asbob-anjomlarni va bikslarni ro‘yxatga olish jurnali;

Sterilizatsiya oldi tozalov ishlarini xisobga olish jurnali;

Bug‘li va issiq xavoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni xisobga olish jurnali;

Sterillikka tekshirish bo‘yicha bakteriologik nazorat natijalarini xisobga olish jurnali;

Bo‘limlarda steril biksni ochgandan so‘ng belgilangan va ichki test-indikatorlarni yopishtirilgan ro‘yxat jurnali;

Xonalarni kundalik tozalosh buyicha jurnali;

Xonalarni UB lampasi bilan zararsizlantirish jurnali;

Sterilizatsiya bulimi xonalarini maxsus tozalash jurnallarini yuritish.

Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiyalovchi vositalarga ehtiyoj hisob-kitobi jurnali.

Daftarlar raqamlangan, tikilgan, muassasa rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlangan xujjatlarda ish yuritish.

Nazorat natijalari **366/U** shaklidagi sterilizatsiya qilish oldi ishlov berish sifatini hisobga olish daftarida aks ettiriladi.

## STERILIZATSIYA QILISH OLDI ISHLOV BERISH SIFATINI HISOBGA OLISH DAFTARI

Boshlangan vaqti 20\_\_y. «\_\_»\_\_\_\_\_

Tugallangan vaqti 20\_\_ y. «\_\_»\_\_\_\_\_

Sana	Ishlov berish usuli	Qo‘llaniladigan vosita	Ishlov berilgan buyumlarning tayyorlangan kimyoviy nazorat natijalari				Nazoratni o‘tkazgan shaxs
			Buyumlar nomi	Soni (dona)	Shulardan ifloslanganlari		
		«qon» bilan			yuvish vositalaribi		
1	2	3	4	5	6	7	8

Sterilizatsiya qilishni nazorat qilish.

Sterilizatsiya qilish tartiblari parametrlarini nazorat qilish fizik usulda(nazorat-ulchov qurilmalari, termometrlar, monovakuummetrlar va boshqalar yordamida)

hamda kimyoviy usulda kimyoviy indikatorlar (IVS va IKPVS-Medtest, Steritest-V, P, VI-Vinar, Medis-V, Farmatest-Vinar va boshqalar) ishlatilgan holatda olib boriladi sterilizatsiya qilish samaradorligi sterilizatsiya qilingan buyumlar sterilligini nazorat qilish natijalari asosida baholanadi hamda havo, bug‘ (avtoklav) sterilizatorlari ishi daftarida aks ettiriladi (**F 257/U**).

### HAVO. BUG‘ (AVTOKLAV) STERILIZATORLARI ISHIDAFTARI

Boshlangan vaqti 20\_\_y. «\_\_»\_\_\_\_\_

Tugallangan vaqti 20\_\_ y. «\_\_»\_\_\_\_\_

sana	Havo.bug‘ sterilizatori rusma, raqami	Sterilizatsiya qilinadigan buyumlar	o‘rami	Sterilizatsiya qilish vaqti(daqiqa)			Tartibi			Test nazorati		imzo
				Sterilizatsiya qilish boshlanishi	Sterilizatsiya qilish tugalanishi	Bosim	harorat	biologik	termik	kimyoviy		
		Sterilizatsiya qilinadigan buyumlar nomi soni		Sterilizatsiya qilish boshlanishi	Sterilizatsiya qilish tugalanishi	Bosim	harorat	biologik	termik	kimyoviy		

Kimyoviy test-indikatorlarqo‘llanilish sterilizatorlarning texnik nosozligi ularni yuklash qoidalari

buzilish parametrlar qiymatlarini o‘rnatishdagi hatoliklari yoki ularning ishdan CHIQISHI bilan bog‘liq sterilizatsiya qilish tartibi rioya etilmaslikni aniqlashga imkon beradi va buni steril buyumlar ishlatilishi ehtimolinikamaytiradi.

Dezinfeksiya vositalarini hisobga olish jurnalining shakli

№	Dez. Vosita nomi	Xarid sanasi	Hisob №	Miqdori (kg, l)	Yaroqlilik muddat	Dez. Vosita sarf-harajati B		
						Bo‘lim	Berilgan sana	Miqdori (kg, l)

Tibbiy terminlar:

1. Kimyoviy test-indikatorlar
2. Test nazorati
3. 366/U
4. (F 257/U).

**Test-savollari:**

**1. Avtoklav xonalarini eshiklari qanday bo'lishi kerak?**

- A) Eshigi oynali bo'lishi kerak
- B) Eshigi tashqariga ochilishi kerak
- C) Eshigi ikki tabaqali bolishi kerak
- D) Eshigi qulflanadigan bo'lishi kerak

**2. Shkaf tuzilishli avtoklav xonani devoridan necha masofada o'rnatiladi**

- A) 0,5 metr
- B) 2,5 metr
- C) 1,5 metr
- D) 1,0 metr

**3. Yoqib-o'chirish moslamasi avtoklavdan va poldan qancha uzoqlikda o'rnatiladi?**

- A) Avtoklavdan – 1 m poldan-1,6
- B) Avtoklavdan – 0,5 poldan-0,8m
- C) Avtoklavdan – 0,8m poldan-1,2m
- D) Avtoklavdan – 1 m Poldan-1m

**4. Avtoklavda kimlarishlashigaruxsatberiladi?**

- A) Shifokorlarga
- B) Mutaxassisxamshiraga
- C) laborantlarga
- D) xammaishlashimumkin

**5. Avtoklav qachon texnik ko'rikdano'tkazilmaydi?**

- A) Omborda konservatsiya qilingan bo'lsa
- B) Avtoklav ishga tushishdan oldin 1yildan ko'p ishlamagan bo'lsa.
- C) Ishlayotgan joydan boshqa joyga ko'chirilsa.
- D) Javobgar shaxs tomonidan ko'rikdan o'tkazish shart

**6. Avtoklavning ishlash tartibi (sana, vaqt, bosim) qayerga yozib boriladi?**

- A) Oddiy daftar
- B) Maxsus jurnal
- C) Kartoteka
- D) Hisobot varaqasi

**7. Avtoklav uchun maxsus jurnalni kim to'ldirib boradi?**

- A) Shifokor
- B) Laborant
- C) Avtoklav bilan ishlaydigan hamshira
- D) Sanitarka

**8. Sterillikka tekshirish bo'yicha natijalar qaysi usul orqali nazorat qilinadi?**

- A) Radiologik nazorat
- B) Bakteriologik nazorat
- C) Fizik nazorat
- D) Kimyoviy nazorat

**9. Sterilizatsiya oldi ishlov berish sifatini hisobga olish qaysi shaklda aks ettiriladi?**

- A) 365/U

B) 366/U

C) 367/U

D) 368/U

**10. Sterilizatsiya bo‘limida xonalarni zararsizlantirish uchun qaysi qurilma qo‘llaniladi?**

A) Rentgen apparati

B) UB lampa

C) Kompessor

D) Inkubator

## TIBBIY ATAMA

1. **Sterilizatsiya** – tibbiy asbob-anjomlar va materiallarni barcha mikroorganizmlar (bakteriya, virus, zamburug‘ va sporalar)dan to‘liq tozalash jarayoni.
2. **Dezinfeksiya** – tashqi muhitdagi yoki tibbiy buyumlardagi kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroorganizmlarni yo‘q qilish yoki kamaytirish jarayoni.
3. **Avtoklav** – yuqori harorat va bosim ostidagi suv bug‘i yordamida tibbiy asbob-anjomlarni sterilizatsiya qiladigan maxsus qurilma.
4. **Bakteriologik nazorat** – sterilizatsiya jarayonining samaradorligini mikroorganizmlar yordamida tekshirish usuli.
5. **Test-indikator** – sterilizatsiya jarayonida kerakli harorat va sharoitga erishilganini ko‘rsatadigan maxsus nazorat vositasi.
6. **Sterilizatsiya oldi tozalash** – asbob-anjomlarni sterilizatsiyadan oldin qon, oqsil va boshqa iflosliklardan tozalash jarayoni.
7. **Distillyator** – suvni bug‘latib va qayta sovitib tozalangan (distillangan) suv olish uchun ishlatiladigan qurilma.
8. **Quritish shkafi** – issiq havo yordamida asbob-anjomlarni quritish yoki sterilizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan maxsus shkaf.
9. **Azopiram sinamasi** – tibbiy asboblarda qon qoldiqlari bor-yo‘qligini aniqlash uchun o‘tkaziladigan kimyoviy tekshiruv usuli.
10. **Fenoltalein sinamasi** – asbob-anjomlarda yuvish vositalari qoldig‘i borligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan nazorat usuli.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

- O'qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o'quvchining javobini yozib boradi. Har bir o'quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
  - Qanchalik ko'p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo'ladi.
  - Bu usulda dars o'tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o'quvchilarning mulohazalarini to'plash imkoniyatiga ega bo'lamiz.
  - Har qanday javoblar usul so'ngida muhokama qilinadi.
- ”Mozaika” - ish o'yinini o'tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruh-larga bo'linadilar. Mavzuga oid rasmlar konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi rasmlarni ma'lum vaqt ichida to'g'ri joylashtirib berishlari shart.

So'ngra o'qituvchi to'g'ri javobni doskada ko'rsatadi. Birinchi va to'g'ri javob bergan guruh baholandi.

Nazorat savollari:

1. Shifoxona ichi infeksiyalar tushunchasi ta'rifi.
2. Shifoxona ichi infeksiyalarining epidemiologik tarkalganligi.
3. Shifoxona ichi infeksiyalarining rivojlanishi va tarkalish sabablari.
4. Shifoxona ichi infeksiyalar etiologiyasi xususiyatlari.
5. Shifoxona ichi infeksiyalar epidemik jarayoni xususiyatlari.
6. Shifoxona ichi infeksiyalarining etiologik va epidemiologik klassifikatsiyasi.
7. Shifoxona ichi infeksiyalar bilan kasallanish-ning epidemiologik tavsifi.
8. Shifoxona ichi infeksiyalar profilaktikasi va epidemiologik nazorati xususiyatlari.
9. Shifoxona ichi infeksiyalar etiologiyasi xususiyatlari.
10. Shifoxona ichi infeksiyalar epidemik jarayoni xususiyatlari.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilishtadbirlarinitashkiletish.
- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y
- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения
- 6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

#### **Internet- materiallari:**

- 1.Doctor.uz. (www. doctor.uz) Uzbek tilidagitibbiy portal.

2. [www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
3. [www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
4. [www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
5. [www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoy praktiki
6. [www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
7. [www.abk.uz](http://www.abk.uz)
8. [www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
9. <http://www.minzdrav.uz/>– O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
10. Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
12. SSO steriliz. [narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)
13. Osnashenie SSO - Farmstandart-Medtexnika [www.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/)
14. SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
15. <http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
16. SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.3 modul</b>  <b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit jami 4 .</b>	Avtoklavlarni qabul qilish, o‘rnatish va turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinash.  Monometr va havfsizlik klapanlariga qo‘yilgan talablar. Avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish.
--	--

### Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.

Vaqt: 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:15-20 ta
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Avtoklavlarni qabul qilish</li> <li>2. Avtoklavlarni o‘rnatish va turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinash</li> <li>3. Monometr va xavfsizlik klapanlariga qo‘yilgan talablarni tekshirish</li> </ol>

	4. Avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish.
--	--

## **1-AMALIY KO‘NIKMA**

### Avtoklavlarni qabul qilish

#### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasiga yetib kelgan avtoklavlarning texnik holatini tekshirish va qabul qilish jarayonini to‘g‘ri amalga oshirish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Yangi avtoklav
- Texnik pasport va sertifikatlar
- Qabul qilish jurnali
- Termometr va manometr
- SHHV

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarga antiseptik ishlov berish.
2. Avtoklavning tashqi ko‘rinishini tekshirish (zararlangan yoki shikastlangan joylar bor-yo‘qligi).
3. Texnik pasport va sertifikatlarni solishtirish.
4. Palata va eshik mexanizmlari, quvurlar, boshqaruv panellarini tekshirish.
5. Termometr va manometr ko‘rsatkichlarini tekshirish.
6. Avtoklavni qabul qilish jurnali bilan qayd etish: sana, model, seriya raqami, mas’ul shaxs imzosi.

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

### Avtoklavlarni o‘rnatish va turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinash

#### 1. Maqsad:

Avtoklavlarni to‘g‘ri o‘rnatish va ishga tushirishdan oldin turli texnik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sinash orqali xavfsiz va samarali ishlashini ta’minlash.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav (gorizontal, vertikal, gravitatsion yoki forvakuumli)

- Termometr, manometr, bosim o'lchagich
- Suv va elektr ta'minoti
- Kimyoviy indikatorlar
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. Avtoklav o'rnatilishi kerak bo'lgan joyni tayyorlash (tekis va qulay joy).
2. Elektr va suv ta'minotiga ulash.
3. Palata va eshik mexanizmlarini tekshirish.
4. Bo'sh sikl sinovi o'tkazish:
  - Harorat va bosim ko'rsatkichlari belgilangan darajaga yetadi.
  - Avtoklavning signal va nazorat tizimlari ishlashini tekshirish.
5. Kimyoviy indikator bilan test o'tkazish (bo'sh sikl orqali bug' yetarliligi va bosim nazorati).
6. Natijalarni sterilizatsiya jurnali orqali qayd etish: sana, sinov turi, ko'rsatkichlar, mas'ul shaxs imzosi.

## 3-AMALIY KO'NIKMA

Monometr va xavfsizlik klapanlariga qo'yilgan talablarni tekshirish

### 1. Maqsad:

Avtoklavning xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun monometr va xavfsizlik klapanlari standartlarga mosligini nazorat qilish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav
- Tekshiruv termometr va manometr
- SHHV (qo'lqop, niqob, fartuk)
- Sterilizatsiya jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Avtoklav tashqi ko'rinishini tekshirish.
3. Monometr ko'rsatkichlarini tekshirish:
  - Bosim diapazoni standartlarga mos bo'lishi (odatda 0–2,1 bar).
  - Ko'rsatkichlar o'qilishi aniq va shikastlanmagan.
4. Xavfsizlik klapani tekshiriladi:
  - Klapan erkin harakat qiladi, tiqilib qolmagan.

- Belgilangan bosim darajasida ochilishi kafolatlangan.
5. Aniqlangan kamchiliklar haqida qayd yoziladi.
  6. Natijalar jurnalga kiritiladi: sana, mas'ul shaxs, imzo.

#### **Talablar:**

- Monometr va klapanlarning ishlashini muntazam nazorat qilish.
- Ishlamaydigan yoki shikastlangan klapanlar darhol almashtirilishi kerak.

### **4-AMALIY KO'NIKMA**

#### Avtoklav kamerasidagi haroratni aniqligini tekshirish

##### 1. Maqsad:

Sterilizatsiya jarayonining to'g'ri va samarali o'tishini ta'minlash uchun avtoklav kamerasidagi haroratni aniqlik bilan nazorat qilish.

##### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav
- Termometr yoki piro-metr (digital harorat o'lchagichi)
- Kimyoviy indikatorlar (qo'shimcha nazorat uchun)
- SHHV
- Sterilizatsiya jurnali

##### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarga antiseptik ishlov berish.
2. Bo'sh siklni ishga tushirish.
3. Termometrni avtoklav kamerasi ichiga joylashtirish.
4. Kameradagi haroratni ishga tushirilgan vaqt davomida kuzatish.
5. Belgilangan standart haroratga (odatda 121–134°C) yetganini tasdiqlash.
6. Kimyoviy indikator yordamida harorat yetarliligi qo'shimcha tekshiriladi.
7. Natijalar jurnalga yoziladi:
  - Sana
  - O'lchangan harorat
  - Termometr turi
  - Mas'ul shaxs imzosi
8. Agar harorat belgilangan diapazonni oshmasa yoki yetmasa, sikl qayta o'tkaziladi va xatolik sababini aniqlash.

<b>2.3 blok</b>	<b>Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati.</b>
<b>O'quv moduliga</b>	

ajratilgan kredit jami 2 . 9-mavzu	
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashg'ulot
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	1.Avtoklav o'rnatilgan xonaga nisbatan qurilish, sanitar va yuridik talablar 2.Avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidasi.
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b>	
<b>1.Ta'limiy:</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul>	
<b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yhat asosida tinglovchilar davomatini, darsga	Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.

	<p>tayyorligini tekshiradi yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar. "</p> <p><b>Aqliy xujum"</b> sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: "Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati" O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -</p>	<p>Tinglaydilir, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	2012y	
--	-------	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi. Gorizontaal va vertikal avtoklavlar, ishlash prinsipi. Gravitatsion va forvakuumli avtoklavlar. Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, oʻrnatish va turli qoʻrsatkichlar boʻyicha sinash. Monometr va havfsizlik klapanlariga qoʻyilgan talablar. Avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish. Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim, sterilizatsiya vaqti, bugʻning toʻyinishi darajasini qatʻiy nazorat qilish. Sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati. Avtoklavlar oʻrnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari. Avtoklav bilan ishlash va uni ishlatishda tibbiyot hamshirasining lavozimlik burchlari.</p>	<p><b>Oʻquv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi. Gorizontaal va vertikal avtoklavlar, ishlash prinsipi. Gravitatsion va forvakuumli avtoklavlar. Avtoklavdan foydalanish umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, oʻrnatish va turli qoʻrsatkichlar boʻyicha sinash. Monometr va havfsizlik klapanlariga qoʻyilgan talablar. Avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish. Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim, sterilizatsiya vaqti, bugʻning toʻyinishi darajasini qatʻiy nazorat qilish. Sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati. Avtoklavlar oʻrnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi, texnika xavfsizligi qoidalari. Avtoklav bilan ishlash va uni ishlatishda tibbiyot hamshirasining lavozimlik burchlari.</p>
<p>Oʻqitish metodlari</p>	<p>“Klaster”, ”Aqliy xujum” Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>Oʻquv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>

O'qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan ukuv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Ogzaki so'rov: tezkor surov, yozma so'rov, test, misol va mashklar bajarilgan o'quv topshiriklarini baxolash

## **Mavzu: Avtoklavlarning pasporti va metriologiyasining ahamiyati.**

### ***Dars rejasi:***

1. Avtoklav o'rnatilgan xonaga nisbatan qurilish, sanitar va yuridik talablar
2. Avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidasi.

### ***Avtoklav o'rnatilgan xonaga talablar.***

- Avtoklav aloxida xonalarga o'rnatilishi kerak.
- Avtoklavni bevosita davolash va muolaja xonalari, bo'linmalarni ustki yoki ostki qavatida, shuningdek boshqa xonalar bilan qo'shilgan xolda joylashtirish mumkin emas.
- Xonalar tibbiy yoritilgan, shuningdek xonaning derazasi yoki darchasi xamda shamollatish tizimi bo'lishi kerak.
- Avtoklav xonalarining eshiklari tashqariga ochilishi va avtoklav ishlayotganda qulflanmasligi kerak.
- Xonalarga oynali eshiklar o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi. Avtoklav xonalaridayong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish lozim.
- Avtoklav xonalariga ularga xizmat qiluvchi shuningdek ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi shaxslardan boshqa shaxslar kirishi ta'qiqlanadi.
- Avtoklavlarga qo'yiladigan umumiy talablar:
- Xonalarning poli elektr o'tkazmaydigan materialdan bo'lishi yoki polga dielektrik rezinali gilamcha bo'lishi lozim.
- Avtoklav xamma tomondan xonaning devor qismiga yondosh qilib o'rnatilishi kerak
- . -Bunda devordan avtoklavgacha bo'lgan masofa kamida 0.8m ni tashkil qilishi lozim.
- Shkaf tuzilishi avtoklavni xona devoridan 1.5 m masofa uzoqlikda o'rnatiladi.
- Xar bir avtoklav elektr tarmog'iga aloxida tarmoq orqali yoki avtomatik yoqib o'chiruvchi moslama orqali ulanishi kerak. bevosita elektr rozetkaga ulash kat'iyan man qilinadi.
- Avtoklav yoqib-o'chiruvchi moslama xonaning polidan 1.6m balandlikda xamda avtoklavdan 1m uzoqlikda o'rnatiladi.
- Xar bir avtoklav avtoklavni ishlab chiqargan muassasa tomonidan taqdim etilgan pasportga ega bo'lishi krak. Bu pasport avtoklavning to'g'ri va xavfsiz ishlashi uchun javobgar shaxs tomonidan to'ldiriladi va saqlanadi.

***Avtoklav o'rnatilgandan keyin unda quyidagi ko'rsatkichla bo'lishi kerak:***

- 1.Avtoklavni shaxodatlash va buni jurnalda qayd qilish.
- 2.Avtoklav ishlashi mumkin bo'lgan bosim.
- 3.Avtoklavning keyingi ichki ko'rigi va gidravlik sinov sanasi.

***Manometr va xavfsizlik klapananlariga qo'yiladigan talablar.***

- 1.Xar bir avtoklav aniq va soz manometr xamda xavfsizlik klapanlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.
- 2.Avtoklavlarda ishchi bosimning yuqoridarajasi shkalaning uchdan ikki qismidan yuqori bo'ladigan manometr o'rnatiladi.
- 3.Avtoklav manometrida ishchi bosimning ruxsat etilgan me'yoriniko'rsatuvchiqizil chiziq yoki ko'rsatkichlarga bolingan maxkamlangan temir plastinka bolishi kerak.

***Qo'yidagi xollarda manometrni ishlatishga ruxsat berilmaydi:***

- 1.Tamg'a yoki muxr bo'lmaganda.
- 2.Davlat tekshiruvidan o'tkazish muddati tugagan bo'lsa.
- 3.Uskuna o'chirilganida manometr ko'rsatkichi nolga qaytmasa.
- 4.manometr oynasi singan yoki boshqa nosozliklar manometrning bosimini to'g'ri ko'rsatishga to'sqinlik qilsa.
- 5.Manometrlarni tekshirib ularga muxr yoki tamg'a qo'yilishi 1yilda bir martadan kam bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.bundan tashqari texnik xizmat ko'rsatadigan muassasalar tomonidan qo'shimcha ravishda xar 6 oyda bir marta manometr ko'rsatkichlari nazorat manometrlari ko'rsatkichlari bilan,nazorat manometrlari bo'lmaganda davlat tekshiruvidan o'tgan boshqa ishchi manometr ko'rsatkichlari muddatlarda tekshirilib turishi kerak.

***Avtoklavni texnik ko'rik va gidravlik sinovdan o'tkazishda qo'yiladigan talablar.***

Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish.

-Texnik ko'rik natijasiga ko'ra avtoklavning ishlashiga ruxsat etiladi yoki ta'kiqlanadi. Texnik ko'rik natijalari texnik ko'rikni o'tkazgan shaxs tomonidan avtoklavning pasportiga xamda avtoklavlarni shaxodatdan o'tkazish va qayd qilish jurnaliga yoziladi.

-Avtoklav ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish sanasi va gidravlik sinov o'tkaziladigan sanasi va gidravlik sinov o'tkaziladigan sana vakolatli idora yoki muassasa raxbariyati tomonidan belgilanadi.

-Avtoklav quyidagi xollarda texnik ko'rikdan o'tkaziladi:

-Bosim ostida ishlaydigan avtoklav qismlari payvandlanganda yoki to'liq ta'mirlangandani so'ng.

-Avtoklavni ishga tushirishdan oldin bir yildan ko'p vaqt ishlamagan bo'lsa(omborda konservatsiya qilish bundan mustasno).

-Avtoklavlar xar 3yildan ko'p vaqt saqlangan bo'lsa.

-Avtoklav ishlayotgan joyidan qo'chirilib, yangi joyga o'rnatilgan bo'lsa.

-Nazorat qiluvchi shaxs tomonidan yoki avtoklavning xavfsiz ishlashi uchun javobgar shaxs tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazish lozim deb topilganda

-Avtoklavning texnik ko'rikdan o'tkazish muddati 3 oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

***Avtoklavning ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish.***

-Avtoklavning ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish uni ishga tushirishdan oldin xamda xar 2 yilda bir marotaba amalga oshiriladi.

-Avtoklav temirining zanglashiga olib keluvchi muxitlar ostida ishlovchi avtoklav esa kamida 12 oyda bir marta texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Avtoklav ichki qismlari texnik ko'rikdan o'tkazilganda uning mustaxkamligiga ta'sir qiluvchi nosozliklar aniqlanishi va bartaraf qilinishi kerak.

-Avtoklavlarda sterilizatsiya, ma'lum bosim ostida, kerakli xaroratda, belgilangan vaqt ichida bajariladi.

-Sterillanadigan vositalar: jarroxolik, akusher - ginekologik, lor, stamatologik tibbiy asboblari; rezinali, pastmassali, sintetik, shisha buyumlar bir bika ichiga uz konunkoida sigabino anjoylanib sterilanadi.

#### ***Strelizatsiya kamerasida bosim xaroratga nisbatan sterilizatsiya qilish muddati***

Bosim, atm.	Xarorat, o S	Strelizatsiya muddati, daqiqa
0,5	112-115	60
1,0	120-122	45
1,5	126-128	30
2,0	132-134	20
2,5	138-140	20

Sterilizatsiyaning sifatli bajarilishi avtoklavning nuksonsiz ishlashiga boglikdir, ya'ni avtoklav kopkogining germetik yopilishi, avtoklav ichida ortikcha nam xavoning kolib ketmaslik, manometrlarning tug'ri ishlashi, biksning belbogi surilib teshiklarning ochiq xolda bo'lishi, bog'lov vositalari, xalat va choyshablar biksga joylanganda ularning g'ovak qilib joylanishi va talab qilingan bosim, xaroratda belgilangan vaqt ichida sterilizatsiyaning bajarilishi uning sifatli bo'lishiga kafolat beradi. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, bikslar ichiga kuyilgan, sterilizatsiya bulishi uchun zarur bo'lgan xaroratni anglatuvchi, ya'ni kerakli xaroratda kristall xoldagi kimyoviy moddaning erib suyulishi, avtoklav ichiga keragidan ortiq bikslarning joylanmasligi, xar bir bo'limdan kelgan tibbiy vositalarni aloxida-aloxida sterilizatsiya qilish, vositalarni sterilizatsiyagacha yaxshi tozalab yuvilishi, artilishi, kuritilishi, ularni xaltachaga yoki doka choyshab o'rab tartib bilan biksga joylashtirilishi va boshqalar to'liq bajarilishi shart. Aks xollarda, ba'zi kamchiliklarga yul kuyilganda sterilizatsiya sifatli bo'lmasligi mumkin.

#### ***Avtoklav o'rnatilgan xonaga nisbatan qurilish, sanitar va yuridik talablar***

O'zbekeiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1995yil 25 avgustdagi 0044-raqamli «Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya tadbirlarini o'tkazish» to'g'risidagi buyrug'iga binoan, davolash-profilaktika muassasalaridagi sterillash punktlarini loyihalash, qurish, undan foydalanish, sanitariya me'yor qoidalari, xonalarning joylashish tartibi, anjomlarni tozalash qoidalari va sterilizatsiyaning usullari, sterilizatsiya markazidagi xonalarni tibbiy anjomlar bilan ta'minlash, sterilizatsiya tadbirini bajarish davrida ish oqimiga amal qilish qoidalari batafsil bayon qilingan.

Avtoklavlar o'rnatilgan xonaning alohida bo'lishi, yoriqligi, hajmi, elektr manbai, suv bilan ta'minlanganligi, kanalizatsiyaning mavjudligi, xonaning poli va devorining kafellanganligi, devorning yuqori qismi esa moyli bo'yoq bilan bo'yalganligi, agar avtoklav suvini gaz yoqib isitilsa, temir truba oqali gaz yoqilg'isi bilan ta'minlanganligi, xona havosini zararsizlantirish uchun UB nur manbai sifatida simob-kvarsli yoki simob-argonli bakteritsid uviol lampa bilan ta'minlanganligi, xona havosini almashtirish uchun elektr shamollatgichning bo'lishi shart.

Qoidaga binoan kasalxona, poliklinika yoki biror davolash-profilaktika muassasasi qurilishi shart bo'lsa, ularning qurilish loyihasiga MSB yoki sterilizatsiya xonasining loyixasi ham kiritiladi va zarur bo'lgan sanitar, qurilish va yuridik talablarga nisbatan javob berish xolatlari inobatga olingan darajada bajariladi.

Avtoklavlar uchun foydalaniladigan suvlar

Tibbiyot hamda farmatsevtikada suv deyilganda faqat distillangan suv tushuniladi. Suvda qaynatib sterillashda distillangan suvdan foydalaniladi. Agar oddiy, tabiiy suvdan foydalanilsa uning tarkibidagi ma'dan tuzlar tibbiy asboblarga o'tirib qolib xiralashadi va ularning ishga yaroqligi muddatini qisqartiradi, o'tkir kesuvchi asboblarda o'tmaslashadi. Shuning uchun distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir

Avtoklavlar ichiga suv solib bug' xosil qilish maqsadida distillangan hamda tabiiy suvlardan foydalaniladi. Tabiatda suv ikki xil, ya'ni, qattiq va yumshoq bo'ladi. Ular tarkibida kalsiy va magniyli tuzlar bo'lib, ular suvga qattiqlik xolatini beradilar. Yumshoq suvda bunday tuzlar kamroq miqdorda bo'lishi mumkin, buni yarim qattiqlik deyiladi. Agar suvda kalsiy tuzlari bo'lsa bunday suvlarni kalsiylik qattiqlik, agar magniy tuzlari bo'lsa, magniyli qattiqlik, agar ikkala element tuzlari mavjud bo'lsa qo'sh tuzli qattiqlik deyiladi.

Avtoklavlar uchun bunday qattiq suvlardan foydalanilsa, vaqt o'tishi bilan suv qozonining tagiga kalsiy va magniy tuzlari o'tirib qoladi, buning salbiy oqibatlari mavjuddir:

**b i r i n c h i d a n** - o'tiribqolgan tuz o'zidan issiqlikni yomon o'tkazadi, natijada suv kech qaynaydi. Agar suv qozoni tezlik bilan tuzlardan tozalanmasa avtoklavni portlashga olib keladi.

**i k k i n c h i d a n** - tuz o'tirib qolishi natijasida uning hisobiga suv qozoni ichiga suv kamroq ketadi. Bu holat ham salbiy ko'rsatkich bo'lib, avtoklavning portlashiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarning oldini olish maqsadida distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar tabiiy suvdan foydalanilsa, o'tirib qolgan tuzlarni o'z vaqtida «Qozon nazorati» yoki «Uzmedtexnika»ning maxsus mutaxassislari tomonidan tozalash shart.

Avtoklavga suv ko'rsatkich naychasining 2/3 qismigacha suv quyiladi. Belgilangandan ko'p yoki kam suv quyish esa salbiy xolatlarga olib kelishi mumkin.

Avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidasi

Avtoklavdan foydalanish uchun, u bilan ishlaydigan o'rta tibbiyot xodimi-hamshira tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka oshirgan yoki ixtisoslashtirish bo'yicha o'qigan bo'lishi, mavjud bo'lgan avtoklavning pasporti bilan tanishgan hamda pasportida belgilangan maqsad bo'yicha foydalanishi lozimdir. Avtoklav o'rnatilgan xonada undan foydalanish tartib-qoidasi, ish jarayonidagi ehtiyot chora-tadbirlar, sanitar-gigiena qoidalari, sterilizatsiyani bajarish tartibi, texnika xavfsizligi qoidalari yozilgan xolda devorga osilgan bo'lishi shart. Avtoklavda sterilizatsiya ishi tugagandan so'ng, suvi to'qilib barcha jo'mraklar ochiq xolda qoldiriladi.

Avtoklavni ishga tushirish uchun:

1. Avtoklavning sterillash kamerasiga o'z qoidasiga binoan bikslarni joylashtirish.
2. Avtoklav qopqog'ini germetik yopish.
3. «Bug' kameraga»dan tashqari qolgan hamma jo'mraklarni burab berkitish.
4. Suv qozoniga belgilangan ko'rsatkich bo'yicha distillangan yoki tabiiy suv quyish.
5. «Bug' kameraga» jo'mragini berkitish.
6. Avtoklavning suv isitgichini elektr manbaiga ulash va suvni qaynatib bug' xosil qilish.
7. Avtoklavning sterilizatsiya kamerasidan nam havo va suv qaynab xosil bo'lgan nam bug'ni chiqarib yuborish uchun, bug' bosimini 1 atm. yetkazish, so'ng «Bug' kameraga» jo'mrakni ochish va kamerada bosim 1 atm. yetgandan so'ng jo'mrakni berkitish, kameradan nam havo va nam bug'ni tashqariga «Bug', havo kameradan» jo'mrak orqali tizillatib chiqarish. Bu tadbirni 3 marta qaytarish.
8. Bug' kameraga kirib kerakli 1,0; 1,5 yoki 2.0 atm. bo'lgandan so'ng sterilizatsiyani boshlash va 45, 30 yoki 20 daq. belgilash.
9. Sterilizatsiya tugagandan so'ng avtoklavning suv isitgichini o'chirish, asta-sekin «Vakuum» jo'mrak (10-15 soniya) ochilib quruq bug' bilan tozalash va jo'mrakni berkitish.
10. «Bug', havo kameradan» jo'mrak ochilib bosim 0.1-0.2 atm. tushiriladi, so'ng yana quruq bug' 0.5 atm. gacha kiritiladi va 10 daq. qoldiriladi, tibbiy buyumlar (bog'lov vositalar)ni quritish uchun.
11. So'ng «Havo kameraga» jo'mrak ochiladi (bu xolda maxsus filtr orqali havo sterillanib o'tadi).
12. Sterillash kamerasidagi manometr bo'yicha bosim me'yoriga «0» atm. tushgandan so'ng avtoklav eshigi qiya ochilib bir necha daq. qoldiriladi.
13. Bir necha daqiqadan so'ng issiq xolda bikslar olinadi, tezlik bilan belbog'i surilib teshiklari berkitiladi va alohida «Steril zona» deb nomlangan xonaga olib borib qo'yiladi.
14. Bikslarni avtoklav ichida to'liq soviguncha qoldirish mumkin emas, aks xolda kondensatsiyalangan bug' tomchi suv xolida biks ichidagi buyumlarni namlaydi.
15. Avtoklav ishi tugagandan so'ng hamma jo'mraklar ochilib, suvi oqiziladi.
16. Apparatning quruq bo'lishi uchun avtoklav qopqog'i va uning jo'mraklari ochiq xolda qoldiriladi,

Yuqorida bayon qilingan tartib va qoidalarga to'liq amal qilinib borilsa, avtoklavning doimo ishga yaroqligi kafolatlanadi va sterilizatsiya tadbiri sifatli bajariladi.

Avtoklavlarning portlash ehtimoli, unga sababchiomillar va oldini olish tadbirlari

Respublika davolash-profilaktika muassalarining markazlashtirilgan sterilizatsiya bo'limlarida, turli markadagi avtoklavlarda sterilizatsiya tadbirini bajarish davrida, o'ziga xos foydalanish tartib va qoidasiga to'liq rioya etish talab etiladi. Agar belgilangan talabga to'liq amal qilinmasa baxtsiz xodisa ro'y berib, avtoklav portlashi mumkin.

Avtoklavning portlashiga sababchi omillar:

- avtoklav ishlab turganda qarovsiz qoldiril
- suv qozonida suv qolmasa
- bosimko'rsatkichmanometrinosoz bo'lsa,
- suv qozoniga kalsiy va magniy tuzlari ko'p o'tirib qolsa,
  - avtoklavning ishlash muddati o'tib ketsa,
- keragidan ortiq elektr quvvatidan foydalanilsa,
- keragidan ortiq bosimda foydalanilsa,
- ortiqcha bosimda bug'ning chiqib ketishini boshqarib turadigan moslama nosoz bo'lsa,
- avtoklav ta'mirlanib, mutaxassis tomonidan sinalmasdan turib sterilizatsiya ishi bajarilsa,
- boshqamaqsadlar uchun avtoklavdan foydalanilsa.

**Yuqoridagi sabablarni oldini olish uchun:**

- bug' xosil qilish uchun distillangan suvdan foydalanish,
  - agar tabiiy suvdan foydalanilsa, qozon tagiga o'tirib qolgan tuzlarni o'z vaqtida mutaxassis orqali yo'qotish,
    - avtoklav ishi tugagandan so'ng, uning suv qozonidan suvni to'qib, bir necha marta qozonni chay
      - avtoklav muntazam ravishda, o'z vaqtida mutaxassis nazoratidan o'tib turishi,
      - avtoklavning suv ko'rsatkich, bosim ko'rsatkich va ortiqsa bug'ni avtomatik ravishda chiqarib yuboruchi asboblarning sozdig
    - avtoklavning pasportida ko'rsatilgan bosimda ishlatilishi shartdir.

Yuqorida bayon etilgan bandlarga to'liq amal qilinsa, avtoklav nuqsonsiz va hech qanday xavf-xatarsiz hizmat qiladi hamda o'z muddati davomida sifatli sterilizatsiya tadbirini bajaradi

## **TEST SAVOLLARI**

**1. Shkaf tuzilishli avtoklav xonani devoridan necha masofada o'rnatiladi**

- A) 0,5 metr
- B) 2,5 metr
- V) 1,5 metr
- G) 1,0 metr

**2. Yoqib-o'chirish moslamasi avtoklavdan va poldan qancha uzoqlikda o'rnatiladi?**

- A) Avtoklavdan – 1m poldan-1,6
- B) Avtoklavdan –0,5 poldan-0,8m
- V) Avtoklavdan – 0,8m poldan-1,2m
- G) Avtoklavdan – 1m poldan-1m

**3. Avtoklavdakimlarishlashigaruxsatberiladi?**

- A) Shifokorlarga
- B) Mutaxassis xamshiraga
- V) laborantlarga
- G) xamma ishlashi mumkin

**4. Avtoklav qachon texnik ko‘rikdano‘tkazilmaydi?**

- A) Omborda konservatsiya qilingan bo‘lsa
- B) Avtoklav ishga tushishdan oldin 1yildan ko‘p ishlamagan bo‘lsa.
- V) Ishlayotgan joydan boshqa joyga ko‘chirilsa.
- G) Javobgar shaxs tomonidan ko‘rikdan o‘tkazish shart

**5. Manometrni qaysi xolatida avtoklav ishlatishga ruxsat berilmaydi?**

- A) Oynasi xira bo‘lsa
- B) O‘chirilganda manometr ko‘rsatkichi nolga qaytsa .
- V) Manometrda tamg‘a yoki muxr bo‘lsa
- G) Oynasi singan bo‘lsa

**6. Bickga material joylashtirishning 3 xil usuli qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Muvofik, umumiy, aralash turlari.
- B) Umumiy, maxsus xonaga xos, universal.
- V) Universal, muvofiq va materialning malum turi.
- G) A va V javob to‘g‘ri.

**7. Buyumlar biksda yaxshi sterillanishi uchun qanday joylanadi?**

- A) Zich holatda.
- B) G‘ovak qilib.
- V) Yarimgacha zich, yuzasi g‘ovak qilib.
- G) Yarimgacha g‘avak, yuzasi zich qilib.

**8. Tibbiy vositalarning sterilizatsiya qilinganligining sifatini tekshirish qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Biologik.
- B) Fizikaviy.
- V) Kimyoviy.
- G) ABV javoblarto‘g‘ri.

**9. Metall va shishadan buyumlarni qaynatib sterillash tartibi qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Asboblarni cho‘tk bilan yuvib, 2%li soda eritmasida, suv qaynab chiqqan vaqtdan boshlab 45 minut moboynda qaynatib.
- B) Asboblarni cho‘tk bilan yuvib, suv qaynab chiqqan vaqtdan boshlab 20 minut moboynda qaynatib.
- V) Asboblarni tozalab so‘ng, qaynab turgan suvga 5 minut davomida solib sterillanadi.

G) B va V javoblar to'g'ri

### TIBBIY ATAMA

1. **Avtoklav** – yuqori bosim va yuqori haroratdagi suv bug‘i yordamida tibbiy asbob-anjomlarni sterilizatsiya qiladigan maxsus qurilma.
2. **Sterilizatsiya** – mikroorganizmlar, bakteriyalar, viruslar va ularning sporalarini to‘liq yo‘q qilish jarayoni.
3. **Manometr** – avtoklav ichidagi bosim darajasini o‘lchaydigan va ko‘rsatib beradigan o‘lchov asbobi.
4. **Xavfsizlik klapani** – avtoklav ichidagi bosim me‘yordan oshib ketganda ortiqcha bosimni chiqarib yuborib, portlashning oldini oladigan moslama.
5. **Gidravlik sinov** – avtoklavning mustahkamligi va xavfsizligini tekshirish uchun suv bosimi yordamida o‘tkaziladigan texnik sinov.
6. **Texnik ko‘rik** – avtoklavning texnik holatini tekshirish, nosozliklarni aniqlash va xavfsiz ishlashini ta‘minlash jarayoni.
7. **Dielektrik gilamcha** – elektr tokini o‘tkazmaydigan maxsus rezinali qoplama bo‘lib, elektr xavfsizligini ta‘minlash uchun qo‘llaniladi.
8. **Biks** – sterilizatsiya qilinadigan tibbiy asboblardan va materiallarni joylashtirish uchun ishlatiladigan metall idish.
9. **Sterilizatsiya kamerasi** – avtoklav ichidagi bo‘shliq bo‘lib, unda asbob-anjomlar bug‘ ta‘sirida sterilizatsiya qilinadi.
10. **Bosim ostida ishlaydigan qurilma** – ichki bosim yordamida ishlaydigan texnik moslama bo‘lib, avtoklav ham shu turdagi qurilmalarga kiradi.

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Avtoklav o‘rnatilgan xonaga qanday asosiy talablar qo‘yiladi?
2. Nima sababdan avtoklavni davolash yoki muolaja xonalariga yaqin joylashtirish mumkin emas?
3. Avtoklav xonalarining eshiklari qanday bo‘lishi kerak?
4. Avtoklav o‘rnatilgan xonaning poli qanday materialdan bo‘lishi lozim?
5. Avtoklav bilan devor orasidagi masofa kamida qancha bo‘lishi kerak?
6. Avtoklavni elektr tarmog‘iga ulashda qanday xavfsizlik qoidalariga amal qilinadi?
7. Manometrning asosiy vazifasi nima?
8. Qanday hollarda manometrni ishlatishga ruxsat berilmaydi?
9. Avtoklav qaysi hollarda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi kerak?
10. Avtoklavda sterilizatsiya jarayoni qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki no‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.

- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

**”KLAUSTER” usuli.** (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar. Klaster” usuli-turli xil g‘oyalar o‘rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

### **Muammoli masalalar:**

#### **№2 Biksga joylashtirishning uch usuli mavjud.**

<b>№</b>	<b>Kadamba-kadambajarishtartibi.</b>
<b>1.</b>	
<b>2.</b>	
<b>3.</b>	

<b>№</b>	<b>Kadamba–kadambajarish tartibi.</b>
<b>1.</b>	Kichikrok jarroxlik amaliyoti uchun universal joylash. Biksga jarroxlik amaliyoti uchun talab qilinishi zarur bo‘lgan vositalar qavatma-qavat qilib joylanadi. Birinchi qavatga qo‘lga ishlatiladigan salfetkalar, xalat, niqob, paxta bo‘laklari; ikkinchi qavatga esa : salfetkalar, tamponlar, sharchalar va shu kabilar joylanadi.
<b>2.</b>	Jarroxlik amaliyotining muayyan turi uchun maqsadga muvofiq joylashgan bo‘lib, masalan, ichak rezeksiyasi uchun zarur vositalarning hammasi joylanadi.
<b>3.</b>	Katta jarroxlik xonalarida ma’lum turdagi joylashgan usulidan foydalaniladi (xalatlar, choyshablar, tamponlar, sochiqlar va shu kabilar tartib bilan joylanadi).

MSBda turli usullar bilan sterilizatsiya tadbirlarini olib borish davridagi texnika havfsizligiga oid qoidalari.

1.	
2.	
3.	
4.	
5.	
6.	
7.	
8.	
9.	
10.	
11.	
12.	

MSBda turli usullar bilan sterilizatsiya tadbirlarini olib borish davridagi texnika havfsizligiga oid qoidalari.

1	Quruq issiqlik yordamida, elektr shkafida sterilizatsiya tadbirini bajarish uchun o'rta tibbiyot xodimi va u shu mutaxassislik bo'yicha malaka oshirgan yoki ixtisoslashtirish bo'yicha o'qigan bo'lishi shart.
2	Quruq issiqlik bilan sterillash apparati to'g'risidagi qo'llanma yoki apparatning pasporti bilan tanishgan bo'lishi shart.
3	Apparat albatta yerga ulangan «Zazemlenie» bo'lishi shart.
4	Apparat tagida rezinali poyonoz bo'lishi shart.
5	Apparatni elektr tarmog'iga ulash, o'chirish va undan foydalanish qoidasiga to'liq amal qilish shart.
6	Apparatdagi ko'rsatkich asboblarning nosozligi yoki noto'g'ri ishlashi aniqlansa undan foydalanish taqiqlanadi.
7	Apparat ishlab turganda uning eshigini ochish taqiqlanadi.
8	Apparat o'chirilib, uning ichidagi harorat 40-50 darajagacha pasaymaguncha eshigini ochish taqiqlanadi.
9	Apparat ishlab turgandan aazoratsiz qoldirish taqiqlanadi.
10	Apparatdan boshqa maqsadlar uchun foydalanish taqiqlanadi
11	Apparat va undagi ko'rsatkich asboblarning nosozliklarini o'z hohishi bo'yicha hamda maxsus mutaxassisdan boshqa kishilar tomonidan tuzatish yoki ta'mirlash taqiqlanadi.
12	Keragidan ortiq haroratda apparatdan foydalanish taqiqlanadi.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008  
 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y

SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkilotish.

2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkilotish va nazorat qilish tugʻrisida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.

3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun qoʻllanma. -2012y

4.«Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)

5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения

6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

### Internet- materiallari:

1.Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagi tibbiy portal.

2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.

3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga

4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”

5.[www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoy praktiki

6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny

7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)

8.[www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)

9.<http://www.minzdrav.uz/>– Oʻzbekiston respublikasi sogʻliqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;

10.Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>

11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)

12.SSO steriliz.[narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)

13.Oснащение SSO - Farmstandart-Medtexnika [www.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/)

14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya

15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>

16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.3 blok</b> <b>Oʻquv moduliga ajratilgan kredit jami 2 .</b>	<b>Avtoklavlar oʻrnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari.</b>
---	---

### Maʼruza mashgʻulotini oʻqitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>Oʻquv mashgʻulotining shakli va</b>	Nazariy mashgʻulot

<b>turi</b>	
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Avtoklavni qabul qilish tartibi.</li> <li>2. Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish.</li> <li>3. Manometr va xavfsizlik klapananlariga qo'yiladigan talablar.</li> </ol>
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b>	
<b>1. Ta'limiy:</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul>	
<b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yhat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

	tushintiradi.	
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish"usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Mozaika" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.</p> <p>Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar. " <b>Mozaika</b>" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar ragbatlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: " Avtoklavlar o'rnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari.O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. - 2012y</p>	<p>Tinglaydilar,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Avtoklav turlari, tuzilishi va ishlash tartibi. Avtoklavlarni qurilish bo'yicha gorizont va vertikal turlari, ishlash prinsipi gravitatsion va forvakuumli turlari. Avtoklavdan foydalanishni umumiy qoidalari. Avtoklavlarni qabul qilish, o'rnatish va turli qo'rsatkichlar bo'yicha sinash. Monometr va xavfsizlik klapanlariga qo'yilgan talab bilan tanishtirish, avtoklav kamerasidagi haroratini aniqligini tekshirish, sterilizatsiya kamerasining germetik holatini tekshirish bo'yicha ma'lumotlar berish. Avtoklavda ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalari. Avtoklavlardan foydalanish uchun har birining o'zi bilan birga qabul qilingan pasporti va metriologiyasi bo'yicha hamda belgilangan maqsad uchun foydalanishning lozimligi.</p>	<p><b>O'quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Zararsizlantirish oldi tozalov ishlarini hisobga olish jurnalini, bug'li va issiq havoli sterilizatorning ishini va tarqatilgan steril bikslarni hisobga olishda me'yoriy xujjatlarni yuritishni bilish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi ishlash tartibi ish jarayonida avtoklav ko'rsatkichlari: bosim, haroratni nazorat qilish. Avtoklavning ish jarayoniga bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar. Avtoklavni ish jarayonida sinamalarni (indikator)nazorat qilishni. Sanitariya-epidemiologiya xizmati va tartiblariga oid me'yoriy xuquqiy xujjatlarni yuritilishini bilishi va rioya qilishi.</p>
<p>O'qitish metodlari</p>	<p>“klaster”, “Mozaika” Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O'quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>O'qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil'mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>O'qitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan o'quv xona.</p>
<p>Qayta a'loqaning usul va vositalari.</p>	<p>Ogzaki so'rov: tezkor so'rov, yozma so'rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash</p>

**Mavzu: Avtoklavlar o'rnatilgan xonadan foydalanish tartibi, ehtiyot chora va tadbirlari, sanitar-gigiyenik qoidalari.**

**Dars rejasi:**

1. Avtoklavni qabul qilish tartibi.

2. Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish.

3. Manometr va xavfsizlik klapanlariga qo'yiladigan talablar.

1. Xar bir avtoklav aniq va soz manometr xamda xavfsizlik klapanlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

2. Avtoklavlarda ishchi bosimning yuqoridarajasi shkalaning uchdan ikki qismidan yuqori bo'ladigan manometr o'rnatiladi.

3. Avtoklav manometrida ishchi bosimning ruxsat etilgan me'yoriniko'rsatuvchiqizil chiziq yoki ko'rsatkichlarga bolingan maxkamlangan temir plastinka bolishi kerak.

**Qo'yidagi xollarda manometrni ishlatishga ruxsat berilmaydi:**

1. Tamg'a yoki muxr bo'lmaganda.

2. Davlat tekshiruvidan o'tkazish muddati tugagan bo'lsa.

3. Uskuna o'chirilganida manometr qo'rsatkichi nolga qaytmasa.

4. Manometr oynasi singan yoki boshqa nosozliklar manometrning bosimini to'g'ri ko'rsatishga to'sqinlik qilsa.

5. Manometrlarni tekshirib ularga muxr yoki tamg'a qo'yilishi 1yilda bir martadan kam bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. bundan tashqari texnik xizmat ko'rsatadigan muassasalar tomonidan qo'shimcha ravishda xar 6 oyda bir marta manometr ko'rsatkichlari nazorat manometrlari ko'rsatkichlari bilan, nazorat manometrlari bo'lmaganda davlat tekshiruvidan o'tgan boshqa ishchi manometr ko'rsatkichlari muddatlarda tekshirilib turishi kerak.

Avtoklavni texnik ko'rik va gidravlik sinovdan o'tkazishda qo'yiladigan talablar.

Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish.

Texnik ko'rik natijasiga ko'ra avtoklavning ishlashiga ruxsat etiladi yoki ta'kiqlanadi. Texnik ko'rik natijalari texnik ko'rikni o'tkazgkn shaxs tomonidan avtoklavning pasportiga xamda avtoklavlar nishaxodatdan o'tkazish va qayd qilish jurnaliga yoziladi. Avtoklav ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish sanasi va gidravlik sinov o'tkaziladigan sanasi va gidravlik sinov o'tkaziladigan sana vakolatli idora yoki muassasa raxbariyati tomonidan belgilanadi.

**Avtoklav quyidagi xollarda texnik ko'rikdan o'tkaziladi:**

Bosim ostida ishlaydigan avtoklav qismlari payvandlanganda yoki to'liq ta'mirlangandani so'ng.

Avtoklavni ishga tushirishdan oldin bir yildan ko'p vaqt ishlamagan bo'lsa (omborda konservatsiya qilish bundan mustasno).

Avtoklavlar xar 3yildan ko'p vaqt saqlangan bolsa.

Avtoklav ishlayotgan joyidan qo'chirilib, yangi joyga o'rnatilgan bo'lsa.

Avtoklavning texnik ko'rikdan o'tkazish muddati 3 oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

**Avtoklavning ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish.**

Avtoklavning ichki qismlarini texnik ko'rikdan o'tkazish uni ishga tushirishdan oldin xamda xar 2 yilda bir marotaba amalga oshiriladi. Avtoklav temirining zanglashiga olib keluvchi muxitlar ostida ishlovchi avtoklav esa kamida 12 oyda bir marta texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Avtoklav ichki qismlari texnik ko'rikdan o'tkazilganda uning mustaxkamligiga ta'sir qiluvchi nosozliklar aniqlanishi va bartaraf qilinishi kerak. Avtoklavlarda sterilizatsiya, ma'lum bosim ostida, kerakli

xaroratda, belgilangan vakt ichida bajariladi. Sterillanadigan vositalar: jarroxolik, akusher - ginekologik , lor, stamatologik tibbiy asboblari; rezinali, pastmassali , sintetik, shisha buyumlar bir bika ichiga uz konun koidasiga binoan joylanib sterillanadi.

### **Strelizatsiya kamerasida bosim xaroratga nisbatan sterilizatsiya qilish muddati**

Bosim, atm.	Xarorat, ° S	Strelizatsiya muddati, daqiqa
0,5 112-115	60	
1,0 120-122	45	
1,5 126-128	30	
2,0 132-134	20	
2,5 138-140	20	

Sterilizatsiyaning sifatli bajarilishi avtoklavning nuksonsiz ishlashiga boglikdir, ya'ni avtoklav kopkogining germitik yopilishi, avtoklav ichida ortikcha nam xavoning kolib ketmaslik , manometrlarning tugri ishlashi, biksning belbogi surilib teshiklarning ochik xolda bulishi, boglov vositalari, xalat va choyshablar biksga joylanganda ularning govak kilib joylanishi va talab kilingan bosim, xaroratda belgilangan vakt ichida sterilizatsiyaning bajarilishi uning sifatli bulishiga kafolat beradi. Yukoridagilar bilan bir katorda , bikslar ichiga kuyilgan, sterilizatsiya bulishi uchun zarur bulgan xaroratni anglatuvchi, ya'ni kerakli xaroratda kristall xoldagi kimyoviy moddaning erib suyulishi, avtoklav ichiga keragidan ortik bikslarning joylanmasligi, xar bir bulimdan kelgan tibbiy vositalarni aloxida-aloxida sterilizatsiya qilish, vositalarni sterilizatsiyagacha yaxshi tozalab yuvilishi, artilishi, kurtilishi, ularni xaltachaga yoki doka choyshab urab tartib bilan biksga joylashtirilishi va boshkalar tulik bajarilishi shart. Aks xollarda, ba'zi kamchiliklarga yul kuyilganda sterilizatsiya sifatli bulmasligi mumkin.

#### **Sterilizatsiyaning sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar:**

- A) sterillash davrida avtoklav ichida ortikcha xavoning kolib ketishi;
- B) belgilangan bosimning xosil bulmasligi;
- V) kerakli zarur xaroratnin xosil bulmasligi;
- G) avtoklav kopkogining germitik yopilmasligi;
- D) biks ichiga sterilizatsiya kilinadigan vositalarning me'yoridan ortik joylashtirilishi;
- Ye) biks yon teshiklarining yopik xolda bulishi;
- Yo) avtoklav suvk ozoniga belgilangan mikdordan ortik suvning kuyilishi.

Avtoklavda sterilizatsiya bajarilganda biks ichidagi vositalar, ayniksa boglov vositalarning xul chikish sabablari quyidagi lardan iborat:

1) Avtoklavning suv kozoniga me'yoridan ortik suv kuyilsa, Bunda suv kaynaganda Bug Bilan bir katorda suv tomchilari biks teshigi orkali uning ichidagi buyuilarga shimilib xullanadi.

ortikcha xavoning bugkazonida kolib ketishi. Koidaga binoan 3 marta bug kozoni ichidan nam xavo va bugni jumrakni ochib tashkariga chikarib yuborish shart.

Biks ichiga joylangan boglov vositalari ,choyshablar , sochiklar vx.k. g'ovak kilib solinmasdan me'yoridan ortik solinib, kopkogi kuch bilan berkitilsa, biks teshigi

orkali kirgan xul xavo va xul bug vositalarga shimilib, natijada ular orasidagi govaklik xolati yukolib namlik olib ketadi.

Sterilizatsiya tugagandan sung avtoklav uchirilib, Bug kozonidagi buglar chikarilib bosim nolgatushgandan sung avtoklavning kopkogi ozgina ochilib uzok muddatga koldirmsasdan bikslarni issik xolida tezda olish shart. Agar uzok muddatga, uy xaroratigacha koldirilsa avtoklav Bug kozoni ichidagi issik xavo-bug avtoklavning sovigan bug kozoni devorlari ta'sirida bugning kondansatsiyalanishi, suvga aylanishi natijasida tomchi-tomchi suvlar biks ustiga tomib tushadi va teshigi orkali uning ichidagi boglov vositalriga shimiladi va natijada buyumlar xul chikadi.

Avtoklav o'rnatilgan xonaga nisbatan qurilish, sanitar va yuridik talablar

O'zbekeiston respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1995yil 25 avgustdagi 0044-raqamli «Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya tadbirlarini o'tkazish» to'g'risidagi buyrug'iga binoan, davolash-profilaktika muassasalaridagi sterillash punktlarini loyihalash, qurish, undan foydalanish, sanitariya me'yor qoidalari, xonalarning joylashish tartibi, anjomlarni tozalash qoidalari va sterilizatsiyaning usullari, sterilizatsiya markazidagi xonalarni tibbiy anjomlar bilan ta'minlash, sterilizatsiya tadbirini bajarish davrida ish oqimiga amal qilish qoidalari batafsil bayon qilingan.

Avtoklavlar o'rnatilgan xonaning alohida bo'lishi, yoriqligi, hajmi, elektr manbai, suv bilan ta'minlanganligi, kanalizatsiyaning mavjudligi, xonaning poli va devorining kafellanganligi, devorning yuqori qismi esa moyli bo'yoq bilan bo'yalganligi, agar avtoklav suvini gaz yoqib isitilsa, temir truba oaqali gaz yoqilg'isi bilan ta'minlanganligi, xona havosini zararsizlantirish uchun UB nur manbai sifatida simob-kvarsli yoki simob-argonli bakteritsid uviol lampa bilan ta'minlanganligi, xona havosini almashtirish uchun elektr shamollatgichning bo'lishi shart.

Qoidaga binoan kasalxona, poliklinika yoki biror davolash-profilaktika muassasasi qurilishi shart bo'lsa, ularning qurilish loyihasiga MSB yoki sterilizatsiya xonasining loyixasi ham kiritiladi va zarur bo'lgan sanitar, qurilish va yuridik talablarga nisbatan javob berish xolatlari inobatga olingan darajada bajariladi.

Avtoklavlar uchun foydalaniladigan suvlar

Tibbiyot hamda farmatsevtikada suv deyilganda faqat distillangan suv tushuniladi. Suvda qaynatib sterillashda distillangan suvdan foydalaniladi. Agar oddiy, tabiiy suvdan foydalanilsa uning tarkibidagi ma'dan tuzlar tibbiy asboblarga o'tirib qolib xiralashadi va ularning ishga yaroqligi muddatini qisqartiradi, o'tkir kesuvchi asboblarda o'tmaslashadi. Shuning uchun distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir

Avtoklavlar ichiga suv solib bug' xosil qilish maqsadida distillangan hamda tabiiy suvlardan foydalaniladi. Tabiatda suv ikki xil, ya'ni, qattiq va yumshoq bo'ladi. Ular tarkibida kalsiy va magniyli tuzlar bo'lib, ular suvga qattiqlik xolatini beradilar. Yumshoq suvda bunday tuzlar kamroq miqdorda bo'lishi mumkin, buni yarim qattiqlik deyiladi. Agar suvda kalsiy tuzlari bo'lsa bunday suvlarni kalsiylik qattiqlik, agar magniy tuzlari bo'lsa, magniyli qattiqlik, agar ikkala element tuzlari mavjud bo'lsa qo'sh tuzli qattiqlik deyiladi.

Avtoklavlar uchun bunday qattiq suvlardan foydalanilsa, vaqt o'tishi bilan suv qozonining tagiga kalsiy va magniy tuzlari o'tirib qoladi, buning salbiy oqibatlari mavjuddir:

**b i r i n c h i d a n** -o'tiribqolgan tuz o'zidan issiqlikni yomon o'tkazadi, natijada suv kech qaynaydi. Agar suv qozoni tezlik bilan tuzlardan tozalanmasa avtoklavni portlashga olib keladi.

**i k k i n c h i d a n** - tuz o'tirib qolishi natijasida uning hisobiga suv qozoni ichiga suv kamroq ketadi. Bu holat ham salbiy ko'rsatkich bo'lib, avtoklavning portlashiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilarning oldini olish maqsadida distillangan suvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Agar tabiiy suvdan foydalanilsa, o'tirib qolgan tuzlarni o'z vaqtida «Qozon nazorati» yoki «Uzmedtexnika»ning maxsus mutaxassislari tomonidan tozalash shart.

Avtoklavga suv ko'rsatkich naychasining 2/3 qismigacha suv quyiladi. Belgilangandan ko'p yoki kam suv quyish esa salbiy xolatlariga olib kelishi mumkin.

Avtoklavdan foydalanishning umumiy qoidasi

Avtoklavdan foydalanish uchun, u bilan ishlaydigan o'rta tibbiyot xodimi-hamshira tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka oshirgan yoki ixtisoslashtirish bo'yicha o'qigan bo'lishi, mavjud bo'lgan avtoklavning pasporti bilan tanishgan hamda pasportida belgilangan maqsad bo'yicha foydalanishi lozimdir. Avtoklav o'rnatilgan xonada undan foydalanish tartib-qoidasi, ish jarayonidagi ehtiyot chora-tadbirlar, sanitar-gigiena qoidalari, sterilizatsiyani bajarish tartibi, texnika xavfsizligi qoidalari yozilgan xolda devorga osilgan bo'lishi shart. Avtoklavda sterilizatsiya ishi tugagandan so'ng, suvi to'qilib barcha jo'mraklar ochiq xolda qoldiriladi.

***Avtoklavni ishga tushirish uchun:***

1. Avtoklavning sterillash kamerasiga o'z qoidasiga binoan bikslarni joylashtirish.
2. Avtoklav qopqog'ini germetik yopish.
3. «Bug' kameraga»dan tashqari qolgan hamma jo'mraklarni burab berkitish.
- 4 Suv qozoniga belgilangan ko'rsatkich bo'yicha distillangan yoki tabiiy suv quyish.
- 5.«Bug' kameraga» jo'mragini berkitish.
- 6.Avtoklavning suv isitgichini elektr manbaiga ulash va suvni qaynatib bug' xosil qilish.
- 7.Avtoklavning sterilizatsiya kamerasidan nam havo va suv qaynab xosil bo'lgan nam bug'ni chiqarib yuborish uchun, bug' bosimini 1 atm. yetkazish, so'ng «Bug' kameraga» jo'mrakni ochish va kamerada bosim 1 atm. yetgandan so'ng jo'mrakni berkitish, kameradan nam havo va nam bug'ni tashqariga «Bug', havo kameradan» jo'mrak orqali tizillatib chiqarish. Bu tadbirni 3 marta qaytarish.
- 8 Bug' kameraga kirib kerakli 1,0; 1,5 yoki 2.0 atm. bo'lgandan so'ng sterilizatsiyani boshlash va 45, 30 yoki 20 daq. belgilash.
- 9.Sterilizatsiya tugagandan so'ng avtoklavning suv isitgichini o'chirish, asta-sekin «Vakuum» jo'mrak (10-15 soniya) ochilib quruq bug' bilan tozalash va jo'mrakni berkitish.

10.«Bug‘, havo kameradan» jo‘mrak ochilib bosim 0.1-0.2 atm. tushiriladi, so‘ng yana quruq bug‘ 0.5 atm. gacha kiritiladi va 10 daq. qoldiriladi, tibbiy buyumlar (bog‘lov vositalar)ni quritish uchun.

11.So‘ng «Havo kameraga» jo‘mrak ochiladi (bu xolda maxsus filtr orqali havo sterillanib o‘tadi.

12. Sterillash kamerasidagi manometr bo‘yicha bosim me‘yoriga «0» atm. tushgandan so‘ng avtoklav eshigi qiya ochilib bir necha daq. qoldiriladi.

13. Bir necha daqiqadan so‘ng issiq xolda bikslar olinadi, tezlik bilan belbog‘i surilib teshiklari berkitiladi va alohida «Steril zona» deb nomlangan xonaga olib borib qo‘yiladi.

14.Bikslarni avtoklav ichida to‘liq soviguncha qoldirish mumkin emas, aks xolda kondensatsiyalangan bug‘ tomchi suv xolida biks ichidagi buyumlarni namlaydi.

15.Avtoklav ishi tugagandan so‘ng hamma jo‘mraklar ochilib, suvi oqiziladi.

16.Apparatning quruq bo‘lishi uchun avtoklav qopqog‘i va uning jo‘mraklari ochiq xolda qoldiriladi,

Yuqorida bayon qilingan tartib va qoidalarga to‘liq amal qilinib borilsa, avtoklavning doimo ishga yaroqligi kafolatlanadi va sterilizatsiya tadbiri sifatli bajariladi.

Avtoklavlarning portlash ehtimoli, unga sababchi omillar va oldini olish tadbirlari

Respublika davolash-profilaktika muassalarining markazlashtirilgan sterilizatsiya bo‘limlarida, turli markadagi avtoklavlarda sterilizatsiya tadbirini bajarish davrida, o‘ziga xos foydalanish tartib va qoidasiga to‘liq rioya etish talab etiladi. Agar belgilangan talabga to‘liq amal qilinmasa baxtsiz xodisa ro‘y berib, avtoklav portlashi mumkin.

Avtoklavning portlashiga sababchi omillar:

- avtoklav ishlab turganda qarovsiz qoldiril
- suv qozonida suv qolmasa
- bosimko‘rsatkichmanometrinosoz bo‘lsa,
- suv qozoniga kalsiy va magniy tuzlari ko‘p o‘tirib qolsa,
- avtoklavning ishlash muddati o‘tib ketsa,
- keragidan ortiq elektr quvvatidan foydalanilsa,
- keragidan ortiq bosimda foydalanilsa,
- ortiqcha bosimda bug‘ning chiqib ketishini boshqarib turadigan moslama nosoz bo‘lsa,
- avtoklav ta‘mirlanib, mutaxassis tomonidan sinalmasdan turibsterilizatsiya ishi bajarilsa,
- boshqamaqsadlaruchunavtoklavdanfoydalanilsa.

Yuqoridagi sabablarni oldini olish uchun:

- bug‘ xosil qilish uchun distillangan suvdan foydalanish,
- agar tabiiy suvdan foydalanilsa, qozon tagiga o‘tirib qolgan tuzlarni o‘z vaqtida mutaxassis orqali yo‘qotish,
- avtoklav ishi tugagandan so‘ng, uning suv qozonidan suvni to‘qib, bir necha marta qozonni chay
- avtoklav muntazam ravishda, o‘z vaqtida mutaxassis nazoratidan o‘tib turishi,

-avtoklavning suv ko'rsatkich, bosim ko'rsatkich va ortiqsa bug'ni avtomatik ravishda chiqarib yuboruchi asboblarning sozdig

- avtoklavning pasportida ko'rsatilgan bosimda ishlatilishi shartdir.

Yuqorida bayon etilgan bandlarga to'liq amal qilinsa, avtoklav nuqsonsiz va hech qanday xavf-xatarsiz xizmat qiladi hamda o'z muddati davomida sifatli sterilizatsiya tadbirini bajaradi

## TEST SAVOLLARI

### 1. Avtoklavda bosimni o'lchaydigan asbob nima deb ataladi?

- A) Termometr
- B) Manometr\*
- C) Barometr
- D) Voltmetr

### 2. Avtoklavdagi ortiqcha bosimni chiqarib yuboradigan moslama qaysi?

- A) Termostat
- B) Xavfsizlik klapani\*
- C) Distillyator
- D) Kompresor

### 3. Avtoklav manometrda ruxsat etilgan ishchi bosim qanday belgilanadi?

- A) Ko'k chiziq bilan
- B) Qizil chiziq bilan\*
- C) Yashil chiziq bilan
- D) Oq chiziq bilan

### 4. Qaysi holatda manometrni ishlatish mumkin emas?

- A) Tamg'asi bo'lsa
- B) Davlat tekshiruvidan o'tgan bo'lsa
- C) Manometr oynasi singan bo'lsa\*
- D) Ko'rsatkich to'g'ri ishlasa

### 5. Manometrlarga muxr qo'yish kamida necha yilda bir marta amalga oshiriladi?

- A) 2 yilda bir marta
- B) 3 yilda bir marta
- C) 1 yilda bir marta\*
- D) 5 yilda bir marta

### 6. Avtoklav ichki qismlarining texnik ko'rigi odatda necha yilda bir marta o'tkaziladi?

- A) 1 yilda
- B) 2 yilda\*
- C) 3 yilda
- D) 5 yilda

### 7. Avtoklav uzoq vaqt ishlatilmagan bo'lsa qachon texnik ko'rikdan o'tkaziladi?

- A) 6 oy ishlatilmaganda
- B) 1 yildan ko‘p ishlatilmaganda\*
- C) 3 oy ishlatilmaganda
- D) 2 yil ishlatilmaganda

**8. Avtoklavning mustahkamligini tekshirish uchun qanday sinov o‘tkaziladi?**

- A) Elektr sinovi
- B) Radiologik sinov
- C) Gidravlik sinov\*
- D) Mexanik sinov

**9. Avtoklavda sterilizatsiya qanday omillar ta’sirida amalga oshiriladi?**

- A) Sovuq va namlik
- B) Bosim, harorat va vaqt\*
- C) Yorug‘lik va havo
- D) Elektr toki

**10. Sterilizatsiya qilinadigan asboblari qaysi idishga joylanadi?**

- A) Kolba
- B) Biks\*
- C) Flakon
- D) Ampula

## TIBBIY ATAMA

1. **Manometr** – avtoklav ichidagi bosimni o‘lchash uchun ishlatiladigan o‘lchov asbobi.
2. **Xavfsizlik klapani** – bosim ortib ketganda ortiqcha bug‘ni chiqarib yuborib, avtoklavni himoya qiluvchi moslama.
3. **Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlar va ularning sporalarini to‘liq yo‘q qilish jarayoni.
4. **Gidravlik sinov** – bosim ostida ishlaydigan qurilmaning mustahkamligini suv yordamida tekshirish usuli.
5. **Texnik ko‘rik** – qurilmaning texnik holatini tekshirish va ishlashga yaroqliligini aniqlash jarayoni.
6. **Biks** – sterilizatsiya qilinadigan tibbiy asboblarni joylashtirish uchun ishlatiladigan metall idish.
7. **Bosim** – gaz yoki suyuqlikning ma’lum yuzaga ko‘rsatadigan kuchi.
8. **Sterilizatsiya kamerasi** – avtoklav ichidagi asboblari sterilizatsiya qilinadigan qism.
9. **Nazorat manometri** – boshqa manometrlarning ko‘rsatkichlarini tekshirish uchun ishlatiladigan aniq o‘lchov asbobi.
10. **Texnik xizmat** – uskunaning to‘g‘ri ishlashini ta’minlash uchun o‘tkaziladigan tekshiruv va ta’minlash ishlari.

**”Mozaika” - o‘yinini o‘tkazish usuli.**

Bunda tinglovchilar guruh-larga bo‘linadilar. Mavzuga oid rasmlar konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi rasmlarni ma’lum vaqt ichida to‘g‘ri joylashtirib berishlari shart.

So‘ngra o‘qituvchi to‘g‘ri javobni doskada ko‘rsatadi. Birinchi va to‘g‘ri javob bergan guruh baholandi.

**”KLAUSTER” usuli.** (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.


Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g‘oyalar o‘rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.



Nazorat savollari:

1. Avtoklavning samarali ishlashi uchun distillangan suvdan foydalanishning ahamiyati.
2. Avtoklavlarning turli ko‘rsatkichlari: bosim, harorat va germetiklik holatini sinash va tekshirish tadbirlari.
3. Sterilizatsiya kamerasining germetiklik holatini, uning ichidagi havosini siyraklashtirib vakuummetr orqali sinash tartibi va qoidasi.
4. Avtoklavlardan foydalanishning umumiy qoidasi.
5. Sterilizatsiya bo‘limida o‘rnatilgan avtoklavlar va ulardan foydalanishga tegishli bo‘lgan hujjatlar, tavsiyanomalar, pasporti, texnika havfsizligi.

6. Avtoklavlardagi zararsizlantirish, uningsifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish tadbirlari.
7. Manometrning asosiy vazifasi nima?
8. Qanday hollarda manometrni ishlatish taqiqlanadi?
9. Avtoklav qaysi hollarda texnik ko'rikdan o'tkaziladi?
10. Avtoklavda sterilizatsiya jarayoni qanday sharoitlarda amalga oshiriladi?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish.
- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y
- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделия медицинского назначения
6. Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

### **Internet- materiallari:**

1. Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagi tibbiy portal.
2. [www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
3. [www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
4. [www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
5. [www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Международный журнал медитсинской практики
6. [www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
7. [www.abk.uz](http://www.abk.uz)
8. [www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
9. <http://www.minzdrav.uz/>– O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
10. Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
12. SSO steriliz. [narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)
13. Оснащение SSO - Farmstandart-Medtexnika [www.phs-mt.ru/center/about/](http://www.phs-mt.ru/center/about/)
14. SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
15. <http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
16. SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.3 modul</b> <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 4 .</b>	<b>Avtoklavda ishlash jarayonida harorat, bosim,</b> <b>sterilizatsiya vaqti, bug‘ning to‘yinishi darajasini</b> <b>qat‘iy nazorat qilish.</b>  <b>Sterilizatsiya ishining bajarilish tartib va qoidasi,</b> <b>texnika xavfsizligi qoidalari.</b>
--	---

**Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashg‘ulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Avtoklavda harorat va bosim nazoratini amalga oshirish.</li> <li>2. Sterilizatsiya vaqti va bug‘ning to‘yinishi darajasini nazorat qilish</li> <li>3. Sterilizatsiya ishining bajarilish tartibi va qoidasi</li> <li>4. Sterilizatsiya ishida texnika xavfsizligi qoidalarini bajarish</li> </ol>

**1-AMALIY KO‘NIKMA**

Avtoklavda harorat va bosim nazoratini amalga oshirish

1. Maqsad:

Avtoklavda sterilizatsiya jarayonining samaradorligini ta‘minlash uchun harorat va bosim ko‘rsatkichlarini qat‘iy nazorat qilish.

2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav (gorizontal, vertikal, gravitatsion yoki forvakuumli)
- Termometr va manometr
- Kimyoviy indikatorlar
- Sterilizatsiya jurnali

- SHHV (qo‘lqop, niqob, fartuk)

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarni avtoklavga joylashtirish.
3. Avtoklavni ishga tushirish.
4. Harorat va bosim ko‘rsatkichlarini jarayon davomida muntazam kuzatish.
5. Belgilangan standart diapazonni (harorat: 121–134°C, bosim: 1–2,1 bar) saqlash.
6. Agar ko‘rsatkichlar tashqariga chiqsa, siklni to‘xtatish va mas’ul shaxsga xabar berish.
7. Kimyoviy indikator yordamida harorat va bosim yetarliligi qo‘shimcha tekshiriladi.
8. Natijalar sterilizatsiya jurnaliga yoziladi: sana, vaqt, harorat, bosim, mas’ul shaxs imzosi.

## 2-AMALIY KO‘NIKMA

Sterilizatsiya vaqti va bug‘ning to‘yinishi darajasini nazorat qilish

### 1. Maqsad:

Avtoklavda bug‘ning yetarli darajada to‘yinganligini va sterilizatsiya vaqtining to‘liq bajarilishini nazorat qilib, steril asboblarning sifatini ta’minlash.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav
- Bug‘ to‘yinishi va harorat nazorati uchun termometr va manometr
- Kimyoviy indikatorlar
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Avtoklavga tozalangan va quritilgan asboblar joylashtiriladi.
3. Sterilizatsiya jarayonida:
  - Harorat va bosimni kuzatish
  - Belgilangan sterilizatsiya vaqtini hisoblash (odatda 15–30 daqiqa, bug‘ va asbob turiga qarab)
  - Bug‘ to‘yinishi darajasini aniqlash va nazorat qilish

4. Kimyoviy indikatorlar yordamida bug‘ yetarliligi va sterilizatsiya to‘liqligi tekshiriladi.
5. Jarayon tugagach, barcha natijalar sterilizatsiya jurnaliga yoziladi:
  - Sana va vaqt
  - Harorat, bosim, bug‘ to‘yinishi darajasi
  - Sterilizatsiya vaqti
  - Mas’ul shaxs imzosi
6. Agar nazorat parametrlarida kamchilik aniqlansa, sikl qayta o‘tkaziladi va xatolik sababi aniqlanadi.

### **3-AMALIY KO‘NIKMA**

#### Sterilizatsiya ishining bajarilish tartibi va qoidasi

##### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasida asbob-uskunalarni to‘g‘ri va samarali sterilizatsiya qilish jarayonini bajarishni o‘rgatish.

##### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav (bug‘li, quruq havo, gravitatsion yoki forvakuumli)
- Sterilizatsiya qoplari va paketlari
- Kimyoviy indikatorlar
- Biologik indikatorlar (zarurat bo‘lsa)
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jurnali
- SHHV (qo‘lqop, niqob, fartuk)

##### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarni oldindan tozalash va quritish.
3. Asboblarni sterilizatsiya qoplariga joylashtirish, paketlar orasida bo‘sh joy qoldirish.
4. Avtoklavni ishga tushirish va turiga qarab:
  - Harorat va bosimni belgilangan diapazonga yetkazish
  - Belgilangan sterilizatsiya vaqtini hisoblash
5. Kimyoviy indikatorlar va zarurat bo‘lsa, biologik testlar yordamida sterilizatsiya sifatini tekshirish.
6. Jarayon tugagach, asboblarni ehtiyotkorlik bilan chiqarish.
7. Natijalarni sterilizatsiya jurnaliga yozish: sana, asbob turi, sterilizator turi, vaqt, harorat, bosim, mas’ul shaxs imzosi.

## **4-AMALIY KO'NIKMA**

Sterilizatsiya ishida texnika xavfsizligi qoidalarini bajarish

### 1. Maqsad:

Sterilizatsiya jarayonida shaxsiy xavfsizlik va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash.

### 2. Kerakli jihozlar:

- SHHV (qo'lgop, niqob, himoya ko'zoynak, fartuk)
- Avtoklavlar uchun texnik qo'llanma
- Kimyoviy indikatorlar va dezinfeksiyalovchi vositalar
- Sterilizatsiya jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va himoya vositalarini to'liq taqish.
2. Avtoklavni ishlashdan oldin texnik holatini tekshirish:
  - Monometr va xavfsizlik klapanlari ishlayaptimi
  - Palata va eshiklar butunmi
  - Elektr va suv ta'minoti barqarorligi
3. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarni joylashtirishda ehtiyotkorlik: kesuvchi va o'tkir asboblardan uchun alohida paket.
4. Sterilizatsiya jarayonida:
  - Harorat, bosim va vaqtni qat'iy nazorat qilish
  - Jarayon davomida avtoklavni ochmaslik
  - Xavfsizlik signalari buzilgan taqdirda siklni to'xtatish
5. Jarayon tugagach:
  - Palata sovishini kutish
  - Asboblarni xavfsiz chiqarish
  - Kimyoviy indikator natijasini tekshirish
6. Sterilizatsiya natijalarini jurnalga yozish va mas'ul shaxs imzosini qo'yish.

### **Texnika xavfsizligi qoidalari:**

- SHHVni doimiy kiyish
- Avtoklav ishga tushirilgan paytda uni ochmaslik
- Harorat va bosimni muntazam nazorat qilish
- Shikastlangan yoki nosoz avtoklavdan foydalanmaslik

<b>2.4 blok</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b> <b>10-mavzu</b>	<b>Davolash-profilaktika muassasalari markaziy</b> <b>sterilizatsiya bo'limiga qo'yilgan sanitar-gigiyenik</b> <b>talablar.</b>
--	---

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashgulot
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<p>1. Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga ko'yiladigan talablari</p> <p>2. MSBda ishlaydigan tibbiyot hamshirasining vazifalari va huquqlari masalalar.</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1.Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
<b>Ish bosqichlari va</b>	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>

vaqti		
<p align="center"><b>1 bosqich</b> <b>O'quv</b> <b>mashg'ulotiga</b> <b>kirish 10 daqiqa</b></p>	<p align="center"><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi, yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b> <b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b> <b>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</b> <b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maksadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini O'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruklari bilan tanishtiradi,</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Sport lotto" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tarikasida yullab javob oladilar. " <b>Sport lotto</b>" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p align="center"><b>3-bosqich</b> <b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .Uyga vazifa: "Davolash-profilaktika muassasalari markaziy sterilizatsiya bo'limiga qo'yilgan sanitar-gigiyenik talablar".</p> <p>O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	<p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tugʻrisida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha oʻrta tibbiyot xodimlari uchun qoʻllanma. - 2012y</p>	
--	--	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Davolash-profilaktika muassasalari markaziy sterilizatsiya boʻlimiga qoʻyilgan sanitar-gigienik talablar DPM larda markaziy zararsizlantirish boʻlimi (keyin MSB) uchun aloxida bino yoki xonalar ajratilishi va maydonlari OʻzR SanQvaM № 0278-09 meʼyorlari asosida talab etilishi.</p>	<p><b>Oʻquv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Markaziy zararsizlantirish boʻlimlarida asbob-anjomlarni sanitariya qoida va meʼyorlar talabiga asosan zararsizlantirish va nazoratdan oʻtkazish</p> <p>Asbob uskunalar, bogʻlov va boshqa materiallarni zararsizlantirishga tayyorlash va ularni natijalarini tahlil qilish. Zararsizlantirilganlikni nazorat qilish uchun qoʻllaniladigan ichki va tashqi sinamalar va termostestlarni oʻrganish.</p>
<p>Oʻqitish metodlari</p>	<p>“<b>Sport lotto</b>”,</p>
<p>Oʻquv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli</p>
<p>Oʻqitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofilʼmlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.</p>
<p>Oʻqitish shart sharoiti</p>	<p>Fanga mos jixozlangan ukuv xona.</p>
<p>Qayta aʼloqaning usul va vositalari.</p>	<p>Ogʻzaki soʻrov: tezkor surov, yozma soʻrov, test, misol va mashklar bajarilgan oʻquv topshiriklarini baxolash</p>

## **Mavzu: Davolash-profilaktika muassasalari markaziy sterilizatsiya bo'limiga qo'yilgan sanitar-gigiyenik talablar.**

### **Dars rejasi:**

1. Markaziy sterilizatsiya bo'limlarida ishlaydigan tibbiy xodimlarga ko'yiladigan talablari
2. MSBda ishlaydigan tibbiyot hamshirasining vazifalari va huquqlari masalalar.

### **Markazlashtirilgan sterilizatsiya qilishbo'limi (maskani) tibbiyot xodimlariga qo'yiladigan talablar:**

Ishga kelib tushishda va ish vaqtida o'rta tibbiyot xodimlari amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq dastlabki (davriy) tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

MSB xodimlari maxsus kiyim va poyabzal bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Xodimlar ishlab chiqarishi uslubiyati, texnikasi, xavfsizlik texnikasi qoidalari, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya tartiblarni bajarish borasida yo'riqnomadan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

MSBga ishga kelib tushish oldidan tibbiyot xodimlari kamida bir hafta oldin sterilizatsiya oldi ishlov berish va usullari tartibi bo'yicha MSB bazaviy (namunaviy) o'quvidan o'tkazilishi shart. MSB da ish paytida hududiy Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shaxar va viloyatlar Sog'liqni saqlash Bosh boshqarmalarining mutaxassislari tomonidan faqat ma'ruzalar olib borilishi orqali o'qitish taqiqlanadi. MSB bazaviy o'qitishning 70%i amaliy mashg'ulotlarga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Sterilizatsiya qilish va avtoklavlash tartibi bo'yicha o'qitish tashkil etuvchi tashkilotlar o'qitishga huquq beruvchi litsenziyaga ega bo'lishi kerak.

Sterilizatsiya qilish va avtoklavlash tartibi bo'yicha sertifikatlar berish tegishli hujjatlar berish huquqiga ega muassasa tomonidan amalga oshiriladi.

Sterilizatsiyalovchi asbob-uskunalarga (avtoklav, quruq-isitishshkafiga) xizmat ko'rsatuvchi tibbiyot xodimlari MSB ga kelib tushishi oldidan, kelgusida esa yiliga 1marta maxsus kurslarda o'qitilishi hamda ushbu apparatlarda ishlashga ruxsat berilganligi haqida guvohnomaga ega bo'lishi kerak.

### ***Sterilizatsiya bo'limi hamshirasi bilishi kerak :***

1. Sterilizatsiyaning turi va maqsadini.
2. Turli sterilizatsiya usullarini bajarish qoidasini.
3. Sterilizatsiyaning sifatini tekshirish usullarini.
4. Quruq issiqlik bilan sterillash apparati va undan foydalanish tartib va qoidasini.
5. Avtoklavlarning turlari va ulardan foydalanish qoidalarini.
6. Sterilizatorlar va avtoklavlardagi ko'rsatkich asboblaridan foydalanish qoidasini.
7. Elektr quvvati bilan ishlaydigan sterilizator yoki avtoklavlarning yerga ulanganligini tekshirishni.
8. Turli avtoklavlarning o'ziga xos usul bilan isitish tartib va qoidasini.
9. Avtoklavlardan umumiy foydalanish qoidasini.
10. Ish davomida avtoklavlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'ladigan nosozliklar, ularni bartaraf etish tartib va qoidasini.
11. Avtoklavlarning buzilishi yoki portlash ehtimoli va ularga sababchionimlarni.

12. Sterilizatorlar va avtoklavlar bilan ishlash davridagi texnika xavfsizligi qoidalarini.

13. Sterilizatorlar va avtoklavlardan foydalanish va ularning ishini rasmiylashtirib boriladigan jurnalni o'z qoidasiga binoan rasmiylashtirib borishni.

14. Turli bo'limlardan sterilizatsiya uchun keltirilgan tibbiy vositalarni tekshirib qabul qilish va sterilizatsiyadan so'ng ularni o'z bo'limlariga tarqatish tartib va qoidasini.

***Sterilizatsiya bo'limi hamshirasi bajara olishi kerak:***

1. Sterilizatsiyaning turli usullarini.

2. Tibbiy asboblarni quruq issiqlik shkafida sterillashni.

3. Tibbiy vositalarning sterillanganlik sifatini tekshirish usullarini.

4. Turli rusumdagi avtoklavlarda sterilizatsiya ishini sifatli bajarishni.

5. Quruq issiqlik bilan sterillash apparati va avtoklavni ishga tushirish, sterilizatsiya tadbirin bajarish va ish so'ngida ularni o'z qoidasiga binoan o'chirishni.

6. Avtoklavda sterilizatsiya tadbirini bajarishda tasodifan portlash xolatini oldini olish tadbirlarini.

7. Sterilizatsiya bo'limidagi kundalik bajariladigan aseptika va anti-septika tadbirlarini tegishli tartib va qoidaga binoan olib borishni.

8. Kundalik bajariladigan tadbirlarni maxsus jurnallarga rasmiylashtirib borishni.

***Tibbiyot xodimlari qo'llari gigienasiga qo'yiladigan talablar***

ShII profilaktikasi maqsadlarida tibbiyot xodimlari qo'llari (qo'llarga gigienik ishlov berish, jarrohlarning qo'llariga ishlov berish) va bemorlar teri qoplamlari (jarrohlik muolajalari va in'eksiya joylari, donorlar tirsagining bukiladigan sohasi va teri qoplamlarini sanitariyatozalash) zararsizlantirilishi kerak.

Bajariladigan tibbiy muolajalar va tibbiyot xodimlari qo'l terisimikroblar bilan zararlanishini kamaytirishning talab etilgan darajasiga qarab qo'llarga gigienik ishlov beriladi. Ma'muriyat tibbiyot xodimlari qo'l gigienasi talablariga o'qitish va buning ustidan nazoratni tashkil etadi.

Qo'llar samarali yuvilishi va zararsizlantirilishiga erishish uchun quyidagi shartlarga rioya etish zarur: kalta olingan tirnoqlar, tirnoqlarda lak yo'qligi, sun'iy tirnoqlar yo'qligi, qo'llarda boldoq, uzuk va boshqa zargarlik taqinchoqlari yo'qligi. Jarroh qo'llariga ishlov berishdan avval qo'l soati, bilakuzuk va shu kabilar yechib qo'yilishi zarur.

Tibbiyot xodimlari qo'l yuvish va zararsizlantirish vositalari bilan, shuningdek, aloqa dermatitlari yuzaga kelish xavfini kamaytirish uchun qo'l terisini parvarishlash vositalari (krem, loson, malham va boshqalar) bilan etarli miqdorda ta'minlangan bo'lishi lozim. Teri antiseptiklari, yuvish vositalari va qo'l terisini parvarishlash vositalarini tanlashda individual jihatdan to'g'ri kelishiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Qo'llarga gigienik ishlov berish.

Quyidagi holatlarda qo'llarga gigienik ishlov berish kerak:

- bemor bilan bevosita aloqa oldidan;

- bemor shikastlanmagan terisi bilan aloqadan soʻng (masalan, tomirurishi yoki arterial bosimni oʻlchashda);
- organizm ajratma yoki ekskretlari, shilliq qatlamlari, bogʻlamalar bilan aloqadan soʻng;
- bemorga qarash boʻyicha turli amallarni bajarishdan oldin;
- bemor bevosita yonida turgan tibbiy asbob-uskuna va boshqa obʻektlar bilan aloqadan soʻng;
- yiringli yalligʻlanish jarayonlariga chalingan bemorlarni davolashdansaʻng, ifloslangan yuza va asbob-uskunalar bilan har bir aloqadan soʻng;
- hojatxonaga kirib chiqqandan soʻng va h.k.

Qoʻllarga gigienik ishlov berish ikki usulda amalga oshiriladi:

- ifloslanishlarni ketkazish va mikroorganizmlar sonini kamaytirish uchun qoʻllarni sovun va suv bilan gigienik yuvish;
- mikroorganizmlar sonini xavfsiz darajagacha kamaytirish uchun qoʻllarga teri antiseptigi bilan ishlov berish.

Qoʻllarni yuvish uchun dozatorli suyuq sovun (dispenser) yoki qattiq (brusok) sovun boʻlakchalari ishlatilib, bunday sovunlar ivib qolishigaimkon bermaydigan magnitli yoki boshqa sovundonlarga solinadi. Qoʻl alohida yoki bir martalik sochiq (salfetka) bilan artiladi. Tarkibida spirt bor yoki qoʻllanilishi nazarda tutilgan boshqa antiseptik bilan qoʻllarga gigienik ishlov berish (ularni dastlab yuvmasdan) qoʻllash boʻyicha yoʻriqnomasida tavsiya etilgan miqdorda qoʻl panjalar terisiga uni surtish orqali olib borilib, bunda barmoq uchlari, tirnoq atrofi terisi, barmoq orasiga ishlov berilishiga alohida eʼtibor qaratiladi. Dozator ishlatilganda dozatorga antiseptikning (yoki sovun) yangiporsiyasi dozator dezinfeksiya qilingan, suv bilan yuvilgan va quritilganidan soʻng solinadi. Tirsak bilan bosiladigan va fotoelementli dozatorlardan foydalangan afzal. Qoʻllarga ishlov berishga moʻljallangan teri antiseptiklaridan davolash-tashhish jarayonining barcha bosqichlarida foydalanishimkoniyati oson boʻlishi lozim. Bemorlarga qarash intensivligi yuqori boʻlgan va xodimlariga koʻplab ish vazifalari yuklangan boʻlinmalarda (reanimatsiya va intensiv terapiya va h.k.) teri antiseptiklari solingan dozatorlar xodimlar tomonidan ishlatilishi uchun qulay joyda (palataga kirish joyida, bemor toʻshagining yonida va boshqa) qoʻyilishi kerak. Shuningdek, tibbiyot xodimlari alohida idishlar (flakonlar) bilan taʼminlanishini nazarda tutish zarur. Tibbiyot xodimlari tomonidan qoʻl gigienasi talablarini bajarilishini doimiy nazorat qilish va tibbiy yordam koʻrsatish sifatini oshirish maqsadida bu axborotni xodimlarga yetkazish kerak. Tibbiyot xodimlari va bemorlar shaxsiy himoya vositalaridan bir rezina qoʻlqop ishlatish hisoblanadi.

Qoʻlqoplar 3 xil turga boʻlinadi:

- jarrohlik
- koʻrik
- xoʻjalik

*Jarrohlik qoʻlqoplari.* Teri osti toʻqimalari yoki qon ajratmalar bilan aloqani koʻzda tutuvchi barcha holatlarda ishlatiladi. Ushbu muolajalar uchun steril qoʻlqoplar ishlatilish koʻproq maʼqul deb hisoblanadi; biroq steril qoʻlqoplar boʻlmagan taqdirda yoki maʼlum sababga koʻra sterilizatsiya qilish imkoni

bo‘lmaganda yuqori darajali dezinfeksiyadan (YuDD) o‘tkazilgan jarrohlik qo‘lqoplarini ishlatishga yo‘l qo‘yiladi. Imkon qadar bir martalik jarrohlik qo‘lqoplaridan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ko‘p martalik qo‘lqoplariga tegishlicha ishlov berish yetarlicha ko‘p mehnatli jarayonni talab qiladi. YuDDdan o‘tkazilgan qo‘lqoplar shikastlangan teri

qoplamlari yoki shikastlanmagan shilliq parda bilan aloqalarda ishlatilishi mumkin. Operativ aralashuvlar olib borilganda faqat steril qo‘lqoplar ishlatiladi.

*Ko‘rik qo‘lqoplari.* Shikastlanmagan shilliq parda bilan aloqalarda ishlatilishi kerak. Ko‘rik qo‘lqoplari odatda rezina (lateks) yoki vinildantayyorlanib, ular sochma yoki alohida o‘ramda yetkazib berilishi mumkin. Ushbuturdagi qo‘lqoplar toza, biroq steril yoki YuDDdan o‘tkazilgan emas. Ularni takroran ishlatishga yo‘l qo‘yiladi. Ko‘rik qo‘lqoplarini har bir vena ichiga qilinadigan muolajalaridan so‘ng almashtirish zarur. Mushak va teri osti muolajalarini qo‘lqoplarsiz bajarishga yo‘l qo‘yiladi, infeksiyon kasalliklar stasionarlari bundan mustasno.

*Xo‘jalik qo‘lqoplari.* Qalin rezina qo‘lqoplari zararlangan asbob-anjomlar va boshqa buyumlar, chiqindilar, to‘shak to‘plamlari bilan muomalada, shuningdek, xonalarni tozalash ishlarida va zararlangan yuzalarga ishlov berishda ishlatiladi. Muntazam yuvib chayilgandan so‘ng bu qo‘lqoplarni ko‘p marta ishlatish mumkin. Agar tavsiya etilgan qo‘lqoplar turi bo‘lmasa, quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

Agar steril qo‘lqoplar bo‘lmasa, yuqori darajali dezinfeksiyadan (YuDD) o‘tgan qo‘lqoplarni ishlatilishi mumkin.

Agar ko‘rik qo‘lqoplari bo‘lmasa, steril yoki YuDDdan o‘tkazilgan qo‘lqoplar ishlatilishi mumkin.

Agar texnik qo‘lqoplar bo‘lmasa, bajariladigan ishlarga qarab toza, steril yoki YuDDdan o‘tkazilgan qo‘lqoplar ishlatilishi mumkin.

Davolash muassasalari tibbiyot xodimlari quyidagi smenali kiyim to‘plami bilan ta‘minlanishi kerak: xalat, qalpoq yoki ro‘mol, niqob, smenalipoyabzal (shippak). Bunday kiyim alohida shkafchalarda saqlanishi kerak. Ifloslangan taqdirda favqulodda almashtirish uchun maxsus kiyim to‘plami bo‘lishi lozim. Ustki kiyim xodimlar kiyim-kechak xonasida saqlanishi kerak. Davolash muassasasidan tashqarida tibbiy kiyim va poyabzalda bo‘lishga ruxsat etilmaydi. Operatsiya bloklari, tug‘ruq zallari, bog‘lash stasionarlari (bo‘limlari), shu jumladan, infeksiyon kasalliklar, ftiziatrik, teri-tanosilixtisosligidagi bo‘limlarda mashg‘ulot o‘tayotgan talabalar toza maxsus kiyimda (shippak, tibbiy xalat, qalpoq yoki qalpoqcha) bo‘lishi lozim.

Infeksiya bilan zararlangan suyuqliklarni sachratish yoki to‘qishehtimoli mavjud bo‘lsa, to‘siqlar – himoya ko‘zoynaklari, niqoblar, plastik fartuklar joriy qilinishi va qo‘llanilishi zarur.

## TEST SAVOLLARI

1. MSB xodimlari ishga kelishdan oldin qanday tekshiruvdan o‘tadi?
  - A) Shaxsiy tekshiruv
  - B) Davriy tibbiy ko‘rik\*
  - C) Psixologik test

- D) Yashash sharoitini tekshirish
2. MSB xodimlari ish paytida qanday kiyim kiyishi shart?
- A) Oddiy ish kiyimi
  - B) Maxsus kiyim va poyabzal\*
  - C) Ko‘ylak va shim
  - D) Sport kiyimi
3. MSB bazaviy o‘quvining amaliy mashg‘ulotlarga bag‘ishlangan qismi nechiga teng bo‘lishi kerak?
- A) 50%
  - B) 60%
  - C) 70%\*
  - D) 80%
4. Sterilizatsiya va avtoklavlash bo‘yicha o‘qitish kimlar tomonidan olib borilishi mumkin?
- A) Har qanday tibbiyot xodimi
  - B) Faqat litsenziyaga ega tashkilotlar\*
  - C) Mahalliy shifokorlar
  - D) Hududiy sanitariya nazorati markazi
5. Avtoklavda sterilizatsiya jarayoni qanday vositalarda bajariladi?
- A) Faqat jarrohlik asboblarda
  - B) Har qanday tibbiy asboblardagi vositalarda
  - C) Jarrohlik, akusher-ginekologik, lor, stamatologik asboblarda\*
  - D) Faqat sintetik materiallarda
6. Avtoklav xodimlarining o‘qitilishi yiliga nech marta amalga oshiriladi?
- A) Har 6 oyda
  - B) Har yili 1 marta\*
  - C) Har 2 yilda
  - D) Faqat ishga kelishdan oldin
7. MSB xodimlari uchun o‘qitish jarayonida ma’ruzalar orqali o‘qitish qabul qilinadimi?
- A) Ha, to‘liq
  - B) Yo‘q, faqat amaliy mashg‘ulotlar bo‘lishi kerak\*
  - C) Ha, lekin 50%
  - D) Yo‘q, faqat video darslar orqali
8. Avtoklav yoki quruq issiqlik apparatida ish boshlashdan oldin xodim nima qilishi kerak?
- A) Faqat ishga kirish
  - B) Maxsus kurslardan o‘tganligi va guvohnomaga ega bo‘lishi\*

- C) O‘z xohishiga ko‘ra ishlash
  - D) Yagona qoida yo‘q
9. Sterilizatsiya bo‘limi hamshirasi sterilizatsiya jarayonida nimani bilishi shart?
- A) Faqat avtoklav turlarini
  - B) Sterilizatsiya turi, maqsadi va sifatini tekshirish usullarini\*
  - C) Faqat ish tartibini
  - D) Faqat dezinfeksiya vositalari miqdorini
10. Tibbiyot xodimlari qo‘llar gigienasiga qaysi maqsadda e‘tibor beradi?
- A) Tashqi ko‘rinishni yaxshilash uchun
  - B) Shaxsiy qulaylik uchun
  - C) Mikroblardan zararlanishni kamaytirish va profilaktika maqsadida\*
  - D) Faqat jarrohlik vaqtida

### NAZORAT SAVOLLARI

1. MSB xodimlari ishga kelishdan oldin qanday o‘quvdan o‘tishi kerak?
2. Bazaviy o‘quv mashg‘ulotlarining qaysi qismi amaliy bo‘lishi shart?
3. Sterilizatsiya bo‘limi xodimlari avtoklavlarda ishlashga ruxsat olish uchun qanday hujjatga ega bo‘lishi kerak?
4. Avtoklav va quruq issiqlik apparatida ishga tushirish va o‘chirish tartibi kim tomonidan belgilanadi?
5. Sterilizatsiya bo‘limi hamshirasi avtoklavning turli turlarini qanday bilishi kerak?
6. Tibbiyot xodimlari qo‘llariga ishlov berishda qaysi teri qoplamlari zararsizlantiriladi?
7. Avtoklavdagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish tartibi kim tomonidan amalga oshiriladi?
8. MSBda kundalik bajariladigan tadbirlar qanday rasmiylashtiriladi?
9. Sterilizatsiya bo‘limi xodimlari xavfsizlik texnikasi qoidalarini qanday bilishi va bajarishi shart?

### TIBBIY ATAMA

1. **Markazlashtirilgan sterilizatsiya bo‘limi (MSB)** – tibbiyot muassasasida barcha asbob-anjomlarni sterilizatsiya qiladigan maxsus bo‘lim.

2. **Bazaviy o‘quv** – sterilizatsiya va avtoklavlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan boshlang‘ich ta‘lim.
3. **Guvohnoma** – xodimning avtoklav va sterilizatsiya uskunalarini ishlashga ruxsat olganligini tasdiqlovchi hujjat.
4. **Aseptika** – mikroblarni asbob va atrof-muhitdan to‘liq chiqarish yoki yo‘q qilish choralari.
5. **Antiseptika** – mikroblarni inson tanasi va yuzasida kamaytirish yoki yo‘q qilish choralari.
6. **Quruq issiqlik apparati** – asboblarni yuqori harorat orqali sterilizatsiya qiladigan qurilma.
7. **Sterilizatsiya turi** – tibbiy vositalarni sterilizatsiya qilish usuli (bug‘li, quruq issiqlik, kimyoviy).
8. **Avtoklavlash** – avtoklav yordamida yuqori bosim va haroratda sterilizatsiya qilish jarayoni.
Joriy tozalash xar kuni 2 maxal ish boshlashdan oldin va ish tugagandan so‘ng olib boriladi .Bakteretsid lampa yoqilish bilan tugatiladi. Mukammal tozalash xaftada bir marotaba amalga oshiriladi.

Ventilyatsiyadan steril zonga kelayaptgan xavo bakterial filtrlar yordamida tozalanadi va bosimni yuqori qilib ushab turadi boshka joylarga nisbatan. Masalan impulsli moslama “Alfa-01” i “Alfa-05”yordamida tezkor aseptik sharoitni yaratish mumkin, 8 daqiqaichida operatsiya, sterillash , muolaja xonalarini faqat changlardan emas sporali mikroorganizmlardan xalos qiladi.Ultrabinafsha nurlar bilan zararsizlantirish uchun 2 soat ketadi.

Xar bir zonada markerlangan tozalash moslamalari ni saqlash uchun aloxida sanitar xonalar bo‘lishi shart, bu xonalarda yuvish vositalari yuvish moslamalari ,

vetoshlar, viduar, kir mashina, shkaf, quritish moslamasi bo'lishi kerak. Steril zonani vetoshlari sterillangan indikatorli paketlarda steril zona javonida saqlanadi.

Avtoklav aloxida xonalarga o'rnatilishi kerak.

Avtoklavni bevosita davolash va muolaja xonalari, bo'linmalarni ustki yoki ostki qavatida, shuningdek boshqa xonalar bilan qo'shilgan xolda joylashtirish mumkin emas. Xonalar tibbiy yoritilgan, shuningdek xonaning derazasi yoki darchasi xamda shamollatish tizimi bo'lishi kerak.

Avtoklav xonalarining eshiklari tashqariga ochilishi va avtoklav ishlayotganda qulflanmasligi kerak.

Xonalarga oynali eshiklar o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.

Avtoklav xonalarida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish lozim.

Avtoklav xonalariga ularga xizmat qiluvchi shuningdek ulardan foydalanishni nazorat qiluvchi shaxslardan boshqa shaxslar kirishi ta'qiqlanadi.

Avtoklavlarga qo'yiladigan umumiy talablar:

Xonalarining poli elektr o'tkazmaydigan materialdan bo'lishi yoki polga dielektrik rezinali gilamcha bo'lishi lozim.

Avtoklav xamma tomondan xonaning devor qismiga yondosh qilib o'rnatilishi kerak. Bunda devordan avtoklavgacha bo'lgan masofa kamida 0.8m ni tashkil qilishi lozim. Shkaf tuzilishi avtoklavni xona devoridan 1.5 m masofa uzoqlikda o'rnatiladi.

Xar bir avtoklav elektr tarmog'iga aloxida tarmoq orqali yoki avtomatik yoqib o'chiruvchi moslama orqali ulanishi kerak. bevosita elektr rozetkaga ulash kat'iyan man qilinadi. Avtoklav yoqib-o'chiruvchi moslama xonaning polidan 1.6m balandlikda xamda avtoklavdan 1m uzoqlikda o'rnatiladi.

Xar bir avtoklav avtoklavni ishlab chiqargan muassasa tomonidan taqdim etilgan pasportga ega bo'lishi kerak. Bu pasport avtoklavning to'g'ri va xavfsiz ishlashi uchun javobgar shaxs tomonidan to'ldiriladi va saqlanadi.

Avtoklav o'rnatilgandan keyin unda quyidagi ko'rsatkichla bo'lishi kerak:

1. Avtoklavni shaxodatlash va buni jurnalda qayd qilish.
2. Avtoklav ishlashi mumkin bo'lgan bosim.
3. Avtoklavning keyingi ichki ko'rigi va gidravlik sinov sanasi.

Markaziy sterilizatsiya bo'limida olib boriladigan ishlarni belgilab borish uchun jurnallar.

1. Bo'limlardan sterilizatsiya uchun turli asboblarni qabul qilish jurnali (har bir bo'lim uchun alohida).

2. Asboblarni tozalab qaynatish jurnali.

3. Asboblarni «quritgich shkafi»da quritish jurnali.

4. Asboblarni quruq issiqlik bilan sterilizatsiya qilish jurnali.

5. Asboblarni va turli vositalarni avtoklavda sterilizatsiya qilish jurnali.

6. Xonalarni UB lampasi bilan zararsizlantirish jurnali.

7. Xonalarni kundalik tozalash bo'yicha jurnal.

Sterilizatsiya bo'limi xonalarini maxsus tozalash «Generalnaya uborka» qilish jurnali.

***Markaziy sterilizatsiya bo'limi xamdasterilizatsiya xonasida ishlash davrida  
texnika xavfsizligiga oid qoidalar***

Avtoklav «Qozon nazorati» bo'yicha maxsus muassasadan ro'yxatdan o'tishi shart. U yerdan avtoklav bo'yicha kelgan mutaxassis avtoklavni to'g'ri koidaga binoan o'rnatilganligiga (montaj) ishonch hosil qilib, birinchi va boshlangich sterilizatsiyada (sinashda) ishtirok etishi shart.

Kelajakda «Qozon nazorati» muassasasining mutaxassisi vaqti-vaqti bilan avtoklavning ishlash holatini tekshirib borishi shart.

Avtoklav bilan ishlash uchun o'rta tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan va shu mutaxassislik bo'yicha malaka oshirgan mutaxassisning ishlashi shart.

Avtoklav bilan ishlash uchun uning ishlash va ishlatish qoidasini va undan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatuvchi qo'llanma bilan tanishilgandan so'ng ishga kirishilishi shart.

Avtoklavdan foydalanish to'g'risidagi qo'llanma bilan tanishmagan xodimga avtoklav bilan ishlash qat'iyan taqiqlanadi.

6. Avtoklav albatta yerga ulangan «Zazemlenie» bo'lishi shart.

7. Avtoklav tagiga rezinali poyonoz to'shalgan bo'lishi shart.

8. Avtoklavni elektr tarmog'iga ulash va o'chirish qoidasiga to'liq amal qilish shart.

9. Ortiqcha bug'ni avtomatik ravishda chiqarib turadigan moslama «Predoxranitel» nosoz bo'lgan holda avtoklavdan foydalanish taqiqlanadi.

Monometrlar nosoz bo'lsa yoki shubhali ishlasa bu holda avtoklavdan foydalanish taqiqlanadi.

Avtoklav ishlab turganda, bosim ostida qopqog'ini ochish taqiqlanadi.

Avtoklav o'chirilib, ortiqcha bug' chiqarilib sovimaguncha qopqog'ini ochmaslik shart.

13. Avtoklavning suv miqdorini ko'rsatkich shisha naychasi singan yoki darz ketgan bo'lsa undan foydalanish taqiqlanadi.

14. Avtoklav bosim ostida nazoratsiz qoldirilishi taqiqlanadi.

15. Avtoklavning suv qozonida yetarli miqdorda suv bo'lmasa undan foydalanish taqiqlanadi.

16. Avtoklav bosim ostida bo'lgan xolatda unga suv quyish taqiqlanadi.

17. Avtoklavdan sterilizatsiyadan boshqa maqsadlar uchun foydalanish taqiqlanadi.

18. Avtoklav va uning asboblari nosozliklarini o'z hohishiga binoan, maxsus mutaxassisdan boshqa kishilar orqali bartaraf etish taqiqlanadi.

19. Avtoklavshshg pasportida belgilangan miqdordagi elektr quvvatidan foydalanish o'rniga, ko'p yoki kam quvvatli elektr manbaiga ulab ishlatish taqiqlanadi. Agar foydalanish zarur bo'lsa, u xolda maxsus mutaxassis tomonidan avtoklavning elektr sxemasini o'zgartirib, shu elektr manbaidagi quvvatga moslab, so'ng ulash va foydalanish mumkin.

20. Keragidan ortiq bosimda avtoklavdan foydalanish taqiqlanadi.

21. Avtoklavning manometrlari xato ishlasa ularga ma'lum o'zgartirish kiritib, bosimni hisoblash va sterilizatsiyani bajarish taqiqlanadi.

Yuvish va dezinfeksiya vositalari tayyorlovchining yorliq bilan ta'minlangan idishi (o'rami)da maxsus mo'ljallangan joylarda tokchalarda saqlanishi kerak. Quyidagi turli ob'ektlarga ishlov berish uchun ishlatiladigan dezinfeksiya vositalarining ishchi eritmalari solingan alohida idishlarga ega bo'lish zarur:

- tibbiy maqsaddagi buyumlarni dezinfeksiyasi uchun;
- xonalardagi yuzalar, mebel, apparatlar, qurilmalar va asbob-uskunalarni dezinfeksiyasi uchun;
- tozalov ishlari materialini zararsizlantirish uchun, B va V toifasidagi chiqindilarni zararsizlantirish uchun.

Dezinfeksiya vositalarining ishchi eritmalari solingan idishlar zich yopiladigan qopqoqlar bilan ta'minlangan bo'lishi, vosita, uningkonsentratsiyasi, mo'ljallanishi, tayyorlanish sanasi, eritmaning oxirgi yaroqlilik muddati ko'rsatilgan aniq yozuvlar yoki yorliqlarga ega bo'lishi kerak.

Dezinfeksiya vositalari bilan ishlash paytida ehtiyotkorlik barcha choralariga rioya etilishi, shu jumladan qo'llanilishi bo'yicha yo'riqnomalarda ko'rsatilgan alohida himoya vositalari qo'llanilishi zarur.

Tozalov ishlari asbob-anjomlari (aravachalar, idishlar, latta, polyuvgichlar) xonalar funksional mo'ljallanishi va tozalov ishlari turlari hisobga olingan aniq yorliq yoki rangli kodlashga ega bo'lishi hamda ajratilgan xonada saqlanishi kerak. Rangli kodlash sxemasi asbob-anjomlar saqlanishi hududida joylashtiriladi.

Deraza oynalarini yuvish chorakda 1 marta yoki ifloslanish darajasiga qarab amalga oshiriladi.

Palata bo'limlari xonalari va boshqa funksional xonalarning mukammal tozalanishi jadval bo'yicha oyiga kamida 1 marta devorlar, pollar, asbob-uskunalar, asbob-anjomlar, chiroqlarga ishlov berilgan holda amalga oshiriladi.

Jarrohlik bloki, bog'lash, tug'ruqzallari, muolajaxonalari, amallarxonalari, sterilizatsiyalash xonalari va aseptik tartibli boshqa xonalarni mukammal tozalov ishlari haftasiga bir marta olib boriladi.

Jadvaldan tashqari mukammal tozalov ishlari tashqi muhit umumiy mikroblari bo'yicha qoniqarsiz natijalar olingan taqdirda va epidemiologik ko'rsatmalarga ko'ra olib boriladi.

Mukammal tozalov ishlari uchun xodimlar maxsus kiyim va alohida himoya vositalari (xalat, qalpoqcha, niqob, rezinaqo'lqoplar, rezina fartuk vaboshqalar), yorliqlangan tozalov ishlari asbob-anjomlari hamda toza matoli salfetkalariga ega bo'lishi kerak.

Mukammal tozalov ishlari sanitariya-gigienik qoplamaga ega devorlarni yuvish bilan olib boriladi. Shuningdek, eshiklar, derazalar, plintuslar, yoritish qurilmalari, asbob-uskunalar ham yuviladi.

Mukammal tozalov ishlari bir paytda 2 ta chelak ishlatilgan holda amalga oshiriladi:

- birinchi chelakda tarkibida xlor saqlovchidezinfektantning 0,5 %li eritmasidan iborat yuvish to'plami tayyorlanadi, bunga yuvish vositasi — 50 gr. Bo'lakli xo'jalik sovuni yoki 25 gr. Istalgan yuvish kukuni qo'shiladi;

-ikkinchi chelakda — toza suv bo‘ladi. – dastlab latta yuvish eritmasi solingan chelakka botiriladi, bir oz siqib olinadi va yuvilishi kerak bo‘lgan kichikroq joy artib chiqiladi. So‘ngra ishlatilgan latta toza suvli chelakda chayiladi. Keyin ushbu jarayon takrorlanadi.

Mukammal tozalov ishlari bosqichlari:

- mukammal tozalov ishlari oldidan xonalar kamida 20 daqiqaga shamollatiladi;
- so‘ngra barcha yuzalar yuvish-dezinfeksiya eritmasi bilan artib chiqiladi;
- so‘ng toza suvli latta bilan artib chiqiladi va kvarslanadi (30 daqiqa)

Eslatma: Dezinfeksiyalovchi vositalar: tarkibida xlor saqlovchi, vodorod peroksid yoki boshqa dezinfektantlar har hafta almashtirilib qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

1 kv. m.ga dezinfeksiyalovchi eritma sarfi - 100 ml.

Somatik ixtisosligidagi davolash-profilaktika muassasalarida, tug‘ruq majmualarida (bo‘limlarida), jarrohlik stasionarlarida (bo‘limlarida) yo‘laklar, palatalarning joriy tozalanishi kuniga 3 marta, shu jumladan 1 marta yuvish vositalari qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi. Dezinfeksiya vositalari ko‘rsatmaga ko‘ra (organizm biologik suyuqliklar bilan ifloslanilgan aqdirda) qo‘llaniladi. Yuqumli kasalliklar, sil va teri-tanosil stasionarlarida (dispanserlarida) kundalik tozalov ishlari kuniga 3 marta, shu jumladan 1 marta dezinfeksiya vositalari qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Jarrohlik bloklari, bog‘lash, muolaja xonalarini kundalik tozalov ishlari kuniga 3 marta, shu jumladan 1 marta dezinfeksiya vositalari qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Ishchi yuzalarga tarkibida xlor saqlovchi dezinfeksiya vositasining 0,5 %li eritmasi yoki yo‘riqnomaga muvofiq boshqa dezinfeksiya eritmasi bilan ishlov beriladi.

Toza lattalar soni yetarlicha bo‘lishi, biroq kamida 10-15 dona bo‘lishi kerak. Ishlatilgan lattaning takroran ishlatilishiga ruxsat etilmaydi. Ishlatilgan lattalar alohida idishda to‘planadi, keyinchalik yuviladi, quritiladi va toza idishda saqlanadi.

Kundalik tozalov ishlari oldidan xonalar 20 daqiqaga shamollatilishi kerak. Har bir tozalov ishlaridan so‘ng bakteritsidli lampa yoqib qo‘yiladi.

Ishlatilgan tozalov ishlari asbob-anjomlari dezinfeksiyalovchi vositalar eritmasida zararsizlantiriladi, so‘ngra suvda chayiladi va quritiladi. Pol va devorlar uchun tozalov ishlari asbob-anjomlari alohida bo‘lishi kerak, aniq yorliqqa ega bo‘lishi, xonalar, yo‘laklar, san uzellar uchun alohida qo‘llanilishi kerak.

Tozalov ishlari asbob-anjomlari maxsus ajratilgan xona yoki maxsus ajratilgan joyda saqlanishi zarur.

Ishlatilgan choyshablar yopiq idishda (kleyonkali yoki polietilenli qoplar, maxsus jihozlangan va yorliqlangan choyshablar aravachalari yoki boshqa shunga o‘xshash moslamalarda) to‘planadi hamda kir yuvish xonasidagi ishlatilgan choyshablar uchun markaziy omborxonaga topshiriladi. Bo‘limlarda ishlatilgan choyshablarning vaqtinchalik (12 soatdan oshmagan vaqt) saqlanishiga yuzasi suvga chidamli etib pardoqlangan xonalardagina ruxsat etiladi. Xona va asbob-anjomlar har kuni yuviladi va dezinfeksiya qilinadi.

Choyshablarni yuvish maxsus kir yuvish xonalari yoki DPM tarkibidagi kir yuvish xonasida amalga oshirilishi kerak.

Toza choyshablarning kir yuvish xonasidan va ishlatilgan choyshablarni kir yuvish xonasiga tashish maxsus ajratilgan avtotransport yordamida o‘rab joylangan shaklda (konteynerlarda) amalga oshiriladi.

Ishlatilgan va toza choyshablarni bitta idishda tashishga ruxsat etilmaydi. Matoli idishlar (qoplar) choyshablar bilan bir vaqtda yuvilishi kerak.

Bo‘limning toza choyshablarining sutkalik zahirasi maxsus ajratilgan xonalardagi tokchalar yoki shkaflarda saqlanadi. Bolalar uchun yo‘rgaklar qolgan choyshablardan alohida holda shkafdagi maxsus tokchalar yoki alohida shkafta saqlanadi. Bemorning shaxsiy (uy) kiyim-kechagi ishlatilishiga ruxsat beriladi.

Bemor chiqarib yuborilganidan (o‘lganidan) so‘ng, shuningdek, ifloslanish darajasiga qarab tug‘ruq majmualari, bolalar statsionarlari (bo‘limlari), ftiziatrik, teri-tanosil, yuqumli kasalliklar ixtisosdagi muassasalar, shuningdek, jarrohlik ixtisosidagi statsionarlarda (bo‘limlar) to‘shaklar, yostiqlar, ko‘rpalarga kamerali dezinfeksiya ishlovi berilishi kerak. To‘shaklarni qoplash uchun namli dezinfeksiyaga yo‘l qo‘yadigan jildlar ishlatilgan taqdirda kamerali ishlov berish talab etilmaydi. Bemorning krovati vatumbochkasiga dezinfeksiya ishlov berilishi kerak.

Pardozlashning joriy nuqsonlari (shiftlar va devorlarda chakka o‘tishi, zaxlik, mog‘or izlarini bartaraf etish, tirqishlar, teshiklar, o‘yiqnlarni yopish, ko‘chib tushgan qoplama plitalarini tiklash, pol usti koplamlari nuqsonlarini ketkazish va boshqalar) darhol bartaraf etilishi kerak.

Joriy yoki tubdan ta‘mirlash davrida xonalarning faoliyat ko‘rsatishi to‘xtalishi kerak.

Bitta binoda qavatlab yoki bloklab ta‘mirlashishlari olib borilishiga ruxsat etilmaydi. DPM da sinantrop bo‘g‘imoyoqlilar, kalamushlar va sichqonsimon kemiruvchilar bo‘lmasligi kerak. Dezinfeksiya, deratizatsiya tadbirlari sanitariya qoidalariga rioya etilgan holda, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

DPM da turli xavflilik darajasidagi chiqindilarni yig‘ish, vaqtincha saqlash va yo‘qotish tibbiy chiqindilar bilan muomalada bo‘yicha sanitariya qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sterilizatsiya qilish qutilariga tibbiy asbob-anjomlarni joylashtirish me‘yorlari

Eslatma:

1 juft qo‘lqop 20 g vaznga ega, ushbu me‘yorlar vakuumli sterilizatorlar uchun keltirilgan

Vakuumsiz ishlaydigan bug‘ ostida ishlaydigan sterilizatorlari uchun bikslarni to‘ldirish me‘yori 3 marta kamaytirilishi kerak.

Sterilizatsiya ob‘ekti	O‘lchov birligi	Ster quti turi
------------------------	-----------------	----------------

	i							
		Ksk-3 Kf-3	Ksk-6Kf-6	Ksk-9 Kf-9	KGK-12 Kf-12	KCK Kf-18	KSPF-12	KSPF-16
Bint	Dona	150	300	450	600	900	600	800
Paxta	g	65	130	195	260	390	260	350
Sochiq	Dona	1	3	5	7	10	7	9
Xalat	Dona		1	2	3	55		4
Choyshab			1	2	3	60	3	4
Jar.kalpoqchalari	Dona	10	20	30	40	90x	40	51
Jar.qo‘lqoplpri	juft			45x	60x	3.0	60x	80x
Drenaj naychasi,katetr,zon dlar	kg	0.5	1.0	1.5	2.0		2.0	2.7

## TIBBIY ATAMALAR

1. **Sterilizatsiya** – mikroorganizmlar va ularning sporalarini butunlay yo‘q qilish jarayoni.
2. **Dezinfeksiya** – mikroorganizmlarning sonini kamaytirish yoki patogenlarini yo‘q qilish jarayoni, lekin sporalarga ta’sir qilmaydi.
3. **Markazlashgan sterilizatsiya bo‘limi (MSB)** – tibbiyot muassasasida asbob-uskunalarni qabul qilish, yuvish, sterilizatsiya qilish va bo‘limlarga tarqatish bo‘yicha maxsus bo‘lim.
4. **Zararsizlantirilmagan zona** – sterillanmagan asboblari, mato va boshqa buyumlar qabul qilinadigan va yuviladigan zona.
5. **Zararsizlantirilgan zona** – sterilizatsiyadan o‘tgan asboblari saqlanadigan va bo‘limlarga tarqatiladigan zona.
6. **Avtoklav** – yuqori harorat va bosim ostida sterilizatsiya qiluvchi asbob.
7. **Quruq issiqlik bilan sterilizatsiya** – maxsus issiq shkaf yordamida asboblarni sterilizatsiya qilish usuli.
8. **UB lampasi (ultrabinafsha lampa)** – mikroblarni o‘ldirish va xonalarni zararsizlantirish uchun ishlatiladigan lampa.

9. **Gidravlik sinov** – avtoklavning mustahkamligini va ish bosimiga chidamliligini tekshirish uchun suv bosimi yordamida o‘tkaziladigan sinov.
10. **Ro‘yxatga olish daftari** – qabul qilingan, yuvilgan, sterilizatsiya qilingan va tarqatilgan asboblarning soni va nomini qayd etish uchun ishlatiladigan hujjat.

### TEST SAVOLLAR

1. Har bir sterilizatsiya qilinadigan asbob-uskunaning texnik pasporti nima uchun kerak?
  - A) Faqat ishlovchilar uchun ma’lumot sifatida
  - B) Yillik davlat tekshiruvidan o‘tganligini qayd qilish uchun\*
  - C) Bo‘lim rahbarining ish rejasi uchun
  - D) Yuvish jarayoni uchun
2. Avtoklav qaysi xonada o‘rnatilishi mumkin emas?
  - A) Alokida xonada
  - B) Davolash va muolaja xonalarining ustki yoki ostki qavatida\*
  - C) Avtoklav xonalarida
  - D) Maxsus steril zona yaqinida
3. MSBda sterilizatsiya jarayonini samarali qilish uchun xonalar qanday ajratiladi?
  - A) Ichki va tashqi zonalarga
  - B) Yuqumsizlantirilgan va yuqumsizlantirilmagan zonalarga\*
  - C) Yuvish va quritish zonalariga
  - D) Avtoklav va quruq issiqlik zonalariga
4. UB lampasi sterilizatsiya jarayonida nima uchun ishlatiladi?
  - A) Asboblarni isitish uchun
  - B) Xonalarni mikroblardan zararsizlantirish uchun\*
  - C) Ventilyatsiya tizimini nazorat qilish uchun
  - D) Asboblarni quritish uchun
5. MSBda asboblarni qabul qilishdan oldin nima qilinadi?
  - A) Sterilizatsiyadan o‘tkaziladi
  - B) Dastlab yuviladi va tozalanadi\*
  - C) Faqat ro‘yxatga olinadi
  - D) Avtoklavga joylashtiriladi
6. Ventilyatsiya tizimi steril zonaga qanday havo yetkazadi?
  - A) Oddiy xona havosi
  - B) Bakterial filtrlar orqali tozalangan havo\*
  - C) UB lampasi bilan tozalangan havo
  - D) Avtoklavdan chiqarilgan bug‘

7. Joriy tozalash MSBda qanchalik amalga oshiriladi?
  - A) Haftada bir marotaba
  - B) Har kuni ish boshlanishidan oldin va ish tugagandan so‘ng\*
  - C) Oyda bir marotaba
  - D) Faqat sterilizatsiya jarayonidan keyin
  
8. Sterilizatsiya qilinmaydigan, faqat dezinfeksiya qilinadigan asboblarning qaysilari?
  - A) Qon bilan aloqada bo‘lmagan tibbiyot buyumlari\*
  - B) Jarrohlik asboblari
  - C) Avtoklavda sterilizatsiya qilinadigan asboblarning
  - D) Rezinali va sintetik materiallar
  
9. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarning qaysi vositalar yordamida sterilizatsiya qilinadi?
  - A) Faqat UB lampasi
  - B) Qaynatish, bug‘li, havoli, kimyoviy aralashmalar, gazlar\*
  - C) Faqat quruq issiqlik shkafi
  - D) Yuvish va quritish moslamalari
  
10. MSB xodimlari sanitariya va epidemiyaga qarshi tartibga qanday rioya qilishi kerak?
  - A) Vaqti-vaqti bilan
  - B) Faqat ish boshlanishida
  - C) Qat‘iy rioya qilinadi\*
  - D) Rahbar ko‘rsatmasiga binoan

### **NAZORAT SAVOL**

1. MSBda ishlatilgan asboblarni qabul qilish va sterilizatsiya qilish qoidalarini sanab bering.
2. Zararsizlantirilmagan va zararsizlantirilgan zonalarni qanday ajratish mumkin?
3. UB lampasi va bakterial filtrlar sterilizatsiyada qanday vazifa bajaradi?
4. Avtoklav qayerda o‘rnatilishi mumkin emas va nima uchun?
5. MSBdagi xonalarni toza saqlash bo‘yicha qanday talablar mavjud?
6. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarning yillik davlat tekshiruvini nima uchun muhim?
7. MSBda asboblarni yuvish, quritish va sterilizatsiya jarayoni qaysi bosqichlarda amalga oshiriladi?
8. MSB xodimlariga qo‘yiladigan sanitariya-gigiena talablari nimalardan iborat?
9. Sterilizatsiya qilinadigan asboblarni ro‘yxatga olish va jurnal yuritish tartibini tushuntiring.

10. Yuqumli kasalliklar bemorlariga ishlatiladigan asboblardan bilan ishlashda qanday xavfsizlik choralarini ko'rish kerak?

**”Bilimlar daraxti” usuli.**

Doskaga bilimlar daraxti chiziladi. Yangi mavzu bo'yicha savollar stikkerga yoziladi va daraxtga yopishtiriladi. Tinglovchilar bittadan stikkerni olishadi va unga yozilgan savolga javob berishadi.

Nazorat savollar:

1. Sterilizatorlar turlari.
2. Quruq issiq xavo bilan sterillash tartibi.
3. Avtoklavga bikslarni joylashtirish qoidasi.
4. Forvakuumli sterilizatorlarda bikslar to'ldirish me'yori.
5. Bikslar turlari va saqlash muddati.
6. Dielektrik gilamchani vazifasi.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkilotish.
2. «Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkilotish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
3. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. -2012y
4. «Sanitarno-epidemiologicheskij rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
5. Новые эффективные, безопасные технологии и продукты в области дезинфекции, контролю и сохранению стерильности изделий медицинского назначения
6. Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T. Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

**Internet- materiallari:**

1. Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagi tibbiy portal.
2. [www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
3. [www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
4. [www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
5. [www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Международный журнал медитсинской практики
6. [www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
7. [www.abk.uz](http://www.abk.uz)
8. [www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
9. <http://www.minzdrav.uz/> – O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
10. Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>

11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
- 12.SSO steriliz.narod.ru/08cis.htm
- 13.Osnaŋenie SSO - Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/
- 14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
- 15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
- 16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<b>2.4 modul</b>  <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 4 .</b>	<b>Yuqumsizlantirilgan matolar manbai, taqsimlash.</b> <b>Ekspeditsiya xonalari va ularning vazifalari.</b>
--	--

### Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashg‘ulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yuqumsizlantirilgan matolar manbaini aniqlash.</li> <li>2. Yuqumsizlantirilgan matolarni taqsimlash</li> <li>3. Ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash</li> <li>4. Ekspeditsiya xonalarida material va asbob harakatini nazorat qilish</li> </ol>

### 1-AMALIY KO‘NIKMA

#### Yuqumsizlantirilgan matolar manbaini aniqlash

##### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasida ishlatiladigan matolarni manbai bo‘yicha ajratish va zaruriy yuqumsizlantirish choralari belgilash.

## 2. Kerakli jihozlar:

- Ishlatilgan matolar (bikslar, ro‘mollar, operatsion matolar)
- SHHV (qo‘lqop, niqob, fartuk)
- Dezinfeksiyalovchi vositalar
- Qayta ishlash konteynerlari

## 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Matolarni manbai bo‘yicha ajratish:
  - Operatsion zaldan kelgan matolar
  - Bo‘limlardan kelgan matolar
  - Laboratoriyalardan kelgan matolar
3. Matolarning ifloslanish darajasini aniqlash (qonni o‘z ichiga olgan, suyuqlik bilan ifloslangan, yengil ifloslangan).
4. Har bir manba uchun alohida konteyner yoki idishga joylashtirish.
5. Dezinfeksiyalovchi eritma bilan dastlabki ishlov berish.

## Ahamiyati:

- Matolar orqali mikroblarning tarqalishini oldini oladi.
- Sterilizatsiya jarayonini tartibli tashkil etadi.

## 2-AMALIY KO‘NIKMA

### Yuqumsizlantirilgan matolarni taqsimlash

#### 1. Maqsad:

Yuqumsizlantirilgan matolarni sterilizatsiya bo‘limiga yoki qayta ishlash joyiga to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Yuqumsizlantirilgan matolar uchun konteynerlar
- SHHV
- Dezinfeksiyalovchi eritmalar
- Ro‘yxat jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.

2. Dastlabki dezinfeksiyadan o'tkazilgan matolarni to'g'ri konteynerlarga joylashtirish.
3. Taqsimlash qoidalari:
  - o Operatsion matolar sterilizatsiya bo'limiga yuboriladi
  - o Bo'lim matolari dastlabki yuvish va dezinfeksiya jarayonidan so'ng qayta ishlashga yuboriladi
  - o Laboratoriya matolari alohida konteynerda to'planadi
4. Taqsimlash jarayoni jurnalga yoziladi: sana, mato turi, manbai, mas'ul shaxs imzosi.
5. Agar matolar shikastlangan yoki juda iflos bo'lsa, ular alohida qayta ishlashga yuboriladi.

### Ahamiyati:

- Yuqumsizlantirish jarayonini samarali qiladi.
- Matolar aralashmasligi va infeksiya xavfsizligini ta'minlaydi.

## 3-AMALIY KO'NIKMA

### Ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash

#### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasida ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash va ularning vazifalarini tushunish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Ekspeditsiya xonalari sxemasi yoki rejalari
- SHHV (qo'lqop, niqob, fartuk)
- Steril va nosteril asboblari
- Ro'yxat jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Ekspeditsiya xonalarini aniqlash va ularning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish:
  - o **Kiruvchi (qabul) xona** – ishlatilgan asboblari va materiallarni qabul qilish.
  - o **Tozalash va yuvish xonasi** – asboblarni dastlabki yuvish va dezinfeksiya qilish.
  - o **Jamlanish xonasi** – tozalangan asboblarni jamlash va paketlash.
  - o **Sterilizatsiya xonasi** – sterilizatsiya jarayoni amalga oshiriladi.
  - o **Chiqish xonasi** – sterillangan materiallarni bo'limlarga yuborish.

3. Har bir xona vazifasini aniqlash va xodimlar uchun tartib qoidalarini tushuntirish.

**Ahamiyati:**

- Ish jarayonini tartibli qiladi.
- Steril va nosteril materiallar aralashmasligini oldini oladi.
- Yuqumsizlantirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

## **4-AMALIY KO'NIKMA**

Ekspeditsiya xonalarida material va asbob harakatini nazorat qilish

1. Maqsad:

Ekspeditsiya xonalarida asboblar va materiallarning harakatini nazorat qilish orqali sterilizatsiya jarayonini xavfsiz va samarali tashkil etish.

2. Kerakli jihozlar:

- Steril va nosteril asboblar
- SHHV
- Dezinfeksiyalovchi vositalar
- Ro'yxat jurnali yoki elektron kuzatuv tizimi

3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Ishlatilgan asboblar kiruvchi xonadan tozalash xonasiga olib kiriladi.
3. Tozalash va yuvish xonasida asboblar yuviladi va dezinfeksiya qilinadi.
4. Jamlanish xonasida tozalangan asboblar paketlanadi va markirovka qilinadi.
5. Sterilizatsiya xonasida paketlar sterilizatsiyaga tayyorlanadi.
6. Chiqish xonasida steril asboblar bo'limlarga yuboriladi va har bir harakat jurnalda qayd etiladi.
7. Agar harakat tartibi buzilsa yoki asboblar aralashsa, jarayon qayta nazorat qilinadi.

**Ahamiyati:**

- Steril va nosteril asboblar aralashmasligini oldini oladi.
- Sterilizatsiya jarayonining xavfsiz va tartibli bajarilishini ta'minlaydi.
- Bo'limlararo material taqsimotini samarali qiladi.

<b>2.4 modul</b>  <b>O‘quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 4 .</b>	<b>Yuqumsizlantirilgan matolar manbai, taqsimlash.</b> <b>Ekspeditsiya xonalari va ularning vazifalari.</b>
--	--

**Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot
<b>Amaliy mashg‘ulotning rejasi.</b>	<p>5. Yuqumsizlantirilgan matolar manbaini aniqlash.</p> <p>6. Yuqumsizlantirilgan matolarni taqsimlash</p> <p>7. Ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash</p> <p>8. Ekspeditsiya xonalarida material va asbob harakatini nazorat qilish</p>

**1-AMALIY KO‘NIKMA**

**Yuqumsizlantirilgan matolar manbaini aniqlash**

1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasida ishlatiladigan matolarni manbai bo‘yicha ajratish va zaruriy yuqumsizlantirish choralarini belgilash.

2. Kerakli jihozlar:

- Ishlatilgan matolar (bikslar, ro‘mollar, operatsion matolar)
- SHHV (qo‘lqop, niqob, fartuk)
- Dezinfeksiyalovchi vositalar
- Qayta ishlash konteynerlari

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

6. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
7. Matolarni manbai bo'yicha ajratish:
  - Operatsion zaldan kelgan matolar
  - Bo'limlardan kelgan matolar
  - Laboratoriyalardan kelgan matolar
8. Matolarning ifloslanish darajasini aniqlash (qonni o'z ichiga olgan, suyuqlik bilan ifloslangan, yengil ifloslangan).
9. Har bir manba uchun alohida konteyner yoki idishga joylashtirish.
10. Dezinfeksiyalovchi eritma bilan dastlabki ishlov berish.

### Ahamiyati:

- Matolar orqali mikroblarning tarqalishini oldini oladi.
- Sterilizatsiya jarayonini tartibli tashkil etadi.

## 2-AMALIY KO'NIKMA

### Yuqumsizlantirilgan matolarni taqsimlash

#### 1. Maqsad:

Yuqumsizlantirilgan matolarni sterilizatsiya bo'limiga yoki qayta ishlash joyiga to'g'ri taqsimlashni o'rgatish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Yuqumsizlantirilgan matolar uchun konteynerlar
- SHHV
- Dezinfeksiyalovchi eritmalar
- Ro'yxat jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

6. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
7. Dastlabki dezinfeksiyadan o'tkazilgan matolarni to'g'ri konteynerlarga joylashtirish.
8. Taqsimlash qoidalari:
  - Operatsion matolar sterilizatsiya bo'limiga yuboriladi
  - Bo'lim matolari dastlabki yuvish va dezinfeksiya jarayonidan so'ng qayta ishlashga yuboriladi
  - Laboratoriya matolari alohida konteynerda to'planadi

9. Taqsimlash jarayoni jurnalga yoziladi: sana, mato turi, manbai, mas'ul shaxs imzosi.
10. Agar matolar shikastlangan yoki juda iflos bo'lsa, ular alohida qayta ishlashga yuboriladi.

### **Ahamiyati:**

- Yuqumsizlantirish jarayonini samarali qiladi.
- Matolar aralashmasligi va infeksiya xavfsizligini ta'minlaydi.

## **3-AMALIY KO'NIKMA**

### Ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash

#### 1. Maqsad:

Tibbiyot muassasasida ekspeditsiya xonalari tarkibini aniqlash va ularning vazifalarini tushunish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Ekspeditsiya xonalari sxemasi yoki rejalari
- SHHV (qo'lqop, niqob, fartuk)
- Steril va nosteril asboblar
- Ro'yxat jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

4. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
5. Ekspeditsiya xonalarini aniqlash va ularning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqish:
  - **Kiruvchi (qabul) xona** – ishlatilgan asboblar va materiallarni qabul qilish.
  - **Tozalash va yuvish xonasi** – asboblarni dastlabki yuvish va dezinfeksiya qilish.
  - **Jamlanish xonasi** – tozalangan asboblarni jamlash va paketlash.
  - **Sterilizatsiya xonasi** – sterilizatsiya jarayoni amalga oshiriladi.
  - **Chiqish xonasi** – sterillangan materiallarni bo'limlarga yuborish.
6. Har bir xona vazifasini aniqlash va xodimlar uchun tartib qoidalarini tushuntirish.

### **Ahamiyati:**

- Ish jarayonini tartibli qiladi.
- Steril va nosteril materiallar aralashmasligini oldini oladi.
- Yuqumsizlantirish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

## 4-AMALIY KO'NIKMA

Ekspeditsiya xonalarida material va asbob harakatini nazorat qilish

### 1. Maqsad:

Ekspeditsiya xonalarida asboblar va materiallarning harakatini nazorat qilish orqali sterilizatsiya jarayonini xavfsiz va samarali tashkil etish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Steril va nosteril asboblar
- SHHV
- Dezinfeksiyalovchi vositalar
- Ro'yxat jurnali yoki elektron kuzatuv tizimi

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

8. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
9. Ishlatilgan asboblar kiruvchi xonadan tozalash xonasiga olib kiriladi.
10. Tozalash va yuvish xonasida asboblar yuviladi va dezinfeksiya qilinadi.
11. Jamlanish xonasida tozalangan asboblar paketlanadi va markirovka qilinadi.
12. Sterilizatsiya xonasida paketlar sterilizatsiyaga tayyorlanadi.
13. Chiqish xonasida steril asboblar bo'limlarga yuboriladi va har bir harakat jurnalda qayd etiladi.
14. Agar harakat tartibi buzilsa yoki asboblar aralashsa, jarayon qayta nazorat qilinadi.

### Ahamiyati:

- Steril va nosteril asboblar aralashmasligini oldini oladi.
- Sterilizatsiya jarayonining xavfsiz va tartibli bajarilishini ta'minlaydi.
- Bo'limlararo material taqsimotini samarali qiladi.

<b>2.5 modul</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 4 .</b> <b>13-mavzu</b>	<b>Avtoklavni texnik ko'rik va gidravlik sinovdan</b> <b>o'tkazish.</b> <b>Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish,</b> <b>xavfsiz mehnat texnologiyalariga rioya qilish, avariya</b> <b>holatlarida tezkor va standart algoritmlar bo'yicha</b> <b>harakat qilish.</b>
---	---

--	--

### **Amaliy mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashg'ulot
<b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1.</b> Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish</li> <li><b>2.</b> Avtoklavni gidravlik sinovdan o'tkazish</li> <li><b>3.</b> Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish va xavfsiz mehnat texnologiyalariga rioya qilish</li> <li><b>4.</b> Avariya holatlarida tezkor va standart algoritmlar bo'yicha harakat qilish</li> </ol>

### **1-AMALIY KO'NIKMA**

Avtoklavni texnik ko'rikdan o'tkazish

**1. Maqsad:**

Avtoklavning texnik holatini muntazam tekshirish orqali uning xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash.

**2. Kerakli jihozlar:**

- Avtoklav
- Texnik pasport va sertifikatlar
- Termometr va manometr

- SHHV (qo‘lqop, niqob, fartuk)
- Sterilizatsiya jurnali

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Avtoklavning tashqi ko‘rinishini tekshirish: shikastlangan yoki zararlangan joylar, eshik va quvurlar holati.
3. Monometr, manometr va xavfsizlik klapanlarini tekshirish: ishlash va ko‘rsatkichlarning aniqligi.
4. Elektr va suv ta‘minotini nazorat qilish.
5. Avtoklavni ishga tushirib, bo‘sh sikl orqali harorat va bosim ko‘rsatkichlarini kuzatish.
6. Aniqlangan kamchiliklar va natijalar jurnalga qayd etiladi: sana, mas‘ul shaxs imzosi.

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

### Avtoklavni gidravlik sinovdan o‘tkazish

#### 1. Maqsad:

Avtoklavning bosim chidamliligi va suyuqlik bilan ishlash qobiliyatini gidravlik sinov orqali tekshirish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav
- Gidravlik sinov uskunalari
- SHHV
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Avtoklav kamerasi bo‘sh bo‘lishini tekshirish.
3. Gidravlik sinov qurilmasini ulash va kamerani suv bilan to‘ldirish.
4. Belgilangan bosim darajasiga yetguncha suv bosimini oshirish.
5. Bosim ko‘rsatkichlarini kuzatish va har qanday shikastlanish, oqish yoki deformatsiya aniqlansa, jarayonni to‘xtatish.
6. Sinov natijalarini jurnalga yozish: sana, bosim darajasi, aniqlangan kamchiliklar, mas‘ul shaxs imzosi.

7. Sinovdan so'ng avtoklavni bo'shatish, quritish va keyingi ishlashga tayyorlash.

### **3-AMALIY KO'NIKMA**

Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish va xavfsiz mehnat texnologiyalariga rioya qilish

#### 1. Maqsad:

Sterilizatsiya va zararsizlantirish jarayonida xodimning xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri kiyish va xavfsiz mehnat texnologiyalarini qo'llashni o'rgatish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- SHHV: qo'lqop, niqob, himoya ko'zoynak, fartuk, butun tanani qoplovchi kiyimlar
- Dezinfeksiyalovchi vositalar
- Sterilizatsiya apparatlari
- Sterilizatsiya va xavfsizlik jurnali

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHVni to'g'ri kiyish:
  - Kiyimni tanaga to'liq yopish, qo'lqoplarni kiyish, niqob va ko'zoynakni taqish
2. Ish joyini tayyorlash: dezinfeksiya vositalarini tayyorlash, asboblar va materiallarni xavfsiz joylashtirish
3. Mehnat texnologiyasiga rioya qilish:
  - Avtoklav va boshqa apparatlar bilan ishlashda belgilangan protseduralarga amal qilish
  - Kesuvchi, o'tkir va issiq asboblarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish
4. Jarayon davomida xavfsizlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish: harorat, bosim, kimyoviy vositalar bilan ishlash
5. Ish tugagach, SHHVni to'g'ri yechish va dezinfeksiya qilish

#### **Ahamiyati:**

- Xodimni kimyoviy va mexanik jarohlardan himoya qiladi
- Sterilizatsiya jarayonining xavfsizligini ta'minlaydi
- Kasallik va infeksiya tarqalishini kamaytiradi

### **4-AMALIY KO'NIKMA**

Avariya holatlarida tezkor va standart algoritmlar bo'yicha harakat qilish

1. Maqsad:

Sterilizatsiya yoki zararsizlantirish jarayonida avariya holatlarida xodimlarning tezkor va standart harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish.

2. Kerakli jihozlar:

- SHHV
- Avtoklav va boshqa apparatlar
- Yong'in o'chirish moslamalari va birinchi tibbiy yordam vositalari
- Xavfsizlik protokollari va algoritmlar

3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va xavfsizlikni ta'minlash.
2. Avariya belgilari aniqlanganda (masalan, avtoklav bosimi oshib ketishi, kimyoviy eritma to'kilishi, yong'in):
  - Standart algoritm bo'yicha jarayonni darhol to'xtatish
  - Xodimlarni xavfsiz joyga chiqarish
  - Zarurat bo'lsa, yong'in o'chirish yoki oqibatlarini kamaytirish choralari ko'rish
3. Avariya sababini aniqlash va mas'ul shaxsga xabar berish
4. Jarayon tugagach, voqea qayd etiladi: sana, vaqt, avariya turi, xodimlar harakati, mas'ul shaxs imzosi
5. Jarayonni tiklashdan oldin xavfsizlikni tekshirish va zarur choralarni ko'rish

**Ahamiyati:**

- Xodimlar va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlaydi
- Avariya oqibatlarini minimal darajada saqlaydi
- Sterilizatsiya jarayonining uzluksiz va xavfsiz bajarilishini ta'minlaydi

<b>2.6 -modul</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan kredit</b> <b>jami 2 .</b> <b>14-mavzu</b>	<b>Tibbiyot muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish, xavfsiz muhit yaratish va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishda tibbiy asbob-anjomlar.</b>
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini O'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va</b>	Nazariy mashg'ulot

<b>turi</b>	
<b>Ma'ruza mashg'uloting rejasi.</b>	<p>1. Tibbiy vositalar, asboblarning sterilizatsiyasi va buyumlarning sterilizatsiyasi.</p> <p>2. Bog'lov vositalari, kiyim-kechaklar, choyshablarning sterilizatsiyasi.</p> <p>3. Metall tibbiy asboblarning sterilizatsiyasi.</p> <p>4. Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b></p> <p><b>1. Ta'limiy:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko'nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <p><b>2. Tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
<b>1 bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<p><b>Tashkiliy qism</b></p> <p>1.1 O'qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning O'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshiradi yangiliklar yeshitiladi va aytiladi.</p> <p>1.2 O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va</p>	<p>Javob beradilar Tinglaydilar, Yozib oladilar.</p>

	uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.	
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'lik bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan holda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza O'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovlovchilarni Prezident buyruqlari bilan tanishtiradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Aqliy xujum" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar. " <b>Aqliy xujum</b>" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: "Tibbiyot muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish, xavfsiz muhit yaratish va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishda tibbiy asbob-anjomlar"</p> <p>O'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug'risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.</p> <p>2.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o'rta tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma. - 2012y</p>	<p>Tinglaydilar,uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

--	--	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>Metall asboblarni,shisha idishlarni,bog‘lov vositalarni zararsizlantirish usullari. Optik tibbiy asboblarni zararsizlantirish.Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi.Stomatologik asbob-anjomlarni zararsizlantirilishi: pinsetlar, zondlar, shpatellar, ekskavatorlar, shtopferlar, stomatologik oynalar, endodontik asbob-anjomlar, stomatologik qisqichlar, kyuretaj qoshiqchalar, elevatorlar, iskanalar, implantologiya uchun asbob-anjomlar to‘plami, skalpellar, korsanglar, qaychilar, qisqichlar, jarrohlik tekislagichlari. Termolabil va polimer vositalarni dezinfektsiyalash va sterillash usullari Endoskoplar, narkoz apparatlari, bronxoskoplar, laringoskoplar va b. rezina vositalarni dezinfektsiyalash va sterillash usullari. Narkoz-nafas oldirish, anesteziologik apparatlar va va o‘pka sun‘iy havo aylantirish apparatlariga konstruktiv xususiyatlariga qarab ikkita usulda Bloklab va yig‘ilgan holda ishlov berish.Laringoskoplarni plazmali, gazliyoki yoki YuDD yordamida tozalash.Steril va nosteril endoskopik aralashuvlarda zararsizlantirish bosqichlari</p>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi:</b> Asbob uskunalar, bog‘lov va boshqa materiallarni zararsizlantirishga tayyorlash va ularni natijalarini tahlil qilish. Zararsizlantirilganlikni nazorat qilish uchun qo‘llaniladigan ichki va tashqi sinamalar va termotestlarni o‘rganish.</p>
<p>O‘qitish metodlari</p>	<p>“<b>Aqliy xujum</b>”,”sport lotto” ”Kichik guruxlarda ishlash”</p>
<p>O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli</p>	<p>Jamoaviy,guruxlarda ishlash,yakka tartibli</p>
<p>O‘qitish vositalari</p>	<p>Doska-stend, vidiofil’mlar,chizma,nazorat varagi,matnlar.</p>

O'qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan ukuv xona.
Qayta a'loqaning usul va vositalari.	Og'zaki so'rov:tezkor so'rov, yozma so'rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

**MAVZU: Tibbiyot muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish, xavfsiz muhit yaratish va bemorlarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirishda tibbiy asbob-anjomlar.**

**Dars rejasi:**

1. Tibbiy vositalar, asboblari va buyumlarning sterilizatsiyasi.
2. Bog'lov vositalari, kiyim-kechaklar, choyshablarning sterilizatsiyasi.
3. Metall tibbiy asboblarning sterilizatsiyasi.
4. Dorixonada foydalaniladigan vositalar va dorilarning sterilizatsiyasi

**Bog'lov vositalari, kiyim-kechaklar, choyshablarning sterilizatsiyasi.**

Bu ishni bajarishda, bika ichga o'ziga xos tegishli tartib va qoidaga binoan buyumlar joylanadi. Uning uchun bika ichga bug' bema'lol kirishi uchun buyumlar g'ovak holda joylnib, bika qopqog'ining dastasiga sterilizatsiya qilingan kun sanasi, vaqti va sterilizatsiyani bajargan xodimning familiyasi yozilgan yorliq bog'lab qo'yiladi. Sterilizatsiya 1.0 atm. bosimda 120° S haroratda 45 daq., 1.5 atm. bosimda 126° S da 30 daq., 2,0 atm. bosimda 132° S xaroratda 20 daq. vaqt ichida bajariladi.

**Metall tibbiy asboblarning sterilizatsiyasi.** Ularning miqdori va qo'llanishiga qarab fizikaviy (kuydirish, cho'g'lantirish, suvda qaynatish, quruq issiqlik, avtoklavlash, glasperlenli, IQ-nuri) hamda kimyoviy. biologik, aralash usullardan foydalanib sterillash mumkin, ya'ni,

- metall asboblari kam miqdorda bo'lganda, ularni biror metall idishga solib, ustiga oz miqdorda spirt quyib, yoqib kuydirib so'ng qo'llaniladi;
- baklaboratoriya ilmog'i, kam miqdordagi metall asbobni olov alangasida cho'g'lantirib sterillash mumkin;
- suvda qaynatish bo'yicha, suv qaynagandan so'ng 45 daq.;
- quruq issiqlik bilan 180° S da 60 daq., 160° S da 150 daq.;
- avtoklavda 2.0 atm. bosimda, 132° S da 20 daq.;
- glasperlenli usulda (shisha sharchalar ichida) quruq issiqlik shkafida 180° S da 60 daq.;
- IQ nur tarqatuvchi sterilizatorlardan STIQ –«MAI» hamda STIQ – «RELMA» markali apparatlarda, impulsli issiqlik ta'sirida xarorat 200° S da, 1-12 daq. orasida sterillanadi va zarur bo'lganda 10-20 daq. ichida sovutib beradi.

**Rezinali buyumlarni quyidagi :**

- suvda 45 daq. qaynatish ;
- avtoklavlash, 1,0 atm. 120° S da 45 daq.;
- kimyoviy antiseptik moddalarning suvli yoki spirtli eritmalarida 60-75 daq. uy haroratida;
- plazmali usul (perekis vodorodning bug‘lari va ularning past xaroratdagi plazmasida) maxsus apparatda 70-80 daq. bajariladi.

**Oynalarga ishlov berish****1.Zararsizlantirish .**

Zararsizlan tirish ob’ekti	Zararsizlanirish vositalari	Tartib		Zararsizlantirish usuli, uskunalar i	Ilova
		Harorat°S, eritma konsentrationi, %	Zararsizlantirish vaqti (min)		
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
1. Temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy anjomlar	*Natriy bikarbonat (ichimlik soda) ning distillangan suvdagi eritmasi	2	15	Tibbiy kaynatgichda qaynatish t=99°S±1	Issiqlikka chidamli anjomlar zararsizlantiriladi
	Distillangan suv	--	30	---//---	
	Quruq issiq havo	120°S±3	45	Havoli sterilizator	---//---
	Suvning bosim ostidagi bug‘i 0,5kgs/sm <sup>2</sup>	110°S±2	20+5	Bug‘li sterilizator	----- -
	* «ABK Ekstra»	2,0 3,0	60 30	Eritmaga to‘liq botiriladi	Ishchi eritmadan 14 kungacha foydalanish mumkin
	**«ABK-Xloraktiv»	0,1	60	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Korroziyaga chidamli temir,

				shisha, rezina, plastmassa dan yasalgan tibbiy buyumlar
*STEL uskuna-sida ishlab chiqarilgan neytral anolit	0,03-0,05	30-40	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Temir anjomlarni zarar- sizlantirga nda eritmaga korroziyag a qarshi qo‘shim- chalar qo‘shiladi: 0,1% kir yuvuvchiv osita“Lotos ”yoki 0,1%“Biol ota”
Vodorod peroksid + kir yuvuvchi vosita “Lotos”	6 0,5	60	Botiriladi	Korroziyag a chi-damli materi- allardan yasalgan anjomlar
Vodorod peroksid	6	60	---//---	---//---
**«DS-1»	0,2 0,4	90 30	Qopqoqli idishdagi to‘liq botiriladi	Ifloslanma gan eritmaga 14 sutka davomida takroran botiriladi
*«Ekstra-Dez»	2,0 2,5	60 30	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	---//---

	**«Antiseptin – OP»	Qo‘llanishga tayyor vosita eritmasi	15	Botiriladi	Zararsizlan tirishdan oldin anjomni oqsil moddalardan salfetka bilan (temir buyumlar uchun) tozalanadi
	**Xlorgeksidinining spirtli eritmasi	0,5	15	Botiriladi	Zararsizlan tirishdan oldin anjomni oqsil moddalardan salfetka bilan tozalanadi
	«ABK-Xloraktiv»	0,06 0,1	90 60	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Korroziyaga chidamli temir, shisha, rezina, plastmassadan yasalgan tibbiy buyumlar. Zararsizlan tirilayotganda 0,5% yuvuvchi vosita qo‘shish mumkin.
	*«ABK – Oksi»	1,5 2,0	60 30	Botiriladi	Ifloslanmagan

					eritmaga 14 sutka davomida takroran botiriladi
	**Xloramin	3	60	Qopqoqli idishga to‘liq botiriladi	Korroziyag a chidamli te-mir, shisha, rezina, plast- massadan yasalgan tibbiy buyumlar.
	*«Antiseptin»	Qo‘llanishga tayyor vosita eritmasi	15	50 ml/m <sup>2</sup> hisobda 10m <sup>2</sup> dan ortiq bo‘lmagan maydonga sepiladi	Laklangan, akril shishali va b. spirt ta’siriga chidamsiz yuzalarga ishlov berish mumkin emas
	«ABK- Xloraktiv»	0,015 0,03	60 30	150 ml/m <sup>2</sup> bilan arti-ladi150- 300ml/m <sup>2</sup>  sepiladi	Zararsizlan tirilayotgan da 0,5% yuvuvchi vosita qo‘shish mumkin.
Xonadagi yuza joylar (pol, devor, mebel, jihozlar, uskunalar, kreslo, asboblarning	Neytral anolit	0,03-0,05	30	Ikki marta 15 minut oraliq bilan 200 ml/m <sup>2</sup> artiladi	
	«Ekstra-Dez»	0,25 0,5	60 30	100 ml/m <sup>2</sup> hisobda artiladi	

uchki qismlari, muolaj a stollari, tufukdonlar va h.k.) va sanitariya texnik jihozlar	Xloramin	1,0	60	200 ml/m <sup>2</sup> hisobda artiladi
	***«Ekstra-Dez»	2	120	100 ml/m <sup>2</sup> artiladi
		4	60	200 ml/m <sup>2</sup> sepiladi
	***«ABK-Ekstra»	2	60	100 ml/m <sup>2</sup> artiladi
		3	30	250-300ml/m <sup>2</sup> sepiladi
	«Antiseptin – OP»	Qo‘llanishga tayyor vosita eritmasi	15	50ml/m <sup>2</sup> artiladi
***«DS -1»	0,2	90	artiladi yoki sepiladi	
	0,4	30		
-	***«ABK - Oksi»	1,0	60	artiladi yoki sepiladi
		2,0	15	

## 2.Tozalash – (qaynatilmasdan).

## 3.Sterilizatsiyadan oldingi tozalash.

Sterilizatsiyadan oldingi tozalash jarayoni		Ishlov berish tartibi		Ilova
Jarayon	Vosita	Harorat °C	Ishlov berish vaqti, min.	
1	2	3	4	5
Yuvuvchi vositaga to‘liq botirib ivitish	Yuvuvchi vositaning 0,5% eritmasi	40-45	15	Bir marta qo‘llaniladi
	Yuvuvchi kompleks: vodorod peroksidning 0,5% li eritmasi + 0,5% li yuvuvchi vosita	50-55	15	Bir ish soatlarida 6 martagacha qo‘llaniladi
	Yuvuvchi kompleks: 0,5% li yuvuvchi vosita eritmasi	50	10	Bir marta qo‘llaniladi

	Natriy bikarbonatning 3%li eritmasi	18	15	Bir ish soatlarida 6 martagacha qo'llaniladi
	«ABK-Ekstra» 1%	18-20	15	Ifloslanguncha 14 kun qo'llanilishi mumkin
	«DS -1» 0,5%		15	
	«Ekstra-Dez» 1% - oddiy asboblar	18	10	Ifloslanguncha 14 kun qo'llanilishi mumkin
	1% - qulfli asboblar		15	
	1% - qisqichlar va amalgamali oynalar		20	
1.B)Eritmaga to'liq botirib qaynatish	1*2% natriy bikarbonatning eritmasi (ichimlik soda)	99±1	15	Bir ish soatlarida 6 martagacha qo'llaniladi
	2*1,5% li yuvuvchi vosita	99±1	15(30)	Bir ish soatlarida 6 marta-gacha qo'llaniladi
	3*0,5% li yuvuvchi vosita	99±1	15(30)	Bir marta qo'llaniladi
	Aist-universal			
	«ABK - Oksi» 0,5%	18-20	10	
1.V) Ultratovushli mexanik usul	1. 0,3%li yuvuvchi vosita		Ultratovush yordamida	
	2. Yuvuvchi kompleks: 0,5% N <sub>2</sub> O <sub>2</sub> + 0,5% yuvuvchi vosita ,OST 42-21-2-85 ga ko'ra yuvuvchi vosita		ultratovush uskunasi qo'llash ko'rsatmalariga asosan	
	3. Yuvuvchi eritma 0,5% yuvuvchi vosita		tozalanadi	
	Yuvuvchi vosita 0,5%	18-20	3,0	Bir marta qo'llaniladi
	«Ekstra-Dez» 2,0%	18	15	Bir marta qo'llaniladi
«Ekstra-Dez» 4,0%	18	15	Zararsizlantirish bilan birga sterillashdan oldin tozalash mumkin, bir marta	
«DS -1» 0,5%				

			qo'llaniladi
II. Har bir anjomni yuvuvchi eritmada 0,5 minut shyotka, paxta-dokali tampon yordamida yuviladi. (Qo'l bilan ishlov berilganda 1.A band bo'yicha qo'llaniladi).			
III. Ishqorliligi ketguncha oqayotgan suv bilan yuviladi – 5 dan 10 minutgacha			
IV. Distillangan suvda chayish: 2 ta asboblardan to'plamiga – 1 litr distillangan suv			
V. Issiq havo bilan quritish	85-90	2-10	

- Yuvuvchi vosita eritmasining harorati yuvish jarayonida saqlanib turilmaydi.
- Yuvuvchi kompleks: 0,5%  $N_2O_2$  + 0,5% sintetik yuvuvchi vosita, natriy bikarbonatning 2 va 3% li eritmaları, kir yuvuvchi vosita Lotosning 1,5% li eritmasi ish kuni davomida 6 martagacha qayta ishlatilishi (isitilishi) mumkin, faqat kir yuvuvchi vosita Aist-universal M ni qayta isitish mumkin emas, uning eritmasidan bir marta foydalaniladi.
- Yuvuvchi kompleks tayyorlash uchun texnik pergidrolning “A” va “V” markalaridan foydalanish mumkin.
- \* bilan belgilangan qaynatish usullari qo'llanilganda, zararsizlantirishni tozalash bilan birga bajarish mumkin, bunda anjomlarga yuvuvchi vosita eritmasida 30 minutgacha ishlov berish lozim.
- Tozalash uchun natriy bikarbonat va sintetik yuvuvchi vositalar eritmasida qaynatish usulidan foydalanilganda (faqat kir yuvuvchi vosita Aist-universal M dan boshqa vositalarda) har bir anjomlar shyotkalar, paxta-dokali tampon yoki mato salftetka yordamida mexanik tozalanib, oqayotgan ichimlik suvi tagida yuviladi.
- Jadvalda davlatimizda ishlab chiqarilgan ultratovush uskunalari (Kristall-5, UZV, Ultraest, UV-1) qo'llaniluvchi vositalarning maksimal konsentratsiyalari va ekspozitsiya vaqtlari qayd qilingan.
- Yuvuvchi vosita O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan va o'rnatilgan tartibda ishlatishga ruxsat berilgan vositalar ishlatilishi kerak.

3. Zararsizlantiruvchi vositalarga botirib zararsizlantirish : vodorod peroksidga – 80 minutga yoki 0,5% li xlorgeksidinning spirtli eritmasiga – 15 minutga, ABK-Ekstra 3% ga – 30 minutga, Ekstra-Dez 3% ga – 30 minutga, 70% etil spirtiga – 30 minutga, Antiseptin-op 10 minutga botiriladi.

4. Zararsizlantirilgan oynalarni steril lotokka solib, steril salftetka yopilgan holda ish kuni oxirigacha saqlanadi.

5. Zararsizlantirish uchun zararsizlantirish va tozalash jarayonini birgalikda bajarishga imkon beruvchi vositalardan foydalanilganda (1-jadval ilovasiga qaralsin), oynalarni yuvuvchi-zararsizlantiruvchi vositada ekspozitsiya qilgandan so'ng shyotka yoki tampon bilan yuviladi, keyin yaxshilab vositaning hidi ketgunicha distirlangan suvda yuvib, 4 bandga asosan saqlanadi.

6. Jarrohlik muolajalarida ishlatilgan oynalarni kimyoviy yoki fizikyoki gazli usul bilan sterillanadi

**Karpul shprintslariga (ko'p marta qo'llaniluvchi) ishlov berish** Karpulani qo'llashdan oldin 70° li etil spirti bilan ikki martalab 15 minut oraliq tanaffus bilan yoki uch marta tanaffussiz spirtida ho'llangan tampon bilan artiladi. Karpul shprintsni ishlatishdan oldin 1-jadvalning 1- bo'limida qayd qilingan tartibga rioya qilgan holda zararsizlantiruvchi vosita eritmasiga botirib zararsizlantiriladi. Zararsizlantirilgandan keyin shprints distirlangan suvda chayiladi. Shprints foydalanilgunicha aseptik sharoitlarda steril salfetka bilan yopilgan steril lotokda saqlanadi.

Foydalanilgan bir marta qo'llaniluvchi ignalar mustahkam konteynerga solinib, zararsizlantiriladi va muassasada o'rnatilgan tartibda yo'qotiladi.

### ***Narkoz-nafas oldirish apparatini (NNA) tozalash va dezinfeksiya qilish.***

Narkoz-nafas oldirish, anesteziologik apparatlar va o'pka sun'iy ventilyatsiyasi apparatlarining konstruktiv xususiyatlariga qarab ularni ikki usulda tozalanadi:

- a) bloklari bo'yicha;
- b) yig'ilgan holda.

Anesteziya va o'pka sun'iy ventilyatsiyasi (O'SV) olib borilganda bakterial-viruslar filtri ishlatilishi shart, ftiziatriya amaliyotida Xepa filtrlar ishlatilishi shart. Zamonaviy narkoz-nafas oldirish apparati ishlatilganda dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish ushbu apparatura yo'riqnomasiga muvofiq olib boriladi. Nafas konturi alohida elementlari va bloklari, hamda apparatning tashkiliy qismlari yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi narkoz-nafas oldirish va anesteziologik asboblari va O'SV apparatlarni zararsizlantirishning ishonchligining majburiy sharti hisoblanadi.. Yangi apparatlar chang, bog'lovchi, kukunli moddalardan tozalash maqsadida, ishlatilgandan keyin apparatlar dekontaminatsiya qilish va pirogen moddalar, to'qimalarhamda boshqa organik qoldiqlar bo'laklaridan tozalash maqsadida tozalanadi. Yuvish jarayoni (bloklar bo'yicha) bir qator ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi. Tayyorlash –tutash joylarni qismlarga ajratish, shlanglar, biriktiruvchi elementlar, klapan qutilari qopqoqlarini yechish, kondensat to'plagichlarni ajratish va bo'shatish va h.k. . Detallarni dezinfeksiya qilish 3% vodorod peroksidiga 60 daqiqaga yoki tegishli konsentratsiyadagi boshqa dezinfektantda uning yo'riqnomasiga muvofiq tozalanadigan bo'shliqlarni to'liq botirib qo'yish orqali bajariladi. Dezinfeksiyadan keyin qisqa muddat ichida oqar suv ostida chayiladi. 25 Bu ayniqsa biriktiruvchi elementlar va naychalarga tegishli bo'lib, ular da ajratmalar, ekssudatlar, qon va h.k.lar qurib qolishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Detallar yuvuvchi eritmada paxta-dokali tamponlar bilan yuviladi. Tozalash va yuvish uchun o'tkir buyumlar, shuningdek, cho'tka (yumaloq cho'tka/yorshik) ishlatish kerak emas, chunki patrubkalarda cho'tkalardan (yorshik) tukchalar qolib ketish va ularning keyinchalik nafas yo'llarida aspiratsiya bo'lishi xavfi bor. Doka tamponlar yuvish uchun bir marta ishlatiladi. . Yuvilgan detallar kamida 3 daqiqa oqar suv ostida chayiladi. Ishqorli qo'shimchalar qoldiqlarini aniqlash uchun fenolftalein sinovi o'tkaziladi. Ishqor

qoldiqlari aniqlanganda (ijobiy natija) nazorat uchun olingan buyumlarning barcha guruhi salbiy natijaga erishilgunga qadar takroran tozalanadi. . Narkoz-nafas oldirish apparati 360 daqiqaga 6%li vodorod peroksidiga botirib qo'yish orqali yoki boshqa dezinfektant(kimyoviy sterilizatsiya uchun mo'ljallangan)ga uning yo'riqnomasiga muvofiq sterilizatsiya qilinadi Sterilizatsiyadan keyin elementlar va detallar steril suv bilan chayiladi va steril choyshab bilan quritiladi, so'ngra steril matoga qayta solinadi va bir sutka davomida saqlanadi Sterilizatsiya oldi va sterilizatsiyaning barcha bosqichlari operatsion blokda olib boriladi. Zamonaviy narkoz-nafas oldirish apparati ishlatilganda uni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish ushbu apparatning yo'riqnomasiga muvofiq bajariladi. **LARINGOSKOPLARNI TOZALASH VA DEZINFEKSIYA QILISH.**

*Laringoskopiya* – bu ovoz paychalari va hiqildoqni tekshirish usuli . Laringoskoplarni tozalash ko'pincha gazli va plazmali sterilizatsiya orqali o'tkaziladi.Mazkur usul termik tozalash mos kelmaydigan asboblarga qo'llaniladi. Ularga oyna yuzali yoki akkumulyatorlijarrohlik asboblari kiradi. Mazkur sterilizatsiya usuli o'rnini yuqori darajadagi dezinfeksiya bosa oladi. Kimyoviy dezinfeksiyaishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etilgan tozalash vaqti va konsentratsiyasi ko'rsatilgan yo'riqnomaga muvofiq o'tkaziladi. Har bir marta ishlatilganidan so'ng laringoskoplar tozalanadi (yuvish va zararsizlantirish). Yuvish jarayoni bir qator ketma-ketlikdagi bosqichlardan iborat: - qon, yiring va shilimshiq jismlar quyilishi va qurib qolishi oldini olish uchun tig'ni oqar suv ostida yuviladi. Bunda elektron kontaktlarga suv tegmasligiga diqqat bilan e'tibor berish kerak. Tig'ni betadin eritmasi, xlor saqlovchi dezinfektantlar yoki vodorod peroksidida tozalash mumkin emas. - tig' dezinfeksiya uchun markirovkalangan idishda ivitiladi, so'ngra shu eritmada bir martalik doka salfetka bilan yuviladi. - tig' oqar suv ostida 2 daqiqa mobaynida yuviladi. - tig' distillangan suv bilan chayiladi va yo'riqnomaga asosan qo'llanilayotgan sterilyant eritmasiga solinadi. So'ngra tig'ni distillangan suv bilan chayiladi. - so'ngra tig' steril pinset bilan steril choyshabga olinadi, steril salfetka bilan quritiladi va steril matoga o'raladi. - laringoskop dastagi dezinfeksiyalovchi eritmali steril salfetka bilan artiladi, so'ngra 70% spirt bilan artiladi va steril matoga o'raladi. - laringoskop ichiga steril choyshab solingan sterilizatsion qutida saqlanadi.

Endoskopik aralashuvlar bilan bog'liq infeksiyon kasalliklar profilaktikasi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va nazorat qilish Endoskopik aralashuvlarni amalga oshiruvchi va (yoki) endoskopik asbob-uskunalarga ishlov berish va ularni saqlashni amalga oshiruvchi tibbiyot tashkilotlarining tarkibiy bo'linmalaridagi sanitariya va epidemiyaga qarshi (profilaktik) tadbirlar bemorlar va xodimlarga infeksiya yuqishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan. Endoskopik aralashuvlarni bajaruvchi davolash-profilaktik muassasalarning tarkibiy bo'linmalarida muassasa rahbarining buyrug'i bilan epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, shu jumladan endoskopik asbob-uskunalarga ishlov berish sifatiga javobgar shaxslar tayinlangan bo'lishi kerakMazkur bob talablarini bajarish ustidan nazorat tadbirlari, shu jumladan endoskopik asbob-uskunaga ishlov berish sifatini laboratoriyada nazorat qilishni o'tkazish infeksiyon nazorat bo'yicha komissiya ishi rejasiga kiritiladiEndoskopik aralashuvlar amalga oshiriladigan

tarkibiy bo'linmadagi mavjud har bir endoskopga uning turi (modeli) va seriya raqami haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi identifikatsion kod (raqam) beriladi. Tibbiy aralashuv jarayonida ishlatilgan endoskopning identifikatsion kodi endoskopik aralashuv protokolidagi, endoskopiya bo'limi, bo'linmasi, xonasida bajarilgan tekshiruvlarni ro'yxatga olish jurnalining maxsus qaydlar grafasida yoki stasionardagi operativ aralashuvlar qayd jurnalida ko'rsatilishi kerak. Endoskopga ishlov berishning har bir sikli mazkur normativ hujjatning jadvaliga asosan jurnalda qayd etilishi kerak. Steril bo'lmagan aralashuvlar uchun endoskoplarga ishlov berish nazorati jurnalida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: - endoskopga ishlov berilgan sana; - endoskopning identifikatsion kodi (raqami); - germetiklikka test natijalari; - yakuniy tozalash uchun vosita nomi; - yakuniy tozalash jarayoni boshlangan va tugagan vaqt; - talablarga asosan o'tkazilgan tozalanganlik sifati nazorati natijalari azopiram va fenolftalein sinov qo'yish orqali aniqlanadi; - endoskopni YuDD qilish usuli (qo'lda yoki mexanizatsiyalashgan). 79. Qo'lda yoki mexanizatsiyalashgan ishlov berish usullarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: - vosita nomi va uni qo'llash rejimini nazorat qiluvchi parametrlar(temperaturasivaeritma konsentratsiyasi); - ta'sir ko'rsatuvchi modda (TKM) mavjudligi darajasi nazorati natijalari; - dezinfeksion saqlash boshlanishi/yakuni vaqti (mexanizatsiyalashgan usulda), yuvish va dezinfeksiya mashinasida ishlov berish sikli yakunlanishi vaqti; - ishlov berishni bajargan tibbiyot xodimi familiyasi, ismi, otasining ismi va imzosi. Steril aralashuvlar uchun mo'ljallangan endoskoplar, endoskoplar uchun asboblari va yordamchi uskunalarini tozalash sifati tibbiyot buyumlariga sterilizatsiyadan oldin ishlov berish sifatini hisobga olish jurnalida qayd etilishi kerak (F-366U). Operatsiya bloki yoki jarrohlik tarmog'idagi bo'linma sterilizatsiya xonasida to'ldiriladigan endoskopik asbob-uskunani qo'l bilan sterilizatsiya qilish nazorati jurnalida quyidagilar ko'rsatilishi kerak: - ishlov berish sanasi; - sterilizatsiya qilinadigan buyumlar, shu jumladan endoskop nomlari; - endoskop identifikatsiya kodi (nomeri) (bir nechta endoskop mavjudligi holatida); - sterilizatsiya qiluvchi vosita nomi va uni qo'llash rejimining nazorat qilish parametrlari (eritma harorati, eritma konsentratsiyasi va ishchi eritmada TKVning miqdori darajasini nazorat qilish natijalari); - endoskopni sterilizatsiya qilish yakunlangan va o'ralgan vaqti; - ishlov berishni amalga oshirgan tibbiyot xodimi familiyasi, ismi, otasining ismi va imzosi; Operatsiya blokining sterilizatsiya xonasida sterilizatsiya qilish asbob-uskunasini qo'llagan holda endoskopiya asbobini sterilizatsiya qilishda sterilizatsiya parametrlari sterilizator ishini nazorat qilish jurnalida ro'yxatga olinadi. Markazlashtirilgan sterilizatsiya bo'linmasida (keyingi o'rinlarda - MSB) steril aralashuvlar uchun asboblari va endoskoplarga ishlov berishda ishlov berish bosqichlari tibbiyot buyumlariga sterilizatsiyadan oldin ishlov berish sifatini ro'yxatga olish jurnalida (F-366U) va sterilizatorlar ishini nazorat qilish jurnallarida (F-257U) qayd etilishi kerak. . Endoskop va ularga tegishli asboblarni endoskopiya bo'linmasi va operatsion blok xonalari orasida, hamda tibbiyot muassasasining boshqa bo'linmalari va MSBga transportirovka qilish qattiq konteynerlarda yoki idishlarda yopiq tarzda amalga oshirilishi kerak. . Endoskoplar

transportirovkasi uchun konteynerlar va idishlar har safar ishlatilganidan so'ng dezinfeksiya qilinishi kerak. 80 Endoskoplarning va ularga tegishli asboblarga ishlov berish sikliga talablar 3.1. Steril bo'lmagan aralashuvlar uchun endoskoplarning va ularga tegishli asboblarning (klapanlar, qopqoqlar, qalpoqchalar) bevosita ishlatilganidan so'ng quyidagi ketma-ketlikda: – dastlabki tozalanadi; – yakuniy tozalanadi (dezinfeksiya bilan birgalikdagi yakuniy tozalash); – yuqori darajada dezinfeksiya qilinadi; – qayta kontaminatsiyalanishni mustasno qiluvchi sharoitlarda saqlanadi. Steril endoskopik aralashuvlar uchun endoskopik asbob-uskuna, shu jumladan endoskoplarning, steril va steril bo'lmagan aralashuvlar uchun barcha turdagi asboblarning bevosita ishlatilishidan oldin: – dastlabki tozalanadi; – sterilizatsiyadan oldin tozalanadi, hamda dezinfeksiya qilinadi; – sterilizatsiya qilinadi; – qayta kontaminatsiyalanishni mustasno qiluvchi sharoitlarda saqlanadi. Steril bo'lmagan aralashuvlar o'tkazish uchun mo'ljallangan endoskop har safar ishlatilganidan so'ng unga ishlov berishning barcha bosqichlari darhol to'liq hajmda bajarilish kerak. Endoskopik aralashuvda jalb qilingan yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar endoskopning barcha kanallariga ishlov beriladi. Endoskopik asbob-uskunaga ishlov berish va uni saqlashga talablar

Steril bo'lmagan aralashuvlar uchun ishlatilganidan so'ng egiluvchan endoskoplarga ishlov berish quyidagi ketma-ketlikda bo'lishi kerak: Kiritiluvchi naycha tashqi yuzasini dastlabki tozalash, kanallarni yuvish; videoendoskop uchun – himoya qalpoqchasi yordamida germetizatsiya. Endoskopni ko'zdan kechirish va germetikligini tekshirish. Germetik bo'lmagan endoskopga ishlov berilmaydi va ishlatilmaydi. Yakuniy tozalash yoki dezinfeksiya bilan birlashgan yakuniy tozalash o'z ichiga quyidagilarni oladi: 83 – endoskopni barcha kanallarini irrigator, adapter va yuvish naychalari orqali to'ldirgan holda yuvish vositasi yoki yuvib-dezinfeksiyalovchi vosita eritmasiga vosita yo'riqnomasida ko'rsatilgan vaqtga botirib qo'yish; – endoskop tashqi yuzalarini salftetka bilan tozalash, cho'tka bilan klapanlar, klapan teshiklari, yon optika va tozalashga ochiq kanallarni tozalash; – endoskopning barcha kanallarini irrigator, adapterlar va yuvish naychalari orqali yuvish yoki yuvib-dezinfeksiyalovchi eritma bilan yuvish; – endoskopning tashqi yuzalari va kanallarini tozalashdagi moslamalardan foydalanib ichimlik suvi bilan chayish; – tashqi yuzalarni toza material bilan va kanallarni havo haydash orqali (aspiratsiya bilan) quritish. Endoskoplarni tozalash va chayish bosqichlaridan keyin qolgan yuvishda ishlatilgan suv dastlab zararsizlantirilmasdan markaziy kanalizatsiyaga to'qiladi. Endoskopni tozalash sifatini tekshirish azopiram va fenolftalein sinov qo'yish orqali aniqlanadi. 6.1.5. Endoskopni qo'l usulida ishlov berib YuDD qilish jarayoni o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: – O'zbekiston Respublikasida ruxsat etilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan dezinfeksiya vositalaridan birining eritmasida endoskopni to'liq botirish holatida dezinfeksiya qilish uchun ushlab turish. Barcha kanallar eritma bilan majburiy to'lgan bo'lishi, havo pufakchalari tashqi yuzalardan salftetka bilan olib tashlanishi kerak; – YuDD uchun mo'ljallangan muayyan vositani qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga ko'ra endoskopni chayish. Gastrointestinal tadqiqotlar uchun endoskoplarning ichimlik suvi sifatiga ega suv tarmog'idagi suvda,

bronxoskoplar steril suvda, qaynatilgan suvda yoki antibakterial filtrlarda tozalangan suvda chayilishi kerak. Endoskopni chayish uchun muayyan miqdordagi suv bir marta ishlatiladi. Endoskopning tashqi yuzalaridan namlikni steril material yordamida yo‘qotish; kanallardan havo haydash yoki havoni faol aspiratsiya qilish orqali. Endoskop kanallaridan namlikni to‘liq yo‘qotish uchun 70-95% etil spirti bilan chayish va havo haydash orqali yakunlanadi. Endoskoplarga mexanizatsiyalashgan usulda ishlov berish asbobuskunani ekspluatatsiya qilish hujjatiga ko‘ra amalga oshiriladi. Steril bo‘lmagan aralashuvlar uchun endoskoplarga yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida ishlov berishning har bir siklidan avval, agar yuvishdezinfeksiyalash mashinasi yo‘riqnomasida boshqa ko‘rsatmalar berilmagan bo‘lsa, ularni qo‘l usulida yakuniy tozalash amalga oshiriladi (shu jumladan, barcha ochiq kanallar uchun cho‘tkadan foydalangan tarzda). 84 Endoskoplarning ma‘lum bir modellariga yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida ishlov berish asosiy kanallarni mashinaga ulash uchun adapterlar mavjud holatida amalga oshiriladi. Yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida qo‘shimcha kanal ulash uchun adapter yo‘qligi holatida (suv uzatish uchun, SO uzatish uchun, elevator o‘tkazgichi uchun) bu kanalga yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida sikl boshlangunicha qo‘l usulida ishlov berilishi kerak. . Ishlov berishdan so‘ng endoskop qayta ishlatilishi mumkin yoki qayta kontaminatsiya bo‘lmaydigan sharoitlarda saqlanishi mumkin . . Ish smenasi davomida ishlov berilgan endoskop yig‘ilgan va steril materialga o‘ralgan holda navbatdagi ishlatishgacha 3 soatgacha saqlanishi mumkin. Ko‘rsatilgan vaqt davomida ishlatilmagan endoskop qaytadan YuDD qilinadi. Ish smenalari orasida endoskop yoyilgan holda, steril materialga o‘ralgan yoki endoskoplarni quritish va saqlash shkafida o‘ralmagan holda aseptik muhitda saqlanishi kerak. Endoskoplarning quritish va saqlash shkafida aseptik muhitda saqlanish muddati shkafni ekspluatatsiya qilish yo‘riqnomasida ko‘rsatiladi. Endoskoplar steril matoli g‘ilofda saqlanishi muddati 72 soatdan oshmasligi kerak. Ko‘rsatilgan muddatdan so‘ng endoskop qayta YuDD qilinadi. Endoskoplarni shkafda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ultrabinafsha nurlar ostida saqlanishi taqiqlanadi. Linzalarni tozalash uchun suv solinadigan idish (konteyner, bakcha), shu idish uchun qopqoq va ulash uchun shlanglar ish smenasi yakunida tozalanadi, quritiladi va sterilizatsiya qilinadi. Ishlatishdan avval idish steril suv bilan to‘ldiriladi. Aspiratsiya bankasi ish jarayonida 4 dan 3 qismidan oshmagan tarzda to‘ldiriladi. Har safar bo‘shatilganidan so‘ng u botirish orqali dezinfeksiya qilinadi va tozalanadi. Har bir aspiratsiya so‘rib olish uchun kamida ikkitada banka mo‘ljallanadi. Steril endoskopiya aralashuvlari o‘tkazish uchun egiluvchan endoskoplarga ishlatilganidan so‘ng ishlov berish quyidagi ketma-ketlikda o‘tkazilishi kerak: Dastlabki tozalash bandida belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Sterilizatsiyadan avvalgi dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan tozalash jarayoni 6.1.3. bandida o‘rnatilgan dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan yakuniy tozalash jarayoniga o‘xshash tarzda bajariladi. 6.2.3. Egiluvchan endoskoplarni sterilizatsiya qilish kimyoviy vositalar eritmalarida qo‘l usuli bilan bajariladi yoki endoskopning muayyan modeli uchun ishlatishga cheklovlarga ega bo‘lmagan (materiallari, kanallar soni, uzunligi va diametriga ko‘ra) past haroratli

sterilizatorlarda mexanizatsiyalashgan usulda bajariladi. 85 Endoskoplarni qo‘l usulida sterilizatsiya qilish o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: – endoskopni to‘liq botirish va kanallarini adapterlar (yuvish naychalari) orqali majburiy to‘ldirish, hamda tashqi yuzalaridan havo puffakchalarini yo‘qotish tarzida mazkur bobning bandida ko‘rsatilgan vositalarning birining eritmasida sterilizatsiya qilish uchun ushlab turish; –muayyan sterilizatsiya qilish vositasining qo‘llash yo‘riqnomasiga ko‘ra endoskopni steril suvda chayish. Ichki kanallari adapterlar, yuvish naychalari orqali chayiladi. Steril suv va suv uchun steril konteynerlar bir marta ishlatiladi. Endoskopning tashqi yuzalari steril salfetaklar bilan quritiladi, kanallari bosim ostidagi havo yoki havo aspiratsiyasi orqali quritiladi. Kanallar spirt bilan qo‘shimcha quritilmaydi. Sterillash vositasi qoldiqlaridan yuvilgan va quritilgan buyumlar steril mato solingan steril sterilizatsiya qutisiga joylanadi. Sterilizatsiya qilingan buyumlarni saqlashning ruxsat etilgan muddati 72 soatdan oshiq emas. Steril operatsiya aralashuvlari uchun qattiq endoskoplarga ishlov berish o‘z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: dastlabki tozalash, dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash, sterilizatsiya. Qattiq endoskoplar va ularga tegishli buyumlarni dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash qo‘l usulida yoki yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida mexanizatsiyalashgan usulda o‘tkaziladi. Endoskopga qo‘l usulida ishlov berishda dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash jarayoni o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni kiritadi: – yuvib-dezinfeksiyalovchi eritmada endoskopni to‘liq botirish va kanallarini majburiy to‘ldirish tarzida dezinfeksiya qilish uchun ushlab turish; – tegishli o‘lchamdagi cho‘tka va simli tozalash anjomlari yordamida endoskopning ichki kanallari va yechiladigan detallarini mexanik tarzda tozalash; – ichki kanallarni maxsus moslamalar (bosim ostida yuvish naychalari, yuvish shpritslari yoki uchliklarga ega yuvish to‘pponchasi) yordamida yuvish; – endoskopni, shu jumladan kanallarni maxsus moslamalar yordamida ichimlik suvi sifatidagi suv va distillangan suv bilan chayish; Endoskop tashqi yuzalari yumshoq mato bilan, kanallari havo to‘pponchalari yordamida havo bilan quritiladi. Ishlab chiqaruvchi yo‘riqnomasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, optik yuzalar qo‘shimcha tarzda 70% spirt bilan quritiladi. 86 Dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash mexanizatsiyalashgan usulda endoskopik asbobning ishlab chiqaruvchisi tomonidan ruxsat etilgan kimyoviy vositalar yoki kimyoviy vositalar va termik usulda yuvish-dezinfeksiyalash mashinasida bajariladi. Dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiya yakunlanganidan so‘ng azopiram va fenolftalein sinov qo‘yish orqali sifati tekshiriladi; ekspluatatsiya qilish yo‘riqnomasiga mos ravishda funksional testlar o‘tkaziladi, tasvir sifati tekshiriladi, endoskopning kranlar va qimiraydigan qismlarining sharnirlari moylanadi. Sterilizatsiyaning avtomatik siklidan avval endoskop yaxshilab quritiladi va tanlangan sterilizatsiya usuli uchun tasiyalangan sterilizatsiya konteyneriga solinadi. Endoskopni qo‘l usulida sterilizatsiya qilish bandiga asosan o‘tkazilishi kerak. Videokamerani boshqarish bloki va video boshcha blokiga (optik adapter (ob‘ektiv) integratsiya qilingan video boshcha

bloki, vintli ulanish va optik adapter yoki adaptersiz video boshcha) ishlov berish tarmoq shtekeri uzilganidan so'ng darhol boshlanadi. Videokamerani boshqarish bloki aldegidlar, spirt yoki biologik iflosliklarni qotiruvchi boshqa komponentlarni o'zida saqlamaydigan dezinfeksiya vositasida ho'llangan bir martalik salftka bilan artiladi. Video boshcha, ob'ektiv va video boshcha kabeli uzilishlar va yoriqlarga tekshirilganidan so'ng neytral yuvish vositasi eritmasida dastlabki tozalash bajariladi.. Endoskopik asbob-uskuna video boshchasi, ob'ektivi va video boshcha kabelini dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan oldingi tozalash jarayoni o'z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: – dezinfeksiya qilish uchun ushlab turish vaqt mobaynida yuvishdezinfeksiyalash eritmasida botirish; – video boshcha va ob'ektivdan iflosliklarni yumshoq cho'tka (mato) bilan tozalash; – distillangan suv bilan chayish. Endoskop video boshchasi, ob'ektivi va video boshcha kabeliishlab chiqaruvchi tavsiyasiga ko'ra bug'li, gazli va plazmali usullar bilan sterilizatsiya qilinadi. Sterilizatsiyadan avval optika va kamera shtekeri tozaligi tekshiriladi, shisha yuzalari 70% spirt bilan quritiladi, shikastlanishlarga tekshiriladi.. Operativ aralashuv o'tkazish vaqtida video boshcha va kabel himoyasini oshirish uchun bir martalik steril g'iloflarni ishlatishdan avval mazkur tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasiga mos ravishda ishlov berishning barcha jarayonlaridan o'tkazilishi kerak. Shisha tolali (suyuqlikli) svetovodlarni dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash qo'l usulida yoki mexanizatsiyalashgan usulda bajariladi. Shisha yuzalar sterilizatsiyadan avval qo'shimcha tarzda 70% spirt bilan quritiladi, funksional test o'tkaziladi. Shisha tolali svetovodlar mazkur bobning bandida keltirilgan usullar bilan sterilizatsiya qilinadi. Suyuqlikli svetovodlar gazli usulda yoki kimyoviy vositalar eritmalarida sterilizatsiya qilinadi. So'rish nasosiga (yuvish nasosi yoki pompassi) tegishli buyumlar bo'lgan aspiratsiya bankasi va ko'p marta ishlatiluvchi silikon naychalar komplektini dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avvalgi tozalash har bir endoskopik operatsiyadan so'ng qo'l usulida yoki mexanizatsiyalashgan usulda o'tkaziladi, sterilizatsiya qilish bug'li usulda ishlab chiqaruvchi tavsiya etgan rejimda bajariladi. Tarmoqdan uzilganidan so'ng pompani tarkibida spirt saqlamaydigan dezinfeksiya vositasi eritmasiga ho'llangan salftka bilan artiladi. Insufflyatsiya asbobiga unga tegishli buyumlar bilan birga ishlov berish quyidagi ketma-ketlikda bajariladiTarmoqdan uzilganidan so'ng moslama tarkibida spirt saqlamaydigan dezinfeksiya vositasi eritmasiga ho'llangan salftka bilan artiladi. Ko'p marta ishlatiladigan silikon naychalar komplekti: – yuvish vositasi eritmasida dastlabki tozalanadi; – yuvish-dezinfeksiyalash vositalari oqimi bilan naychalarning ichki bo'shliqlarini to'siqlarsiz yuvish uchun maxsus moslamalardan foydalangan holda qo'l usulida yoki mexanizatsiyalashgan usulda dezinfeksiya qilish bilan birga olib boriladigan sterilizatsiyadan avval tozalanadi; qo'l usulida ishlov berish holatida kovakli bo'shliqlarni cho'tkalar bilan mexanik tozalanadi; – distillangan suv bilan chayiladi; – ichki bo'shliqlarni havo bilan va tashqi yuzalarni mato bilan quritiladi; – germetikligi ko'rib chiqiladi va tekshiriladi; – bug'li usulda sterilizatsiya qilinadi. Artroskopiya uchun naychalar to'plami bir marta ishlatiladi va ularga

qayta ishlov berilmaydi..Sterilizatsiya qilingan endoskoplar va unga tegishli asboblarni saqlash muddati tanlangan sterilizatsiya usuli, turi va qadoqlash materialining yaroqlilik muddatiga asosan belgilanadi.

### ***DORIXONADA FOYDALANILADIGAN VOSITALAR VA DORILARNING STERILIZATSIYASI***

Dorixonalarda tayyorlanadigan, in'eksiya uchun qo'llaniladigan dorilar va ularni tayyorlashda foydalaniladigan yordamchi vositalar albatta o'ziga xos ravishda sterillangan bo'lishlari shart. Shulardan: yuqori haroratga chidamli dorilarning suvli eritmali suv bug'i oqimida, Kox va infundir sterillash apparatlarida (4 – rasm) bajariladi. Apparatning pastki qismiga suv quyiladi, ichida eritmali dorisi bo'lgan shisha idishlar temir to'r ustiga joylashtiriladi va suv qizdiriladi. Harorat, suv qaynab bug' xosil bo'lganda 100°S darajaga yetgandan so'ng shishadagi dorining hajmiga nisbatan 30-60 daq. vaqt ichida sterillanadi, ya'ni,

101 ml. dan 500 ml. gacha 45 daq.,

501 ml. dan 1000 ml. gacha 60 daq.

Dori vositalarining eritmalarini avtoklavda 0.5 atm. bosimda,

110-112° Sda 100 ml. gacha bo'lsa 30 daq.

101 ml. dan 500 ml. gacha bo'lsa 45 daq.

500 ml. dan 1000 ml. gacha bo'lsa 60 daq. sterillanadi.

Issiqqa chidamli dori vositalarini avtoklavda 1.0 atm., 120-122°S da suyuqlik dorining hajmiga ko'ra

10 ml. dan 100 ml. gacha 8 daq.,

101 ml. dan 500 ml. gacha 8 – 12 daq.,

501 ml. dan 1000 ml. gacha 12 – 15 daq. dasterillanadi. Quruq issiq havo bilan

180 – 200°S darajada shishadan, metalldan, farfordan tayyorlangan buyumlar, moy, lanolin, vazelin, mo'm, vazelin yog'lari, talk, ruh (II)-oksidi, kalsiy karbonatlar sterillanadilar.

Bog'lov vositalari (paxta, lignin, doka), ipak, oqliqlar, filtr qog'oz, po'kaklar, voronka va rezina buyumlar, sellyulozalar avtoklavda 1.0 atm. da 120° – 122° S da 20 – 30 daq. sterillanadilar.

Yuqoridagilardan tashqari dorixonalarda ultrabinafsha nurlar bilan havoni tozalash-zararsizlantirish, suv va bo'sh idishlarni, ochiq holda turgan buyumlarni sterillash mumkin.

Ultrabinafsha nurlar manbai bo'lib simob-kvarsli va simob-argonli bakteritsid uviol BUV-15, BUV-30, devorga o'rnatiladigan NBO, shipga o'rnatiladigan PBO va mayak tipli MBO lampalar (9-rasm) mavjud. Bunday lampalar yordamida dorixonalardan tashqari shifoxonalarda jarrohlik xonasi, sterilizatsiya bo'limi xonalari. muolaja xonalarning havosini zararsizlantirishda samarali foydalaniladi.

#### **Chok materiallarini sterillash.**

Ipak ipni sterillash. Yo'g'onligiga ko'ra 1dan 10gacha raqamlangan ipak iplar mavjud, bo'lib ularni chigallashmasligi uchun avval kerakli o'lchamda kesib olinib, tugiladi. Iliq suvda sovunlab 3 marta yuviladi, 7 marta to sovun ketguncha suvda chayiladi. Steril usti-bosh, qo'lqop kiyilib ipak iplar qopqog'i mahkam

yopiladigan shisha idishlarga solinadi. Yog'sizlantirish uchun ustiga efir quyiladi va 12 soat saqlanadi. So'ngra steril oqlikda quritiladi. Yana 12 soatga 70%li spirtga solinadi. Keyin 1:1000 nisbatdagi sulemada 10 minut qaynatiladi va 96%li spirtda tugaguncha saqlanadi. Bu usul Koxer usulidir.

**Pershin usuli.** Kerakli o'lchamda kesib olinib, tugiladi. Iliq suvda sovunlab 3 marta yuviladi, 7 marta to sovun ketguncha suvda chayiladi. Steril usti-bosh, qo'lqop kiyilib ipak iplar qopqog'i mahkam yopiladigan shisha idishlarga solinadi. Yog'sizlantirish uchun 24 soatga 1:1000 nisbatdagi diotsidga solinadi. So'ngra doimiy 1:5000 nisbatdagi diotsid eritmasida saqlanadi.

**Bakulev usuli.** Ipak ip o'ramlari nashatir spirtining 0,5%li eritmasida sovunlab yuvilib, efirga 24 soatga botirib qo'yiladi. g'altaklarga o'ralgach, avtoklavda 2 atm.da 30 minut sterillanadi. Keyin 5 sutkagacha 96 li spirtida saqlanadi.

Kapron, lavsan, neylon, dakron va boshqalarni sterillash.

Kapron, lavsan, neylon, dakron kabi sun'iy choklash iplari avval sovunlab yuvilgach g'altaklarga o'raladi va distillangan suvda 20-30 minut qaynatiladi. So'ngra 96% li etil spirtida doimiy saqlanadi.

#### **Ketgutni sterillash.**

Ketgut hayvonlar ichaklaridan tayyorlanganligi uchun qaynatish va avtoklavlashga dosh bermaydi. Shuning uchun uni sovuq usulda sterillanadi. Sterillanmasa kuydirgi, qoqshol, gazli gangrena kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Chunki kuydirgi, qoqshol, gazli gangrena qo'zg'atuvchilari hayvonlar ichaklarida saprofit yashaydilar.

Ketgutni quyidagi usullar bilan sterillanadi:

**Klaudius usuli** - tarkibida toza yod-1gr, kaliy yodid-1gr bo'lgan 100 ml distillangan suvda 14 kun ushlab turish kifoya.

**Sitkovskiy bo'yicha** yod bug'lari bilan sterillash. Ketgutni 12 soat efirda ushlangach 1:1000 nisbatdagi sulemaga[ ho'llangan salftkada artiladi, keyin 2,5%li kaliy yodidga 1 minutga solinadi. qopqog'i mahkam yopiladigan shisha idish tubiga yod poroshogi solinib, ketgut idish ichiga yodga tegmaydigan qilib osib qo'yiladi. qopqoq berkitilib salftka bilan o'raladi, parafinlanadi. Muddat 5 kun. Har kuni silkitib turishi kerak.

**Lyugolning spirtli eritmasida sterillash.** Uzunligi 1 metrli ketgut iplarni tahlab 12 soatga efirli idishga yog'sizlantirish uchun solib qo'yiladi. So'ngra 3 kunga Lyugolning tarkibida yod-10 gr, kaliy yodid-10 gr, 96%li etil spirti -1000 ml bo'lgan eritmasiga solinadi. Keyin Lyugol eritmasi yangilanib yana 8 kun solib qo'yiladi. Bakteriologik tekshiruvdan so'ng ishlatish mumkin. Saqlash uchun har 10 kunda Lyugol eritmasini yangilab turish kerak.

Izoh: Sulemaning zaharli ta'siri kuchli bo'lganligi uchun hozirda qo'llanilmaydi.

#### **Qo'llarni operatsiyaga tayyorlash.**

Qo'llarning gigienik tozaligiga munosib yuvish orqaligina erishiladi, chunonchi vrachlar, hamshiralalar bemorlarni ko'rish, ularga muolajalarni o'tkazish oldidan va so'ng qo'llarni sidqidildan yuvib tozalashga majburdirlar.

Terining har qanday ochiq shikastlariga, shilliq qavatlariga tegishdan oldin, vena ichi muolajalarida, qonli muolajalarda, ayniqsa qon va bemorning boshqa ajralmalari bilan

ifloslangan asbob-anjomlar bilan ishlaganda, chiqindilarni yo‘qotishda rezina qo‘lqoplar kiyilishi shart.

Tibbiyot xodimlarining shaxsiy himoya vositalaridan biri hisoblangan rezina qo‘lqoplarning 3 turi mavjud:

- Xirurgik aralashuvlar uchun;
- Bemorlarni ko‘rish uchun;
- Xo‘jalik ishlari uchun.

Xirurgik qo‘lqoplar operativ aralashuvlarda, tug‘ruqni qabul qilishda qo‘llanilib albatta sterillangan bo‘lishi va faqat bir martagina foydalanmog‘i kerak.

#### **Barcha statsionarlar uchun qo‘llarni yuvish qoidasi.**

- Qo‘llarni yaxshilab ho‘llang.
- Oddiy sovun bilan sovunlang (antiseptik vositalarni qo‘llash shart emas).
- 10-15 sekund mobaynida qo‘llarning barcha sohalarini, barmoqlarni galma-galdan bir-birini ustiga qo‘yib ishqalang, barmoqlar oralariga, tirnoqlar ostiga alohida e‘tibor bering.
- Toza suv bilan qo‘llarni chaying.
- qo‘llarni qog‘oz sochiqqa arting, kran jo‘mragini sochiq bilan berkiting.

Operatsiyada ishtirok etuvchi xodimlar: xirurglar, operatsion hamshiralar, anesteziolog-reanimatologlar, anesteziologlar qo‘llarini yuqumsizlantirishlari shart.

Xodimlar qo‘llarini operatsiya oldi xonasida, maxsus tirsak bilan berkitiladigan jo‘mrakli rakovinalarda yuvadilar.

qo‘llarni yuqumsizlantirish uchun O‘zb. R. SSV tomonidan ruxsat etilgan moddalar ishlatiladi.

S-4 preparati. Preparat kerakli miqdordagi vodorod peroksidi va chumoli kislotasidan tayyorlanadi. Har ikkala eritmani avval shisha idishda aralastirib, keyish shisha idishdagi aralashmani sovuq suvli idishga 1-1,5 soatga solib qo‘yiladi va vaqti-vaqti bilan shisha idishdagi aralashma chayqatib turiladi.

#### **S-4 PREPARATINI TAYYORLASH.**

Tayyorlanishi kerak bo‘lgan S-4, (litrlarda)	Ingridientlar miqdori			
	Olinadigan 30 yoki 33%li vodoroda peroksidi (ml)	Olinadigan chumoli kislota		Suv (litrgacha)
		100% (ml)	85% (ml)	
1	17,1	6,9	8,1	1
2	34,2	13,8	16,2	2
5	85,5	34,5	40,5	5
10	171,0	69,0	81,0	10

**Izoh: eritmani faqat operatsiya o‘tkaziladigan kuni tayyorlanadi va o‘sha kuni ishlatiladi.**

- Eritmani germetik berkitiladigan shisha idishlarda salqin joyda bir sutkagacha saqlash mumkin.

➤ qo'llar cho'tkalarida sovunlab tirsakkacha, kaft va barmoqlar orasiga alohida e'tibor berib yuviladi. Cho'tkalar yumshoq bo'lishi va avtoklavda sterillanishi kerak. Tirnoqlar sohasiga bir martalik likcho'p bilan ishlov beriladi. So'ngra qo'llarni 2,4%li S-4 preparati quyilgan tog'oraga 1 minut botirib turiladi.

➤ Xlorgeksidin biglyukonat (gibitan). Xirurg qo'llarini yuqumsizlantirish uchun xlorgeksidin biglyukonat(gibitan)ning 0,5%li spirtli eritmasi qo'llaniladi (preparatni 70%li spirtida 1:40 nisbatda suyultirib olinadi). qo'llarni gibitanda paxta tampon bilan 5 minut artiladi.

➤ Tampon yordamida qo'llar tirsakkacha avval o'ng qo'l kaft usti, kafti, barmoqlar, so'ngra chap qo'llar shu yo'sinda obdon 2 minutdan kam bo'lmagan vaqt ichida artib chiqiladi. qayta yuqumsizlantirishda yangi steril tampondan foydalaniladi.

➤ qo'llar gibitanda artilgandan so'ng steril salfetkalariga artiladi va operatsion hamshira tutqazgan steril qo'lqoplar kiyiladi.

➤ qo'llarni yuqumsizlantirish uchun 1%li degmin yoki 0,1%li yodoferon-yodofor eritmaları ham ishlatiladi va qo'llar 4 minut mobaynida tog'orada yuqumsizlantiriladi. qo'llarni operatsiyaga tayyorlashning klassik usullari

**Spasokukotskiy-Kochergin usuli** - qo'llar oqin suvda sovunlab yuviladi. 2ta tog'orachaga nashatir spirtining 0,5%li eritmasi tayyorlanib, qo'llar galma-galdan oldin birinchi tog'orada, keyin ikkinchi tog'orada 3-4 minut mobaynida steril salfetkalar yordamida tirsakkacha yuviladi. Keyin qo'llar steril sochiq bilan artiladi va 96%li spirtida ho'llangan salfetka bilan artiladi. So'ngra barmoq uchlari, tirnoqlar va teri burmalari, yodning 5%li eritmasida artiladi. Xalat kiyiladi. qo'lqoplar kiyiladi.

**S-4 (pervomur)** preparati bilan yuqumsizlantirish - qo'llar sovunlab yuvilgach, steril sochiqqa artiladi so'ngra S-4 eritmasida 1 minut davomida salfetkasiz yuviladi, yana steril sochiqqa artib quritiladi. Xalat kiyiladi. qo'lqoplar kiyiladi.

**Xlorgeksidin biglyukonat bilan yuqumsizlantirish** - qo'llar iliq suvda sovunlab yuvilgach, steril sochiqda artib quritiladi. Bilak sohasigacha xlorgeksidin biglyukonat (gibitan)ning 0,5% li eritmasida 3 minut davomida ishlov beriladi. Xalat kiyiladi. qo'lqoplar kiyiladi.

**Yodopirin bilan yuqumsizlantirish** - sirlangan tog'oraning ichi 96 %li spirtida yondirilib, 2 litr iliq suv quyiladi, ustiga laurilsulfat kukunidan 20 gr solib eritiladi, unga 40 ml yodopirin qo'shiladi. qo'llar avval iliq suvda sovunlab yuvilgach, steril salfetka bilan artiladi. So'ngra eritmada qo'llar 4-5 minut davomida yuvilib, steril sochiqqa artiladi, xalat kiyiladi. qo'lqoplar kiyiladi.

**Degmin va degmitsid bilan yuqumsizlantirish.** Degmin mumsimon modda bo'lib, suvda yaxshi eriydi. Uning 1%li eritmasidan foydalaniladi. Degmitsid esa degminning 30%li eritmasidir, uni ishlatishdan avval suvda 1:30 nisbatda suyultirib olinadi. Tayyorlangan eritmalarda qo'llar 3 minut mobaynida bilakkacha yuviladi, steril sochiqqa artilib xalat kiyiladi. qo'lqoplar kiyiladi.

qo'llarni yuqumsizlantirishning tezlashtirilgan usullari

Bu usullardan o'ta shoshilinch holatlarda foydalanish mumkin.

➤ quruq qo'l kaftiga 3-4 ml miqdorda serigel olinib, bilakkacha obdon parda hosil bo'lguncha surtiladi, havoda quritilib, xalat, qo'lqoplar kiyiladi.

- Formalinning 0,5%li spirtli eritmasiga mo‘l-ko‘l ho‘llangan salfetka bilan 3 minut davomida bilakkacha artiladi.
- Yodning 2%li spirtli eritmasi.
- Taninning 5%li spirtli eritmasi.
- Brilliant yashilining 0,5%li spirtli eritmasiga mo‘l-ko‘l ho‘llangan salfetka bilan 3 minut davomida bilakkacha artiladi.
- 96%li spirt bilan 10 minut davomida artiladi.

## TEST SAVOLLARI

### 1. Karpula qo‘llashdan oldin qanday ishlov beriladi?

- A) Faqat suv bilan yuviladi
- B) 70° etil spirti bilan artiladi\*
- C) Qaynatiladi
- D) Quritiladi

### 2. Karpula necha marta spirt bilan artiladi?

- A) 1 marta
- B) 2 marta yoki 3 marta\*
- C) 5 marta
- D) 10 marta

### 3. Karpul shprints zararsizlantirilgandan keyin nima qilinadi?

- A) Quritiladi
- B) Oqartiriladi
- C) Distillangan suvda chayiladi\*
- D) Muzlatiladi

### 4. Bir martalik ignalar qayerga tashlanadi?

- A) Oddiy axlatga
- B) Suvga
- C) Mustahkam konteynerga\*
- D) Qog‘oz qutiga

### 5. Narkoz apparatlarini tozalash nechta usulda amalga oshiriladi?

- A) 1
- B) 2\*
- C) 3
- D) 4

### 6. Dezinfeksiya uchun 3% vodorod peroksidda qancha vaqt ushlab turiladi?

- A) 10 daqiqa
- B) 30 daqiqa
- C) 60 daqiqa\*
- D) 120 daqiqa

### 7. Fenolftalein sinovi nimani aniqlaydi?

- A) Mikroblarni
- B) Oqartirish darajasini
- C) Ishqor qoldiqlarini\*

D) Suv miqdorini

**8. Laringoskop tig'ini nima bilan tozalash mumkin emas?**

A) Oqartiruvchi vosita

B) Betadin

C) Xlorli eritmalar

D) Barchasi\*

**9. Endoskoplarga ishlov berishda birinchi bosqich nima?**

A) Sterilizatsiya

B) Quritish

C) Dastlabki tozalash\*

D) Saqlash

**10. Endoskoplar steril matoli g'ilofda qancha vaqt saqlanadi?**

A) 24 soat

B) 48 soat

C) 72 soat\*

D) 96 soat

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Karpul shpitslariga ishlov berish tartibini tushuntiring.
2. Bir martalik ignalarni utilizatsiya qilish qoidalari qanday?
3. Narkoz-nafas apparatini tozalash usullarini ayting.
4. Dezinfeksiya va sterilizatsiya o'rtasidagi farq nima?
5. Fenolftalein sinovi qanday o'tkaziladi va nimani ko'rsatadi?
6. Laringoskopni tozalash bosqichlarini ketma-ket sanab bering.
7. Endoskoplarga ishlov berish bosqichlari qanday?
8. Yuqori darajadagi dezinfeksiya (YuDD) nima?
9. Endoskoplarni saqlash qoidalarini tushuntiring.
10. Tibbiyot muassasasida infeksiyon nazorat qanday tashkil etiladi?

## TIBBIY ATAMALAR

1. **Dezinfeksiya** – mikroorganizmlarni yo'q qilish yoki kamaytirish jarayoni.
2. **Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlar va sporalarni to'liq yo'q qilish jarayoni.
3. **Karpula** – anesteziya modda saqlanadigan maxsus ampula.
4. **YuDD (Yuqori darajadagi dezinfeksiya)** – ko'pchilik mikroorganizmlarni yo'q qiluvchi kuchli dezinfeksiya turi.
5. **Endoskop** – ichki organlarni tekshirish uchun ishlatiladigan optik asbob.

**6. Laringoskop** – hiqildoq va ovoz paychalarini ko‘rish uchun ishlatiladigan asbob.

**7. Fenolftalein sinovi** – ishqor qoldiqlarini aniqlash testi.

**8. Azopiram sinovi** – qon qoldiqlarini aniqlash uchun ishlatiladigan test.

**9. Germetiklik** – asbobning havo yoki suyuqlik o‘tkazmaslik xususiyati.

**10. Dekontaminatsiya** – zararli moddalar va mikroorganizmlardan tozalash jarayoni.

**“Aqliy hujum” usuli.** Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

**”Sport lotto” usuli.**

Qopchaga raqamlar yozilgan sharchalar solinadi. Alohida varaqqa savollar yoziladi. Tinglovchilarga galma galdan sharchalarni olish taklif etiladi va nechinchi raqamli sharcha bo‘lsa, varaqdagi shu raqamli savolga javob beradi.

Savollar:

1. Ipak ipni sterillash usullari.
2. Ketgutni sterillash usullari
3. S-4 preparatini tayyorlash.
4. Optik buyumlarni sterillash

**Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish tadbirlarini tashkilotish.
2. «Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkilotish va nazorat qilish tug‘risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
3. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. -2012y

- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskiy rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии и продукты в области дезинфекции,контроля и сохранения стерильности изделий медицинского назначения
- 6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

**Internet- materiallari:**

- 1.Doctor.uz. (www. doctor.uz) Uzbek tilidagitibbiy portal.
- 2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
- 3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
- 4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
- 5.[www.mediasphera.aha.ru/mjmp/mjmp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjmp/mjmp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoy praktiki
- 6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsiny
- 7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)
- 8.[www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
- 9.<http://www.minzdrav.uz/>– O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
- 10.Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
- 12.SSO steriliz.[narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)
- 13.Oснащение SSO - Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/
- 14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
- 15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
- 16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<p><b>2.6 modul</b></p> <p><b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit jami 4 .</b></p>	<p><b>Metall asboblari,shisha idishlar, bog‘lov vositalarni zarasizlantirish usullari.</b></p> <p><b>Optik tibbiy asboblarni zarasizlantirish.</b></p>
---	--

**Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot

<b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li><b>1.</b> Metall asboblarni zararsizlantirish usullari</li> <li><b>2.</b> Shisha idishlar va bog'lov vositalarni zararsizlantirish usullari</li> <li><b>3.</b> Optik asboblarni dastlabki tozalash va dezinfeksiyalash</li> <li><b>4.</b> Optik asboblarni sterilizatsiya va saqlash</li> </ol>
--------------------------------------	--

## 1-AMALIY KO'NIKMA

### Metall asboblarni zararsizlantirish usullari

#### 1. Maqsad:

Tibbiyot asboblarni infeksiya tarqalishini oldini olish maqsadida metall asboblarni to'g'ri va samarali zararsizlantirish.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Metall asboblar (skalpel, penset, qaychi, tiqinlar)
- Dezinfeksiyalovchi eritmalar (glutaraldehyd, xlorli eritmalar va boshqalar)
- SHHV (qo'lqop, niqob, fartuk)
- Yuvish idishlari yoki mexanik yuvish mashinasi
- Sterilizatsiya konteynerlari

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Ishlatilgan metall asboblarni dastlabki yuvish (kir va qon qoldiqlarini olib tashlash).
3. Dezinfeksiyalovchi eritmada belgilangan vaqt davomida asboblarni namlash yoki cho'ktirish.
4. Asboblarni suv bilan yaxshilab yuvib, quritish.
5. Zarurat bo'lsa, avtoklav yoki boshqa sterilizator yordamida sterilizatsiya qilish.
6. Natijalarni sterilizatsiya jurnaliga yozish: sana, asbob turi, usuli, mas'ul shaxs imzosi.

#### **Ahamiyati:**

- Mikroblar va patogen moddalarni yo‘q qiladi
- Infektsiya xavfsizligini ta‘minlaydi

## **2-AMALIY KO‘NIKMA**

Shisha idishlar va bog‘lov vositalarni zararsizlantirish usullari

### 1. Maqsad:

Shisha idishlar va bog‘lov vositalarni zararsizlantirish orqali ularni xavfsiz ishlatish va infektsiya xavfini kamaytirish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Shisha idishlar (stakan, kolba, pipetka)
- Bog‘lov vositalar (bint, gaz paxta, elastik bint)
- Dezinfeksiyalovchi eritmalar (xlorli eritmalar, aldegidlar)
- SHHV
- Sterilizatsiya apparatlari (avtoklav, suvli bug‘li sterilizator)
- Sterilizatsiya konteynerlari

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo‘llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Shisha idishlar va bog‘lov vositalarni kir va qoldiqlardan tozalash.
3. Dezinfeksiyalovchi eritmada belgilangan vaqt davomida asbob va idishlarni namlash.
Muolajada qo'llaniladigan har qanday tibbiy asboblari va bemorlarga parvarish qilishda foydalaniladigan vositalar albatta sterillangan xolatda bo'lishlari shartdir. Ularning sterillanganlik xolatini baholash uchun o'ziga xos **fizikaviy, kimyoviy va biologik** usullari mavjuddir.

**Fizikaviy usul**

Quruq issiqlik bilan yoki avtoklavda sterillash davrida, zarur bo'lgan xaroratning mavjud bo'lganligini tekshirish maqsadida kimyoviy kristall moddalarning suyulish xususiyatlaridan foydalaniladi. Buning uchun shisha idish yoki naycha (ampula) ichiga 0.2-0.3g miqdorda kimyoviy kristall modda solingan va kavsharlangan holda avtoklav yoki quruq issiqlik bilan sterillash apparati ichiga hamda sterillanadigan vositalar orasiga qo'yiladi. Kerakli xarorat xosil bo'lganda kimyoviy kristall modda suyuladi. Sterilizatsiya tugagandan so'ng kimyoviy kristall moddaning suyuqlanganligini ko'rib, kerakli xaroratning bo'lganligi va sterilizatsiyaning bajarilganligiga ishonch xosil qilinadi.

Quyidagi jadvalda sterilizatsiyaning bo'lganlik xolatini sinash uchun foydalaniladigan kimyoviy kristall moddalar va ularning suyulish xarorati berilgan.

**Kimyoviy usul**

Hozirgi kundagi kimyoviy usul bilan sterilizatsiyaning sifatini tekshirish usuli, o'lchov asboblari bilan tekshirish usullariga qo'shimcha bo'lgan va ularni to'ldiradigan yordamchi usuldir. So'ngi vaqtlarda bunday tekshirish usuliga, uning sezgirligi va aniqligiga katta ahamiyat berilmoqda. Eng avvalo bu usulning afzalligi javobining tezligidir.

Halqaro mezon bo'yicha kimyoviy indikatorlar sterilizatsiya uchun 6 sinfga bo'linadi. Sterilizatsiya davrida indikatorning to'g'ri tanlanishshi sterilizatsiyaning samaradorligi bo'yicha to'g'ri xulosa berishga asosdir.

Bug‘ yordamida avtoklavda yoki quruq issiqlik bilan sterilizatsiya bajarilishida uning sifatini baholash uchun kimyoviy indikatorlardan foydalanilganda ularning rangini o‘ziga to‘yingan bug‘ning 2 atm. bosimda, 132 darajadagi xaroratda 20 daq. ichida, yoki 1 atm. bosimda, 120 darajada 45 daq. vaqt ichida ta’sir etishi natijasida, shuning bilan bir qatorda quruq issiqlik bilan sterillash davrida 180 daraja issiqlikda 60 daq., 160 daraja xaroratda esa 150 daqiqada indikator rangining o‘zgarishidir. Xosil bo‘lgan rangning tiniqligini etalon bilan solishtirib xulosa chiqarish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bunday indikatorlarni o‘zimizdagi avtoklavlarda hamda quruq issiqlik bilan sterillash apparatlarida qo‘llab qoniarli natijalar olinmoqda. Agar avtoklav yoki quruq issiqlik shkafi nosoz bo‘lib, kerakli bosim, harorat hamda sterilizatsiya vaqti yetarlicha bo‘lmasa tadbir sifatsiz bajariladi va indikator ham o‘z rangini kerakli xolatgacha o‘zgartirmaydi. Tajribada 3-15 daqiqagacha oshiqroq vaqt sterilizatsiya davom ettirilgandagina indikatorning rangi etalonga mos kelganligi aniqlangan.

Hozirgi kunda yuqori aniqlik bilan ishlaydigan, sterilizatsiyaning sifatini ijobiy belgilaydigan **TST** indikatorlar mavjud bo‘lib, ularni sterilizatsiyadan so‘ng berilgan yozma xulosalarga ishonchli belgi sifatida yopishtirib qo‘yish ham mumkin. Bunday TST turdagi indikatorlardan DPMLarining kundalik amaliyotlariga kiritilishi. sterilizatsiyaning sifati bo‘yicha o‘z muddatini o‘tagan, eskirgan avtoklavlardan foydalanilgan vaqtlarda foydalanish mumkin va qo‘l keladi.

Kimyoviy test-indikatorlar qo‘llanilishi sterilizatorlar texnik nosozligi, ularni yuklash qoidalari buzilishi, parametrlar qiymatlarini o‘rnatishdagi xatoliklar yoki ular ishdan chiqishi bilan bog‘liq sterilizatsiya qilish tartibiga rioya etmaslikni aniqlashga imkon berib, shu asnoda steril bo‘lmagan buyumlar ishlatilish ehtimolini kamaytiradi. Indikator o‘ramida uning nomi, yaroqlilik muddati, turkum raqami, TNB shtampi va ishlab chiqaruvchi korxonaga rekvizitlari ko‘rsatiladi. Indikatorni ishlab chiqaruvchisi o‘ramida 5°S dan 40°S gacha bo‘lgan haroratda va havo nisbiy namligi 85%dan oshmagan sharoitda quyosh nurlaridan muhofazalangan joyda saqlash lozim. Kafolatlangan yaroqlilik muddati – 24 oy. Indikatorlar bilan bog‘liq barcha amaliyotlar – ularni sterilizator kamerasiga joylash, undan chiqarib olish, natijalarni talqin etish va hujjatlashtirish sterilizatsiya qilishni bajaruvchi xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Indikatorlarni har bir sterilizatsiya siklida qo‘llash tavsiya etiladi. Sterilizatorga solinadigan indikatorlar soni sterilizator kamerasi hajmiga bog‘liqdir. Har bir sterilizatsiya siklida ham tashqi, ham ichki test-indikatorlar qo‘llaniladi.

Bug‘ sterilizatorining sterelizatsiya kamerasi hajmi	Indikator solinadigan nuqtalar soni
100 gacha	5

Perforatsiya chiziqlari bo'yicha varaqdan indikatorlar zarur soni ajratib olinadi hamda ular nazorat nuqtalari raqamlariga muvofiq raqamlanadi (1-rasm). Indikatorlar sterilizator kamerasiga sterilizatsiya qilinadigan buyumlar solingan o'ram va sterilizatsiya qilish qutilari (bikslar) tashqi tomonidan nazorat nuqtalari joylashuviga imkon qadar amal qilgan holda solinadi(1-rasm). Har bir nuqtaga kamida bitta indikator solinadi.

Sterizatsiya kamerasi hajmi	Nazorat nuqtalar soni	Nazorat nuqtalar joylashuvi
100gacha	5	Vertikal sterilizatorlarda Nuqta №1 – kamera yuqori qismida; nuqta №2 – kamera quyi qismida; nuqta №3-5 – sterilizatsiya qutilari markazida Yumaloq gorizontal sterilizatorlarda: Nuqta №1 – yuklash eshigi oldida; nuqta №2 – qarama-qarshi devorda; nuqta №3-5 - sterilizatsiya qutilari markazida
100dan 750gacha	11gacha	Hajmi 750 gacha bo'lgan yumaloq gorizontal sterilizatorlarda hamda to'rtburchakli sterilizatorlarda №1 – yuklash eshigi oldida; №2 – qarama-qarshi devorda; nuqta № 3-11 – sterilizatsiya qutilari markazid

Indikatorni mahkamlash uchun uning orqasidan logotip tomondan yopishqoq qatlamni yopib turuvchi himoya qog'ozini olib tashlanadi. Sterilizatsiya qilish qutilari ishlatilganda indikatorlar quti yorlig'iga mahkamlanishi zarur.

Sterilizatsiya qilinayotgan buyum va o'ramlar ichida STERIKONT-P turidagi indikatorlarni joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Buyum va o'ram ichida sterilizatsiya sharoitlarini nazorat qilish uchun "STERITEST-P" va shunga o'xshash turdagi indikatorlarni ishlatish zarur. Sterilizatsiya sikli tugaganda har bir indikatorning indikator belgisi rang o'zgarishi baholanadi. Agar barcha indikatorlarda indikator

belgisi rangi solishtirish etaloni rangiga muvofiq to'q ko'k-binafsha rangga o'zgarsa yoki undanda to'qroq rangga kirsam, sterilizatsiya rejimi kritik parametrlari talab etilgan qiymatlariga rioya etilgan, barcha yuklangan buyumlar sterilizatsiya qilingan deb hisoblanadi.

Agar hech bo'lmaganda bitta indikator belgisi to'liq yoki qisman sariq rangni saqlab qolsa, yoki solishtirish etaloni rangidan oson farqlanadigan yashil yoki jigir-yashil rangga o'zgarsa, sterilizator kamerasida sterilizatsiyarejimi kritik parametrlarining talab etilgan qiymatlariga rioya etilmagan deb hisoblanadi. Barcha yuklangan buyumlar steril bo'lmagan deb hisoblanadi. Bunday holatda sterilizatorni yuklash qoidalariga rioya etilishi va parametrlar belgilash aniqligi tekshiriladi, buyumlar yangi o'ramgasolinadi, indikatorlar almashtiriladi hamda buyumlar takroran

sterilizatsiya qilinadi.

Ishlatilgan (tashqi) indikatorlar sterilizatsiya qilish daftar(257/u shakli) maxsus ajratilgan ustunlariga yopishtiriladi va ishlatilganidan so'ng arxivda hujjat sifatida 3 yil davomida saqlanadi.

Yopishqoq qatlamli indikatorlar qo'shimcha yelimlashni talab etmaydi va himoya qog'ozini yopishqoq qatlamini olib tashlangandan so'ng jurnalga yopishtiriladi. Jurnal MSBda yuritiladi va saqlanadi.

Sterilizatsiya qilingan material va asboblarni chiqarib olishdan avval (sterilizatsiya quti/o'ramlari ochilgunga qadar) quyidagilar amalga oshiriladi:

- sterilizatsiya qutisi qopqog'i zich yopilganligi yoki bir martalik sterilizatsiya o'rami but saqlanganligi ko'rib baholanadi;
- kimyoviy indikatorlar, shu jumladan, sterilizatsion o'ram materiallaridagi indikator belgilari rangi tekshiriladi;
- sterilizatsiya sanasi tekshiriladi;
- bika yorlig'ida, o'ram xaltachasida ochish sanasi, vaqti va ochgan shaxsning imzosi qo'yiladi.

O'ram va buyumlar ichini sterilizatsiya qilish shartlarini nazorat qilish "ichki" indikatorlar qo'llanilgan holda amalga oshiriladi. Klinik bo'lim xodimlari shular asosida tibbiy buyum va materiallarni bevosita ishlatish oldidan ular sterilligini nazorat qiladilar.

Ichki test-indikatorlar sterilizatsiya qutilaridan chiqarib olinadigan hamda DPM xonalari qayd etish daftarlariga yopishtiriladi.

Jurnal raqamlangan, tikilgan, muassasa rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

**Zararsizlantirish, sterilizatsiyadan oldingi tozalash va sterilizatsiya sifatining muassasadagi nazorati**

Zararsizlantirish nazorati			Tozalash sifatining nazorati		Sterillikning nazorati		Sterilizatorlarning nazorati	
Nazorat turi	Nazorat vositasi	Takroriyligi	Ob'ekt	Takroriyligi	Ob'ekt	takroriyligi	Ob'ekt	Takroriyligi
1. Kimyoviy nazorat (xlorli zararsizlantiruvchi vositalarni)	Quruq zararsizlantiruvchi vositalar (xlorli): Xlorli ohak; Xloramin; Gipoxloritlar;	Har bir yangi olingan partiya uchun va keyinchalik – oyiga kamida 1 marta	Asboblar: shpritslar, borlar, ildizli ignalar, pulpo-ekstraktorlar va b. ish joyidagi asboblar	Har kuni MSB ishlov berilgan asboblarning 1 %, MSB ning katta hamshirasi tomonidan	Asboblar: shpritslar, borlar, ildizli ignalar va b. Ichki kiyimlar, bog'lov materialari	Har oyda kamida 1 marta MSBda zararsizlantirilgan asboblarning, ichki kiyimlarning 1 %ida. Bir xil turdagi asboblardan ikkitasini turli bo'linmalarda	Bug'li havoli sterilizatorlar	Yiliga kamida 1 marta. Ta'mirlangan dan keyin. Yangi sterilizator.
	Zararsizlantiruvchi vositalar (xlorli ohak, gipoxlorit)	Har bir yangi tayyorlangan partiya uchun		7 kunda 1 marta ishlov berilgan asboblarning % miqdorida, bosh yoki katta hamshira tomonidan barcha bo'linmalarda				
	Ishchi zararsizlantiruvchi vositalar (xloramin, ABK-Xloraktiv)	Haftasiga kamida 1 marta						
2. Bakteriologik nazorat (jarrohlik bo'linm)	Havo muhiti	Oyiga kamida 1 marta	Nazorat uchun qo'llaniluvchi sinovlar: Amidopirinli, azopiramli					
	Yuza qismlar	Oyiga kamida 1 marta						

asi)						
------	--	--	--	--	--	--

1. Bakteriologik nazorat qilinuvchi yuzalarning taxminiy ro'yxati: steril asboblarni saqlanuvchi stol, uskuna uchki qismlarining dastalari, muolaja stoli, bemor kreslosi, og'izni chayish uchun stakanlar, tufukdonlar, xodimlarning qo'llari, xodimlarning maxsus kiyimlari va h.k.
2. Bakteriologik nazorat shartnoma asosida tegishli litsenziyaga ega, attestatsiyalangan laboratoriyalarda o'tkaziladi.
3. Zararsizlantirish sifatining nazoratini sanitariya-ko'rsatkichli mikrofloraga surtmalar olish yo'li bilan amalga oshiriladi: Ambulatoriya, Poliklinika, Muassasalarida - 0,1 da surtma ish kunida jarrohlik bo'linmasiga, kabinetga kelganda, statsionarlarda – 0,5 surtma bemor joyiga.

***Sterilizatsiya tartibini “Vinar” va “Medtest” firmasining kimyoviy indikatorlari bilan nazorat qilish***

<b>Indikator nomi</b>	<b>Nazorat parametrlari</b>				<b>Indikatorlarni qo'yish</b>	
	<b>T°S</b>	<b>Sterillash vaqti</b>	<b>Bug' bosimi</b>	<b>Steril lash “guvohlari”</b>	<b>O'ramdan tashqari</b>	<b>O'ramda</b>
IS-120±2	+	+			O'ramdan tashqari yoki bika qopqog'ining tagida.	
IS-132±2	+	+				
TVP-132/20-01	+	+				
“Medikon”	+	+				
IS-160±3	+	+			O'ramdan tashqari O'ramning tashqi tomonida.	
IS-180±3	+	+				
TV 180/60-01						
“Medikon”					O'ramdan tashqari	
Intest-P 121/20-01	+	+	+		+	+
Intest-P 126/10-01	+	+	+		+	+
Intest-P 121/20-02	+	+	+		+	+
Intest-P 126/10-02	+	+	+		+	+
Intest-P 134/5-02	+	+	+		+	+
Steritest-P 120/45	+	+	+		+	+
Steritest-P 132/20	+	+	+		+	+
Sterikont-P120/45-01	+	+	+		-	
Sterikont-P180/60-02	+	+	+		-	

Sterikont-V160/50-02	+	+			+	
Sterikont-V132/20-01	+	+			+	
IPS-120/45 Medtest	+	+	+		O‘ramdan tashqari yoki biks qopqo-g‘ining tagida.	
IPS-132/20 Medtest	+	+	+			
IVS- 160/150	+	+			O‘ramdan tashqari yoki biks qopqo-g‘ining tagida.	
IVS- 180/60	+	+				
ISPS-01, ISPS-02				+	O‘ramning tashqarisig a yopishtirila di (biksning yorlig‘ida)	
ISVS-01, ISVS-02				+		

### **Biologik usul**

Tibbiy vositalarning sterilizatsiyasi sifatini har kungi turli tekshirishlardan tashqari 8-10 kunda bakteriologik sinash o‘tkazilishi zarur. Bakteriologik tekshirish usuli o‘ta aniq va kafolatlangan bo‘lib, uning kamchiligi - javobining uzoq vaqtdan so‘ng ma‘lum bo‘lishi va sinash tadbirining murakkabligidir. Shuning uchun ham bu usul amaliyotda quyidagi, zarur bo‘lgan vaqtda, sterilizatsiya ishini bajaradigan apparatning nuqsonsiz ishlashi xolatini tekshirish sifatida qo‘llaniladi.

#### **O‘rov materiallari**

Paketlar maxsus tibbiyot kogoizidan tayyorlangan va tibbiy urov materiallariga kuyilgan «Tibbiy buyumlarni oxirgi sterilizatsiya uchun urash» («Upakovka dlya finishnoy sterilizatsii meditsinskix izdeliy») R ISO 11607-2003 va CEN EN 868 Yevropa standart talablariga javob beradi.

**PSPV-ABK Steril** paketlariga quyidagi belgilar kuyilgan:

\*«ABK Steril» savdo belgisi;

\* paket ulchami;

\*shikastlangan paketlardan foydalanishni va paketlarni kayta ishlatishni ta’kiddovchi belgilar.

Paketlarga indikatorning bugli/xavoli sterilizatsiya jaryo- nini nazorat kiluvchi indikator belgilari kiritilgan (kuyilgan) (R ISO11140-1-2009 Dav STi buyicha 1sinf).

Bundan tashkari, paketlarda xavo rangga buyalgan termik yelim- li choklar bor.

**PSPV-ABK Steril paketlarini yopishtirish (pechatlash) impulsli yoki rotor termik payvandlovchi apparat yordamida xavo rangdagi termik yelimli kavatini termik payvandlash usulida amalga oshiriladi. Bunday apparatlar bulmasa, paketning yukori klapani zich yopuvchi, uzi yopishadigan, shuningdek indikatorli lenta bilan yopishtirib kuyiladi.**

**PSPV-ABK Steril kogosli sterilizatsiya paketlaridan foydalanish qoidalarni**

-paketlarni buyum bilan tuldirishdan oldin uning butunligi va choklar xolatini vizual kuzdan kechirish lozim;

-sterilizatsiya kilinadigan buyumlar paket ichiga joylashtiriladi va kul yordamida pastdan yukoriga-paketning ochik tomoniga karab silliklanib, ortikcha xavo chikarib yuboriladi;

-yopishtirilayotganda burmalar xosil bulmasligi va sterilizatsiya paytida yorilib ketmasligi uchun, buyumlar bilan tuldirish paket ishchi sigimining 75% idan oshib ketmasligi lozim.

-paketlarni termik payvandlash usuli bilan yopishtirish uchun paketning ochik klapani nuktali chizik buylab buklanadi, keyin termik yelimli xavo rang kismlarini bir-biriga tugrilab yana bir marta buklanadi, buklangan chizik buylab kullar yordamida kattik bosiladi va silliklanadi xamda termik payvandlovchi apparat bilan payvandlanadi. Termik payvandlash xarorati 170-190°S oraligida bulib, muayyan apparat uchun termik payvandlashning optimal sharoitlari tajriba yuli bilan aniklanadi.

**-termik payvandlovchi apparat bulmagan xollarda** paket uzi yopishuvchi, shuningdek indikatorli lenta yordamida yopishtirib kuyiladi. Uzi yopishuvchi lentani kirkishda paket enidan 4-5 sm ortikcha kesib olish lozim. Paketning tepa kismi (cheti) yukorida bayon kilingan usulda xavo rang yelimli kismlarini bir-biriga tugrilab buklanadi va lenta bilan, chekkalaridan 2-2,5 sm chikib turadigan kilib yogshstiriladi. Lentaning chikib turgan ortikcha kismi paketning orka tomoniga buklanadi va yopishtirib kuyiladi.

-sterilizatsiya sikli tugagandan keyin paketga joylashtirilgan indikator sterilizatsiya usuli va xarflar bilan belgilangan oxirgi xolat rangiga muvofik uz boshlangich rangini uzgartirishi kerak.

-sterilizatsiya kilingan buyumlarni chikarib olish uchun, paket ichiga joylashtirilgan buyumlar ishchi kismlariga karama-karshi tomonidan kaychi yoki boshka kirkuvchi moslama yordamida kirkiladi (kiyiladi).

**PSPV-ABK Steril sterilizatsiya paketlarida steril izatsiyadan keyin tibbiy buyumlar sterilliligi («mikrobdan ximoya tusigi»)ning saklanish mudati**

Sterilizatsiya usuli	Yopishtirish usuli	«Mikrobgaga karshi ximoya tusigi» bilan ta'minlash muddati
bugli xavoli etilenoksidli radiatsiyali	termik payvandlash	1 yil 1 yil 1 yil 2 yil

<b>bugli xdvoli etilenoksidli radiatsiyali</b>	<b>uzi yopishuvchi lenta bilan zichlab yopishtirish</b>	<b>30 sutka</b>
--	---	-----------------

### **Tashki muxitni muxofaza kilish talablari**

Kafolatli sakdanish muddati tugagan sterilizatsiya paket- lari amaldagi sanitariya- gigiena talablariga binoan yuk kil i nishi lozim.

Ishlatilgan paketlar maxsus ajratilgan va ruxsat beril- gan joylarda yuk kilinadi.

Yukumli kasalliklar bulimida foydalanilgan paket- larni yuk kilishda mikroblardan zararlangan chikindilar bilan ishlash qoidalariga amal kilish zarur.

### **Kabul kilib olish qoidasi**


Paketlarni kabul kilish qoidalari, tekshirib kurish turla- ri, ularning majburiyligi Ts19783536-17:2017 talablari asosida belgilab kuyilgan.

PBSP-ABK Steril paketlarining kafolatli saklanish muddati, ishlab chikarilgan kun dan boshlab-5 yil.

PBSP-ABK Steril paketlari xarorati +18°S dan +40°S gacha, nisbiy namligi 60%- 80% oraligida bulgan toza kuruk binolarda tokcha, javon va shkaflarda saklanadi.

### **Urash material iga urash USULI.**

#### **Ichki uram.**



**1. Urash uchun mul jallangan buyum urash materialining (varak) urtasiga joylashtiril di, rasmga asosan**

**2. Eng yakin burchagi “uzi- dan tashkariga” yunali- shida varakni tortgan holda buklanadi list.**

**3. Ushbu burchakning uzok tomoni “uz tomoni” yunalishi buyicha buklanadi, A uchastkadagi varak tortiladi va falsovkalanadi (kul bilan sikiladi va dazmollana- di) B-V uchastkasida**



**4. Varakning ung burcha- gi rasmga asosan fal- sovkalanadi, uzok**

**5. Varakni chai tomoni ung tomonga uxshash falsovkalanadi.**

**6. A-G uchastkada varak tortiladi.**



7. Varakning sunggi burchagi "uzi tomoni" yunalishi buyicha Falsovkalanadi.

8. Varak katta barmok ushlab turgan holda D va Ye nuqtalarda tortiladi.

9. Tayyor ichki uramning tashki kurinishi.

### Tashki uram

Yukorida 1-9 rasmda kursatilgan operatsiyalar takrorlanadi

10. Uram uzi yopishdigan lenta bilan



Taxlam to'ldirilgandan so'ng, u yana kuzdan kechiriladi, butunligi tekshiriladi.

Steril tibbiyot buyumlarni krepirlangan kogosli MBK-ABK Steril materialda sterillik saklanishi muddati ("mikrobli tu- sik;") - 60 kun.

Xavfsizlik talablari.

O'rash materiali kafolatlangan saqlash muddati tugaganidan so'ng, amaldagi sanitariya-gigienik talablariga muvofik utilizatsiya qilinishi kerak.

O'rash materialini utilizatsiyasi maxsus ajratilgan va ushbu ishlarni amalga oshirish uchun ruxsat etilgan joylarda bajarilishi talab etiladi.

Yuqumli kasalliklar bo'limlarda ishlatilgan materialni utilizatsiya qilishda, zararlangan chiqindilar bilan ishlash qoidalari rioya kilinishi zarur.

Qabul kilish qoidalari, sinov turlari va ularning majburiyatlari TSh 64 - 19783536-24:2012 talablariga xos ravishda reglamentlashtirilgan.

Ishlab chiqaruvchi kafolatlari: krepirlangan kogosli MBK-ABK Steril materialini kafolatlangan sakdash muddati - 5 yil.

MBK-ABK Steril urash materiali, javonlarda, stellajlar- da, shkaflarda, toza kuruk xonalarda +18°S dan +40°S gacha xarorat- da 60-80% xavoning nisbiy namligida saklanadi.

Bug'li, etilenoksidli, radiatsiyali sterilizatsiya usulida sterilizatsiyalangan buyumlarni urash uchun muljallangan, burmalarsiz, uramga uralgan turli tur ulchamdagi yeiglik kurinishda o'ram turi .

**RKPE-ABK Steril yenglik material** maxsus tibbiyot kogosidan va kup kavatli issiklikka chidamli RET/RA plyonkadan tayyorlanadiva GOST R ISO 11607 - 2003 «Upakovka dlya finishnoy sterilizatsii meditsinskix izdeliy» va CENEN868 Yevropa standarta buyicha tibbiyot urab joylash materiallariga kuyiladigan talablarga javob beradi. Yenglik materialga jarayon indikatorining indikator belgilari tushirilgan (GOST R ISO 11140-1-2009 buyicha 1 klass)

**RKPE-ABK Steril** yenglik materialdan tayyorlangan paketlarni pechatlash, termo payvandlash usulda impulsli yoki rotorli termo payvandlash apparatlarida amalga oshirilishi mumkin, ular mavjud bulmaganda esa paketning yukori va pastki ochik kislari uzi yopishadigan germetiklashtiruvchi, shu jumladan indikatorli lenta bilan yopishtirish kerak.

### **1. Yenglik material va undan tayyorlangan paketlarni ishlatish kridalari.**

Yenglik materialdan paketlar quyidagi usulda tayyorlanadi:

- sterilizatsiyaga duchor bo'ladigan buyum uzunligiga muvofiq, buyumni paketda erkin joylashishi va paketni germetiklovchi cho-klar uchun zadira disobi bilan rukav bulaklari kesuvchi moslamalar yordamida (kaychi va boshk.) kesiladi.
- paketning pastki kismi termo payvandlash usulida yoki uzi yopishadigan germetiklovchi lenta yordamida pechatlanadi (germe- tiklashtirish usulini tavsifi 1.2 b. kurs.)

Termo payvandlash apparata mavjud bulmaganda, paket uzi yopishadigan shu jumladan indikatorli lenta yordamida pechatlanishi mumkin.

O'zi yopishadigan lenta bulagini ulchami, paket enidan 4-5 cmzaxira bilan olinadi. Paketning yukori kismi, yukoridan bayon kilingan usulga uxshash tarzda xavo rang bulakchalari birlashgunga Kadar bukiladi va yon tomon chekkalaridan 2-2,5 cmlenta koldirilgan holda lenta yopishtiriladi. Bu chekkalar paketning orka tomoni- ga buklanadi va unga yopishtiriladi.

Sterilizatsiya siklidan sung, yenglik materialga tushirilgan jarayon indikatorini boshlangich rangini, paketda xarfli belgilani- shilar bilan kursatilgan tegishli sterilizatsiya usuli va rangiga muvofik yakuniy rangga uzgartirishi kerak.

Sterilizatsiyalangan materialni olish uchun, paket kaychi yoki boshka kesuvchi moslamalar yordamida, joylashgan buyumni ishchi bulmagan kismi tomonidan kirkib olinadi.

### **RKPE-ABK Steril rulonli materiallardan tayyorlangan paketlardagi tibbiyot buyumlarini sterilizatsiya siklidan sung sterillik ("mikrobl tusikni") saklayish muddati**

<b>Sterilizatsiya usuli</b>	<b>Pechatlash usuli</b>	<b>"mikrobl tusikni"</b>
Bugli Etilen oksidli Radiatsiyali	Termo	1 YIL 1 yil 3 yil
Bugli Etilen oksidli Radiatsiyali	Uzi yopishadigan lenta bilan germe- tiklash	30 sutka

### **Atrof-muxit muxofazasiga talablar**


Yenglik material kafolatlangan saklash muddati tugagani- dan sung, amaldagi sanitariya-gigienik talablariga muvofik utilizatsiya kilinishi kerak.

Ishlatilgan uramlarni utilizatsiyasi maxsus ajratilgan va ushbu ishlarni amalga oshirish uchun ruxsat etilgan joylarda bajarilishi kerak.

Infeksion bulimlarda ishlatilgan uramlarni utilizatsiya kilishda, zararlangan chikindilar bilan ishlash qoidalari rioya kilinishi kerak.

Ishlab chikaruvchpnsnshn kafolaglari

RKPE-ABK Steril yenglik materialining kafolatlangan saklash muddati, ishlab chikarilgan kunidan boshlab - 5 yil.RKPE-ABK Steril yenglik material javonlarda, stellajlar- da, shkaflarda, toza kuruk xonalarda +18°S dan +40°S gacha xarorag- da 60-80% xavoning nisbiy namligida saklanadi



## 2SINF INDIKATORI -BOVE-DIK test indikator



## 3-SINF INDIKATORLARI-termokimyoviy indikatorlari



4-SINF INDIKATORLARI-indikator bo'yoq ma'lum xaroratda o'z rangini o'zgartiradi



## TEST SAVOLLARI

**1. Tibbiy vositalar sterillanganligini tekshirishning nechta asosiy usuli mavjud?**

- A) 2
- B) 3
- C) 4
- D) 5

**To'g'ri javob: B**

**2. Fizikaviy usul nimaga asoslanadi?**

- A) Rang o'zgarishiga
- B) Mikroblarni o'ldirishga
- C) Kristall moddalarning erishiga
- D) Bosim pasayishiga

**To'g'ri javob: C**

**3. Kimyoviy kristall modda nima uchun ishlatiladi?**

- A) Oqartirish uchun
- B) Haroratni tekshirish uchun
- C) Quritish uchun
- D) Sovutish uchun

**To'g'ri javob: B**

**4. Avtoklavda sterilizatsiya uchun odatda qanday harorat qo'llaniladi?**

- A) 100°C
- B) 110°C
- C) 120–132°C
- D) 200°C

**To'g'ri javob: C**

**5. Kimyoviy indikatorlar nechta sinfga bo'linadi?**

- A) 3
- B) 4

C) 5

D) 6

**To'g'ri javob: D**

**6. Quruq issiqlikda sterilizatsiya qaysi haroratda amalga oshiriladi?**

A) 100°C

B) 120°C

C) 160–180°C

D) 90°C

**To'g'ri javob: C**

**7. Kimyoviy indikatorning rang o'zgarishi nimani bildiradi?**

A) Asbob soviganini

B) Sterilizatsiya bajarilganini

C) Asbob yuvilganini

D) Quritilganini

**To'g'ri javob: B**

**8. TST indikatorlar nimasi bilan ajralib turadi?**

A) Rangsizligi

B) Past aniqligi

C) Yuqori aniqligi

D) Arzonligi

**To'g'ri javob: C**

**9. Sterilizatsiya sifati yetarli bo'lmasa indikator qanday bo'ladi?**

A) Rang o'zgarmaydi

B) Qizib ketadi

C) Yonadi

D) Yo'qoladi

**To'g'ri javob: A**

**10. Indikatorlar qaysi haroratda saqlanishi kerak?**

A) 0–5°C

B) 5–40°C

C) 50–100°C

D) -10°C

**To'g'ri javob: B**

## **TIBBIY ATAMALAR**

**1. Sterilizatsiya** – barcha mikroorganizmlar va sporalarni to'liq yo'q qilish jarayoni.

**2. Dezinfeksiya** – patogen mikroorganizmlarni yo'q qilish yoki kamaytirish jarayoni.

3. **Avtoklav** – bug‘ yordamida sterilizatsiya qiluvchi apparat.
4. **Quruq issiqlik shkafi** – issiq havo yordamida sterilizatsiya qiluvchi qurilma.
5. **Kimyoviy indikator** – sterilizatsiya jarayonining to‘g‘ri o‘tganligini ko‘rsatuvchi modda.
6. **Fizikaviy usul** – harorat va bosimga asoslangan nazorat usuli.
7. **Kristall modda** – ma‘lum haroratda eriydigan kimyoviy modda.
8. **TST indikator** – yuqori aniqlikdagi zamonaviy sterilizatsiya ko‘rsatkichi.
9. **Sterilizatsiya sikli** – sterilizatsiya jarayonining to‘liq bosqichi.
10. **Indikator etalon** – rangni solishtirish uchun standart namuna.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. **Sterilizatsiya sifati qanday usullar bilan tekshiriladi?**
2. **Fizikaviy usulning mohiyati nimada?**
3. **Kimyoviy kristall moddalar qanday ishlaydi?**
4. **Kimyoviy indikatorlarning ahamiyati nimada?**
5. **Kimyoviy indikatorlar nechta sinfga bo‘linadi?**
6. **TST indikatorlarning afzalligi nimada?**
7. **Sterilizatsiya sifati yetarli bo‘lmasa qanday belgilar kuzatiladi?**
8. **Avtoklavda sterilizatsiya qanday sharoitda amalga oshiriladi?**
9. **Indikatorlarni saqlash qoidalari qanday?**
10. **Sterilizatsiya jarayonida indikatorlardan foydalanish nima uchun muhim?**

#### **”Galereya bo‘yicha tur” usuli.**

Tinglovchilarni uchta kichik guruhga ajratiladi. Har bir kichik guruh uchun vazifa yozilgan flipchartlar 3 tomonga osib qo‘yiladi va shart tushuntirib beriladi. Tayyorlanish uchun vaqt belgilanadi. Vazifani bajarishda guruhdagi tinglovchilarni xammasi ishtirok etishi maqsadga muvofiq. Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhning to‘g‘ri javoblari sanaladi va tinlovchilar kartochkalar bilan rag‘batlantiriladi

Savollar:

Savollar:

1. Steril paketlarda tibbiyot buyumlarini saqlash muddati.
2. Indikatorlar bilan ishlash tartibi.
3. Indikatorlarni saqlash qoidalari.
4. Indikatorlarni utilizatsiya qilish qoidasi.
5. Biologik indikatorning vazifasi.
6. Biologik indikatorning qo‘llashga qarshi ko‘rsatma.

7.Indikatorlarni ishlatishda xavfsizlik talablari.

**«Stol o‘rtasidagi ruchka» nomli ish o‘yinini o‘tkazish uslubi.**

*Ish uchun kerak:*

1. Aloxida varaqda savollar.
2. Toza qog‘oz varaqlari, ruchkalar.
3. Ish daftari.

*Ish yo‘nalishi:*

1. Guruh talabalari qur‘a tashlash raqamiga qarab 3 ta kichik guruhga (xar bittasida 4-tadan talaba) bo‘linadi.
2. Xar bir kichik guruh talabalari alohida stolga o‘tirib, varaqa va ruchka oladi.
3. Varaqaga talabaning ismi, sharifi, guruh raqami, fakultet, ish o‘yinini nomi yoziladi.
4. Bitta kichik guruhga bitta savol beriladi.
5. Xar bir talaba varaqaga o‘zini ismi, sharifini va javob variantini yozadi, undan so‘ng varaqni boshqa talabaga uzatadi, ruchkani esa stolni o‘rtasiga qo‘yadi.

Tekshirish uchun kontrol savollar beriladi.

**Muammoli masala**

**Sterilizatorgajoylanadiganindikatorlar soni**

Bug‘sterilizatorining sterilizatsiya qilish hajmi	Indikatorlarjoylanadigannuqtalar soni

**Sterilizatorgajoylanadiganindikatorlarsoni**

Bug‘sterilizatorining sterilizatsiya Qilishhajmi	Indikatorlarjoylanadigan nuqtalar soni
Shujumladan 100 tagacha	5
100 tadan shu jumladan 750 tagacha	11

**Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. U.O.Aripov, SH.I. Karimov – Umumiy xirurgiya. T. , Toshkent, 2008 «Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi» №0342-17-sonli 10 yanvar 2017 y SanQvaM. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfeksiya va sterilizatsiya qilishtadbirlarinitashkiletish.
- 2.«Davolash-profilaktika muassasalarida sterilizatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish tug‘risida»gi 2009 yil №0278-09 sonli SanQvaM.
- 3.Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. -2012y

- 4.«Sanitarno-epidemiologicheskiy rejim v kabinetax LPO» ot2014№1(13)
- 5.Новые эффективные,безопасные технологии i продукты v oblasti dezinfeksii,kontrolya i soxraneniya sierilnosti izdeliy meditsinskogo naznacheniya
- 6.Hamshiralik ishi. Toshkent, Umarova T.Yu «Abu Ali ibn Sino», 2003

**Internet- materiallari:**

- 1.Doctor.uz. ([www.doctor.uz](http://www.doctor.uz)) Uzbek tilidagitibbiy portal.
- 2.[www.rmj.net](http://www.rmj.net) – Russkiy meditsinskiy jurnal.
- 3.[www.medport.ru/medpb/](http://www.medport.ru/medpb/) - Meditsina Peterburga
- 4.[www.pharmamed.ru/mg](http://www.pharmamed.ru/mg) – “Meditsinskaya gazeta”
- 5.[www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm](http://www.mediasphera.aha.ru/mjimp/mjimp-mn/htm) – Mejdunarodnyy jurnal meditsinskoy praktiki
- 6.[www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html](http://www.fairplast.sbp.ru/mworld/index/html) – Mir meditsinы
- 7.[www.abk.uz](http://www.abk.uz)
- 8.[www.MED.UZ](http://www.MED.UZ)
- 9.<http://www.minzdrav.uz/>– O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimiga oid meyoriy xujjatlar;
- 10.Sterilizatsiya v xirurgii <http://www.medical-enc.ru/17/sterilization-surgery.shtml>
11. Avtoklav [ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav](http://ru.wikipedia.org/wiki/Avtoklav)
- 12.SSO steriliz.[narod.ru/08cis.htm](http://narod.ru/08cis.htm)
- 13.Oснащение SSO - Farmstandart-Medtexnikawww.phs-mt.ru/center/about/
- 14.SSO - osnova v rabote lyubogo lechebnogo uchrejdeniya
- 15.<http://www.gmed.ru/ru/mo/steril/stat/>
- 16.SSO video <http://www.youtube.com/watch?v=B3hBF5mvRYg>

<p><b>2.6 modul</b></p> <p><b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit jami 2 .</b></p> <p><b>16-mavzu</b></p>	<p><b>Sterilizatsiya natijalarini tahlil qilish,fizik ko‘rsatkichlar, kimyoviy indikatorlar va biologik testlardan foydalanish.</b></p>
--	---

**Amaliy mashg‘ulotini o‘qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va</b>	Amaliy mashgulot

turi	
<b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sterilizatsiya natijalarini fizik ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilish</li> <li>2. Kimyoviy indikatorlar va biologik testlardan foydalanish</li> </ol>

## **1-AMALIY KO'NIKMA**

Sterilizatsiya natijalarini fizik ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilish

### 1. Maqsad:

Sterilizatsiya jarayonining samaradorligini fizik ko'rsatkichlar (harorat, bosim, vaqt) yordamida nazorat qilish.

### 2. Kerakli jihozlar:

- Avtoklav yoki boshqa sterilizator
- Termometr va manometr
- Sterilizatsiya jarayonini qayd etish jurnali
- SHHV

### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Sterilizatsiya jarayoni davomida harorat, bosim va vaqtni belgilangan normaga muvofiqligini kuzatish.
3. Fizik ko'rsatkichlar sensorlar yoki manometr yordamida nazorat qilinadi.
4. Agar ko'rsatkichlar belgilangan normadan chetda bo'lsa, jarayon qayta ko'rib chiqiladi.
5. Sterilizatsiya natijalarini jurnalga yozish: sana, apparat turi, harorat, bosim, vaqt, mas'ul shaxs imzosi.

### **Ahamiyati:**

- Sterilizatsiya jarayoni standartlarga mosligini ta'minlaydi
- Xavfsiz va samarali sterilizatsiya natijasini kafolatlaydi

## 2-AMALIY KO'NIKMA

### Kimyoviy indikatorlar va biologik testlardan foydalanish

#### 1. Maqsad:

Kimyoviy indikatorlar va biologik testlar yordamida sterilizatsiya jarayonining haqiqiy samaradorligini aniqlash.

#### 2. Kerakli jihozlar:

- Kimyoviy indikatorli lentalar yoki kartochkalar
- Biologik indikatorlar (sporal testlar)
- Avtoklav yoki boshqa sterilizator
- Sterilizatsiya jurnal
- SHHV

#### 3. Bajarish ketma-ketligi:

1. SHHV kiyish va qo'llarni antiseptik bilan ishlov berish.
2. Sterilizatsiya qilinadigan paketlar yoki asboblardan birga kimyoviy indikatorni joylashtirish.
3. Sterilizatsiya jarayoni tugagach, kimyoviy indikator rang o'zgarishini tekshirish.
4. Biologik indikatorlarni (sporal testlar) belgilangan vaqt davomida inkubatsiya qilish.
5. Agar kimyoviy yoki biologik indikator natijasi sterilizatsiyani tasdiqlasa, asboblardan ishlatishga tayyor. Agar natija salbiy bo'lsa, jarayon qayta o'tkaziladi.
6. Natijalarni jurnalga yozish: sana, indikator turi, test natijasi, mas'ul shaxs imzosi.

#### Ahamiyati:

- Sterilizatsiya jarayonining haqiqiy samaradorligini aniqlaydi
- Infektsiya xavfsizligini ta'minlaydi
- Steril materiallar sifatini nazorat qiladi

<b>17 - mavzu:</b> <b>O'quv moduliga ajratilgan kredit jami 2 .</b>	<b>Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish</b>
--	--

**Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 80 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi</b>	Nazariy mashgulot
<b>Ma‘ruza mashg‘uloting rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Favqulotda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari</li> <li>2. Tibbiy saralash bosqichlari.</li> </ol>
<b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b> <b>1.Ta’limiy:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash</li> <li>• Amaliy ko‘nikmalarni egallash</li> <li>• Egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash</li> <li>• Deontologik tarbiyaning shakllanishi</li> <li>• Amaliyotda ahloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</li> </ul> <b>2.Tarbiyaviy maqsadi:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish</li> <li>• Insonparvarlik va rahmdillik hissini shakllantirish</li> <li>• O‘z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash</li> <li>• Amaliyotda extiyotkorlik va e’tiborlilik xissini shakllantirish</li> </ul>	

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta’lim beruvchi</b>	<b>Ta’lim oluvchi</b>
<b>1 bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish 10 daqiqa</b>	<b>Tashkiliy qism</b> 1.1 O‘qituvchi guruxga kirib tinglovchilarning o‘quv bo‘limi tomonidan berilgan ro‘yxat asosida tinglovchilar davomatini, darsga tayyorligini tekshirdi, yangiliklar eshitaladi va aytiladi. 1.2 O‘quv mashg‘ulotining mavzusi,	Javob beradilar tinglaydilar yozib oladilar.

	<p>maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.3 Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalarini tushintiradi.</p>	
<p><b>2-bosqich. Asosiy qism 65 daqiqa</b></p> <p><b>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</b></p> <p><b>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</b></p> <p><b>3.O'qitishning noannaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</b></p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ularni utilgan mavzular buyicha bilimni baxolash.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Mavzuga oid klinik belgilar, amaliy kunikmalar, bemorlarni parvarishlar xususiyatlari bilan tanishtiradilar. Bemorlarni parvarish qilishni va ularga psixologik yordamni to'g'ri va samarali olib borish xakida ma'lumot beradi</p> <p>3.Xar bir mavzu tushuntirilganda "Rol o'ynash (Role play)" usuli orqali mustaxkamlanib boriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab,o'qituvchi bergan savollarigi aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar.Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."B.B.B" sxemasi tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p><b>Yakuniy 5 daqiqa</b></p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi. Uyga vazifa: Favqulotda holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha, ko'p uchraydigan kritik va shoshilinch holatlar</p> <p>Foydalanilgan adabiyotlar</p> <p><b>1.S.S. Qodirov. Pediatriya.</b> – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.</p> <p><b>2.R.A. Axmedov. Bolalar kasalliklari propedevtikasi.</b> – Toshkent, 2020.</p> <p><b>3.Sh.I. Karimov tahriri ostida. Shoshilinch tibbiy yordam</b></p>	<p>Tinglaydilir, uyga vazifalarni belgilab oladilar.</p>

	<p><b>asoslari.</b> – Toshkent, 2018.</p> <p><b>4.M.A. Xudoyqulov. Reanimatsiya va intensiv terapiya asoslari.</b> – Toshkent, 2021.</p> <p><b>5.O‘zbekiston Respublikasi SSV. Klinik protokollar to‘plami (pediatriya).</b> – Toshkent, 2022.</p> <p><b>6.D.X. Yuldashev. Hamshiralik ishi asoslari.</b> – Toshkent, 2019.</p> <p><b>7.N.A. Usmonov. Bolalarda shoshilinch holatlar.</b> – Toshkent, 2021.</p> <p><b>8.B.T. Rasulov. Bolalar reanimatsiyasi.</b> – Toshkent, 2020.</p> <p><b>9.Salomatlik -3 loyixasi “Bemor bololarni parvarish qilish asoslari”</b> 2014 y</p> <p><b>10.V.N.Turakulov X.X.Egamov “Pediatriyada xamshiralik parvarishi”</b> 2019</p>	
--	--	--

<p><b>Pedagogik vazifalar.</b></p> <p>O‘tkir nafas yetishmovchiligida reanimatsiya tadbirlari. Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligining buzilishlari. O‘tkir qon tomir yetishmovchiligida xamshiralik yordami. O‘pka- yurak reanimatsiyasi. <b>Koma xolatlaridagi</b> bemorlarning parvarish qilish va kuzatishning o‘ziga xos xususiyatlari . Shok va uning turlarida birinchi yordam kursatish.</p>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b></p> <p><b>Tinglovchi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Bemor bolalarning xolatini shoshilinch baxolash va tez tibbiy yordam kursatishni.</li> <li>– O‘tkir nafas yetishmovchiligida bolalarda hamshiralik parvarishini. Krup sindromi, sabablari, shoshilinch yordam.Bronxial astmaning og‘ir xurujlari. Nafas yo‘llarida yot jismlar tushishida shoshilinch yordam ko‘rsatish.</li> <li>– O‘tkir yurak yetishmovchiligida bolalarda hamshiralik parvarishi.</li> <li>– Qon-tomir yetishmovchiligida shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi.</li> <li>– Yurak-o‘pka reanimatsiyasini o‘tkazish texnikasini. O‘pkani sun‘iy</li> </ul>
--	--

	ventilyatsiya apparatiga ulangan bolalarda hamshiralik parvarishini. – Gipertermik sindromda bolalarda xamshiralik parvarishini. Talvasada bolalarda xamshiralik parvarishini
O‘qitish metodlari	“Baxs-munozara”, “Aqliy xujum”, “Issiq kartoshka” usuli “Kichik guruxlarda ishlash”
O‘quv faoliyatini tashkil yetish shakli	Jamoaviy, guruxlarda ishlash, yakka tartibli
O‘qitish vositalari	Doska-stend, vidiofil’mlar, chizma, nazorat varagi, matnlar.
O‘qitish shart sharoiti	Fanga mos jixozlangan o‘quv xona.
Qayta a‘loqaning usul va vositalari.	Og‘zaki so‘rov: tezkor surov, yozma so‘rov, test, misol va mashqlar bajarilgan o‘quv topshiriqlarini baxolash

### **Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam**

#### **ko‘rsatish**

#### **Dars rejasi:**

1. Favqulotda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari
2. Tibbiy saralash bosqichlari.

#### **O‘tkir nafas yetishmovchiligi**

O‘tkir nafas yetishmovchiligi bu – hiqildoq va traxeya shilliq qavatlarining yallig‘lanishi bo‘lib, bunda hiqildoqning ovoz bog‘lami joylashgan sohada, hiqildoq mushaklarining reflektor spazmi kuzatiladi, buning natijasida inspirator hanshirash yuzaga keladi.

Sababi:

- o‘tkir respirator virusli kasalliklar;
- bakterial infeksiyalar (streptokokk, stafilokokk);
- tezda yuzaga keladigan allergik reaksiyalar (Kvinke shishi, anafilaktik shok).

Kasallikni ko‘pincha gripp, paragripp, adenovirus, respirator sintitsial virus keltirib chiqaradi. Ko‘pincha 3 oylikdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallanadilar.

Samarali yordam ko‘rsatmasligi natijasida ham stenozni kuchayishi og‘ir gipoksiya rivojlanishiga, gemodinamik buzilishlarga, MNS jarohatlanishiga va o‘limga olib kelishi mumkin.

**Belgilari:** Kasallik ko‘pincha qishning boshlanishiga va respirator virusli infeksiyalarni epidemik tarqalish vaqtiga to‘g‘ri keladi. Kasallik odatda yuqori nafas yo‘llarini shikastlanishi va keyinchalik tipik quv-quv yo‘tal va tovushning xirillashi bilan boshlanadi. Grippoz infeksiyalarda kasallikning klinik ko‘rinishi yaqqol namoyon bo‘ladi, paragripp va adenovirusli infeksiyaga qaraganda harorat 39,5-40°C ga ko‘tarilishi mumkin, lekin bolada toksik belgilar ko‘rinmaydi. Tekshiruvda birinchi o‘rinda inspirator stridor, taxipnoe, disfoniya, ko‘krak qafasining tortilishi kuzatiladi. Tovushlarni diqqat bilan kuzatish ma‘lum darajada kasallikning xarakterini va patologik jarayonni joyla-shishini ko‘rsatadi. Nafas olganda hushtaksimov tovushning eshivilishi hiqildoq shishishidan, disfogiya esa ovoz boylam-larining yallig‘lanishidan darak beradi. Shishning kuchayib borishi va nafas hajmining kamayishi nafas tovushlarining kamayishiga va afoniyaga olib keladi. Quv-quv yo‘talning borligi ovoz yorig‘ining to‘la ochilmasligidan dalolat beradi, bu esa reflektor spazm bilan bog‘liq. Qiyinlashgan nafas va tez-tez yuzaga keluvchi progressiv yo‘tal gipersekretsiya va balg‘am bilan hiqildoq to‘lib qolganda kuzatiladi.

Og‘irlik darajasiga qarab 4 ga bo‘linadi:

**I daraja (kompensatsiyalashgan).** Ahvoli o‘rtacha og‘irlikda. Es-hushi joyida. Bola bezovta, yotog‘ida qulay joy topolmaydi, bezovta bo‘lganda vaqt-vaqti bilan inspirator hansirash va quv-quv yo‘tal kuzatiladi. Tinch holatda nafas ravon, ko‘krak qafasining tortilgan joylari yo‘q. Tovush bo‘g‘iq. Teri rangi odatdagidek. Yurak urishi soni yoshiga nisbatan 5-10% ga oshishi mumkin.

**II daraja (subkompensatsiya davri).** Umumiy ahvoli og‘ir. Bola qo‘zg‘aluvchan, bezovta, uyquasi buzilgan. Stridor, shovqinli nafas, xurujli qo‘pol quv-quv yo‘tal. Inspirator hansirash ko‘krak qafasining tortilishi bilan kuzatiladi, uyqu chuqurchasi ham tortilgan, burun qanotlari kerilgan. Tovush xirillagan yoki bo‘g‘iqlashgan. Teri qoplamlari oqargan, perioral sianoz bilan, yurak urishlari soni 10-15% ga oshgan.

**III daraja (dekompensasiya davri).** Bola ahvoli juda og‘ir. Bola qo‘zg‘algan, es-hushi xiralashgan. Nafas olishi qiyinlashgan, ko‘krak qafasi chuqurlashgan, nafasda yordamchi mushaklar qatnashadi. Teri va shilliq qavatlar oqargan, ba‘zan yer rangida, akrosianoz, sovuq ter bosgan. Qon aylanish buzilishi belgilari, teri marmar rangida, taxikardiya. Yurak urishlari soni normadan 15% ga oshgan, yurak tonlari bo‘g‘iq, tez-tez kuchsiz aritmik puls, jigar kattalashgan.

**IV daraja (asfiksiya).** Ahvoli juda ham og‘ir. Es-hushi joyidamas. Ko‘z qorachiq-lari kengaygan, talvasalar kuzatilishi mumkin, teri qoplamlari sianotik. Yurak tonlari bo‘g‘iq, bradikardiya-yurak to‘xtashini bildiruvchi xavfli belgi, puls ipsimon yoki umuman yo‘q. Keyin esa nafas va yurakning to‘xtashi kuzatiladi. Shoshilinch yordam:

1) Medikamentoz davo. I darajali stenozda:

- burun yo‘llariga tomir toraytiruvchi tomchilar (0,05% li galazolin eritmasi) tomiziladi;

- lazolvan eritmasi yoki bargizub shirasi bilan (1:10) ultratovushli ingalatsiyalar o‘tkaziladi.

- 2) Oksigenoterapiya parakislod palata sharoiti hollarida.
- 3) SNO yordamida nafasni ushlab turish.

#### *Hamshiralik parvarishi.*

- 1) Yotoqda ko'tarilgan holat, toza havo kirishini ta'minlash (nam havo yuborish), ko'p suyuqlik ichirish.
- 2) Chalg'ituvchi muolajalar: gorchichnik, agar unga allergiyasi bo'lsa, issiq oyoq yoki qo'l vannalari, bo'yin va ko'krak sohasiga yarim spirtli qizdiruvchi kompresslar.
- 3) Laringoskopiya va traxeya intubatsiyaga tayyorlash.
- 4) Hamshira shifokor o'tkazayotgan muolajalarni kuzatadi, bemorni ishlatilayotgan dorilarga reaksiyasini kuzatadi va jurnalga qayd qiladi.
- 5) Og'riqli muolajalar haqida ota-onasiga xabar berish va og'riqni kamaytirish uchun harakat qilish.
- 6) Ota-onasiga boladagi og'riqni kamaytiruvchi muolajalar haqida aniq tushuncha berish.

#### *Nafas yo'llarida yot moddalar*

Bolalardagi to'satdan yuz beradigan asfiksiya turidir. Yot moddalar ko'proq bronxlarda bo'ladi. Kattalarda ko'proq o'ng bronxda, bolalarda esa ikkalasida baravar uchraydi. Ko'proq 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda, ya'ni jag' tishlari paydo bo'lguncha bo'lgan davrda uchraydi.

**Sababi.** Nafas yo'llariga ko'proq tangalar, tugmalar, yong'oq va o'yinchoqlar tushib qolishi mumkin.

**Belgilari.** Yuqori nafas yo'llarida yaqqol namoyon bo'lgan stenozi yuzaga kelishi mumkin. Bo'g'ilish, kuchli davriy yo'talishlar bilan birga, yuzda sianoz va chaqmoq tezligidagi asfiksiya yuzaga kelishi mumkin. Agar yot modda harakat qilsa, traxeyada yo'tal va qichqiriq vaqtida chapaksimon nafas eshitilishi mumkin. Yot moddalar ko'pincha bronxlarda yaqqol ishemik o'zgarishlarni keltirib chiqarmaydi. Bola bezovta, qo'rquvda. Xurujsimon, effektsiz yo'tal.

Bronxospazm, ekspi-rator hansirash xarakterlidir. Qisman tiqin bo'lsa auskultatsiyada bir tomonlama quruq hushtaksimon xirillashlar, emfize-ma belgilari bilan namoyon bo'ladi. Auskultatsiyada ma'lum sohada sust nafas yoki nafas yo'qligi eshitiladi. Tashxis ko'krak qafasining bronxoskopiya yordamida qo'yiladi.

Hamshiralik parvarishi.

Qo'l yordamida yot moddani olib tashlash.

Bronxoskopiya yordamida olib tashlash.

Bolani xotirjamligini ta'minlash maqsadida oila a'zolarini ruhiy qo'llab-quvvatlash.

1) Yot moddani aniqlash:

- o'yinchoq xususiyatlari va simptomlari;
- agar bola gapira olsa nima bo'lganini so'rash;
- yot moddani joyi va xususiyatlarini aniqlash.

2) Yot moddani olib tashlash:

- bolani oyog'idan ko'tarib, silkitish;

- bolani chap qo'l bilan ushlab, o'ng qo'l ni ko'rsatkich barmog'i bilan til ildizini bosish va bola boshini pastga egish.

Bronxoskopiya, traxeostomiya.

3) Sun'iy nafas va kislorod berish.

4) Medikamentoz davolash.

5) Oilani qo'llab-quvvatlash.

### **O'tkir yurak yetishmovchiligi**

O'tkir yurak yetishmovchiligi bu yurakning to'liq zo'riqishi bo'lib, patologik belgilar (terining, shilliq qavatlarning oqarishi, hanshirash, shishlar va b.) bilan kechadi. Bu kutilmaganda yoki birdan nafas siqish xuruji (yurak astmasi) bilan namoyon bo'ladi.

Klinik belgilari. Bola bezovta, ko'krak qisishidan, nafas olishning qiyinlashishi sababli havo yetishmasligidan, o'lib qolish hissidan shikoyat qiladi, majburiy holatni egallaydi, hansirash, yo'tal bezovta qiladi. Asorati o'pka shishishi.

Terminal holat rivojlanishi bola hayotini saqlab qolish va uni hayot faoliyatiga qaytarish uchun o'z vaqtida va to'g'ri yurak-o'pka reanimatsiyasi o'tkazishni talab qiladi.

### **Shoshilinch yordam.**

1. Bolani tinchlantirish.

2. Siqib turgan kiyimlarini yechish.

3. Havo olishini ta'minlash.

4. Majburiy holatni egallash (oyoqlarini osiltirib o'tirish).

5. Og'izda to'planib qolgan so'lak kabi nafasga xalaqit qiluvchi omillarni yo'qotish.

6. Yuqori nafas yo'llarini erkin o'tkazuvchanligini ta'minlash.

7. Oksigenoterapiya.

8. Medikamentoz davolash, shifokor yordami.

9. Juda og'ir hollarda traxeaya intubatsiyasi o'tkaziladi va sun'iy nafas oldirishga o'tiladi.

### **Hamshiralik parvarishi**

1. Nafas siqishini kamaytrish uchun hamshiralik parvarishi 1-5 punktidagi «Shoshilinch yordam» singari o'tkaziladi.

2. Nafas soni va o'pkadagi shovqinlar, xirillashlar borligi nazorat qilinadi va shu bilan birga hamshiralik yozuvi muolajalari kiritiladi.

3. Maksimal qulay sharoit va tinchlik yaratish.

4. Tozalikni ta'minlab infeksiyani oldini olish.

5. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

### ***Tomir yetishmovchiligi – qon aylanishi buzilishi natijasida kelib chiqadi***

Obmorok – mushak tonusining yo‘qolishi, miyada qon aylanishi buzilishi natijasida qisqa vaqt hushni yo‘qotish.

Sababi.

1. Tomirlarni nerv regulatsiyasini buzilishi:

vazovagal, ortostatik, reflektor, vaziyatli, giperventelatsion sindromda;

2. Kardiogen: bradiaritmialar, taxiaritmialar, yurak va yirik qon tomirlardagi qon oqimiga mexanik ta’sir qilishi.

3. Gipoglikemik holatlar.

4. Serebravaskulyar va b.

Olib keluvchi omillar: kuchli ruhiy ta’sirlar (ta’sirlanish, qo‘rqish, kuchli og‘riq, issiq yoki oftob urishi, stresslar va b.).

Kasallikning belgilari: noqulaylik hissi, ko‘ngil aynishi, esnash, ko‘p terlash, oyoqlarda holsizlik, ko‘z oldi qoron-g‘ilashuvi, quloqda shovqin, bosh aylanishi, oyoq-qo‘llar uvishishi, mushak tonusi birdan pasayishi, teri oqargan, qorachiqlar kengaygan, puls kuchsiz to‘liq, AB pasaygan, yurak tonlari bo‘g‘iqlashgan, nafas yuzaki. Agar bola o‘tirishga yoki yotishga ulgurgan bo‘lsa organizmni ortostatik holatini bartaraf qilish mumkin, eshitmaslik, esnash, ko‘ngil aynishi holatlari bilan chegaralanadi. Chuqur obmorok qisqa vaqtli tonik talvasalar bilan birga kuzatilishi mumkin.

#### **Shoshilinch holat:**

1. Bolani gorizontol oyoqlarini biroz ko‘targan holda yotqizib, yoqasi yechiladi, tanani siqib turgan kiyimlarini yechish.

2. Toza havo olishini ta’minlash.

3. Reflektor ta’sirlardan foydalanish:

– yuzga suv sepish yoki ho‘l sochiq bilan yonoqlarga urish;

– nashatir spirti hidlatish.

4. Bu holatdan chiqqandan so‘ng ichishga issiq shirin choy berish.

5. Simptomatikasi bo‘yicha medikamentoz yordamini ko‘rsatish.

Hamshiralik parvarishi:

1. Qon aylanish holatini tez tiklash, 1-4 punkt «Shoshilinch yordam» da ko‘rsatilgan hamshiralik parvarishi kabi o‘tkaziladi.

2. Puls va hushni nazorat qilish.

3. Maksimal qulay sharoit yaratish va tinchlikni ta’minlash.

4. Tozalikni ta’minlab infeksiyani oldini olish.

5. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

Kollaps – hayotga xavf soluvchi o‘tkir tomir yetishmovchiligi bo‘lib, tomirlar tonusining birdan pasayishi, aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi, miya gipoksiyasi belgilari, hayot uchun muhim funksiyalarning yo‘qolishi bilan xarakterlanadi.

Sababi o‘tkir yuqumli kasalliklarning (ichak infeksiyasi, gripp, O‘RVI, zotiljam, pielonefrit, angina va b.) og‘ir kechishi.

1. O‘tkir buyrak usti bezi yetishmovchiligi.

2. Gipotenziv moddalar dozasini oshirib yuborish.

3. Ko‘p qon yo‘qotish.

#### 4. Og'ir jarohatlar.

Kasallikning belgilari avj olish davrida rivojlanadi va bemor umumiy ahvolidagi progressiv yomonlashishi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha kollapsda quyidagi belgilar kuzatiladi: bola qo'zg'aluvchanligi, mushaklar tonusining oshishi, teri qoplamlarining oqarishi va marmarsimon tus olishi, oyoq-qo'l barmoqlarining sovqotishi, sovuq yopishqoq terlash, tez-tez ipsimon puls, taxikardiya, AB tushib ketishi.

##### **Shoshilinch yordam:**

1. Bolani gorizontal boshini orqaga biroz eggan holda yotqizish.
2. Issiq grelkani sochiqqa o'rab qo'yiladi.
3. Toza havo kelishini ta'minlash.
4. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.
5. Siqib turgan kiyimlarini yechish.
6. Klinik kechishi bo'yicha shifokor yordamini ko'rsatish.
7. Shoshilinch yordam bermagan hollarda reanimatsiya bo'limiga yotqiziladi.

##### **Hamshiralik parvarishi:**

Nafas siqishini kamaytrish uchun hamshiralik parvarishi 1-5 punktidagi «Shoshilinch yordam» singari o'tkaziladi. Nafas soni va o'pkadagi shovqinlar, xirillashlar borligi nazorat qilinadi va shu bilan birga hamshiralik yozuvi muolajalari kiritiladi. Maksimal qulay sharoit va tinchlik yaratish. Tozalikni ta'minlab infeksiyani oldini olish. Bola va uning oilasi bilan tibbiy-psixologik ishlar olib borish.

Yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish texnikasi:

- yurak-o'pka reanimatsiyasi o'tkazishga asosiy ko'r-satmalar;
- nafas, yurak urishi va hushning yo'qligi;
- uyqu arteriyasi va boshqa atreiyalarda puls yo'qligi;
- teri rangining oqligi yoki kulrang-yer rangidaligi;
- qorachiq kengayishi, yorug'likka reaksiyasi yo'qligi.

##### **Shoshilinch yordam:**

- klinik o'lim yuz bergan vaqtni va reanimatsion choralar boshlangan vaqtni yozib qo'yish;
- trevoga signalini berish, yordamchilar va reanimatsiya brigadasini chaqirish;
- imkoni boricha klinik o'lim rivojlanishi vaqtidan qancha daqiqa o'tgani aniqlanadi. Agar 10 daqiqadan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa, bemorda biologik o'limning erta belgilari («mushuk ko'zi simptomi» – ko'z olmasini bosgandan keyin qorachiq gorizontal shaklni oladi va saqlab qoladi va «eriyotgan muzchalar») – qorachiqning xiralashishi simptomi bor bo'lsa yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish shubhali.

ABC qoidasi bo'yicha reanimatsion choralar ketma-ketligi:

**A** (airways) – nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash.

**B** (breathing) – nafasni tiklash.

**C** (circulation) – qon aylanishini yaxshilash.

- agar yurak urishi va faoliyati tiklanmasa ham SNO o‘tkazishni va yurakni bevosita massaj qilishni to‘xtatmaslik.
- periferik venaga tushishni ta‘minlash va shifokor ko‘rsat-masi bo‘yicha dori moddalarni yuborish.
- oksigenoterapiya 100 % yuz niqobi orqali
- qorinchalar fibrilatsiyasida defibrilatsiya qilish ko‘rsatma bo‘ladi (elektrik yoki medikamentoz).

SNO apparatiga ulangan bolalar va ularning oilalarida hamshiralik parvarishi. SNO o‘tkazishning hamma nozik tomonlarini hisobga olgan holda bolalarni parvarish qilish hamshiradan diqqat va e‘tibor talab qiladi. Birinchi o‘rinda SNO dagi bolani parvarish qilayotgan hamshira sanepid tartibga rioya qilishi, tegishli buyruqlar bilan ishlashi kerak. Monitorni nazorat qilishni SNO apparati ishini (namlik va temperatura tartibi, kislorod berilishini va b.) bilishi kerak.

*Hamshiralik parvarishi:*

1. Gigiyenik muolajalar o‘tkazish (ichki va o‘rin oqliklarini almashtirish, yuvintirish, umumiy gigiyenik muolajalar, ostni yuvish, og‘iz bo‘shlig‘ini parvarishlash va b.)
2. Intubatsion trubka sanatsiyasi.
3. Yotoq yaralarni oldini olish (vibromassaj, bemor tana holatini har 2-3 soatda almashtirib turishni).
4. Inyeksiyadan keyingi asoratlarni oldini olish.
5. O‘mrov osti kateterini parvarish qilish.
6. Siydik kateterini parvarish qilish.
7. Operatsiyadan keyingi yarani parvarish qilish.
8. Oila bilan tibbiy-ruhiy ish olib borish.

Yurak-o‘pka jonlantirishi o‘tkazishdan bosh tortish va to‘xta-tishning yuridik asoslari. Yuridik va etik aspektlardan kelib chiqib YuO‘J quyidagi hollarda qo‘llanilmaydi:

- Yurak to‘xtashi vaqtidan boshlab (normal atrof-muhit haroratida) 25 daqiqadan ko‘p vaqt o‘tganda.
- Birdaniga o‘lim holati kuzatilsa, shu bemor uchun ko‘rsatilgan to‘liq kompleks davolash o‘tkazilgan bo‘lsa.
- Agar bemorda progressivlanuvchi kasallikning terminal bosqichi bo‘lsa, shifokorning o‘rangan va oldindan hujjalash-tirilgan, konsilium kasallik tarixiga yozib qo‘yilganda (o‘sma-ning oxirgi bosqichida, miyada qon aylanishi og‘ir buzilishida, og‘ir travmalarda va b.).
- Agar bemor oldindan YuO‘J dan bosh totrishini tibbiy hujjatlarda yozib qo‘ygan bo‘lsa.

YuO‘J quyidagi hollarda to‘xtatilishi mumkin:

- YuO‘J ning hamma yetarli usullari qo‘llab bo‘linganda ham 30 daqiqa davomida natija belgisi bo‘lmasa.
- Agar ko‘p marta yurak to‘xtashi kuzatilsa, tibbiy yordam berilganda ham.

**Allergik shoshilinch va komatoz holatlar**

### ***Allergik shoshilinch holatlar***

**Eshakem** – otkir allergik holat bo‘lib, terida va ba’zan shilliq qavatlarda birdaniga urtikar toshmalar toshishi bilan xarakterlanadi.

Eshakemning sababi ham Kvinke shishi bilan bir xil. Ko‘pincha dorilar va ovqat allergenlari, hasharotlar chaqishi, ba’zi hollarda bevosita sababi aniq emas.

Klinikasi bolalarda isib ketish hissi, teri qichishishi, terining «qichitqi o‘t bilan kuyganga o‘xshab» o‘zgarishi kuzatiladi. Eshakem elementlari har xil shaklda va o‘lchamda bo‘lib, bir-biri bilan qo‘shilib ketib gigant elementlarga aylanadi.

Element rangi och pushti rangdan qizil ranggacha. Toshmalar tananing hamma joyida va shilliq qavatlarda, ba’zan qorinda, orqada, ko‘krakda, sonda joylashadi. Umumiy simptomlar: isitma, artralgiya, kollaps bo‘lishi mumkin.

#### ***Shoshilinch yordam***

1. Darhol allergen kirishini to‘xtatish.
2. Bemorni tinchlantirish va kasalligi to‘g‘risida unga to‘g‘ri tushuntirish.
3. Shifokor ko‘rsatmalarini bajarish.
4. Somatik bo‘limga gospitalizatsiya qilish.

#### ***Hamshiralik parvarishi***

1. Bemorni tinchlantirish va kasalligi to‘g‘risida unga to‘g‘ri tushuntirish.
2. Ota-onani tinchlantirish, bolaga qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqotni quvvatlash, bolaga tashxis uchun, tekshirishga jo‘natish.

***Hamshiralik parvarishi.*** Bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ish olib borish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqot qilish, bolani tashxisni tekshirish uchun yuborish.

**Kvinke shishi** otkir allergiya turi bo‘lib, teriga, teri osti yog‘ qavatiga, shilliq qavatlarga angionevrotik shishning tarqalishi bilan namoyon bo‘ladi.

Etiologiyasi kvinke shishi ko‘pincha dori yoki ovqat allergenidan, hasharotlar chaqqandan so‘ng kelib chiqishi mumkin, ba’zi hollarda bevosita sababi ma‘lum bo‘lmasligi mumkin. Kvinke shishi xavfli bo‘lib yuqori nafas yo‘llari shishishidan kelib chiqqan holda asfiksiyaga olib keladi.

***Klinikasi.*** Bolada hiqildoq shishishida it hurishiga o‘xshagan yo‘tal, tovush pasayishi, nafas olish qiyinlashishi, bronxospazm qo‘shilishi hisobiga nafas chiqarish ham qiyinlashishi mumkin. Til shishgani uchun gapirish qiyinlashadi, chaynash va yutish jarayonlari buziladi.

#### ***Shoshilinch yordam***

1. Darhol allergen kirishini to‘xtatish.
2. Medikamentoz yordam.
3. Rivojlanib boruvchi hiqildoq shishishi obturatsion nafas yetishmovchiligi bilan bo‘lganda intubatsiya yoki traxeotomiya qilinadi.
4. Somatik bo‘limga yotqizishga yordam berish.

***Hamshiralik parvarishi:*** ota-onani tinchlantirish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqotni quvvatlash, bolani diagnostika tekshiruviga yuborish.

### **Komatoz holatlar**

Hushdan ketish va harakat, sezish hamda somatovegetativ funksiyalarning buzilishi bilan xarakterlanadigan holat. Bunday holda bemorni har qanday kuchli qo'zg'atuvchilar bilan ham uyg'otib bo'lmaydi.

Bolalik davrida komatoz holatlar rivojlanish sabablari turli xil. Intensiv davolash talab qiladigan har qanday holat koma asoratini berishi mumkin. Odatda ekzogen va endogen omillar farq qilinadi, biror bir kasallikning belgisi hisoblanmaydi, lekin bosh miyaning og'ir zararlanishidan darak beradi va sababi noaniq bo'lgan komatoz holat shoshilinch yordam va to'g'ri keluvchi davo talab qiladi.

Bolalarda komatoz holat rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- tug'ma o'zgarishlar;
- miyada qon aylanishning yetishmasligi (bosh miyaga qon quyilishi, gemodinamikaning buzilishi);
- bosh miya bosimining oshishi (gidrosefaliya);
- yirik o'choqli shikastlanish (bosh miya shikastlanishi, miya o'smasi va absessi);
- miya to'qimasining diffuz zararlanishi (meningit, ensefalit, infeksiyon toksikoz);
- turli zaharlanishlarda miyaning toksik zararlanishi;
- metabolik o'zgarishlar (gipoksiya, gipo- va giperkapniya, kislota-ishqor, suv-elektrolit balansining buzilishi), jigar va buyrak yetishmovchiligi;
- endokrin buzilishlar (giper va gipotireoz);
- termopegulatsiya buzilishi (gipertermik sindrom, gipotermiya).

Komatoz holatlar bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Chaqaloqlarda avval perinatal shikastlanishlar (tug'ruq shikastlari, miyaga qon quyilishi), sepsis, respirator distress, metabolik o'zgarishlar. 1 yoshdan so'ng bolalarda hayot bilan bog'liq sababli omillarga ko'pincha infeksiyon kasalliklar va bosh miya yallig'lanish kasalliklari (meningit, ensefalit) kiradi. Kattaroq yoshdagi bolalarda komatoz holatlar asosan og'ir infeksiyalar, bosh miya travmalari, zaharlanishlar, jigar va buyrak zararlanishidan, endokrin kasalliklarda kelib chiqadi.

**Klinikasi.** Komaning og'irligiga ko'ra 4 darajasi farq qilinadi:

1 daraja yengil shakli – hush yo'qolishi, kuchli tovush ta'siriga javob reaksiyasi yo'q, lekin kuchli og'riq qo'zg'atuvchisiga ingrash va mimik reaksiya kuzatiladi, qorachiqqlar toraygan, yutish saqlangan, lekin qiyinlashgan.

2 daraja yuzaga chiqqan koma – og'riqqa reaksiyasi yo'q, qorachiqqlar nuqtadek, ko'z olmalari harakati yo'q, desere-bratsion holat, tomir gipotoniyasi rivojlanib borishi bilan stvol va spinal markazlar tormozlanishi kelib chiqadi.

3 daraja chuqur koma – turli qo'zg'atuvchilarga javob reaksiyasi yo'q, ko'z olmalari qotib qolgan yoki suzish harakatlarini qiladi, qorachiqqlar kengaygan, qorachiq reflekslari yo'q, mushaklarning to'liq atoniyasi, nafas va qon aylanishi buzilishi.

4 daraja terminal koma – orqa miya funksiyasining buzilishi, bolaga sun'iy nafas orqali va inotrop quvvatlash bilan yordam beriladi.

Koma rivojlanishida hammadan oldin nafas va qon aylanish tizimi holatiga baho beriladi: (tabiiyki nafas va yurak qon tomir yetishmovchiligida shu a'zolarga yordam berish bilan boshla-nadi).

Koma og'irligini obyektiv baholashda Glazgo shkalasidan foydalaniladi.

Asosiy zararlovchi omillarga bog‘liq holda ajratiladi:

1. Metabolik komalar: ichki a‘zolar kasalliklarida diabetik, gipoglikemik, xlorpenitik, jigar, uremik.
2. Nevrologik komalar: apopleksik, travmatik, elektrotrav-mada termik, epileptik
3. Infeksion nevrologik komalar: meningitda va ensefalitda.
4. Diabetik komalar.

Qandli diabet bilan og‘rigan bolalarda ko‘pincha giperg-likemik va gipoglikemik komalar uchraydi.

Patogenezi asosida giperketonemiya va ketonuriya bilan giperglikemiya yotadi, natijada suv-tuz almashinuvining kuchli buzilishi va kislota-ishqor balansining asidoz tomonga suljishi kelib chiqadi.

**Sababi:** Qandli diabet bilan og‘rigan bolalarda giperglikemik koma rivojlanishining sabablari quyidagilar:

1. Qandli diabetga kech tashxis qo‘yish.
2. Davolash tartibining buzilishi: davolashdagi tanaffuslar, insulinni noadekvat dozada berish.
3. Boshqa kasalliklarning qo‘shilishi.
4. Jarrohlik aralashuvi.
5. Shikastlanishlar.
6. Emotsional stress holatlari.

### **Belgilari:**

- holsizlik, uyquchanlik;
- kuchli chanqash va poliuriya;
- ko‘ngil aynishi, qusish, qorinda kuchli og‘riq, qorin old devori mushaklarining tarangligi («o‘tkir qorin» simptomi), laborator giperleykositoz, tayoqcha yadroli surilish bilan neytrofilyoz bilan namoyon bo‘ladigan zo‘rayib boruvchi ketoasidozning abdominal sindromi;
- teri quruq, oqargan va kulrangsimon shish, yuzda «diabetik qizarish», to‘qimalar turgori pasayishi;
- taxikardiya, yurak tonlarining bo‘g‘iqlashuvi, AB pasaygan;
- nafas chiqarganda aseton hidi;
- qonda glukoza miqdori 15 mmol/l;
- siydikda glukoza miqdori ko‘p bo‘lishidan tashqari aseton aniqlanadi.

### **Shoshilinch yordam:**

1. Reanimatsiya yoki maxsus endokrinologiya bo‘limiga yotqizishga yordam berish.
2. Yuqori nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta‘minlash, oksigenoterapiya.
3. Regidratatsiya o‘tkazish uchun vena o‘zaniga tushishni ta‘minlash.
4. Tahlil uchun qon va siydik olish.

**Hamshiralik parvarishi:** bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bolaga qulay sharoit yaratish.

### **Gipoglikemik koma**

Qonda glukoza miqdorining qisman yoki birdaniga kamayishi natijasida bosh miyaning glukoza va kislorod bilan ta'minlanishining buzilishi.

Qandli diabetda gipoglikemiyaning asosiy sabablari :

1. Ovqat miqdorining kamligi.
2. Jismoniy zo'riqish.
3. Insulin dozasini oshirib yuborish.
4. Alkogol iste'mol qilish.

Gipoglikemiyaning diabetdan tashqari sabablari:

### **Gipertermik sindromda, talvasada bolalarga va ularning oilalariga hamshiralik parvarishi**

Gipertermik sindrom ichki issiqlik ishlab chiqarish va tana yuzasining issiq ajratishi hisobiga tana harorati oshishi kuza-tiladi. Issiqlik ishlab chiqarish va issiqlik ajratish gipotala-musdagi issiqlik markazi tomonidan regulatsiya qilinadi. Lekin issiqlikni boshqarish markaziga pirogen moddalar ta'sirida (patogen qo'zg'atuvchilar, gematologik kasalliklar, allergiya va b.) issiqlikni ajralishi buziladi, issiqlikni tarqatish kamayishi (issiqlikni ushlab turish), qaltirash va titrash hisobiga issiqlik ishlab chiqarish oshishi kuzatiladi. Shunday qilib, tana harorati normal darajaga oshadi normada (36-37<sup>0</sup>C).

Bolalarda tana haroratining oshish darajasiga qarab quyidagi turlari ajratiladi:

Subfebril harorat – 37-37,5<sup>0</sup>C; febril – o'rtacha harorat 38-38,9<sup>0</sup>C, gipertermik – 39<sup>0</sup>C va yuqori.

Bolalarda isitmaning ko'p uchraydigan sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Infeksion-toksik holatlar.
2. Og'ir metabolik buzilishlar.
3. Isib ketish.
4. Posttransfuzion holatlar, allergik reaksiyalar.
5. Dori moddalarni yuborish bilan va farmakologik ta'sirlari bilan bog'liq sabablar.
6. Endokrin buzilishlar.
7. Bosh miya o'smasi va miya ichiga qon quyilishi hisobiga termoregulatsiya markazining buzilishi (markaziy tipdagi isitma).

Gipertermik sindrom isitmaning patologik varianti bo'lib hisoblanadi, bunda tana haroratining tez va noadekvat ko'tarilishi, mikrosirkulatsiya buzilishi, metabolik o'zgarishlar va hayot uchun muhim a'zo va sistemalarning funksiyasi buzilishi bilan birga kuzatiladi.

**Klinik tashxisi:** Bolada tashxis jarayonida isitma bilan farq qiluvchi «qizil» va «oq» gipertermiyani ajratish hamda sabablarini aniqlash kerak.

**Qizil gipertermiya (issiqlik urishi):** Yuqori harorat va namlikni kamayishi hisobiga yutiladigan issiqlik hajmi oshadi va tana harorati ko'tariladi va issiqlikni berish (issiqlikni ushlab qolish) pasayishi holati kuzatiladi. Gipotalamusda issiqlikni boshqarish markazining funksiyasi buziladi va ter ajratish to'xtaydi.

Issiqlik ajratishning birdan pasayishi bilan tana harorati ko‘tariladi, agar harorat 42oC gacha oshsa hujayralar buzilishi, MNS, buyraklar, jigar, yurakda o‘zgarishlar va ko‘p a‘zolar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. O‘lim kelib chiqish xavfi yuqori.

**Oq gipertermiya (issiqlik kamayishi, issiqlik talvasasi).** Issiqlik kamayishi – bu ko‘p terlash tufayli suyuqlik va tuz miqdorining kamayishi bo‘lib, yoz oylarida harorat yuqori bo‘lganda suvsizlanish bilan xarakterlanadi.

Issiqlik talvasasi – ko‘p terlash va tuzni kam iste‘mol qilish natijasida qonda tuzlarning kamayib ketishidan mushaklarning og‘riqli talvasasimon qisqarish holati.

**Gipertermiyada shoshilinch yordam va davolash:**

**Simptomlari, davolash va hamshiralik parvarishi,**

<i>shoshilinch yordam</i> Issiq urishi	Issiqlik pasayishi		Issiqlik talvasalari
Tana harorati	40-42oC (rektal harorat 40oC dan yuqori)	-normal yoki biroz oshgan	* Issiqlik pasayishi punkti bilan bir xil
Kuzatiladi-gan simptomlar	-butun tanadan ter ajralishi - ter ajralishining birdan to‘xtashi -bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, holsizlik	-bosh aylanishi, bosh og‘rishi, ko‘ngil aynishi, charchash hissi, ishtaha yo‘qolishi	* Issiqlik pasayishi punkti bilan bir xil

## **Buyrak yetishmovchiligi.**

1. Jigar

2. Buyrak usti bezi gipofunksiyasi.

3. O'sish gormoni yetishmasligi (ko'pincha gipofizar na-nizm).

Birinchi kompensator simptomlar namoyon bo'ladi: bezov-talik, agressivlik, kuchli qorin ochishi, ko'ngil aynishi, gipersa-livatsiya, qaltirash, sovuq ter bosishi, taxikardiya, qorinda og'riq, diareya, ko'p siyish.

Keyinchalik neyroglükopenik simptomatika qo'shiladi: asteniya, bosh og'rishi, diqqat buzilishi, qo'rquv hissi, gallyusti-natsiyalar, nutq va ko'rish buzilishi, dezorientatsiya, amneziya, hushning buzilishi, falajlikka almashinuvchi talvasalar, koma.

Gipoglikemik koma tez rivojlanadi, har doim 3 ta belgisi bo'ladi: hushdan ketish, mushaklar gipertonusi, talvasalar. Diaqnoz laboratoriya ko'rsatmalariga asoslanadi.

*Shoshilinch yordam:*

1. Bemorga shirin choy, murabbo, asal yoki shirin pechenelar berish.

2. Darhol somatik bo'limga yotqizish.

3. Vena o'zaniga tushish.

4. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, oksigeno-terapiya.

5. Tahlil uchun qon, siydikni to'g'ri olish.

6. Shifokor ko'rsatmalarini bajarish.

*Hamshiralik parvarishi:* bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bola uchun yetarlicha qulay sharoit yaratish.

### **Uremik koma**

O'tkir buyrak yetishmovchiligi (O'BY)- o'tkir rivojlanuvchi sindrom bo'lib, buyrakning gomeostazni ta'minlash funksiya-sining buzilishi bilan xarakterlanadi, suv-tuz balansining va kislota-ishqor holatining buzilishi, azotemiya kuchayib uremiya rivojlanishi, barcha sistemalar va funksiyalarning patologik zararlanishi bilan namoyon bo'ladi.

*Shoshilinch yordam:*

1. Darhol gemodializ yoki reanimatsiya bo'limiga yotqizish.

2. Vena o'zaniga tushish.

3. Tahlilni to'g'ri olish.

4. Shifokor ko'rsatmalarini to'g'ri bajarish.

5. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash, oksigenoterapiya.

*Hamshiralik parvarishi:* bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ishlar olib borish, bola uchun yetarlicha qulay sharoit yaratish.

### **7.4. Shok holatidagi bolalarda va ularning oilalarida hamshiralik parvarishi**

Shok o'tkir rivojlanuvchi, hayot uchun xavfli patologik holat bo'lib, MNS faoliyatining, qon aylanishi, nafas va modda almashinuvi o'g'ir buzilishi bilan xarakterlanadi.

Shokni kechish vaqtiga qarab 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1. Shok oldi holati, gipertoniya (MNS qo'zg'alishi).

2. Gipotoniya va oligouriya aniqlanganda ham, a'zolar disfunksiyasining orqaga qaytmas holati bo'lmasligi.
3. Ortga qaytmas shok holati.

Intensiv davolash.

- Aylanib yuruvchi qon hajmini tiklash.
  - AB tiklash va stabillash.
  - Mikrosirkulyatsiyani yaxshilash.
  - Travma bilan bo'g'liq reflektor impulsatsiyaning kama-yishi.
  - Asidozni va metabolik o'zgarishlarni likvidatsiya qilish.
- Bu muammolar intensiv terapiya kompleksida hal qilinadi.

### ***Gipovolemik shok***

Aylanib yuruvchi qon hajmining patologik kamayishi natijasida yurak bosim hajmi pasayadi. Aylanib yuruvchi qon hajmi qon ketishi yoki suvsizlanish (qusish, ich ketishi, poliuriya, kuyganda va b.) natijasida kelib chiqadi.

Asosiy patologik mexanizm – venoz qon oqimi yetishmasligi natijasida, yurak urishi yetishmasligi va qon bosimi pasayishi kuzatiladi.

*Sababi:*

- Qon ketganda tomir ichida qon hajmining kamayishi.
- Nogemorragik tomir ichida qon hajmining kamayishi (qusish, ich ketishi, qandsiz diabet, peritonit, pankreatit, kuyish, atssit, diabetik ketoasidoz va b.).

*Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi.*

1. Bemorni gorizontal holatda oyoqlarini 15-20 daraja ko'targan holatda yotqizish.
2. Yuqori nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.
3. Zich yopishib turuvchi niqob yoki burun kateteri orqali namlangan kislorod berish.
4. HZK ni o'lchash.
5. Sabablarni aniqlash va bartaraf qilish (qon oqishini to'xtatish).
6. Qon aylanish dekompensatsiyasi belgilarida venaga tushish va o'pka shishi va belgilari bo'lmasa kristall ko'rinishli infuzion terapiya o'tkazish (Ringer eritmasi, 0,9% li natriy xlorid eritmasi). Infuzion terapiya yurak urishlar sonini, AB, o'pka auskultatsiyasi ko'rinishlarini, diurezni nazorat qilgan holda o'tkaziladi.
7. Aylanib yuruvchi qon hajmini to'ldirish (qon guruhini va rezus faktorini aniqlash.).
8. Zarur hollarda yurak-o'pka reanimatsiyasini o'tkazish.
9. Traxeya intubatsiyasi va yordam ko'rsatish.

### ***Kardiogen shok***

Miopatik kasalliklar natijasida va qonning qorinchaga oqimi va uning otilishi mexanik buzilishi sababli kelib chiqadi. O'tkir miokard infarkti yoki dilatatsion kardiomiopatiya miopatik shok

sabablarini keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa tomondan massiv mitral regurgitatsiya yoki qorincha anevrizmi kardiogen shokning mexanik sababi bo'lishi mumkin.

*Sababi*

- Aritmiyalar, kardial mexanik omillar, regurgitatsiyadagi buzilishlar (o'tkir mitral yoki aortal regurgitatsiya, qorincha-lararo to'siq nuqsoni, chap qorincha anevrizmasi, qorincha erkin devorining yorilishi).

Obstruktiv kasalliklar, chap qorincha tashlash fraksiyasining pasayishi (aorta klapani stenoz, idiopatik gipertrofik subaortal), chap qorinchaga qon kelish obstruksiyasi (mitral stenoz, chap bo'lmacha miksomasi va boshqa yurak o'smalari)

– Kardiomiopatiyalar.

Birlamchi nasos funksiyasining buzilishi kam uchraydi. Ikkilamchi quyidagi hollarda rivojlanadi:

– gipoksiyada;

– asidozda;

– gipoglikemiya;

– gipotermiyada;

– prepatlarning toksik ta'sirida.

*Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi.*

Yuqorida ko'rsatilgan punktga mos keladi. Lekin yurak zo'riqishlarini bartaraf qilish uchun gorizontal holat qo'llaniladi. (1 punkt almashtiriladi)

**Metabolik shok**

Grammanfiy infeksiyalarda endotoksinlar va I tip allergik reaksiyalardagi anafilaktik shok chaqiradigan shok metabolik shokning sababi bo'ladi.

*Sababi*

Sepsis yoki endotoksemiya bolalarda har qanday yoshda kuzatiladi va ko'pincha grammanfiy (ichak tayoqchasi, kleb-siella) ba'zan grammusbat (pnevmokokk, tillarang stafilokokk, yashil streptokokk B) mikroorganizmlar va ularning toksini chaqiradi.

Metabolik omillar (o'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, jigar yetishmovchiligi, og'ir asidoz yoki alkoloz, dori moddalar dozasini oshirib yuborish).

Endokrinologik buzilishlar (qandli diabet ketoasidoz bilan, giperosmolyar ketonsiz giperglikemik koma, buyrak usti bezi yetishmovchiligi, qandsiz diabet, gipoglikemiya)

Mikrosirkulatsiya buzilishi (chin polisitemiya, qon ivishining oshish sindromi, yog' emboliyasi)

Neyrogen omillar.

Anafilaksiya.

*Shoshilinch holat va hamshiralik parvarishi.*

\* yuqorida ko'rsatilgan 1) punktga mos keladi.

**Travmatik shok**

**Travmatik shok** – bu travmadan so'ng kelib chiqqan shok holati. Ko'pincha ikkilamchi shok kuzatiladi. Gemorragik shokdan tashqari shok holati buyraklar

zararlanishida ham kuzatiladi, shuningdek, kuyganda va to‘qimalar ezilganda sog‘lik uchun zararli moddalar qonga tushadi. Teri ostiga qon quyilish sindromida, butun tana shikastlangan yoki ezilgan yarasida (guruhli tajovuzda vab.) shok sababi qon quyilishi va ezilish sindromi hisoblanadi. Bunday hollarda qon quyilishi ko‘p miqdorda kuzatiladi va qon quyilishi asosiy omil hisoblanadi.

A) Mexanik ta’sirlardan.

B) Kuyish.

C) Sovuq.

D) Uzoq ezilish sindromi.

E) Elektr ta’siri.

Shoshilinch yordam va hamshiralik parvarishi:

\* yuqorida ko‘rsatilgan 1) punktga mos keladi.

### **Anafilaktik shok**

O‘tkir kechuvchi, hayotga xavf soladigan, organizmga allergen kirishi natijasida yuzaga keladigan tez kechar allergik jarayon bo‘lib, og‘ir qon aylanish, nafas, MNS faoliyati buzilishi bilan xarakterlanadi.

Sababi ko‘pincha dori moddalarni (penitsillin, sulfanila-midlar, zardoblar, vaksinalar, oqsil preparatlarini va b.) paren-teral yuborishga javoban hamda chang ba’zan ovqat alleren-lariga vaksinatsiya sinamasi o‘tkazilganda, hasharotlar chaq-qanda kelib chiqadi.

Anafilaktik shokni klinik sindromlariga qarab ikki turiga bolinadi:

– o‘tkir nafas yetishmovchiligi;

– o‘tkir tomir yetishmovchiligi.

Anafilaktik shokning otkir nafas yetishmovchiligini klinik belgilari, ko‘krak qisishi bilan birga havo yetishmayotgandek his qilish, qiynovchi yo‘tal, bosh og‘rig‘i, yurak sohasida og‘riq, qo‘rquv paydo bo‘ladi. Terida birdan oqarib ketish ko‘karish bilan almashinadi, og‘izdan ko‘pik kelishi, nafas chiqarganda hushtaksimom nafas quruq xirillashlar bilan birga eshitiladi.

Anafilaktik shokning tomir yetishmovchiligida klinik belgilar holsizlanish, quloqda shovqin, ko‘p terlash paydo bo‘ladi. Terida rivojlanib boruvchi oqarishi, akrosianoz, rivojlanib boruvchi arterial bosimning tushishi, ipsimon puls, yurak tonlari susayishi aniqlanadi. Bir necha daqiqadan so‘ng hushdan ketish, talvasalar bo‘lishi mumkin. Tomir yetishmovchiligi zo‘rayib borishidan o‘lim yuz berishi mumkin.

*Shoshilinch yordam:*

1. Bemorni oyoqlarini ko‘tarilgan holda yotqizish, til orqaga tortib ketmasligi, asfiksiya va qusuq massalari aspiratsiyasini oldini olish uchun yonboshiga yotqizish va pastki jag‘ni itarish kerak.

2. Toza havo kelishini ta’minlash yoki kislorod ingalatsiya qilish.

3. Organizmga allergen kirishini to‘xtatish.

4. Venaga tushish.

5. Medikamentoz muolajalar shifokor ko‘rsatmasiga asosan.

*Hamshiralik parvarishi.*

Bemor va uning oilasi bilan tibbiy-profilaktik ish oolib borish, bolaga yetarlicha qulay sharoit yaratish, bola bilan muloqot qilish, bolani tashxisni tekshirish uchun yuborish.

### ***Infeksion-toksik shok***

**Sababi.** Stafilokokk va streptokokklar ishlab chiqargan toksinlar hisobiga arterial bosimning pasayishi va og'ir belgilar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

### ***Belgilari:***

Birdaniga quyidagi simptomlar kuzatiladi:

- Tana haroratining 39-40°C ga ko'tarilishi;
- Kuchli bosh og'rig'i;
- Tomoqda og'riq;
- Charchash hissi;
- Qushish va ich ketishi (suyuq);
- Terida toshmalar.

Asosan 48 soat ichida hushni yo'qotish, arterial bosim pasayishi, shok holati kuzatiladi. 3-7 kunda kaft va tovon terisi ko'chib tushadi.

*Shoshilinch holat va hamshiralik parvarishi.*

\* yuqorida ko'rsatilgan 1 punktga mos. Lekin yuqorida ko'rsatilgan simptomlar boshqa sabablar orqali chaqirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun tashxis to'g'riligini qon tahlili orqali tasdiqlanadi.

## **7.5. Bolalarda atrof-muhit ta'sirida yuzaga keladigan shoshilinch holatlar**

Atrof-muhit ta'sirida vujudga keladigan shoshilinch holatlar: sababi, klinik belgilari, shoshilinch yordam, asoratlari, hamshiralik parvarishi.

### ***Kuyishlar***

*Sababi* – issiq, kimyoviy vositalar, elektr toki, radiatsion ta'sirlarning to'qimani shikastlashi. Bu teri va boshqa to'qimalarga olov, qizdirilgan metal, gazlar, issiqlik nurining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri natijasida kelib chiqadi. Kuyish bilan shikastlanganlarning eng katta guruhini 6 yoshgacha bolalar tashkil qiladi, undan so'ng 2 yoshdan kichik bolalar. 6 yoshgacha bolalarning 80% dan ko'pini qaynoq suvdan kuyganlar tashkil qiladi. Kuyishlar odatda ota-ona qarovsiz qoldirganda ro'y beradi.

Bolalarda har qanday kuyishning tana yuzasining 5% ini egallashi og'ir holatlar rivojlanishi va shokka olib kelishi mumkin. Kuygan joylarda to'qima parchalanishining natijasida moddalar hosil bo'ladi va organizmga so'rilib butun organizmga tarqaladi. Kuygan sohalarga bakteriyalar tushadi, yaralar yiringlay boshlaydi. Qon plazmani yo'qotadi, quyuvlashadi o'zining asosiy funksiyasi-organizmni kislorod bilan ta'min-lashini bajara olmaydi. II darajali kuyishda tana yuzasining yarmidan ko'p joyni egallashi bemor hayoti uchun katta xavf tug'diradi.

### ***Klinik belgilari:***

Kuyishning 4 darajasi farq qilinadi:

I daraja – terining turg'un qizarishi, sezilarli shish va og'riq, epidermisning faqat yuzaki qavatlari kuyishi.

II daraja – epidermis ko'chishi bilan terining qizarishi va shishishi va kuchli og'riq bilan kuzatiladigan ichida sarg'ish tiniq suyuqlik tutgan pufaklar hosil bo'lishi.

III daraja – teri nekrozi hosil bo‘lishi.

III A – epidermis nekrozi va chin terining to‘liq bo‘lmagan nekrozi.

III B – teri hamma qavatlarining ba’zan teri osti yog‘ qavatining nekrozi.

IV daraja – to‘qimalarning ko‘mirga aylanishi (chuqur joylashgan to‘qimalar nekrozi).

Agar bolalarda kuyishlar yuzda yoki qo‘l yoki oyoq mayda bo‘g‘imlari sohasida bo‘lsa kuyish yuzasining o‘lchamidan qat’i nazar kasalxonaga yotqiziladi. Kuyish yuzasini aniqlash uchun esda tutish kerakki, bemor qo‘lining kaft yuzasi uning butun tana yuzasining 1% ini tashkil qiladi. Kasalxonaga yotqizish shart, bolalarda II-IV darajali kuyishlarda kichik yoshdagi, II-III darajali kuygan hamma bolalar.

<b><i>Kuyish maydoni (% larda) va chuqurligini aniqlash</i></b> Kuyish sohasi	Cha-qa-loqlar	0-1 yosh	1-5 yosh	3 yosh	5-14 yosh	12 yosh	Kattalar
Bosh	18	21	19	15	15	6	9
Tana	40	32	32	40	32	38	36
Qo‘llar	16	9, 5	9, 65	16	9, 5	18	9
Oyoqlar	26	14	15	29	17	38	18

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLARI**

1. O‘tkir nafas-yurak qon tomir yetishmovchiligi deganda nimani tushunasiz?
2. Bronxial astma xurujida shoshilinch yordam.
3. Nafas yo‘llarida yod moddalar bo‘lganda yordam berish usullari.
4. Obmork nima, keltirib chiqaruvchi sabablarini ayting?
5. Eshak yemda shoshilinch yordam ko‘rsatishni aytib bering.
6. Anafilaktik shokda shoshilinch yordamni bilasizmi?
7. Gipoglikemik va giperglikemik komalarda shoshilinch yordam ko‘rsatishni ayting.
8. Shok nima, uning qanday turlarini bilasiz?
9. Kuyishda terining o‘zgarishi necha darajaga bo‘linadi?
10. Sovuq urganda qanday yordam ko‘rsatasiz?

### **TEST SAVOLLARI**

**1. O‘tkir nafas yetishmovchiligida asosiy klinik belgi qaysi?**

- A) Ekspirator hansirash
- B) Inspirator stridor
- C) Bradipnoe
- D) Gipotenziya

**2. O'tkir stenozning II darajasida kuzatiladi:**

- A) Nafas ravon, teri rangi normal
- B) Stridor faqat bezovtalikda
- C) Perioral sianoz, ko'krak qafasi tortilishi
- D) Bradikardiya

**3. Nafas yo'llarida yot modda tushganda birinchi yordam:**

- A) Bolani suv ichirish
- B) Bolani orqasiga yotqizish
- C) Nafas yo'lini ochish va yot moddani chiqarishga urinish
- D) Antibiotik berish

**4. Anafilaktik shokda birinchi navbatda bajariladi:**

- A) Antibiotik yuborish
- B) Allergen kirishini to'xtatish
- C) Issiq kompress qo'yish
- D) Ovqat berish

**5. Gipoglikemik komaning asosiy belgisi:**

- A) Aseton hidi
- B) Gipertermiya
- C) Talvasa va hushdan ketish
- D) Quruq teri

**6. Giperglikemik komada qonda glyukoza miqdori:**

- A) 3 mmol/l
- B) 5 mmol/l
- C) 15 mmol/l va yuqori
- D) 2 mmol/l

**7. Kollapsda kuzatiladi:**

- A) AB oshishi
- B) Ipsimon puls, arterial bosim tushishi
- C) Bradikardiya
- D) Qizarish

**8. Kuyishning II darajasida:**

- A) Faqat qizarish
- B) Nekroz

- C) Ichida tiniq suyuqlik bo‘lgan pufaklar
- D) Ko‘mirlanish

**9. Gipovolemik shokda asosiy patogenez:**

- A) Bronxospazm
- B) Yurak mushagi nekrozi
- C) Aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi
- D) Gipertermiya

**10. Gipertermik sindromda tana harorati:**

- A) 36°C
- B) 37°C
- C) 38°C
- D) 39°C va undan yuqori

## **TIBBIY ATAMALAR**

1. **Stridor** – hiqildoq torayishida eshitiladigan hushtaksimon nafas tovushi.
2. **Asfiksiya** – kislorod yetishmovchiligi natijasida nafas va qon aylanish buzilishi.
3. **Gipoksiya** – to‘qimalarning kislorod bilan yetarli ta‘minlanmasligi.
4. **Kollaps** – o‘tkir tomir yetishmovchiligi natijasida AB keskin pasayishi.
5. **Anafilaktik shok** – allergen ta‘sirida rivojlanuvchi og‘ir allergik reaksiya.
6. **Giperglikemiya** – qonda glyukoza miqdorining oshishi.
7. **Gipoglikemiya** – qonda glyukoza miqdorining kamayishi.
8. **Koma** – hushning chuqur buzilishi.
9. **Gipovolemiya** – aylanib yuruvchi qon hajmining kamayishi.
10. **Nekroz** – to‘qimalarning o‘limi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.S.S. Qodirov. **Pediatrica**. – Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.
- 2.R.A. Axmedov. **Bolalar kasalliklari propedevtikasi**. – Toshkent, 2020.
- 3.Sh.I. Karimov tahriri ostida. **Shoshilinch tibbiy yordam asoslari**. – Toshkent, 2018.
- 4.M.A. Xudoyqulov. **Reanimatsiya va intensiv terapiya asoslari**. – Toshkent, 2021.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi SSV. **Klinik protokollar to‘plami (pediatrica)**. – Toshkent, 2022.
- 6.D.X. Yuldashev. **Hamshiralik ishi asoslari**. – Toshkent, 2019.
- 7.N.A. Usmonov. **Bolalarda shoshilinch holatlar**. – Toshkent, 2021.
- 8.B.T. Rasulov. **Bolalar reanimatsiyasi**. – Toshkent, 2020.
- 9.**Salomatlik -3 loyixasi** “Bemor bololarni parvarish qilish asoslari” 2014 y
- 10.V.N.Turakulov X.X.Egamov “Pediatricada xamshiralik parvarishi” 2019

## **Rol o‘ynash (Role play) interfaol o‘yini ketma-ketligi**

Rol o‘ynash — real hayotdagi (masalan, klinik) vaziyatni sahnalashtirish orqali bilim, muloqot va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi metod.

### **Maqsadni aniqlash**

- Qaysi ko‘nikma shakllantiriladi? (diagnostika, muloqot, maslahat berish va h.k.)
- Nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash maqsadi belgilanadi.

### **Vaziyat (ssenariy) tayyorlash**

- Real yoki shartli klinik holat tuziladi.
- Masalan: “Shifokorga ko‘krak og‘rig‘i bilan bemor murojaat qildi.”
- Kerakli ma‘lumotlar (anamnez, simptomlar) oldindan tayyorlanadi.

### **Rollarni taqsimlash**

Ishtirokchilar quyidagi rollarga bo‘linadi:

- Shifokor
- Bemor
- Hamshira (ixtiyoriy)
- Kuzatuvchi/ekspert

### **Qoidalarni tushuntirish**

- Vaqt chegarasi belgilanadi (5–10 daqiqa).
- Muloqot madaniyatiga rioya qilish.
- Kuzatuvchilar baholash mezonlari asosida kuzatadi.

### **Sahnalashtirish jarayoni**

- Vaziyat jonli tarzda ijro etiladi.
- Shifokor bemorni so‘roq qiladi, tekshiradi, taxminiy tashxis qo‘yadi.
- Zarur tavsiya yoki davolash rejasini aytadi.

### **Muhokama (Debrifing)**

- Kuzatuvchilar fikr bildiradi.
- Kuchli va zaif tomonlar tahlil qilinadi.
- Xatolar ustida ishlanadi.

### **Baholash**

Mezonlar:

- Muloqot madaniyati
- To'g'ri savol berish
- Klinik fikrlash
- Qaror qabul qilish
- Jamoaviy hamkorlik

### **Afzalliklari**

- Amaliy ko'nikma hosil qiladi
- Muloqot madaniyatini rivojlantiradi
- Klinik fikrlashni shakllantiradi
- Talabalarni faol ishtirokga undaydi

<b>17-mavzu</b> <b>O'quv moduliga</b> <b>ajratilgan</b> <b>kredit jami 4 .</b>	<b>Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish</b>
---	--

### **Amaliy mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli.**

<b>Vaqt: 160 daqiqa</b>	<b>Tinglovchilar soni:15-20 ta</b>
<b>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</b>	Amaliy mashgulot
<b>Amaliy mashg'ulotning rejasi.</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari</li><li>2. Terminal holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.</li><li>3. Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi.</li></ol>

## Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi tez tibbiy yordam va evakuatsiya

### Ma'lumot

Ommaviy talofat o'chog'i – bu tabiiy yoki texnogen ofat (yong'in, zilzil, portlash, transport hodisasi va boshqalar) natijasida ko'p insonlar jarohatlangan, xavf ostida qolgan hudud. Shunday joylarda tez va to'g'ri harakat qilish jabrlanuvchilar hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

### Mashg'ulot maqsadi

1. Jabrlanuvchilarni xavfsiz tarzda aniqlash va saralash (triage).
2. Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish.
3. Jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish.
4. Favqulodda vaziyatlarda jamoaviy ish va kommunikatsiyani mustahkamlash.

### Amaliy algoritim (bosqichma-bosqich)

#### *1. Holatni baholash va xavfsizlikni ta'minlash*

- Hududga kirishdan oldin shaxsiy xavfsizlikni tekshirish (shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, niqob, ko'zoynak, kaska).
- Xavf manbaini aniqlash: olov, portlovchi moddalar, elektr tarmog'i, suv bosqini va boshqalar.
- Hududni xavfsizlashtirish va boshqa jabrlanuvchilarni ogohlantirish.

#### *2. Jabrlanuvchilarni tezkor saralash (Triage)*

- **Qizil kategoriya (tezkor yordam kerak)** – hayot uchun xavfli jarohatlar: kuchli qon ketish, nafas olish to'xtashi, yurak faoliyati buzilishi.
- **Sariq kategoriya (tez yordam kerak, lekin barqaror)** – o'rta og'ir jarohatlar: sinishlar, yengil qon ketish, charchoq.
- **Yashil kategoriya (o'z-o'ziga yordam mumkin)** – engil jarohatlar: tiralish, engil kuyish.
- **Qora kategoriya (hayot belgilari yo'q)** – o'lim xavfi yuqori, imkoniyatlar cheklangan holatlar.

#### *3. Birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish*

- Nafas olish va yurak faoliyatini tekshirish.
  - Nafas olish yo'llarini ochish.
  - Sun'iy nafas va yurak massaji kerak bo'lsa bajarish.
- Kuchli qon ketishni to'xtatish: bosim bandaj, turniket qo'llash.
- Shok holatini aniqlash va og'irlikni kamaytirish: bemorni yotqizish, oyoqlarni ko'tarish.

- Kuyish, singan suyak, tiralish va boshqa jarohatlar uchun zarur birinchi yordam.

#### **4. Evakuatsiya qilish**

- Jabrlanuvchilarni xavfsiz zonaga ko‘chirish.
- Evakuatsiya yo‘llari va transport vositalarini belgilash.
- Eng og‘ir holatdagilar birinchi evakuatsiya qilinadi.
- Bemorlarni toifalash va markaziy tibbiy punktga yetkazish.

#### **5. Jamoaviy ish va kommunikatsiya**

- Har bir xodimga vazifa taqsimoti.
- Aloqa vositalaridan foydalanish (radio, mobil).
- Favqulodda vaziyatni rahbarga xabar qilish va qo‘shimcha yordam chaqirish.

#### **6. Mashg‘ulotni yakunlash**

- Mashg‘ulot natijalarini muhokama qilish.
- Nimalar muvaffaqiyatli bajarildi, nimalar yaxshilanishi kerakligini aniqlash.
- Birinchi yordam vositalarini va jihozlarni qayta tekshirish.

#### **Amaliy mashg‘ulot tartibi**

1. Nazariy qismini tushuntirish (10 daqiqa).
2. Tashqi xavfsizlikni baholash mashqlari (10 daqiqa).
3. Jabrlanuvchilarni triage qilish mashqlari (15 daqiqa).
4. Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish mashqlari (20 daqiqa).
5. Evakuatsiya va transport mashqlari (20 daqiqa).
6. Mashg‘ulotni muhokama qilish va xulosa (15 daqiqa).

## **TERMINAL HOLATLARDA BIRINCHI YORDAM KO‘RSATISH**

### **Terminal holat tushunchasi**

Terminal holat — bu hayot uchun muhim funksiyalarning (nafas, qon aylanish, markaziy nerv tizimi) keskin buzilishi bilan kechuvchi og‘ir klinik holat bo‘lib, preagoniya, agoniya va klinik o‘lim bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

### **Holatni tezkor baholash algoritmi**

1. Voqea joyi xavfsizligini ta‘minlash.

2. Bemorni chaqirib ko‘rish (ovoz berish, yelkasidan engil silkitish).
3. Ong holatini baholash.
4. Nafasni tekshirish (10 soniya davomida ko‘rish–eshitish–his qilish usuli).
5. Pulsni aniqlash (karotid arteriyada 10 soniya).

Agar nafas va puls aniqlanmasa → klinik o‘lim deb baholanadi va reanimatsiya boshlanadi.

### **Shoshilinch choralar algoritmi**

1. Zudlik bilan tez yordam chaqirish.
2. Bemorni qattiq va tekis joyga yotqizish.
3. Nafas yo‘llarini ochish (boshni orqaga egish va iyagini ko‘tarish).
4. Og‘iz bo‘shlig‘ini tekshirish (yot jismlar bo‘lsa olib tashlash).
5. Yurak-o‘pka reanimatsiyasini boshlash.

## **TERMINAL HOLATDA BIRINCHI YORDAM (CAB ALGORITMI ASOSIDA)**

### **Holatni baholash**

1. Voqea joyining xavfsizligini ta’minlash.
2. Bemorni chaqirib ko‘rish (ovoz berish, yelkasidan silkitish).
3. Ong yo‘qligini aniqlash.
4. Nafasni 10 soniyadan ko‘p bo‘lmagan vaqt ichida baholash (nafas yo‘q yoki agonal nafas).
5. Pulsni (karotid arteriya) 10 soniya ichida tekshirish.

Agar nafas va puls aniqlanmasa → **darhol ko‘krak qafasini bosishni boshlash (C).**

## **YURAK-O‘PKA REANIMATSIYASI**

### **CAB ALGORITMI (KATTALARDA)**

#### **C – CIRCULATION (QON AYLANISHINI TIKLASH)**

1. Bemorni qattiq va tekis yuzaga yotqizish.
2. Kaftning pastki qismini ko‘krak suyagining o‘rtasiga qo‘yish.
3. Ikkinchi qo‘lni ustiga qo‘yib barmoqlarni birlashtirish.
4. Qo‘llarni tirsakdan bukmasdan vertikal bosish.
5. Bosish chuqurligi: **5–6 sm.**

6. Tezligi: **100–120 marta/minut**.
7. 30 marta bosish bajariladi.

⚠️ □ Bosishlar orasida ko‘krak to‘liq tiklanishiga imkon berish kerak.

### **A – AIRWAY (NAFAS YO‘LINI OCHISH)**

8. 30 bosishdan so‘ng boshni orqaga egish – iyagini ko‘tarish usuli bilan nafas yo‘lini ochish.
9. Og‘iz bo‘shlig‘ini tekshirish (yot jismlar bo‘lsa olib tashlash).

### **B – BREATHING (SUN’IY NAFAS)**

10. Burunni qisish.
- 11.1 soniya davomida og‘iz orqali havo puflash.
12. Ko‘krak ko‘tarilishini kuzatish.
- 13.2 marta sun’iy nafas berish.

### **NISBAT:**

**30 bosish : 2 nafas**

### **REANIMATSIYANI DAVOM ETTIRISH**

1. 5 sikl (taxminan 2 daqiqa) davom ettirish.
2. Pulsni qayta tekshirish.
3. Tez yordam kelguncha yoki hayotiy belgilar tiklanguncha davom ettirish.

### **AVTOMATIK TASHQI DEFIBRILLYATOR (AED) BO‘LSA**

1. Qurilmani yoqish.
2. Elektrodlarni ko‘rsatmaga muvofiq joylashtirish.
3. Tahlil vaqtida bemorga tegmaslik.
4. Zarba tavsiya qilinsa – zarba berish.
5. Darhol ko‘krak bosishni davom ettirish.

### **BOLALARDA CAB ALGORITMI**

- Puls 10 soniya ichida baholanadi.
- Bosish chuqurligi: ko‘krak qafasining 1/3 qismi.
- Kichik bolalarda bir qo‘l bilan.
- Chaqaloqlarda 2 barmoq bilan.
- Nisbat:
  - 1 yordamchi: 30:2
  - 2 yordamchi: 15:2

## **REANIMATSIYADAN KEYINGI BOSQICH**

1. Nafas va puls tiklansa – yonbosh (tiklanish) holatiga o‘tkazish.
2. Kislorod berish.
3. Hayotiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish.
4. Hujjatlashtirish.







